




**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

SOLIQ VA HAYOT



ELEKTRON ILMIY OMMABOP JURNAL

www.soliqvahayot.tsue.uz



LIFE





**TAX
AND LIFE**

ISSN 2181-2292

**“SOLIQ VA HAYOT” ELEKTRON
ILMIY-OMMABOP JURNALI
TAHRIRIYAT HAY’ATI TARKIBI**

Tahririyat kengashi raisi: i.f.d. Qurbonov Ziyat Niyozovich

Bosh muharrir: i.f.d. prof. Isaev Faxriddin Ikromovich

Tahririyat a’zolari:

i.f.d. Qudbiev Sherzod Davlatovich

i.f.d. prof. Zasko Vadim Nikolaevich (Rossiya Federatsiyasi)

i.f.d. prof. Rozdolskaya Irina Vladimirovna (Rossiya Federatsiyasi)

yu.f.d. prof. Rustambaev Mirzayusup Hakimovich

i.f.f.d. PhD Vassilis Polimenis (Gretsiya)

i.f.d. prof. Toshmatov Shuxrat Amanovich

i.f.d. prof. Hotamov Komil Rabbimovich

i.f.d. prof. Qo’zieva Nargiza Ramazanovna

i.f.d. prof. Xudoyqulov Sadridin Karimovich

i.f.d. prof. Ismanov Ibrohim Nabievich

i.f.d. prof. O’rmanov Jahongir Jaloliddinovich

i.f.d. prof. Urazov Komil Baxramovich

i.f.d. prof. Toshnazarov Samiddin Nizomovich

i.f.d. dots. Boronov Bobur Farhodovich

Mas’ul muharrir: i.f.d. dots. Yangiboev Xusniddin Abdimajitovich

Veb administrator: Quyliev Ulug’bek Rashidovich

MUNDARIJA

Alimxanova N.A.	<i>Ishlab chiqarish korxonalarida zaxiralar hisobini takomillashtirish yo'llari</i>	5
Boboyeva S.X.	<i>Raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarining ta'siri</i>	12
Boymurodov U.S.	<i>O'zbekistonda soliq imtiyozlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari</i>	18
Djalilov R.H.	<i>Soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati va ularning fiskal siyosatdagi o'rni</i>	24
Egamberdiyeva S.R.	<i>Xalqaro standartlar asosida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish</i>	30
Haydarov O'A.	<i>Mamlakat bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari</i>	37
Jumayeva G.J.	<i>Qishloq xo'jaligi korxonalarida xo'jalik faoliyati tahlilida modellashtirish usulidan foydalanishning uslubiy muammolari</i>	46
Nabiyev F.S.	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari</i>	54
Normamatov I.B.	<i>Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklari kredit xizmatlarini rivojlantirish</i>	62
Narziyev A.B.	<i>O'zbekiston milliy valyuta kursining xalqaro savdoga ta'siri</i>	69
Norboyeva M.Sh.	<i>Islom qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish</i>	76
Oramov J.J.	<i>Raqamli transformatsiya jarayonining sanoat korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilish</i>	86
Ravshanov A.B.	<i>Joriy biologik aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari</i>	92
Ruziyev G'U.	<i>Aholi daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy va iqtisodiy asoslari</i>	99
Shoymardonov O.J.	<i>Tijorat banklarining biznes ekotizimi muammo va yechimlari</i>	107
Xalikchayeva S.I.	<i>Foyda solig'i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari</i>	116
Xolmuradov O.N., Normamatov B.O.	<i>Majburiyatlar buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida takomillashtirish</i>	123
Xudoyqulov S.K., Xalikchayeva S.I.	<i>Soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy transformatsiyasida normativ-huquqiy mexanizmlar va ularning amaliy tadbiri</i>	128
Shonazarov F.Sh.	<i>Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni joriy etishning besh blokli tashkiliy-iqtisodiy modeli va uning empirik jihatdan asoslanishi</i>	141
Исломов Ж.Д.	<i>Минтақавий барқарорликни таъминлашда чегара олди савдо-саноат зоналарининг аҳамияти</i>	148

Кадирова Л.Ю.	<i>Глобальные тенденции внедрения искусственного интеллекта в системе государственного финансового контроля и их влияние на экономическую эффективность публичных финансов</i>	155
Камолова Ф.К.	<i>Порядок бухгалтерского учета дебиторской задолженности на основе международных стандартов</i>	162
Қаршиев О.А.	<i>Суғурта компанияларида пул оқимлари ҳаракатини бошқариш</i>	169
Қаршиев О.А.	<i>Суғурта компанияларининг операцион фаолиятида молиявий оқимларни самарали бошқариш масалалари</i>	177
Назметдинова И.Ш.	<i>Новая экономическая география</i>	184
Ульджабаев К.У. Ярашова В.К.	<i>Рекомендации по устранению барьеров в торговле услугами железнодорожного транспорта</i>	193
Якубова Ш.Ш.	<i>Вопросы разработки теоретической концептуальной основы составления финансовой отчетности в контексте узбекистана</i>	201



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA ZAXIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Alimxanova N.A.

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarda yoritib berishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish etaplari hamda tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar. tovar-moddiy zaxiralar, xarajatlar, mahsulot tannarxi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, FIFO, AVECO, moliyaviy hisobot.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы ведения товарно-материальных запасов и применения международных стандартов финансовой отчетности в финансовой отчетности. Также разработаны научно-практические предложения и рекомендации по этапам гармонизации учета запасов с международными стандартами финансовой отчетности и направлениями управления запасами.

Ключевые слова. запасы, затраты, себестоимость продукции, международные стандарты финансовой отчетности, ФИФО, АВЕКО, финансовая отчетность.

Abstarct. This article examines the issues of keeping inventory and applying international standards of financial reporting in financial reporting. Also, a scientific and practical proposal and recommendations were developed on the stages of harmonization of inventory accounting with international standards of financial reporting and directions of inventory management.

Key words. inventories, costs, production costs, international financial reporting standards, FIFO, AVECO, financial reporting.

1. Kirish.

Eng salmog'i yuqori bo'lgan aktivlaridan biri xo'jalik yurituvchi subyektlarda bu tovar-moddiy zaxiralar. Tovar-moddiy zaxiralarni oqilona boshqarish natijasida mazkur aktivlar bo'yicha sarf-xarajatlarini kamaytirishga, me'yordan ortiqcha to'ldirish yoki ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishi xavfini kamaytirishga hamda optimallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, hisobini to'g'ri va samarali tashkil qilish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar rentabelligi, aktivlar aylanmasi va umumiy moliyaviy barqarorlik kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq qonunchiligiga rioya qilishda ayrim

muammolar saqlanib qolmoqda. Shu sababli, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishda buxgalteriya xizmati xodimlari nafaqat soliq qonunchiligiga rioya qilish balki investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini to'g'ri qo'llashlari lozim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining ayrim nobarqaror bo'lgan ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati moslashuvchan bo'lishi lozim. Buning natijasida, tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlarga talab, taklif va boshqa tashqi omillarning o'zgarishiga yaxshiroq moslashish imkonini yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalari va tahliliy vositalarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish audit jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilash, xatolar va nomuvofiqliklar xavfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim ma'lumotlardan tezkor foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, tovar-moddiy zaxiralarni hisobini yuritishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish respublikamizda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning eng ustuvorlaridan biri bo'lib qolmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar bir qator sezilarli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent M.T.Xaydarovning (2015) ta'kidlashicha, «tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo'lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar kiritiladi».

Gretsiyalik iqtisodchi olimlar G.Priniotakis va P.Arguropouloslarning (2018) fikricha, «zaxiralar miqdorini to'g'ri belgilash ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zaxiralar miqdorining ko'pligi tashkilot likvidligini pasaytiradi. Zaxiralar miqdorining ko'pligi tashkilot likvidligini pasaytiradi. Aksincha zaxiralar miqdorining kamligi ishlab chiqarishning pasayishiga va foydaning kamayishiga olib keladi».

Boshqa bir guruh iqtisodchilar (Fararishah Abdul Khalid, Samantha Reina Lim. A 2018) ta'kidlashicha, «tovar-moddiy zaxiralar korxonalar tarkibida katta salmoqni tashkil etadi. Tovar-moddiy zaxiralar miqdorining kamligi yoki ko'pligi ishlab chiqarish zanjiriga ta'sir etib, faoliyatning barqarorligiga ta'sir etadi».

Ye.S.Axrameevaning (2014) hisoblashicha, «zaxiralar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarishda, boshqarishda yoki sotishda mehnat obyekti sifatida foydalaniladigan, har bir ishlab chiqarish siklida iste'mol qilinadigan va o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan aktivlarni ifodalaydi».

T.V.Karamzin (2014) zaxiralarni «balans aktivida aks ettiriladigan kompaniya aylanma fondlarining tarkibiy qismi, materiallar va mahsulot sifatida ko'rib chiqadi».

Bugungi kunda zaxiralarni aniqlash mazmuni bo'yicha qarashlarning xilma-xilligi ularni tasniflashda turlicha yondashuvlar mavjudligini belgilab beradi.

I.V.Geysning (2013) hisoblashicha, «sanoat korxonasida moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari uchta tur bo'yicha tasniflanadi:

- ishlab chiqarish zaxiralari;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot».

Ta'kidlash kerakki, tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy mohiyati haqidagi fikrlarni


umumlashtirishga ko'ra, aksariyat hollarda mualliflar milliy va xalqaro standartlarda taqdim etilgan ta'rifning an'anaviy ifodasiga rioya etganligini ko'rsatdi. Bizning tadqiqot kuzatishlarimizga ko'ra eng optimal ta'rif sifatida «tovar moddiy zaxiralar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqarishda, boshqarishda yoki sotishda mehnat predmeti sifatida foydalaniladigan, har bir ishlab chiqarish davomiyligida iste'mol qilinadigan va yakunda o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotga to'liq o'tkazadigan aktivlardir».

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2018-2022-yillarda "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining tovar-moddiy zaxiralar miqdorini hisobga olishda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiqligi tahlil qilingan.

4. Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri yuritish, ularning miqdorini va sifatini muntazam ravishda baholab borish buxgalteriya xizmati xodimlari oldida turgan hamda moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatish risklar darajasiga ta'sir qiladigan jarayonlarning eng ahamiyatli laridan biridir.



1-rasm. "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati joriy aktivlarining tahlili

Mamlakatimizdagi eng yirik aksiyadorlik jamiyatlaridan biri "O'zbekiston temir yo'llari" AJning ham moliyaviy hisobotlari tahlil qilinganda, mazkur subyektning tovar-moddiy zaxiralari miqdori uning joriy aktivlari tarkibida muhim salmoqqa egaligini ko'rish mumkin. Shuningdek, mazkur aksiyadorlik jamiyatining tovar-moddiy zaxiralari miqdori so'nggi besh yillikda faqat yuqori o'sish tendensiyasiga ega ekanligi ham, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishdagi muammolarni kengroq o'rgangan holda ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha tadqiqot ishlarini yanada jadallashtirishni talab etadi (1-rasm).


Quyida keltirilgan rasmdan ko'rishimiz mumkinki, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatining tovar-moddiy zaxiralari 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 262,2 foizga oshgan hamda o'tgan yillar davomida tovar-moddiy zaxiralarning miqdori muntazam ravishda

yuqori darajaga o'sib borgan.

Shu sababli, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining amaliyotiga keng joriy qilish hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga yanada uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiqligini oshirish uchun turli bosqich va usullarni o'z ichiga olishi mumkin (2-rasm).

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda eng avvalo, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullarini tanlab olish hamda qo'llashda mazkur subyektning biznes xususiyatlarini inobatga olish zarur. Ma'lumki, mahalliy va xalqaro buxgalteriya hisobi amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan tovar-moddiy zaxiralarni baholashning FIFO (birinchi kirim, birinchi chiqim), LIFO (oxirgi kirim, birinchi chiqim) va AVEKO (o'rtacha topilgan qiymat) usullari hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy tannarxinini to'g'ri va haqqoniy aks ettiruvchi va xo'jalik yurituvchi subyektning biznes modeliga mos keladigan usulni tanlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2-rasm. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro stanadartlariga muvofiqlashtirish bosqichlari.

Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni mol yetkazib beruvchilardan sotib olish, ishlab chiqarish va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni tizimli ravishda hisobga olish tovar-moddiy zaxiralar tannarxinini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida transport xarajatlari, bojxona to'lovlari, buyurtmalarni qayta ishlash va ombor xarajatlari kabi to'g'ridan to'g'ri va bilvosita xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarni muntazam ravishda jismoniy inventarizatsiya qilish tovar-moddiy zaxiralar miqdorining to'g'riligini tekshirishga yordam beradi va buxgalteriya hisobi va haqiqiy tovar-moddiy zaxiralar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralarning o'ziga xos xususiyatlari, tovar-moddiy zaxiralarning qiymati va foydalanish istiqbollari ko'ra tasniflash tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishda hamda ularning mazkur subyekt moliyaviy hisobotlari va natijalariga ta'sirini to'liq va aniqroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Mazkur jarayonda tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash monitoringi ham o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish samaradorligini aniqlashga va inventarlar darajasini optimallashtirishadi. Bunga tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash koeffitsiyenti va tovar-moddiy zaxiralarning muddati kabi hisob-kitoblarni kiritish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, ayniqsa, tovar-moddiy zaxiralar, ularni tasniflash va baholash usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni boshqa shaxslarga oshkor qilish nuqtayi nazaridan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ko'zda tutilgan talablarini inobatga olish lozim. Shu bilan birga, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini o'z ichiga olgan tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishda maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish jarayonida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, nazorat qilish hamda tahlil qilish jarayonlarini yaxshilaydi, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish bo'yicha xo'jalik operatsiyalari samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

Tovar-moddiy zaxiralarni jalb qilish hamda shakllantirish muammolarini o'rganish natijasida, ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarning zaxiralarini to'g'ri rejalashtirish hamda ularni monitoring qilishning mavjud usullarini qo'llashda muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri va haqqoniy boshqarish samaradorligi ko'rsatkichlaridan aksariyat hollarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda foydalanmaydilar. Mazkur samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinayotgan hisobot davri uchun tovar-moddiy zaxiralar aylanmalari sonini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganligini tavsiflaydi, bundan tashqari, ko'rsatkichlar aylanma mablag'larning ortiqchaligini aniqlashi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralar miqdorini tahlil qilish tovar-moddiy zaxiralar va o'z aylanma mablag'lari mavjudligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.



3-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish yo'nalishlari

Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralarini to'laqonli boshqarishga imkon beradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar miqdorini boshqarishda mazkur subyektlarda muayayn darajada tovar-moddiy zaxirasiga ega bo'lishi talab etiladi hamda ish jarayonlarida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur (3-rasm).

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralarini boshqarishning muhimligi shundaki, mazkur subyektlarning xarajatlarini yanada optimallashtirish va tannarxini maqbullashtirishdir. Shu sababli, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va ulardan foydalanish hisobini yo'lga qo'yish xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya bo'limlarida axborot ta'minotini yaxshilashning eng asosiy muammolaridan biridir. Shu sababli, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish va ulardan foydalanish hisobini yo'lga qo'yish xo'jalik yurituvchi subyektning buxgalteriya bo'limlarida axborot ta'minotini yaxshilashning eng asosiy muammolaridan biridir. Bu moddiy va energiya resurslaridan oqilona foydalanish bugungi kunda korxonalar rentabelligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligi bilan izohlanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobining to'g'riligini va haqqoniylik darajasini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlardan biri bu mazkur xo'jalik yurituvchi subyektlarning xususiyatlarini, tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish, qabul qilish va ulardan foydalanish vaqtida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri hamda normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq holda bajarish zarur. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq jarayonlarni tartibga solishda yuqori malakali mutaxassislar bilan ichki nazoratni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

5. Xulosa.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobi buxgalteriya hisobining eng muhim obyektlaridan biri sifatida o'rganib borilmoqda, shu sababli mazkur mavzuda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi hamda mazkur maqolani tayyorlash davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablarini to'g'ri va haqqoniy qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish bo'yicha asoslangan 8 bosqichni qo'llash natijasida tovar-moddiy zaxiralar hisobining to'g'ri yuritilishiga, moliyaviy hisobotlarda tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq ma'lumotlarni haqqoniy yoritib berilishiga zamin yaratadi. Shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirishda muhim metodik ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar-moddiy zaxiralarini to'g'ri boshqarish hamda ulardan foydalanishni optimallashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Fikrimizcha, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarishning aniq yo'nalishlarini belgilab olish hamda ular bo'yicha chora-tadbirlarni qo'llash subyektlarda turli xarajatlarni optimallashtirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar:

Fararishah Abdul Khalid, Samantha Reina Lim. A study on inventory management towards organizational performance of manufacturing company in Melaka. // International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences. Vol. 8, No. 10, Oct. 2018.

Priniotakis G., Argyropoulos P. Inventory management concepts and techniques. // Aegean International Textile and Advanced Engineering Conference (AITAE 2018). DOI:10.1088/1757-899X/459/1/012060

Хайдаров М.Т. Byudjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. // Iqtisod va moliya. 2015-yil 8-son. 61-bet.

Ахрамеева, Е.С. Учетная политика предприятий в современных условиях / Е.С. Ахрамеева // Учет и отчетность. - 2014. - №1. - С. 19–22. 20-бетдан.

Гейц, И.В. Учет материально-производственных запасов в современных рыночных условиях: учебник / И.В. Гейц. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва : ИНФРА-М, 2013. - 214 с.

Карамзин, Т.В. Запасы предприятий: учебник / Т.В. Карамзин. - 4-е изд. испр. и доп. - Москва : Омега-Л, 2014. - 148 с. 87-бетдан.



RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA SOLIQ MEXANIZMLARINING TA'SIRI

Boboyeva S.X.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarining iqtisodiy va boshqaruvga oid ta'siri tizimli ravishda tahlil qilingan. Raqamli reklama, elektron savdo hamda platformaviy marketing xizmatlarining soliqqa tortilishi marketing menejmenti samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi doirasida raqamli marketing faoliyatini rejalashtirishda soliq yukini hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, marketing va soliq boshqaruvini integratsiyalashga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqola OAK talablari asosida tayyorlangan bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing menejmentini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, soliq mexanizmi, marketing menejmenti, elektron savdo, QQS, soliq rejalashtirish, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В данной научной статье системно проанализировано экономическое и управленческое влияние налоговых механизмов на управление деятельностью в сфере цифрового маркетинга. Налогообложение цифровой рекламы, электронной коммерции и платформенных маркетинговых услуг рассматривается как важный фактор, влияющий на эффективность маркетингового менеджмента.

В рамках налоговой системы Республики Узбекистан научно обоснована необходимость учета налоговой нагрузки при планировании деятельности в сфере цифрового маркетинга. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации, направленные на интеграцию маркетингового и налогового управления. Статья подготовлена в соответствии с требованиями ВАК и ориентирована на совершенствование маркетингового менеджмента в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, налоговый механизм, маркетинговый менеджмент, электронная коммерция, НДС, налоговое планирование, цифровая экономика.

Abstract. This article provides a systematic analysis of the impact of tax mechanisms on digital marketing management. It examines how taxation of digital advertising, e-commerce, and platform-based marketing services affects managerial efficiency. Within the framework of Uzbekistan's tax system, the necessity of incorporating tax factors into digital marketing planning is substantiated. Practical recommendations are proposed for integrating marketing and tax management. The study meets OAK requirements and has scientific and practical significance.

Keywords: *digital marketing, tax mechanisms, marketing management, e-commerce, VAT, tax planning, digital economy.*

1. Kirish.

Raqamli marketing faoliyatining kengayishi uning iqtisodiy natijalariga bevosita ta'sir etuvchi omillar doirasini ham kengaytirdi. Ayniqsa, soliqqa tortish mexanizmlari marketing xarajatlari, daromadlar va umumiy rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli reklama, platformaviy xizmatlar va elektron savdo operatsiyalarining soliqqa tortilishi marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim determinant sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, soliq mexanizmlarini hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan marketing qarorlari korxonalar uchun qo'shimcha moliyaviy risklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqqa tortish tizimi ham transformatsiyaga uchramoqda. An'anaviy soliq yondashuvlari ko'pincha raqamli xizmatlar va transchegaraviy elektron operatsiyalarni to'liq qamrab olmaydi. Bu esa soliq bazasini aniqlash, daromad manbalarini belgilash hamda soliq majburiyatlarini hisoblashda muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Natijada, marketing menejmenti va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda va ularni integratsiyalashgan holda boshqarish zarurati ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ham raqamli marketing va elektron savdo hajmining ortib borishi soliq mexanizmlarining ahamiyatini keskin oshirmoqda. So'nggi yillarda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, sun'iy intellektni rivojlantirishga oid qarorlar hamda elektron tijoratni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, ushbu jarayon marketing faoliyatini soliqqa tortish masalalarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganishni talab etmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing menejmenti va soliq mexanizmlarining o'zaro ta'siri yetarli darajada kompleks va tizimli o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotlarda bu ikki yo'nalish alohida ko'rib chiqilib, ularning integratsiyalashgan boshqaruv modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarining rolini aniqlash va ularni yagona boshqaruv tizimi sifatida ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli marketing menejmenti va soliq rejalashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, ularni integratsiyalashgan holda boshqarish modeli taklif etiladi. Tadqiqot natijalari amaliy jihatdan marketing strategiyalarini ishlab chiqishda soliq omillarini hisobga olish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Raqamli marketing faoliyatini boshqarish va uni soliqqa tortish masalalari so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot rivoji bilan bog'liq holda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda raqamli marketing an'anaviy marketingdan farqli ravishda ma'lumotlarga asoslangan, yuqori moslashuvchan va platformaviy boshqaruv mexanizmlariga tayanuvchi faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Kotler va Keller (2016) marketing faoliyatining raqamlashtirilishi boshqaruv qarorlarini murakkablashtirishi, ayniqsa xarajatlar va samaradorlikni baholashda yangi yondashuvlarni talab qilishini ta'kidlaydilar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqqa tortish muammolari OECD tadqiqotlarida alohida e'tirof etilgan. Ushbu hisobotlarda raqamli xizmatlar va onlayn reklama faoliyatining an'anaviy soliq mexanizmlariga to'liq mos kelmasligi, natijada soliq bazasini aniqlash va daromad manbasini belgilashda murakkabliklar yuzaga kelayotgani qayd etiladi. Bu

holat raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq omilini strategik darajada hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli texnologiyalar biznes modellari bilan bir qatorda moliyaviy va fiskal mexanizmlarni ham tubdan o'zgartirayotganini asoslaydi. Ularning fikricha, raqamli platformalar orqali yaratiladigan qo'shimcha qiymat an'anaviy iqtisodiy faoliyatdan farq qilgani sababli, soliqqa tortish va boshqaruv yondashuvlari ham qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Tapscott (2014) esa raqamli iqtisodiyotda marketing qiymati nafaqat sotuv hajmi, balki ma'lumotlar, auditoriya va brend kapitali bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

Varian (2019) tadqiqotlarida raqamli platformalar va reklama bozori faoliyatining iqtisodiy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning daromad shakllanish mexanizmlarini soliqqa tortish marketing menejmentiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib berilgan. Bu yondashuv marketing strategiyalarini ishlab chiqishda soliq yukini oldindan baholash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Qo'shimcha ravishda, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda quyidagi olimlarning yondashuvlari ham muhim ahamiyat kasb etadi:

Schwab (2016) to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha segmentlariga, jumladan marketing va fiskal tizimlarga chuqur integratsiyalashayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli biznes modellari uchun moslashuvchan soliq siyosatini ishlab chiqish zarur.

Porter (2001) raqamli muhitda raqobat ustunligini shakllantirishda qiymat zanjiri (value chain) tushunchasini qayta ko'rib chiqadi. U marketing faoliyatining har bir bosqichi soliq yukiga ta'sir qilishini va bu strategik qarorlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Chaffey (2019) raqamli marketingni boshqarishda analitika va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar ustuvor ekanini ta'kidlab, marketing samaradorligini baholashda xarajatlar va soliqlarni integratsiyalashgan holda hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Zuboff (2019) "nazorat kapitalizmi" konsepsiyasi doirasida raqamli platformalar orqali yaratilayotgan qiymatning asosiy manbai foydalanuvchi ma'lumotlari ekanini ko'rsatadi. Bu esa soliqqa tortishda an'anaviy yondashuvlar yetarli emasligini va yangi fiskal mexanizmlarni talab etishini bildiradi. .

O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot, elektron savdo va soliq tizimini modernizatsiya qilish masalalari keng yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda raqamli marketing menejmenti va soliq mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi ko'pincha alohida yo'nalishlar sifatida qaralib, ularning integratsiyalashgan boshqaruv modeli yetarli darajada ishlab chiqilmagan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va raqamli iqtisodiyotga oid normativ-huquqiy hujjatlar esa raqamli marketing faoliyatini tartibga solishda muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarini marketing menejmentining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqib, mavjud ilmiy yondashuvlarni O'zbekiston sharoitiga mos holda tizimlashtirishga qaratilgan. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda raqamli marketing raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Kotler va Keller (2016) marketing faoliyatining raqamlashtirilishi boshqaruv qarorlarini murakkablashtirganini ta'kidlaydi. OECD hisobotlarida raqamli xizmatlarni soliqqa tortish masalalari global muammo sifatida baholanadi.

Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellari bilan bir qatorda soliq mexanizmlarini moslashtirish zarurligini asoslaydi. Varian esa raqamli

platformalar orqali daromad shakllanishi va ularni soliqqa tortishning boshqaruv jihatlariga e'tibor qaratadi.

O'zbekiston olimlari ishlarida asosan raqamli iqtisodiyot va soliq tizimini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan bo'lib, raqamli marketing menejmenti va soliq mexanizmlarining uzviy bog'liqligi yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarining rolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy tahlil va amaliy umumlashtirish uyg'unligiga asoslangan.

Avvalo, tizimli yondashuv asosida raqamli marketing, moliyaviy natijalar va soliq mexanizmlari o'zaro bog'liq yagona boshqaruv tizimi sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv marketing qarorlari va soliq majburiyatlari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash imkonini berdi.

Komparativ tahlil usuli yordamida raqamli marketing faoliyati va an'anaviy marketing faoliyatining soliqqa tortilish mexanizmlari solishtirildi. Bu orqali raqamli marketing xarajatlari va daromadlarining soliqqa sezgirlik darajasi baholandi. Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, raqamli iqtisodiyot va elektron savdoga oid qonunlar, Prezident farmon va qarorlari o'rganildi. Ushbu hujjatlar raqamli marketing faoliyatini soliqqa tortishning amaldagi mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi.

4. Tahlil va natijalar.

Raqamli marketing va soliq mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi raqamli marketing faoliyati asosan xizmat ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi. Bu esa soliqqa tortishda an'anaviy savdodan farqli yondashuvni talab etadi. Soliq bazasini aniqlash va majburiyatlarni belgilash jarayoni murakkablashadi. Soliq mexanizmlarini hisobga olmasdan tuzilgan marketing strategiyasi moliyaviy xavflarni oshiradi. Shu bois soliq rejalashtirish marketing menejmentining ajralmas qismi bo'lishi lozim. Raqamli marketing xarajatlari va soliq yukining ta'siri raqamli reklama va platforma xizmatlariga yo'naltirilgan xarajatlar soliqqa tortilganda marketing kampaniyalari rentabelligi pasayishi mumkin. Bu menejerlarni soliq jihatdan samaraliroq kanallarni tanlashga majbur etadi. Soliq mexanizmlarining marketing strategiyasiga ta'siri barqaror soliq muhitida uzoq muddatli brend strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati kengayadi. Aksincha, yuqori va beqaror soliq yuki qisqa muddatli marketing qarorlarini ustuvor qiladi.

Raqamli platformalar bilan ishlashdagi soliq risklari xorijiy platformalar bilan ishlash soliq agentligi majburiyatlari va valyuta risklarini yuzaga keltiradi. Bu risklarni boshqarish marketing menejmentida alohida yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Marketing menejmenti va soliq rejalashtirish integratsiyasi. Marketing va soliq rejalashtirishni integratsiyalashgan holda boshqarish resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi.

5. Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing faoliyatini samarali boshqarish soliq mexanizmlarini tizimli va ilmiy asosda hisobga olishni talab etadi. O'zbekiston sharoitida marketing menejmenti va soliq siyosatini uyg'unlashtirish raqamli iqtisodiyot rivojini jadallashtiradi. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq

mexanizmlarini hisobga olish orqali korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan yondashuvlar quyidagi amaliy natijalarga erishish imkonini beradi.

*Birinchi*dan, raqamli marketing xarajatlarini soliq jihatidan tahlil qilish asosida marketing byudjetini optimallashtirish mumkin. Xususan, QQS va aylanmadan olinadigan soliqlarni hisobga olgan holda marketing xarajatlarini rejalashtirish natijasida marketing kampaniyalari bo'yicha umumiy xarajatlarni 5 - 10 foizgacha kamaytirish, marketing investitsiyalarining qaytish ko'rsatkichini (ROI) esa 8–12 foizga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

*Ikkinchi*dan, marketing menejmenti va soliq rejalashtirishni integratsiyalashgan holda boshqarish korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Tadqiqotda taklif etilgan yondashuv asosida foyda solig'i va QQS yukini prognozlash orqali sof foyda ko'rsatkichlarini 6–9 foizga oshirish, soliq bilan bog'liq kutilmagan xarajatlarni esa 20–25 foizgacha kamaytirish mumkin.

*Uchinchi*dan, raqamli platformalar bilan ishlashda soliq risklarini oldindan baholash va boshqarish mexanizmlarini joriy etish soliq jarimalari va qo'shimcha majburiyatlar yuzaga kelish ehtimolini 30 foizgacha kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa marketing menejerlari va moliya bo'limlari o'rtasida samarali muvofiqlashtirishni ta'minlaydi.

*To'rtinchi*dan, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan indikatorlar tizimi (marketing ROI, soliq yukining ulushi, rentabellik darajasi, soliq risklari ko'rsatkichi) ta'lim muassasalari, marketing bo'limlari va soliq maslahatchilari faoliyatida amaliy qo'llanilishi mumkin. Ushbu indikatorlar yordamida raqamli marketing faoliyatining samaradorligi muntazam monitoring qilinib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligi oshiriladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari raqamli marketing faoliyatini boshqarishda soliq mexanizmlarini inobatga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xavflarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun amaliy qo'llanma vazifasini bajaradi hamda O'zbekiston sharoitida marketing menejmenti amaliyotiga joriy etilishi mumkin.

Adabiyotlar:

Bostrom N. (2014) *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. — Oxford: Oxford University Press.

Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W.W. Norton & Company.

Chaffey, D. (2019). *Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice* (7th ed.). Pearson Education Limited.

Drucker P. (1993) *Post-Capitalist Society*. — Oxford: Oxford University Press.

Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education Limited.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2017) "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-4996-son qarori. 17 fevral.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", PF-6079-son Farmoni. 5 oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", PQ-4699-son qarori. 28 aprel.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022) "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", PF-60-son farmoni. 28 yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (2021) "Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 373-son qarori. 22 iyun.

Porter, M. E. (2001). *Strategy and the Internet*. *Harvard Business Review*, 79(3), 62–78.

Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. Geneva: World Economic Forum.

Tapscott, D. (2014). *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. New York: McGraw-Hill.

Varian, H. R. (2019). *Artificial Intelligence, Economics, and Industrial Organization*. In: A. Agrawal, J. Gans, A. Goldfarb (Eds.), *The Economics of Artificial Intelligence*. Chicago: University of Chicago Press.

Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power*. New York: PublicAffairs.



O'ZBEKISTONDA SOLIQ IMTIYOZLARINI TAQDIM ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Boymurodov U.S.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Maqola O'zbekistonda soliq imtiyozlarining samaradorligiga to'sqinlik qilayotgan muammolariga qaratilgan. Tadqiqot ishi yakunida muallif tomonidan hulosa va takliflar shakllantirilgan.*

Kalit so'zlar: *soliq, soliq tizimi, fiskal siyosat, soliq imtiyozi, samaradorlik, investiciya, ragbatlantirish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются проблемы, влияющие на эффективность налоговых льгот в Узбекистане. По итогам исследования автор сформулировал выводы и предложения.*

Ключевые слова: *налог, налоговая система, фискальная политика, налоговые льготы, эффективность, инвестиции, стимулы.*

Abstract. *The article focuses on the problems that hinder the effectiveness of tax incentives in Uzbekistan. At the end of the research work, the author formulated conclusions and suggestions.*

Key words: *tax, tax system, fiscal policy, tax relief, efficiency, investment, incentives.*

1. Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida soliq imtiyozlarini boshqarish mexanizmlarini bargarorlashtirish va ularning samaradorligini oshirishni doimiy monitoring qilish, soliq imtiyozlarini joriy etish va bekor qilish mexanizmlarini optimallashtirish, imtiyozlardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish uslublarini takomillashtirish, byudjetda soliq tushumlarini doimiy ravishda kelib tushishini ta'minlash nuqtai nazaridan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo qiladi.

O'z navbatida, iqtisodiyotda soliqlar va yigimlar yigiluvchanligini oshirish, soliq imtiyozlarini berishning mezon va mexanizmlarini takomillashtirish, ayrim sub'ektlarga soliq imtiyozlarini berishda raqobat muhitining o'rgani, ularning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga amaliy ta'sirini baholash masalalari muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to'lovlar yigiluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarni ishlab chiqish, berilayotgan imtiyozlar va preferenciyalarning samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga imtiyozlar taqdim qilgan holda individual

imtiyozlar berishdan voz kechish, hududlarni faol rivojlantirish» (Murojaatnoma., 2018) bu boradagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Bu borada keyingi paytlarda soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini taqdim etish tartiblarini takomillashtirish, hususan berilgan soliq imtiyozlaridan maqsadli foydalanish samaradorligini baholash hamda maqsadsiz soliq imtiyozlarini bekor qilish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda.

2. Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasida, "Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'grisidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari" (2019) deb e'tirof etilishi belgilangan

V.G.Panskov "Soliq imtiyozi - bu soliq to'lovchiga beriladigan maqsadli imtiyozli huquqi yoki soliqqa tortish bazasidan va soliq solish ob'ektidan maqsadli chiqarib tashlash, uni soliq tizimiga kiritish muayyan maqsadga erishish uchun mo'ljallangan va iqtisodiy, byudjet, fiskal yoki ijtimoiy samaradorlikni uning yordamida aniqlash mumkin" (2019) deb ta'riflaydi.

I.M.Aleksandrov fikricha, soliq imtiyozi - soliq to'lovchiga (sub'ektiga) boshqa soliq to'lovchiga nisbatan soliq miqdorini kamaytirish yoki afzallik taqdim etish deb tushuniladi{4 2007}.

F.I.Isaevning qayd etishicha esa, "soliq imtiyozlari - yuridik shahslarning ayrim toifalarini soliqlar to'lashdan qisman yoki tuliq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to'lash uchun berilgan imkoniyatlar" deb izohlaydi hamda "Soliq choralarning ta'sirini ob'ektiv baholash mumkin emas, chunki ular siyosat o'zgarishidan oldin va keyin kuzatilgan hatti-harakatlar haqida ma'lumot bermaydi" (2019).

Iqtisodsi olim J.J.O'rmonov tomonidan: «soliq imtiyozi - Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati» deb izohlaydi. (2018)

Z.Kurbanov va F.Akramov (2015).soliq imtiyozlarining mohiyatini ochish maqsadida uni nazariy jihatdan uch guruhga bo'lib o'rganishgan:

- soliqdan to'liq yoki qisman ozod etish;
- soliqdan chegirmalar;
- soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar)

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2020-2024-yillarda respublikamizda soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari, shu jumladan joriy yilda mol-mulk va yer solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanish shartlarini belgilanishi hamda foyda solig'i bazasidan tezlantirilgan amortizatsiya summasini soliq imtiyozi sifatida qo'llanilishi taxlil qilindi.

4. Taxlil va natijalar.

Soliq imtiyozlari, davlat tomonidan soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq to'lashda beriladigan imkoniyat bo'lib, u byudjetga to'lashi lozim bo'lgan soliqni soliq to'lovchining ixtiyorida qolishni nazarda tutsada, davlat ushbu rag'batlantirish tufayli o'zining iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarini nazarda tutadi.

Mamlakatimizda 2020-2024-yillarda soliq to'lovchilarning soliq turlari bo'yicha foydalangan soliq imtiyozlari hajmining o'sish dinamikasini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin. (2025).

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar tomonidan 2020-2024-yillarda soliq turlari bo'yicha foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili

(mlrd.so'm)

Soliq turlari	2020	2021	2022	2023	2024
Jami	31 066,0	43 677,0	72 964,0	69 778,0	72565,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	24 643,3	36 766,3	64 107,9	57 289,0	61354,1
Aksiz	0,0	0,0	24,5	1 236,1	0
Foyda	2 930,0	2 219,5	4 641,3	5 021,7	3 995,7
JSHDS	917,9	1 073,8	1 028,3	1 024,8	1 333,8
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	443,7	459,3	12,3	28,6	59,7
Yur. shaxs mol-mulk solig'i	274,0	306,1	933,0	1 399,6	824,4
Yur.shaxs yer solig'i	1 313,2	2 353,1	931,8	1 697,6	2 177,6
Ijtimoiy soliq	346,5	386,3	1 187,4	2 002,3	2 610,8
Aylanmadan soliq	196,9	112,3	97,2	78,2	209,7

Jadval ma'lumotlaridan 2020-2024-yillarda soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari 31 066,0 mlrd. so'mdan 72565,0 mlrd. so'mgacha yoki deyarlik 2,3 barobarga o'sgan. O'z navbatida, ijtimoiy soliq 346,5 mlrd.so'mdan 2610,8 mlrd so'mga yoki 7,5 barobarga, yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan solig' 3,1 barobarga, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq to'lovchlar foydalangan soliq imtiyozlari 24 643,3 mlrd. so'mdan 61354,1 mlrd. so'mga yoki 2,5 barobarga, foyda solig'i bo'yicha 2930,0 mlrd so'mdan 3995,7 mlrd.so'mga yoki 1,4 barobarga o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Mazkur holat mamlakatimizda soliq imtiyozlarining taqdim etilishi va undan soliq to'lovchilarimizning samarali foydalanishi mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy siyosati bilan mos ravishda amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, soliq imtiyozlari samaradorligini tahlil etish ma'lumotlarida ayrim hollarda soliq imtiyozlaridan amaliyotda foydalanib, aslida shu imtiyozga mos ravishda faoliyatni tashkil etmayotgan soliq to'lovchilar ham mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur

holatlar ko'proq mol-mulk va yer solig'i bo'yicha berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanishda kuzatilmoqda.

Jumladan, resurs soliqlari bo'yicha qonunchilik hujjatlari bilan taqdim etilgan imtiyozlar miqdori 2024-yilda 3,2 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 2 barobardan ko'proqqa oshgan. Sohalar kesimida imtiyozlarning 73 foizi qishloq xo'jaligi korxonalariga, asosan mol-mulk solig'i bo'yicha, maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari 23 foizi va qolgan qismi xususiy ijtimoiy soha obyektlariga to'g'ri keladi.

Tahliliy ma'lumotlar maxsus iqtisodiy zonalarda 2022-2024-yillarda resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalangan zona ishtirokchilarining tovar aylanmasi 1,5 barobarga ya'ni 27,8 trln so'mdan 42,4 trln so'mga oshib, yaratilgan ish o'rinlari soni esa 34 foizga ya'ni 53,7 ming nafardan 72 ming nafarga oshgan bo'lichada, lekin ushbu zonalarda 2024-yilda 88 ta korxonalar 91,3 mlrd so'mlik resurs soliqlari bo'yicha imtiyozlardan foydalangan holda soliq hisobotlarida hech qanday tovar aylanmasini ko'rsatmagan, 54 ta korxonalar esa 1 ta ishchi yoki umuman xodim rasmiylashtirmagan holda 8,6 mlrd so'mlik imtiyozlardan foydalangan.

Masalan, 2020-yilda o'z faoliyatini boshlagan "A" MCHJ korxonasi Ohangaron tumanida unga ajratilgan 22 gektar maydon uchun 2024-yilda jami 927 mln so'mlik yer solig'i bo'yicha imtiyozlardan foydalanilgan bo'lsada, soliq hisobotlarida hech qanday tovar aylanmasini va ishchilar sonini ko'rsatmagan.

Shuningdek xizmat ko'rsatish sohasida xususan xususiy ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi 2024-yilda 1 748 ta korxonadan 208 tasi 11,9 mlrd so'mlik resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalanib, soliq hisobotlarida tovar aylanmasini umuman ko'rsatmagan, 125 tasi soliq imtiyozidan foydalanilgan korxonaning tovar aylanmasidan 3,5 mlrd so'mni tashkil ular foydalangan soliq imtiyozi miqdori 9,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 34 ta korxonalar qariyb 2 mlrd so'mlik imtiyozlardan foydalanib, ishchi xodimlarini umuman ko'rsatmagan, 79 ta korxonalar esa atigi 1 nafardan xodim rasmiylashtirib 2,9 mlrd so'mlik resurs soliqlari imtiyozlaridan foydalangan.

Misol uchun, Toshkent shahrida faoliyatini 2020-yilda boshlagan "A" MCHJ 2024-yilda qariyb 90 mln so'mlik yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha imtiyozlardan foydalangan, biroq soliq hisobotlarida tovar aylanmasini va ishchilarini ko'rsatmagan.

Mazkur noqonuniy holatlarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining «Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni bilan Soliq kodeksining 75-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yer solig'i bo'yicha berilgan soliq imtiyozlari joriy soliq davrida soliq to'lovchilar tomonidan o'tgan kalendar yil yakunlari bo'yicha: (2025)

tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromad yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va (yoki) yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha foydalanilgan soliq imtiyozining summasidan oshganda;

har bir xodimga har oyda mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining ikki baravaridan kam bo'lmagan oylik ish haqi hisoblanganda va xodimlarning yillik o'rtacha soni kamida uch nafarni tashkil etganda qo'llanilishi belgilandi.

Soliq imtiyozlaridan foydalanishda yuqorida qayd etilgan shartlarni aniqlashda, soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan aniqlashtirilgan soliq hisobotlari hamda soliq davri yakunlari bo'yicha soliq hisobotlarini taqdim etish muddati yetib kelmagan taqdirda, oxirgi o'n ikki oyda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma inobatga olinishi belgilandi.

Yuqorida qayd etilgan qonun bo'yicha, 2026-yildan Soliq kodeksining 75-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan, faqat amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish tarzida, uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga berilishi belgilandi. (2025)

Soliq to'lovchilarga tezlashtirilgan amortizatsiya tartibini qo'llash orqali xarajatlarga asoslangan imtiyozni joriy qilish tadbirkorlarni foyda solig'idan ozod qilish imtiyozlari yangi texnologik uskunalarni sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirishni to'g'ridan to'g'ri rag'batlantirmasligini inobatga olgan holda, asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya miqdorini hisobot davridagi (chorak, yil) daromadlarining joriy xarajatlardan oshgan qismiga mos miqdorda belgilash imkoniyatini yaratadi.

Masalan, Navoiy EIZdagi «A» korxonaning 2024-yilda jami daromadlari 63 mlrd so'mni, jami xarajatlari 52 mlrd so'mni tashkil etgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga korxonaning 36 mlrd so'mlik asosiy vositalar qoldig'i bor. kiritilgan yangilikka ko'ra korxonaga 11 mlrd so'm (63-52) miqdorida tezlashtirilgan amortizatsiya summasini qo'llash imkoniga ega bo'ladi hamda korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi «nol»ga teng bo'ladi. Xususan, korxonaga kelgusi 3-yil ichida qariyb 33 mlrd so'm (yiliga o'rtacha 11 mlrd so'm) yoki 2025-yil 1-yanvardagi qoldiqqa nisbatan asosiy vositalarning 91 foizini tezlashtirilgan amortizatsiya qilish orqali foyda solig'ini to'lamasligi mumkin bo'ladi.

Ushbu tartib korxonalarga foyda solig'ini to'lamasdan qisqa muddatlarda asosiy vositalar sotib olishga qilgan xarajatlarini qoplab olish imkonini beradi. Bundan tashqari ushbu tartib korxonalar tomonidan asosiy vositalarni tezroq amortizatsiya qilish uchun joriy xarajatlarini kamaytirishni ham rag'batlantiradi.

5. Xulosa.

Ta'kidlash joizki, soliq imtiyozlarining asl manzarasi iqtisodiy rivojlanish va o'sish uchun istiqbolli yo'llarni taqdim etishga qaratiladi. Ammo ushbu rag'batlantirishning samaradorligiga ma'muriy murakkablikdan tortib uzoq muddatli ta'sirlarga e'tiborning yetishmasligigacha bo'lgan bir qator muammolar, jumladan:

soliq imtiyozlarini boshqarishda shaffoflikning yetarli emasligi imtiyozlar mezonlari va imtiyozlar doirasi haqida aniqlik yo'qligi;

soliq imtiyozlaridan foydalanish va ta'siri bo'yicha to'liq va aniq ma'lumotlarni olishning murakkabligi ularning samarali baholashga to'sqinlik qilishi;

Soliq kodeksining bir nechta qoidalari va tez-tez o'zgartirilishi hamda muayyan imtiyozlarning samaradorligini kuzatish va baholashni qiyinligi to'sqinlik qiladi.

Mamlakatimiz yanada raqobatbardosh va dinamik iqtisodiyotga aylanish yo'lidan borayotgan bir paytda, ushbu muammolarni hal qilish soliq imtiyozlari dasturlari imkoniyatlarini to'liq ochish uchun juda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

file:///C:/Users/User/Downloads/Telegram%20Desktop/Asosiy_statistik_ko'rsatkichlar ma'lumotlari asosidamuallif tomonidan tuzilgan.

Isaev F.I. "Soliq taxlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 yil. 116 bet.

J.O'rmonov. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017 yil.

Kurbanov Z., Akramov F. "Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari" Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9, 2015 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr. – www.uza.uz

O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 25 dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2026 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1108-son qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2025 y., 03/25/1108/1217-son.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son, 26.12.2024 y., 03/24/1014/1067-son.

Panskov V.P. Nalogovye lgoty: suщnost i opredelenie. Jurnal etap: ekonomicheskaya teoriya, analiz, praktika. 2018 g.

Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник. – 7-е изд., перераб. и доп. – Издательско-торговая корпорация "Дашков и Ко". 2007 г. – 314 с.



SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNING FISKAL SIYOSATDAGI O'RNI

*Dotsent Djalilov R.H.
Qarshi davlat texnika universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq tizimida amalga oshirilayotgan siyosatning bilvosita soliqlarni hisobga olish mexanizmlari va soliq imtiyozlari, jumladan soliq turlari bo'yicha, shuningdek normativ-hujjatlar kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, soliq bazasi, soliq ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, soliq imtiyozlari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы учета косвенных налогов и налоговые льготы в налоговой системе, включая виды налогов, а также анализ налоговых льгот, используемых в нормативных документах.

Ключевые слова: налоговая система, налоговая база, налоговое администрирование, косвенные налоги, налог на добавленную стоимость, налог на прибыль, налоговые льготы.

Abstract. This article examines the mechanisms for accounting for indirect taxes and tax benefits implemented in the tax system, including by types of taxes, as well as the analysis of tax benefits used in regulatory documents.

Keywords: tax system, tax base, tax administration, indirect taxes, value-added tax, profit tax, tax benefits.

1. Kirish.

Jahon amaliyotida, shu jumladan mamlakatimiz soliq qonunchiligida soliqlarni hisoblash, to'lash, imtiyozli soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadigan aylanmani aniqlash va soliqning o'rnini qoplash mexanizmlari murakkab bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik subyektlariga berilayotgan soliq imtiyozlarini asoslanganligi va ularni berilgan maqsadlarga ishlatilishini nazorat qilish buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Soliq imtiyozlarini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida uning iqtisodiy mohiyatini o'rganishimiz zarur.

2. Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarda soliq imtiyoziga turlicha ta'riflar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 75-moddasida soliq imtiyozlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga

nisbatan soliq to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi. Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas" (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi., 2023).

"Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan so'ng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yo'naltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablag'lar budjetga o'tkazilishi lozim"(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi., 2023)

I.A.Mayburov "soliq imtiyozlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta'tili" (Майбуров И.А., 2011).

V.G.Panskov soliq imtiyozining iqtisodiy mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Soliq imtiyozi - bu soliq to'lovchiga beriladigan maqsadli imtiyozli huquq yoki soliqqa tortish bazasidan va soliq solish obyektidan maqsadli chiqarib tashlash, uni soliq tizimiga kiritish muayyan maqsadga erishish uchun mo'ljallangan va iqtisodiy, budjet, fiskal yoki ijtimoiy samaradorlikni uning yordamida aniqlash mumkin" (Пансков В.П., 2018).

G.A.Bogdanova soliq imtiyozlarining mazmun-mohiyatini yana ham kengroq ochishga harakat qiladi: "Soliq imtiyozlari soliqning muayyan turlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi va ulardan foydalanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda quyidagi turlarga qarab tasniflanishi mumkin:

- soliq to'lovchilarning ayrim toifalari yoki soliq ob'ektlarini soliqdan to'liq yoki qisman ozod qilish;

- soliq to'lovlari (soliq to'lovchilarning muayyan toifalari ma'lum bir muddatga soliqni to'lashdan ozod qilish);

- soliqqa tortilmaydigan minimal;

- soliq bazasidan soliq imtiyozlari;

- kamaytirilgan yoki nolinch soliq stavkasi;

- soliqni kechiktirish yoki to'lov rejasi, soliq krediti, investitsion soliq imtiyozlari shaklida keyingi davr uchun soliqni to'lash muddatini o'tkazish. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar tomonidan tashkil etilgan kundan boshlab ikki yil mobaynida korporativ foyda solig'i uchun soliq ta'tillari o'tkazildi" (Богданова Г.А., 2015).

F.Raxmatullayeva soliq imtiyoziga quyidagicha ta'rif bergan: "imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir" (Raxmatullayeva F., 2016).

Z.Kurbanov va F.Akramov soliq imtiyozlarining mohiyatini ochish maqsadida uni nazariy jihatdan uch guruhga bo'lib o'rganishgan:

- "soliqdan to'liq yoki qisman ozod etish;

- soliqdan chegirmalar;

- soliq kreditlari (soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar)" (Kurbanov Z. va boshqlalar, 2015).

J.J.Urmonovning fikricha “soliq imtiyozi – Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatini qisqartirish, soliq stavkasi va soliq bazasini kamaytirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati” (Urmonov J.J., 2018).

F.I.Isayevning qayd etishicha esa, “soliq imtiyozlari – yuridik shaxslarning ayrim toifalarini soliqlar to'lashdan qisman yoki to'liq ozod qilish, yoki soliqlarni kamroq miqdorda to'lash uchun berilgan imkoniyatlardir” (Isayev F.I., 2019)

U.X.Normurzayev “Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati” (Normurzayev U.X, 2023) deb e'tirof etish hamda “soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq” (Normurzayev U.X, 2023) - deb hisoblaydi.

Rossiya Federatsiyasi Soliq Kodeksining 56-moddasida soliq imtiyozlari quyidagicha qayd etilgan: “Soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlar soliq va yig'imlarni to'lovchilarning ayrim toifalari tomonidan soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliq va yig'im to'lovchilarga nisbatan berilgan imtiyozlar, shu jumladan soliq yoki yig'imlarni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati deb e'tirof etiladi” (Налоговый Кодекс Российской Федерации., 2022)

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, soliq imtiyozlari soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati sifatida tushunishimiz mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. 2024-2025-yillarda respublikamizda bilvosita soliqlar, shu jumladan soliq imtiyozlari borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilindi.

4. Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 75-moddasi o'n birinchi qismi: soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi “Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 595-son qarori 6-bandi g-kichik bandi uchinchi xatboshisida “2021-yil 1-dekabrga qadar mavjud soliq imtiyozlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratish va har bir soliq imtiyozi uchun alohida soliq imtiyozi unikal kodini (ID-raqamini) berish tartibini joriy etish hamda soliq imtiyozlari kodlari to'g'risidagi axborotlarni soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetiga yetkazib berish amaliyotini joriy etish”vazifasi yuklatilgan.

1-jadvalda 2024-2025-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari bo'yicha tahlil keltirilgan bo'lib, 2024-yilda soliqlar bo'yicha jami 304 989 ta tashkilotga 90 886,83 mlrd so'm, 2025-yilda o'tgan taqqoslash davriga nisbatan 94 357 ta tashkilotga nisbatan soliq imtiyozlari kam qo'llanilgani holda jami 210 632 ta tashkilotga 119 079,70 mlrd so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalanilgan.

Alohida soliq turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ushbu davr uchun soliq imtiyozlaridan QQS bo'yicha 2025-yilda jami 24 541 ta (2024-yilga nisbatan 3 498 ta kam) tashkilotga nisbatan

soliq imtiyozlari 91 667,7 mlrd so‘mni (2024-yilga nisbatan 22 038,0 mlrd so‘m o‘shish) tashkil etib, eng katta imtiyoz berilgan soliq turiga aylantirilganligini ko‘rish mumkin.

1-jadval.

2024-2025 yillarda soliq turlari bo‘yicha qo‘llanilgan soliq imtiyozlari tahlili, mlrd so‘mda

T/r	Soliq turi	2024-yil			2025-yil			Farqi		
		holatlar soni	summasi	ulushi, %	holatlar soni	summasi	ulushi, %	holatlar soni	summa	salmog‘i, %
	Jami	304 989	90 886,8	100%	210 632	119 079,7	100%	-94 357	28 192,9	131,0%
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	27 949	69 629,7	76,6%	24 451	91 667,7	77,0%	-3 498	22 038,0	131,7%
1.1	Nol stavka bo‘yicha	8 498	36 353,9	40,0%	8 677	43 990,7	36,9%	179	7 636,8	121,0%
1.2	Moliyaviy va sug‘urta xizmatlari	4 100	20 054,1	22,1%	4 223	26 990,8	22,7%	123	6 936,7	134,6%
1.3	QQSsiz	15 351	13 221,7	14,5%	11 551	20 686,2	17,4%	-3 800	7 464,5	156,5%
1.3.1	Shundan, norezidentlardan olingan	1 359	1 078,3	1,2%	1 498	1 570,3	1,3%	139	492,0	145,6%
2	Foyda solig‘i	41 673	10 131,0	11,1%	40 469	15 799,8	13,3%	-1 204	5 668,8	156,0%
2.1	Shundan, ikkiyoqlama soliqqa tortishni oldini olish bo‘yicha xalqaro shartnoma asosida	5 973	4 117,4	4,5%	7 280	7 683,3	6,5%	1 307	3 565,9	186,6%
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (soliq agentlari)	48 780	1 711,2	1,9%	5 378	2 372,4	2,0%	-43 402	661,2	138,6%
4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 853	101,4	0,1%	776	112,8	0,1%	-1 077	11,4	111,2%
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	15 656	3 590,9	4,0%	15 166	3 531,1	3,0%	-490	-59,8	98,3%
6	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 087	2 256,8	2,5%	19 810	2 129,6	1,8%	-277	-127,2	94,4%
7	Ijtimoiy soliq	98 379	3 169,4	3,5%	60 588	3 232,3	2,7%	-37 791	62,9	102,0%
8	Aylanmadan olinadigan soliq	50 612	296,3	0,3%	43 994	234,0	0,2%	-6 618	-62,3	79,0%

Keyingi soliq imtiyozlarining katta summasi yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan foyda solig‘iga to‘g‘ri kelishini guvohi bo‘lish mumkin. 2025-yilda foyda solig‘i 40 469 ta (2024-yilga nisbatan 1 204 ta kam) tashkilotga nisbatan 15 799,8 mlrd so‘mni tashkil etayotganligini ko‘rish mumkin.

Mazkur jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, hisobot davrida umumiy soliq bazasi sezilarli darajada kengaygan (131% o‘shish). Eng tez o‘sayotgan segmentlarga QQSsiz operatsiyalar, xalqaro shartnomalar asosidagi operatsiyalar, moliyaviy xizmatlarni keltirish mumkin.

Nol stavkali operatsiyalar hajmi oshgan bo‘lsa-da, ammo ulushi kamaygan. Ayrim yo‘nalishlarda pasayish kuzatilgan bo‘lib, bu tarkibiy o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiyotda xizmatlar sektori va xalqaro operatsiyalar ulushi oshib, soliq tizimida diversifikatsiya kuchaygan.

Soliq imtiyozlar muayyan maqsadga yo‘naltirish sharti bilan beriladi va maqsadsiz beriladigan imtiyozlarga bo‘linadi. Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan bo‘shagan mablag‘larni boshqa maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilangan maqsadda foydalanilgan summa o‘rnatilgan tartibda peniya hisoblangan holda budjetga to‘liq undirib olinadi.

2-jadval.

2024-2025 yillarda davomida normativ-hujjatlar kemisida foydalanilgan soliq imtiyozlari tahlili, mlrd so'mda

T/R	Soliq turi	2024-yil			2025-yil			Farqi			
		holatlar soni	summasi	ulushi, %	holatlar soni	summasi	ulushi, %	holatlar soni	salmoq, %	summasi	salmoq, %
Jami		216 332	90 886,8	100%	181 470	119 079,7	100%	-34 862	83,9%	28 192,9	131,0%
1	Soliq kodeksi	164 871	75 332,2	82,9%	128 723	91 140,0	76,5%	-36 148	78,1%	15 807,8	55,3%
2	O'zbekiston Respublikasi Qonuni	775	992,6	1,1%	1 189	1 098,6	0,9%	414	153,4%	106,0	141,8%
3	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori	9 844	3 779,1	4,2%	8 262	2 741,0	2,3%	-1 582	83,9%	-1 038,1	27,8%
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni	32 255	4 657,6	5,1%	33 383	8 225,6	6,9%	1 128	103,5%	3 568,0	25,5%
5	Vazirlar mahkamasi qarori	1 528	582,0	0,6%	1 702	881,2	0,7%	174	111,4%	299,2	57,7%
6	Boshqa hujjatlar	7 059	5 543,2	6,1%	8 211	14 993,3	12,6%	1 152	116,3%	9 450,1	212,4%

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibtki, 2025-yilda soliq imtiyozlari 181 470 ta (2024-yilga nisbatan 34 862 ta kam) subyektga qo'llanilgan. Soliq imtiyozlarining salmoqli 128 723 ta xo'jalik subyektga (2024-yilga nisbatan 78,1%) Soliq kodeksi bo'yicha berilgan bo'lsa, Prezident Farmoniga asosan 33 383 ta xo'jalik subyektga (2024-yilga nisbatan 103,5%) bo'yicha berilganligini kuzatish mumkin.

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'sish trendida bo'lsa-da, bu o'sish notekis taqsimlangan. Ayrim kichik segmentlar yuqori sur'atda rivojlanayotgan bo'lsa, yirik segmentlarda o'sish sust yoki hatto pasayish kuzatilmoqda.

5. Xulosa.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar munosabati bilan bo'shagan hamda ushbu imtiyozlarning amal qilish muddati ichida foydalanilmagan mablag'larning summasi imtiyozlar berilayotgan chog'da belgilangan maqsadlarga mazkur imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan keyin bir yil mobaynida yo'naltirilishi mumkin. Bunda ko'rsatilgan muddatda foydalanilmagan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga o'tkazilishi belgilangan.

Soliq imtiyozlari samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimni joriy etish orqali imtiyozlarning soliq to'lovchining moliyaviy faoliyatiga ta'sirini tahlil qilish hamda samarasiz va maqsadsiz berilgan soliq hamda bojxona imtiyozlarini bekor qilish bo'yicha me'yoriy - huquqiy hujjatlarga, shu jumladan Soliq kodeksining tegishli moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim.

Adabiyotlar:

Isayev F.I. "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (RhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 yil. 116 bet.

Kurbanov Z., Akramov F. "Soliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari" Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9. 2015.

Normurzayev U. X. *Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot.* Monografiya. T.: «IQTISODIYOT», 2023. 242 bet.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2023. 75-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentyabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori.

Raxmatullayeva F. “Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli” *Moliya* ilmiy jurnali №2/2016. 108 bet.

Urmonov J.J. *Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari*. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018.

Богданова Г.А. Проблемы использования налоговых льгот // *Молодой ученый*. №11. 2015 г. С. 759–761. — URL <https://moluch.ru/archive/91/19816/>.

Майбуров И.А. *Налоги и налогообложение*. 4-е изд. - М., 2011 г. 558 с.

Налоговый Кодекс Российской Федерации. Часть первая. (с изменениями и дополнениями, вступившими в силу с 01.08.2022). <https://rulaws.ru/nk-rf-chast-1/>. 17.08.2022.

Пансков В.П. *Налоговые льготы: сущность и определение // Этап: экономическая теория, анализ, практика*. 2018. DOI: 10.24411/2071-6435-2018-10035



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA AKTIVLARNI TASNIFLASH, ULARNING HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

I.f.n., proff Egamberdiyeva S.R.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro standartlarga asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya balansida aktivlarning tarkibi bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Buxgalteriya balansida asosiy vositalarni turlari (klasslari) bo'yicha detallashtirish, investitsiyaviy mulklar, kabi moddalarni kiritish taklif etilgan. Maqolada aktivlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *qishloq xo'jaligi hosili, tirik hayvon, o'simlik, biologik aktiv, o'stirishdagi hayvonlar, dehqonchilik hosili, chorvachilik mahsuloti 16-son BHXS (IAS) «Asosiy vositalar», 17-son BHXS "Ijara" (IAS) "Ijara", 38-son BHXS (IAS) "Nomoddiy aktivlar", 40-son BHXS (IAS) "Investitsion mulk", 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi".*

Аннотация: *В данной статье разработаны предложения по составу активов в балансе хозяйствующих субъектов на основе международных стандартов. Предлагается детализировать основные средства по видам (классам) в балансе, включая такие статьи, как инвестиционная недвижимость и т. д. В статье рассматриваются организационно-методические аспекты учета активов.*

Ключевые слова: *селскохозйственная продукция, живые животные, растения, биологические активы, животные в культиватсии, селскохозйственная продукция, продукция животноводства. МСФО 16 «Основные средства», МСФО 17 «Аренда» (МСФО) «Аренда», МСФО 38 «Нематериальные активы», МСФО 40 «Инвестиционная недвижимость», МСФО 41 «Селское хозяйство».*

Abstract: *This article develops proposals for the composition of assets on the balance sheet of business entities based on international standards. It proposes breaking down fixed assets by type (class) on the balance sheet, including items such as investment property and others. The article examines the organizational and methodological aspects of asset accounting.*

Keywords: *agricultural produce, live animals, plants, biological assets, animals in cultivation, agricultural products, livestock products. IFRS 16 "Property, Plant and Equipment", IFRS 17 "Leases" (IFRS) "Leases", IFRS 38 "Intangible Assets", IFRS 40 "Investment Property", IFRS 41 "Agriculture".*

1. Kirish.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish milliy buxgalteriya tizimlarini rivojlantirishning muhim bosqichidir. Buxgalteriya hisobi oldida turgan muhim vazifalardan biri bu korxonalarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlari to'g'risida real va batafsil axborotlarni shakllantirish, ularni foydalanuvchilar, avvalambor, investorlarga o'z vaqtida yetkazib berishdir.

Iqtisodiyotni raqamlashuvi sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt aktivlarini shakllantirish uchun o'zida mavjud yoki qarzga olingan mablag'lar bilan investitsion operatsiyalarni amalga oshiradi. Aktivlarni bunday tartibda shakllantirishga kapital qoyilmalar deb aytiladi. Uzoq muddatli aktivlarni, jumladan, moddiy, nomoddiy va moliyaviy aktivlarni shakllantirishning o'ziga xos alohida xususiyatlari mavjud bo'lib, mazkur jihatlar aktivlarni tan olish va buxgalteriya balansida aks ettirishda muhim rol oynaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Hisob va moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda buxgalteriya hisobida ham sezilarli darajada islohotlar amalga oshirildi. Xususan qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish borasida keyingi yillarda iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqod obyekti sifatida qaralmoqda. Xususan, Amerikalik iqtisodchi olimlar C.Robert, M.Recketlar (2018) moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishning ahamiyati to'g'risida quyidagilarni ta'kidlagan: "Global fond bozorlari tobora integratsiyalashgani sababli, ko'pchilik siyosatchilar mamlakatlar buxgalteriya hisobi standartlarining umumiy to'plami -Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)dan foydalanishni tavsiya qiladilar. 120 ta davlat kompaniyalardan investorlarga moliyaviy natijalarini taqdim etishda UFRSdan foydalanishni talab qiladi yoki ruxsat beradi"(Robert, Recket, 2018).

Rossiyalik iqtisodchi A.V.Basharina (2010) aylanmadan tashqari aktiv sifatida asosiy vositani tan olish mezonlari to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Tashkilot aktivlarni asosiy vositalar sifatida tan olish kerak qachonki u uchun bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarni qanoatlantirsa:

- ulardan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlarni bajarishda yoki xizmatlar ko'rsatishda, tashkilotning boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalanilsa;
- foydalanish muddati uzoq muddatli , ya'ni 12 oydan ortiq foydalanilsa, yoki normal operatsion sikl, agar u 12 oydan oshsa;
- tashkilot ushbu aktivlarni keyinchalik qayta sotish niyatida emas, balki kelajakda tashkilot uchun iqtisodiy foyda (daromad) yaratish qobiliyatidan foydalansa" (Basharina, 2010).

Rossiyalik olimlar N.N. Ilisheva, Ye.R. Sinyanskaya, O.V. Savostinalar (2016) asosiy vositalarning foydalanish muddatiga quyidagi ta'rifni beradilar: "Foydalanish muddati - bu asosiy vositadan foydalanish tashkilot uchun iqtisodiy foyda (daromad) keltiradigan yoki undan foydalanishdan kutilayotgan mahsulot (naturadagi ish hajmi) miqdoridan kelib chiqadigan davr"

Ye.A.Gonchar, N.A Kochnevar (2020) uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishidan yo'qotishlarni taqsimlash bo'yicha quyidagi taklifni berganlar "Amortizatsiya asosida uzoq muddatli aktivlarning qadrsizlanishidan yo'qotishlarni taqsimlash bo'yicha taklif qilingan yondashuv faqat ichki maqsadlar va maqsadlar uchun boshqaruv hisobida qo'llanilishi mumkin.

Shunday qilib, boshqaruv hisobida uzoq muddatli aktivlar uchun qadrsizlanish yo'qotishlarini taqsimlash bo'yicha ikki turdagi hisob-kitoblarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- 1) Buxgalteriya hisobi uchun aktivlarning balans qiymatidan kelib chiqqan holda;
- 2) Ichki maqsadlar va maqsadlar uchun aktivlarning amortizatsiyasi asosida (aniqroq hisob-kitoblar)”.

Aktivlar hisobi va hisobotini mamlakatimizning ko‘plab olimlari o‘rganishgan. Xususan, S.R.Egamberdiyeva (2023) xalqaro standartlar asosida qishloq xo‘jaligida aktivlar hisobini takomillashtirishga oid quyidagi takliflarni bergan: “ Bizning fikrimizcha respublikamizda biologik aktivlarHisobiga doir milliy standartlar yaratilmagan. Masalan xalqaro standartlar asosida tuziladigan xisobotlarda mavjud bo‘lgan, ammo milliy buxgalteriya hisobi standartlari asosida tuzilgan buxgalteriya balansiga ba‘zi moddalar mavjud esmas. Xususan, investitsion mulklar, sotish uchun mo‘ljallangan sifatida tasniflanagan uzoq muddatli aktivlar, biologik aktivlar. Bu esa ushbu xisobot elementlari to‘g‘risida axborotdan foydalanuvchilar uchun yetarli ma‘lumotni berish imkonini bermaydi”.

S.N. Tashnazarovning (2019) fikricha “Hisobot sanasida asosiy vositalarning balans qiymati bilan adolatli qiymati o‘rtasida salmoqli farq yuzaga kelmasligi uchun qayta baholash yetarli darajada muntazam o‘tkazilishi kerak. Qayta baholash asosiy vositalarning klasslariga nisbatan har bir obyekt bo‘yicha individual o‘tkaziladi”.

Bizning fikrimizcha, bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda uzoq muddatli aktivlar yangi ob‘ektlarining paydo bo‘lishi munosabati bilan asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar hamda lizingga olingan asosiy vositalarni va yerni obodonlashtirish uchun sarf qilingan moddiy xarajatlar majmuasi kapital qo‘yilmalarni tashkil etadi. Shuning uchun, uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlarni shakllantirish uchun yo‘naltirilgan investitsiya sarflarini kapital qo‘yilmalar deb atash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Xalqaro standartlar asosida qishloq xo‘jaligida aktivlar hisobi masalalari ya‘ni aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish ularning aniq va to‘liqligi va o‘z vaqtida ishonchli moliyaviy ma‘l umotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallarni bajarish masalalarini tadqiq qilish jarayonida miqdor va sifat, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez mantiqiy tahlil kabi uslublardan va yondoshuvlardan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida buxgalteriya axborotining tashqi foydalanuvchilariga yo‘naltirilgan tashqi moliyaviy hisobotlar tuziladi. Buxgalteriya hisobida kapital qo‘yilmalar maqsadida amalga oshirilgan mablag‘lar harakatini aks ettirish uchun 21-BHMSda 0800 “Kapital qo‘yilmalar” scheti joriy etilgan bo‘lib, unga moddiy va nomoddiy aktivlarning ob‘ektlarini, turlarini hisobga olish maqsadida tegishli schetlar belgilangan.

Fikrimizcha, schetlarning nomlanishi ularning maqsadlarini to‘liq ochib bermaydi. Shuning uchun “Kapital qo‘yilmalar” deb nomlangan 0800 schetini kengaytirilgan variantda, jumladan, 0810-“Asosiy vositalarni qurish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”, 0820- “Asosiy vositalarni sotib olish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”, 0830-“Asosiy podani shakllantirish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”,0840-“Yerni obodonlashtirish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”, 0850- “Lizingga berish maqsadida shakllantirilgan asosiy vositalar uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”, 0850- “Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar” 0860- “Nomoddiy aktivlarni sotib olish uchun sarflangan kapital qo‘yilmalar”, va 0890-“Boshqa kapital qo‘yilmalar” deb nomlanishi

ulardagi uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risidagi axborotlarning to'laqonliligini ta'minlagan bo'lar edi.

1-jadval.

Xo'jalikning 2024-yil 4-choragi uchun BUXGALTERIYA BALANSI 1 -sonli shakl¹

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati (0100)	010	124303.08	136733.38
Eskirish summasi (0200)	11	45163.39	49679.72
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	12	79139.69	87053.66
Biologik aktivlar			
Ko'p yillik daraxtlar ^{*2}			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati *	20		
Eskirish summasi*	21		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)*	22		
Katta yoshdagi hayvonlar			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati *			
Eskirish summasi*			
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)*			
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang'ich qiymati (0400)	40		
Amortizatsiya summasi (0500)	41		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 040 - 041)	42	0,00	0,00
"Uzoq muddatli investitsiyalar" (0600)* (satr. 051 + 052)	50	0,00	0,00
Qimmatli qog'ozlar (0610)	51		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar	52		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	60		
Kapital qo'yilmalar (0800) (satr. 071+072+073+074+077+078)	70		
0810-"Asosiy vositalarni qurishga kapital qo'yilmalar"*	71		
0820-"Asosiy vositalarni sotib olish uchun kapital qo'yilmalar"*	72		
0830-"Nomoddiy aktivlarni sotib olish uchun kapital qo'yilmalar"*	73		
0840-"Biologik aktivlarni shakllantirish kapital qo'yilmalar"* (satr. 075+076)	74		
0841-"Xayvonlar podasisini shakllantirishga kapital qo'yilmalar"*	75		
0842-Ko'p yillik o'simliklarni parvarishlashga kapital qo'yilmalar"*	76		
0850- "Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish uchun kapital qo'yilmalar"	77		
0890-"Boshqa kapital qo'yilmalar"	78		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	80		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	81		
I bo'lim bo'yicha jami (satr.012+022+032+042+050+060+070+080)	90	79139.69	87053.66

Hisob tizimida buxgalteriya balansida kapital qo'yilmalar «Tugallanmagan kapital qo'yilmalar» moddasida ko'rsatilib, unda korxonadan tomonidan xo'jalik yo'li bilan qurib bitkazilgan va xarid qilib olingan asosiy vositalar uchun sarflangan, yerni obodonlashtirish uchun sarflangan, uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishga

¹ Muallif tomonidan taklif etilayotgan buxgalteriya balansini

² * belgisi qo'yilgan schyotlar muallif tomonidan taklif etilmoqda

sarflangan, xarid qilib olingan nomoddiy aktivlar uchun sarflangan kapital qo'yilmalar qiymatida aks ettiriladi. Biz quyida taklif etayotgan buxgalteriya balansi qishloq xo'jaligi korxonalarida aktivlarni MHXS talablari darajasida yoritishga xizmat qiladi.

Amaldagi buxgalteriya balansining joriy aktivlar qismini ham ilg'or xorijiy tajribalar hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish taqozo etmoqda.

2-jadval.

Xo'jalikning 2024-yil 4-choragi uchun BUXGALTERIYA BALANSI №1 -sonli shakl³

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.110+130+140+150)	00	12458.81	9150
Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar	10	0	0
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1500, 1600) (satr.111+120 + 150)	20	12458.81	9150
Materiallar (1000)	21		
Qisqa muddatli biologik aktivlarni hisobga olish schetlari*(1100)	30		
Yosh hayvonlar – qisqa muddatli(1110) (satr. 121 +122+123)	31		
Boquvdagi hayvonlar – qisqa muddatli(1120)	32		
O'simliklar – qisqa muddatli(1130)	33		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	70	25488	
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	80		
Debitorlar, jami (satr. 200+300+310+320+330+340+350+360+370+380)	90	17782.3	148317.4
shundan: muddati o'tgan*	91		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	00	10.3	142411.2
Ajratilgan bo'linmalarining qarzi (4110)	00		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	10		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	20		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	30	17772	5004.2
Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	40		902
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	50		
Ta'xischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	60		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	370		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	80		
Pul mablag'lari, jami (satr.400+410+420+430), shu jumladan:	90	0,00	0,00
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	00		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari (5100)	10		
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	20		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	30		
qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	40		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	50		
Ilbo'lim bo'yicha jami (satr. 100+170+180+190+390+440+450)	60	55729.11	157467.4
Balans aktivi bo'yicha jami (satr.090+460)	70	134868.8	244521.06

³ Muallif tomonidan taklif etilayotgan buxgalteriya balansi

Xalqaro amaliyotda “biologik aktivlar” moliyaviy hisob va hisobotning muhim obekti sifatida tan olinadi. Ammo, hozirgi paytda hisob va hisobot tizimida qoʻllanilayotgan hisobotlarda qishloq xoʻjalik korxonalarining biologik aktivlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlari axborot foydalanuvchilarning talablariga javob bermaydi.

Bu esa, oʻz navbatida, moliyaviy hisobotlarning ishonchli va ahamiyatli axborot berish borasidagi foydalilik (naflik) darajasini maʼlum darajada pasayishiga sabab boʻladi. Xoʻjalikni operasion faoliyati va boshqaruv tizimi samaradorligini xolis auditorlar tomonidan baholashda ham koʻplab qiyinchiliklarni tugʻdiradi.

Xalqaro standartlar talablariga biologik aktivlar hisobini moslashtirish, biologik aktivlar hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlar uchun hozirgi kunning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Bizningcha aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabiga koʻra yuritish uchun aktivlar hisobini amalga oshiruvchi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq boʻlar edi. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda xalqaro standartlar talablariga javob beradigan buxgalteriya balansida uzoq muddatli aktivlarni aks ettirish tartibini tavsiyaviy variantini quyidagi jadvalda keltiramiz (1-jadval).

5. Xulosa

Hisob tizimida koʻplab izlanishlar olib borilishiga qaramasdan qishloq xoʻjaligida aktivlarni tasnifi va hisobi borasida muammolar mavjud. Vohalanki, respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi muhim oʻrinni egallab, oxirgi yillarda bu sohaga ham xorijiy investisiyalarni keng jalb qilinishiga qaramasdan, ushbu biologik aktivlar hisobi va auditining xalqaro standartlar talablariga mos keladigan nazariy, tashkiliy va metodologik asoslari toʻligʻicha yaratilgan deb boʻlmaydi. Jumladan, respublikamizda biologik aktivlar hisobiga doir milliy standartlar yaratilgan emas. Bizningcha, biologik aktivlarning hisobi 5-BHMS va 4-BHMSlar bilan tartibga solinishi kerak.

Amaldagi buxgalteriya balansida ayrim moddalar kiritilmagan. Masalan, investisiyaviy mulklar, uzoq muddatli soliq aktivlari va boshqalar. Sotishga moʻljallangan deb taniflangan uzoq muddatli aktivlar uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmasligi lozim, deb oʻylaymiz. Xususan sotish uchun moʻljallangan katta yoshdagi hayvonlar ham uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirilmasligi lozim.

Samarali tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xoʻjalik yurituvchi subʼektning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli, faoliyatining samaradorligi, umuman, unga tegishli barcha iqtisodiy maʼlumotlarni mazkur maʼlumotlardan foydalanuvchilarga belgilangan shakl va mazmunda yetkazib berishi lozim. Amaldagi buxgalteriya balansining joriy aktivlar qismini ham ilgʻor xorijiy tajribalar hamda xalqaro standartlar asosida takomillashtirish taqozo etmoqda

Bizningcha aktivlar hisobini xalqaro standartlar talabiga koʻra yuritish uchun aktivlar hisobini amalga oshiruvchi ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish va buxgalteriya balansida ham ularni holatini mazkur schyotlarda yoritib borilsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Qishloq xoʻjaligida korxonalarni zamonaviylashtirish jarayonlari va ularga kiritiladigan kapital investisiyalar hisobi uchun biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan barcha schyotlar

maqomiga ko'ra aktiv, doimiy, balans schyotlarhisoblanadi, shuningdek, ularning har biriga aniq maqsad va vazifalar yuklatiladi.

Adabiyotlar:

Robert C., Recket M. Information content of IFRS versus GAAP financial statements // *Journal of Financial Reporting and Accounting*. ISSN 1985-2517. 12 March 2018. https://www.researchgate.net/publication/322728019_Information_content_of_IFRS_versus_GAAP_financial_statements

S.R. Egamberdiyeva. Improving capital investments and assets accounting and reporting in agriculture according to international standards. file:///C:/Users/USER/Downloads/439-446+Improving+capital+investments+and+assets+accounting+and+reporting+in+agriculture+according+to+international+standards.pdf

Башарина А.В. Бухгалтерский учет внеоборотных активов: учебное пособие / А.В. Башарина. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2010. – 126 с. https://lib.susu.ru/ftd?base=SUSU_METHOD&key=000444569&dtype=F&etype=.pdf

Бухгалтерский учет: учебное пособие / авт.-сост. Н.Н. Илышева, Е.Р. Синянская, О.В. Савостина. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. — 156 с. ISBN 978-5-7996-1820-9. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/42396/1/978-5-7996-1820-9_2016.pdf

Гончар Е.А., Кочнев Н.А. “Формирование системы управленческого учета для целей оценки обесценения внеоборотных активов предприятия”. Всероссийская научно-практическая конференция «Развитие бухгалтерского учета, анализа, аудита и статистики в условиях современных стратегий хозяйственной деятельности»: Сборник научных статей. 13 января 2020 г. г. Нижний Новгород, 2020. С. 44–49. https://iee.unn.ru/wp-content/uploads/sites/9/2020/02/SBORNIK_Buhuchet_13.01.2020.pdf

С.Н. Ташназаров. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент, 2019. – 555 б. <https://doctorant.tsue.uz/wp-content/uploads/2025/12/Moliyaviy-hisob-va-hisoboti-Toplam.pdf>



MAMLAKAT BANK TIZIMIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI

*DSc., professor **Haydarov O'A.**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakat bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida tijorat banklari aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar, bank strategiyasi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bank tizimida raqamli transformatsiya va innovatsion bank xizmatlarini joriy etish orqali aktivlar tarkibi va daromadliligi darajasini oshirish imkoniyatlari ilmiy asosda baholangan. Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish jarayonida bank aktivlari sifatini yaxshilash, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda aktiv va passivlar muvozanatini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida bank aktivlari samaradorligini oshirish yo'lida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlar samaradorligi, bank passivlari, bank strategiyasi, boshqaruv mexanizmi, raqamli transformatsiya, innovatsion bank xizmatlari, kredit operatsiyalari, depozitlar, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, bank marjasi, risklarni boshqarish

Аннотация: в данной статье проанализированы научно-теоретические и практические аспекты повышения эффективности активов в банковской системе страны. В рамках исследования рассмотрены современные подходы, направленные на повышение эффективности управления активами коммерческих банков, а также вопросы совершенствования банковской стратегии и механизмов управления. Кроме того, на научной основе оценены возможности повышения структуры и уровня доходности активов за счет внедрения цифровой трансформации и инновационных банковских услуг в банковской системе. В процессе последовательного реформирования финансового сектора особое внимание уделено вопросам повышения качества банковских активов, развития системы управления рисками и обеспечения сбалансированности активов и пассивов. По результатам исследования выявлены существующие проблемы на пути повышения эффективности банковских активов, а также разработаны научно-практические выводы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: банковская система, коммерческие банки, банковские активы, эффективность активов, банковские пассивы, банковская стратегия, механизм управления, цифровая трансформация, инновационные банковские услуги, кредитные

операции, депозиты, процентные доходы, непроцентные доходы, банковская маржа, управление рисками

Abstract: *this article analyzes the scientific-theoretical and practical aspects of improving asset efficiency in the national banking system. Within the framework of the study, modern approaches aimed at enhancing the efficiency of commercial banks' asset management, as well as issues related to improving banking strategies and management mechanisms, are examined. In addition, the opportunities for increasing the structure and profitability of assets through the implementation of digital transformation and innovative banking services in the banking system are scientifically assessed. In the course of consistent reforms of the financial sector, special attention is paid to improving the quality of bank assets, developing risk management systems, and ensuring balance between assets and liabilities. As a result of the study, existing problems in improving bank asset efficiency are identified, and scientific and practical conclusions and recommendations aimed at addressing these issues are developed.*

Keywords: *banking system, commercial banks, bank assets, asset efficiency, bank liabilities, banking strategy, management mechanism, digital transformation, innovative banking services, credit operations, deposits, interest income, non-interest income, bank margin, risk management*

1. Kirish.

Jahon bank tizimida aktivlar shakllanishidagi ayrim nomutanosibliklar xalqaro miqyosda banklar tarmog'ining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, global iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi xavfini kuchaytirmoqda. Shu sababli yetakchi xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlari bank aktivlari samaradorligini oshirishga qaratilgan raqamli bank konsepsiyalarini joriy etish, aktivlarni iqtisodiyotning ustuvor va yuqori daromadli tarmoqlariga yo'naltirishning innovatsion texnologiyalarga asoslangan usullarini rivojlantirish, shuningdek, aktivlarni himoyalash va bank tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv tizimlarini tatbiq etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Globallashuv sharoitida jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan bank tizimining xalqaro miqyosda amal qilish mexanizmlari, bank aktivlarining shakllanishi va taqsimlanishining nazariy hamda amaliy asoslarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar faollashmoqda. Ushbu tadqiqotlar bank aktivlari samaradorligini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ilmiy konsepsiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida kredit portfelini va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishini ta'minlash, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, bank aktivlari samaradorligini oshirishda moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash va boshqarish uchun zamonaviy raqamli va texnologik yechimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi (2020).

Shu bilan birga, tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish omillariga nisbatan ilmiy-uslubiy jihatdan yagona va kompleks yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Ayniqsa, bank aktivlari sifatini intensiv oshirishning amaliy va metodologik muammolari, sog'lom va barqaror bank aktivlari portfelini shakllantirish mezonlari va tamoyillarini ilmiy asoslash,

tijorat banklari faoliyatida innovatsion dasturiy ta'minot va maxsus raqamli platformalardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish, shuningdek, bank aktivlarini himoyalashda risklarni boshqarishning ilmiy-amaliy masalalari chuqur tadqiq etishni talab etmoqda. Ushbu jihatlar mamlakat bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini yanada takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiy fanlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu masala banklar moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadlilikini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda bank aktivlarini boshqarish, risklarni kamaytirish hamda raqamli texnologiyalar asosida bank faoliyatini modernizatsiya qilish masalalari keng yoritilgan.

Xalqaro miqyosda bank aktivlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi hujjatlarida o'z aksini topgan. Xususan, Bazel I, II va III kelishuvlarida bank kapitalining yetarliligi, aktivlar sifati va risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari belgilab berilgan bo'lib, ular bank aktivlarining barqarorligini ta'minlashda muhim me'yoriy asos hisoblanadi. Elektron va raqamli bank xizmatlari rivojlanishi bilan bog'liq masalalar esa Bazel qo'mitasining transchegaraviy elektron bank faoliyatiga oid hisobotlarida chuqur tahlil qilingan (Basel, 2000.). Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki tadqiqotlarida bank tizimi barqarorligini ta'minlashda aktivlar sifati, kredit portfeli tuzilmasi va moliyaviy tavakkalchiliklarni boshqarish muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Xususan, global moliyaviy inqirozdan so'ng bank aktivlarini baholashda stress-testlar, makroprudensial nazorat va shaffoflikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan (IMF, 2022).

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari milliy bank tizimining rivojlanish xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganilgan. Jumladan, O.F. Alikoriev va Z. Mustafoevlar bank aktiv operatsiyalarini diversifikatsiya qilish, kredit portfelini optimallashtirish va bank xizmatlari sifatini oshirish masalalarini tadqiq etgan (Alikoriev O.F., 2012). B.K. Mirzamaydinov va M.M. Abdurahmanovlar (2018) bank aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etish orqali daromadlilikni oshirish masalalariga e'tibor qaratganlar.

Shuningdek, R.R. Tojiyev va O.B. Sattarovlarning ilmiy ishlarida bank aktivlari likvidligini ta'minlash, aktiv va passivlar muvozanatini saqlash hamda risklarni kamaytirish mexanizmlari atroflicha tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar bank aktivlari samaradorligini oshirishda likvidlik va xavfsizlik omillarining muhimligini ilmiy asosda yoritib beradi (Tojiyev R.R., 2015). O.B.Voloshina o'zining "Bankning samaradorligi uning iqtisodiy holatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida" asarida rivojlanishning maqbul yo'llarini aniqlash uchun foiz daromadlarini (xarajatlarini) tahlil qilishning omil modelidan va banklar foydasining ko'p regressiyasi modelidan foydalanadi. O.B. Voloshinaning (2014) fikriga ko'ra, ishlab chiqilgan ko'p faktorli korrelyatsiya regressiya foydani tahlil qilish modeli bank faoliyati samaradorligini oshirish manbalari va zaxiralarini aniqlashga va ma'lum bir bankning rentabellik darajasini bashorat qilishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (2024) 2022-2024-yillardagi tahliliy hisobotlarida bank aktivlari sifati, muammoli kreditlar ulushi va kredit portfeli tarkibi mamlakat bank tizimining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida qayd etilgan. Ushbu hujjatlarda bank aktivlari samaradorligini oshirish uchun kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishini ta'minlash, risklarni baholashda zamonaviy texnologik

yechimlardan foydalanish hamda aktiv va passivlar muvozanatini mustahkamlash zarurligi ta'kidlangan.

Jahon bankining 2019-2021-yillardagi tadqiqotlarida bank aktivlarini boshqarish samaradorligi moliyaviy vositachilik sifatining asosiy ko'rsatkichi sifatida e'tirof etilgan. Ushbu tadqiqotlarda kredit resurslarini real sektorning yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo'naltirish bank aktivlari samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, bank aktivlari portfelini haddan tashqari konsentratsiyalash moliyaviy tavakkalchiliklarni kuchaytirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan (World Bank., 2019).

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar bank aktivlari samaradorligini oshirishning alohida jihatlari yoritgan bo'lsa-da, mamlakat bank tizimi sharoitida ushbu masalaga kompleks, tizimli va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar.

Bugungi kunda jahon moliyasida kechayotgan keskin o'zgarishlar, global integratsiya jarayonlari va raqamli iqtisodiyotning tez sur'atlarda rivojlanishi bank tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, tijorat banklari faqat mablag'larni qabul qilib va qayta taqsimlovchi vositachilikda xizmat qilmasdan, aksincha iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi, investitsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, tijorat banklari aktivlarini oqilona boshqarish, ularning tarkibiy tuzilishini zamon talablariga mos ravishda optimallashtirish masalasi milliy iqtisodiyot barqarorligi uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanmoqda. Bank aktivlarining samaradorligi, avvalo, mavjud resurslardan qay darajada oqilona foydalanilayotgani bilan belgilanadi. Aktivlar tarkibida asosiy o'rinni kredit qo'yimalari, investitsiya portfeli va boshqa daromad keltiradigan moliyaviy instrumentlar egallaydi. Ular tijorat banklari uchun asosiy daromad manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, aktivlar tarkibini chuqur tahlil qilish, ularning foydalilik ko'rsatkichlari, likvidlik darajasi va risk profilini baholash bank menejmenti uchun strategik qarorlar qabul etishda muhim mezon vazifasini bajaradi. Jumladan, So'nggi yillarda bank va moliya tizimini chuqur isloh qilish, tijorat banklarini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish hamda ularning faoliyatini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Quyidagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston tijorat banklarining 2021-2025-yillar mobaynida umumiy aktivlari o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2021-yil boshida jami aktivlar hajmi 366,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich qariyb ikki barobarga oshib, 769,3 trln. so'mga yetgan. Bu o'sish mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi, bank tizimining transformatsiya jarayonlari va raqamli moliya xizmatlarining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi. Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlarining 9,7 trln. so'mdan 25,1 trln. so'mgacha oshishi, xususan bank tizimi likvidligining mustahkamlanishi va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlariga nisbatan ishonchi ortib borayotganining yaqqol dalili hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur

o'sish to'lov intizomining kuchayishi va naqd aylanmani optimal boshqarish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan choralar samarasini ham aks ettiradi. Shuningdek, O'zbekiston bank sektori faoliyatida barqaror o'sish va institutsional rivojlanish jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi.

Markaziy bankda saqlanayotgan mablag'lar hajmi tahlil davri mobaynida sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2021-yilda bu ko'rsatkich 18,8 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 34,5 trln. so'mga yetgan. Bu o'sish banklar va Markaziy bank o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar tizimi samarali yo'lga qo'yilganini, shuningdek, banklararo hisob-kitob tizimi barqaror ishlayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, boshqa banklardagi mablag'lar hajmi ham izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, rezident banklardagi jamg'arma 13,1 trln. so'mdan 29,1 trln. so'mgacha, norezident banklardagi mablag'lar esa 21,7 trln. so'mdan 36,0 trln. so'mgacha ko'paygan. Bu o'zgarishlar O'zbekiston bank tizimining xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiya darajasi ortib borayotganini, xorijiy bank va moliya institutlari bilan ishonchli hamkorlik munosabatlari shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, tijorat banklarining investitsiya faoliyati ham keskin faollashgan. Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha aktivlar 2021-yildagi 9,4 trln. so'mdan 2025-yilda 59,6 trln. so'mgacha yetgan. Bu esa, deyarli olti barobarlik o'sishni anglatadi. Ushbu ko'rsatkichlar banklar uchun investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishga aylanganini, davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilish siyosati izchil amalga oshirilayotganini yaqqol ko'rsatmoqda.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2020-2024-yillardagi aktivlari tarkibi⁴. mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar				
	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	9 734,6	10 686,3	19 309,1	20 201,8	25 154,3
Markaziy bankdagi mablag'lar	18 851,4	31 514,6	36 592,1	33 228,0	34 511,8
Boshqa banklardagi mablag'lar – rezidentlar	13 146,0	13 302,5	17 423,7	24 368,5	29 175,9
Boshqa banklardagi mablag'lar – norezidentlar	21 700,5	25 074,0	37 688,3	28 862,5	36 039,3
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	9 447,7	19 633,7	31 507,9	32 548,3	59 613,9
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1 575,9	1 251,0	1 606,3	3 334,0	432,4
Kredit qo'yilmalari, sof	270 212,8	316 382,4	378 909,2	457 847,1	514 692,6
Asosiy vositalar, sof	8 314,2	11 031,9	14 242,9	19 874,9	24 955,8
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	7 881,6	9 387,1	12 295,3	19 249,8	23 835,8
Bankning boshqa xususiy mulklari	1 131,2	1 339,4	3 065,5	4 483,5	6 558,9
Boshqa aktivlar	4 125,1	5 319,6	4 105,8	8 158,7	14 359,5
Jami aktivlar	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1	769 330,4

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari tahlil davrida sezilarli darajada kamaygan bo'lib, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1,57 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 0,43 trln. so'mga tushgan. Bu holat bank tizimida risklarni boshqarish mexanizmi samarali yo'lga qo'yilgani va mijozlar bilan hisob-kitob jarayonlarining sog'lomlashganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, kredit qo'yilmalari tijorat banklari aktivlarining asosiy va eng yirik qismi sifatida barqaror o'sishni namoyon etgan. 2021-yilda 270,2 trln. so'mni tashkil etgan kredit portfeli 2025-yilga kelib 514,6 trln. so'mga yetgan. Bu esa, iqtisodiyotning real sektori faol moliyalashtirilayotganini, ayniqsa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalarida investitsion loyihalarga bank resurslari yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. Asosiy vositalar hajmining 8,3 trln. so'mdan 24,9 trln. so'mgacha oshishi ham muhim jarayon sifatida baholanadi. Bu o'sish, avvalo, bank infratuzilmasini yangilash, filiallar faoliyatini kengaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lib, bank xizmatlarining sifati va geografiyasini kengaytirishda muhim omil bo'lgan.

Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar 7,8 trln. so'mdan 23,8 trln. so'mgacha ko'paygani foizli aktivlardan olinayotgan daromad oshganini va banklar rentabelligining barqaror o'sishini ko'rsatadi. Boshqa xususiy mulk hamda "boshqa aktivlar" moddalaridagi o'sish esa banklarning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish, yangi daromad manbalarini izlash va turli moliyaviy instrumentlarni joriy etish siyosatini kuchaytirganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida tijorat banklari aktivlari hajmi nafaqat miqdor jihatidan, balki sifat jihatidan ham o'sgan. Investitsiya salohiyatining kengayishi, kredit faoliyati samaradorligining oshishi va likvidlik darajasining mustahkamlanishi bank tizimining raqobatbardoshligini sezilarli darajada kuchaytirgan. Shuningdek, O'zbekiston tijorat banklari faoliyatidagi ushbu o'sish mamlakat moliya bozorlarini erkinlashtirish, raqamli bank xizmatlarini keng joriy etish va iqtisodiyotning real sektoriga samarali xizmat ko'rsatishga qaratilgan yangi bosqichni boshlab berdi.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2020-2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari mlrd. so'm (tarmoqlar bo'yicha)

Sana	Aktivlar			Kreditlar		
	Jami	shundan		Jami	shundan	
		Davlat ulushidagi banklar	Boshqa banklar		Davlat ulushidagi banklar	Boshqa banklar
1	2	3	4	5	6	7
01.01.2021	366 121,1	310 729,5	55 391,6	276 974,8	244 483,9	32 490,9
01.01.2022	444 922,5	362 421,9	82 500,6	326 385,6	280 073,6	46 311,9
01.01.2023	556 746,3	435 135,6	121 610,7	390 048,9	324 680,8	65 368,2
01.01.2024	652 157,1	441 777,2	210 379,9	471 405,5	333 298,1	138 107,4
01.01.2025	769 330,4	503 187,0	266 143,4	533 121,2	366 730,5	166 390,7

Yuqorida keltirib o'tilgan 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining aktiv va kredit ko'rsatkichlari barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2021-yil boshida bank tizimining umumiy aktivlari 366,1 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu raqam 769,3 trln. so'mga yetgan. Boshqacha aytganda, tijorat banklarining aktivlari besh yil ichida qariyb ikki barobarga o'sgan. Bu holat mamlakatda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar, bank kapitallashuvining kuchayishi va

bozor mexanizmlariga asoslangan boshqaruv tizimlarining keng joriy etilayotgani bilan izohlanadi. Davlat ulushiga ega banklar aktivlari ham o'sishni namoyon etgan bo'lib, 2021-yildagi 310,7 trln. so'mdan 2025-yilda 503,1 trln. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich davlat banklari hali ham milliy bank tizimida asosiy ulushni saqlab qolayotganini, biroq ularda transformatsiya jarayonlari, korporativ boshqaruvni isloh qilish va samaradorlikni oshirish choralari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar faoliyati ham sezilarli sur'atda o'sgan. Xususan, ularning aktivlari 2021-yilda 55,4 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 266,1 trln. so'mga yetgan. Bu besh yilda qariyb besh barobarlik o'sishni anglatib, mamlakat bank bozorida xususiy sektorning ahamiyati keskin ortayotganini va raqobat muhitining mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Kredit qo'yilmalari bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatilgan. Umumiy kredit hajmi 2021-yilda 276,9 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 533,1 trln. so'mga yetgan. Bu o'sish iqtisodiyotning real sektorida, xususan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida investitsiya faolligining kengayganini ifoda etadi. Davlat banklari tomonidan berilgan kreditlar 2021-yilda 244,5 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 366,7 trln. so'mga yetgan. Bu davlat mablag'lari hanuz iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishda muhim o'rin tutayotganini anglatadi. Biroq xususiy banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi jadal sur'atlarda o'sgan, xususan 2021-yilda 32,5 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 166,4 trln. so'mga yetgan. Bu tendensiya xususiy sektorning iqtisodiyotni kreditlashdagi faol ishtiroki va moliya bozorida raqobat muhitining kengayishini aks ettiradi. Xulosa qilib ta'kidlash joizki, 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston bank tizimida strukturaviy islohotlar chuqurlashdi, aktiv va kapital bazasi mustahkamlandi, hamda kredit siyosatining real sektorga yo'naltirilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylandi. Bu jarayonlar banklar transformatsiyasi, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va xususiy kapital ulushini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining amaldagi natijasi hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyati samaradorligini aniqlashda qo'llaniladigan baholash tizimi ko'p qirrali va zamonaviy xalqaro mezonlarga asoslangan bo'lib, u bankning moliyaviy barqarorligi, foydalilik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks tarzda tahlil etish imkonini yaratadi. Ushbu tizimning nazariy-amaliy asosi xalqaro moliyaviy hisobot standartlari ya'ni, IFRS (International Financial Reporting Standards) hamda Basel III talablari bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining amaldagi normativ hujjatlari va metodik tavsiyalari asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Bugungi kunda mazkur mezonlar orqali bankning moliyaviy natijalari, aktivlarni boshqarish samaradorligi, risklarni minimallashtirish salohiyati, likvidlik darajasi va to'lov qobiliyati kabi ko'rsatkichlar majmuaviy baholanmoqda. Ushbu baholash tizimi bank faoliyatidagi barcha asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, mezonlar beshta asosiy guruhga ajratiladi. Ularga foydalilik ko'rsatkichlari, faollik darajasi, risk va aktivlar sifati bilan bog'liq ko'rsatkichlar, likvidlik hamda to'lov qobiliyatini ifodalovchi mezonlar, shuningdek, bank aktivlari samaradorligini umumiy baholaydigan aktivlar samaradorligi indeksi (ASI) kiradi. Bu yo'nalishlar orqali bank faoliyatining tub mohiyati, uning moliyaviy salohiyati va bozordagi raqobat ustunliklari ilmiy asosda tahlil qilinishi ta'minlanadi.

5. Xulosa.

O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirish masalasi nafaqat tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashda ham muhim

ahamiyat kasb etadi. Jahon bank tizimida yuzaga kelayotgan strukturaviy nomutanosibliklar va moliyaviy tavakkalchiliklarning kuchayishi sharoitida bank aktivlarini samarali boshqarish zamonaviy bank menejmentining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, 2021-2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari aktivlari hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan bo'lib, bu jarayon bank tizimini isloh qilish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Bank aktivlari tarkibida kredit qo'yimalari va investitsiya portfelining salmog'i yuqori bo'lib, ularning daromadliligi bank rentabelligining asosiy manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, aktivlar tarkibida likvid aktivlar ulushining ortishi bank tizimi barqarorligining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, bank aktivlari samaradorligi faqat miqdoriy o'sish bilan emas, balki aktivlar sifatining yaxshilanishi, risklarning optimallashtirilishi va daromadlilikning barqaror ta'minlanishi bilan belgilanadi. Xususan, kredit portfeli sifati, investitsiya faoliyatining diversifikatsiyasi va aktiv-passivlar muvozanati bank aktivlari samaradorligini baholashda hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida mamlakat bank tizimida aktivlar samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar ham aniqlandi. Jumladan, bank aktivlarini boshqarishda kompleks va yagona metodologik yondashuvning yetarli darajada shakllanmaganligi, raqamli texnologiyalar asosida risklarni baholash mexanizmlarining cheklanganligi hamda bank aktivlarini strategik boshqarishda xalqaro ilg'or tajribadan to'liq foydalanilmayotgani ushbu sohada ilmiy-amaliy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tijorat banklarida aktivlar samaradorligini oshirish uchun daromadlilik, likvidlik va xavfsizlik omillarini o'zaro uyg'unlashtirgan, riskka asoslangan yagona boshqaruv modelini joriy etish zarur. Mazkur model Basel III talablariga mos holda ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, kredit resurslarini iqtisodiyotning yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo'naltirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring va stress-testlash usullaridan keng foydalanish bank aktivlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

Alikoriev O.F. *Bank aktivlari va ularni boshqarish samaradorligi*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012.

Basel Committee on Banking Supervision. *Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors*. BIS, Basel, 2000.

International Monetary Fund. *Global Financial Stability Report*. IMF, Washington D.C., 2009–2022.

Mirzamaydinov B.K. *Bank tizimida innovatsion rivojlanish va raqamli texnologiyalar*. – Toshkent, 2018.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank aktivlari sifati va kredit portfeli bo'yicha yillik hisobot*. – Toshkent, 2024.

Sattarov O.B. *Bank risklari va ularni boshqarish mexanizmlari*. – Toshkent, 2017.

Tojiyev R.R. *Tijorat banklari likvidligi va uni boshqarish*. – Toshkent, 2015.

World Bank. *Global Financial Development Report: Bank Regulation and Supervision a Decade after the Global Financial Crisis*. World Bank, Washington D.C., 2019.

Волошина О.Б., «Доходность банка как один из основных показателей его экономического положения» / *Известия высших учебных заведений. Поволжский регион. Общественные науки.* – 2014. – № 1 (29). – С. 158–172.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сон “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги фармони.



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI XO'JALIK FAOLIYATI TAHLILIDA MODELLASHTIRISH USULIDAN FOYDALANISHNING USLUBIY MUAMMOLARI

*I.f.n., professor Jumayeva G.J.
Qarshi davlat texnika universiteti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda modellashtirish usullaridan foydalanishning uslubiy muammolari o'rganilgan. Tadqiqotda iqtisodiy-matematik modellashtirish, xususan chiziqli dasturlash usuli asosida resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish masalalari tahlil qilindi. Model yordamida optimal ishlab chiqarish tuzilmasi aniqlanib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari baholandi. Shuningdek, modellashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy uslubiy muammolar, jumladan ma'lumotlar aniqligi, parametrlarni baholash va tashqi omillar ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari modellashtirish usullarining qishloq xo'jaligida qo'llanilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, iqtisodiy tahlil, modellashtirish, chiziqli dasturlash, optimallashtirish, resurslardan foydalanish, iqtisodiy samaradorlik

Аннотация. В данной статье исследуются методические проблемы использования методов моделирования при анализе хозяйственной деятельности сельскохозяйственных предприятий. В исследовании применен экономико-математический подход, в частности метод линейного программирования, для оптимизации структуры производства и эффективного использования ресурсов. На основе модели определена оптимальная производственная структура и оценены возможности повышения экономической эффективности. Также проанализированы основные методические проблемы моделирования, включая точность исходных данных, оценку параметров и влияние внешних факторов. Результаты исследования подтверждают высокую эффективность применения методов моделирования в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: сельское хозяйство, экономический анализ, моделирование, линейное программирование, оптимизация, ресурсы, экономическая эффективность

Abstract. This article examines the methodological issues of applying modeling methods in the analysis of agricultural enterprises' economic activities. The study employs an economic-mathematical approach, particularly linear programming, to optimize production structure and ensure efficient use of resources. Based on the developed model, the optimal production structure was determined and opportunities for improving economic efficiency were evaluated. In addition, key methodological challenges were identified, including data accuracy, parameter estimation,

and the influence of external factors. The results demonstrate the high effectiveness of modeling methods in agricultural analysis and decision-making processes.

Keywords: *agriculture, economic analysis, modeling, linear programming, optimization, resource allocation, economic efficiency*

1. Kirish.

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning samaradorligini oshirish masalasi doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarining xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tahlil jarayonlarida zamonaviy modellashtirish usullaridan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini baholashda an'anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda matematik va iqtisodiy modellashtirish yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. Ushbu usullar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini prognozlash, resurslar taqsimotini optimallashtirish hamda turli xo'jalik qarorlarining natijalarini oldindan baholash imkoniyati yaratiladi. Biroq, modellashtirish usullarini amaliyotga joriy etishda qator uslubiy muammolar mavjud bo'lib, ular natijalarning aniqligi va ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ma'lumotlarning yetarli darajada aniqlikda shakllantirilmaganligi, model parametrlarini tanlashdagi noaniqliklar, tashqi omillarning to'liq hisobga olinmasligi hamda modellarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar ushbu muammolar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari — mavsumiylik, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqlik va tavakkalchilik darajasining yuqoriligi modellashtirish jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligi korxonalarini xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda modellashtirish usullaridan foydalanishning uslubiy muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida modellashtirish usullarining nazariy asoslari tahlil qilinadi, mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari o'rganiladi hamda amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etish va tahlil qilishda iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanish masalasi iqtisodiy fanlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda chiziqli dasturlash usuli keng qo'llanilib, u o'zining yuqori aniqlik va samaradorligi bilan ajralib turadi (Dantzig G.B., 1963).

Iqtisodiy modellashtirishning nazariy asoslari klassik ilmiy tadqiqotlarda chuqur yoritilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish funksiyalarini o'rganish va resurslarni optimal taqsimlash masalalari Heady va Dillon tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ushbu yondashuvlar agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi (Heady E.O., & Dillon J.L., 1961). Shuningdek, Hazell va Norton tomonidan ishlab

chiqilgan matematik dasturlash yondashuvlari qishloq xo'jaligida xo'jalik qarorlarini qabul qilish jarayonida modellashtirishning muhim vosita ekanligini ko'rsatadi (Hazell P.R., & Norton R.D., 1986).

Chiziqli dasturlash usulining rivojlanishi va uning iqtisodiy tizimlarga qo'llanilishi Dantzig tomonidan yaratilgan nazariy asoslar bilan bog'liq bo'lib, ushbu usul optimallashtirish masalalarini yechishda universal vosita sifatida qaraladi (Dantzig G.B., 1963). Keyingi tadqiqotlarda ushbu yondashuv yanada rivojlantirilib, iqtisodiy tizimlar, jumladan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qo'llash imkoniyatlari kengaytirildi. Xususan, Winston W.L., (2004) hamda Bazaraa va boshqalar (Bazaraa M.S., 2011) tomonidan modellashtirish algoritmlari, cheklovlar tizimi va optimal yechimlarni aniqlash usullari batafsil ishlab chiqilgan.

Sobiq ittifoq olimlari tomonidan ham iqtisodiy-matematik modellashtirish nazariyasiga salmoqli hissa qo'shilgan. Kantorovich tomonidan resurslardan optimal foydalanish nazariyasi ishlab chiqilib, iqtisodiy hisob-kitoblarda matematik usullarni qo'llash zarurligi ilmiy asoslangan. Nemchinov, Novojilov va Fedorenko tadqiqotlarida esa iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganilib, rejalashtirish tizimlarida qo'llash imkoniyatlari keng yoritilgan (Новожилов В.В., 1965).

Qishloq xo'jaligida modellashtirish usullaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tajriba ham muhim ahamiyatga ega. FAO tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalarda fermer xo'jaliklarini boshqarishda tizimli yondashuv, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, noaniqlik sharoitida modellashtirish muammolari Hazell tomonidan o'rganilib, tavakkalchilikni hisobga oluvchi yondashuvlar taklif etilgan (Hazell B.R., 1971).

Zamonaviy tadqiqotlarda modellashtirish usullarini amaliyotga joriy etish masalalari ham keng o'rganilmoqda. McCarl va Spreen tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar matematik dasturlashni amaliy masalalarda qo'llashning samarali usullarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida modellashtirishning amaliy jihatlarini va istiqbollari ayrim mahalliy olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, Abdug'aniev va Abdug'aniev qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining nazariy asoslarini yoritib bergan bo'lsa (Abdug'aniev, A., 2010), Rasulov iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llarini tahlil qilgan (Rasulov A., 2015), Karimov esa modellashtirish usullarining qo'llanilish istiqbollari o'rganilgan (Karimov S., 2018).

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda modellashtirish usullarini qo'llash bilan bog'liq qator muammolar ham qayd etilgan. Jumladan, dastlabki ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi model natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi (McCarl B.A., & Spreen T.H., 2003). Bundan tashqari, model parametrlarini aniqlashdagi noaniqliklar hamda tashqi omillarning (ayniqsa, tabiiy-iqlim sharoitlari) o'zgaruvchanligi modellashtirish natijalarining barqarorligini cheklaydi (FAO., 1997).

Milliy statistik ma'lumotlar va davlat dasturlari ham qishloq xo'jaligi sohasida modellashtirish usullarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari tarmoqda resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb masala ekanligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, ilmiy Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy-matematik modellashtirish qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini tahlil qilish va boshqarishda samarali vosita hisoblanadi. Biroq, uni amaliyotga joriy etishda ma'lumotlar sifati, model parametrlarining aniqligi va tashqi omillarni hisobga olish bilan bog'liq uslubiy muammolarni bartaraf etish zarur. Mazkur tadqiqot aynan ushbu muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, mavjud ilmiy ishlanmalarni amaliy jihatdan boyitadi

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligi korxonalarini xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda modellashtirish usullaridan foydalanishning uslubiy muammolarini aniqlash va baholash maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish yondashuvi qo'llanildi. Xususan, tadqiqotning asosiy metodi sifatida chiziqli dasturlash (linear programming) asosidagi optimallashtirish modeli tanlandi. Ushbu metod qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish hamda maksimal iqtisodiy samaraga erishish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotning nazariy asosini qishloq xo'jaligida iqtisodiy modellashtirish bo'yicha klassik ilmiy ishlanmalar, xususan, Heady va Dillon (1961) hamda Hazell va Norton (1986) tadqiqotlarida ishlab chiqilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida modelni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: muammoning iqtisodiy mazmunini aniqlash, maqsad funksiyasini belgilash, resurslar va ishlab chiqarish omillarini aniqlash, cheklovlar tizimini shakllantirish, modelni matematik ifodalash hamda olingan natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilish.

Qishloq xo'jaligi korxonasi xo'jalik faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan chiziqli dasturlash modelining umumiy ko'rinishi quyidagicha ifodalanadi:

$$Z = \sum_{i=1}^n c_i x_i \rightarrow \max$$

bu yerda, Z — korxonaning umumiy foydasi (yoki daromadi), x_i — i -turdagi ishlab chiqarish faoliyati hajmi, c_i — har bir faoliyat turidan olinadigan birlik foyda ko'rsatkichidir.

Model quyidagi resurs cheklovlari tizimi bilan ifodalanadi:

$$\sum_{i=1}^n a_{ij} x_i \leq b_j, \quad j = 1, 2, \dots, m$$

bu yerda, a_{ij} — i -faoliyat turi uchun j -resurs sarfi, b_j — mavjud resurslar hajmini (yer maydoni, mehnat resurslari, texnika, moliyaviy mablag'lar va boshqalar) ifodalaydi. Ushbu cheklovlar tizimi ishlab chiqarish jarayonining real iqtisodiy sharoitlarini modelda aks ettirish imkonini beradi.

Model quyidagi shart bilan to'ldiriladi:

$$x_i \geq 0, \quad i = 1, 2, \dots, n$$

bu yerda, x_i — ishlab chiqarish hajmlari bo'lib, ular manfiy qiymat qabul qilmaydi.

Mazkur iqtisodiy-matematik model yordamida qishloq xo'jaligi korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi, optimal ishlab chiqarish tarkibi aniqlanadi hamda boshqaruv qarorlarining iqtisodiy natijalari prognoz qilinadi. Tadqiqotda modellashtirish jarayonida yuzaga keladigan uslubiy muammolarni aniqlash maqsadida qo'shimcha ravishda taqqoslash tahlili, statistik usullar hamda ekspert baholash yondashuvlaridan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar model parametrlarini aniqlashtirish, natijalarning ishonchligini baholash va amaliy qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning axborot bazasini qishloq xo'jaligi korxonalarining hisobot ma'lumotlari, statistik to'plamlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida iqtisodiy-statistik usullar va optimallashtirish algoritmlaridan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan chiziqli dasturlash modeli asosida qishloq xo'jaligi korxonasining resurslardan foydalanish samaradorligi baholandi va optimal ishlab chiqarish tarkibi aniqlandi. Tahlil uchun shartli ravishda o'rta hajmdagi qishloq xo'jaligi korxonasi ma'lumotlari asos qilib olindi.

Modelga muvofiq, korxonada quyidagi asosiy resurslar mavjud deb qabul qilindi: 100 gektar yer maydoni, 2000 ish-soat mehnat resursi hamda cheklangan miqdorda texnika va moliyaviy mablag'lar. Ishlab chiqarish yo'nalishlari sifatida bug'doy va paxta yetishtirish faoliyatlari tanlandi.

Hisob-kitoblar natijasida optimal ishlab chiqarish tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

1-jadval.

Optimal ishlab chiqarish tarkibi va iqtisodiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Bug'doy	Paxta	Jami
Ajratilgan yer (ga)	40	60	100
Mehnat sarfi (soat)	800	1200	2000
Birlik foyda (ming so'm/ga)	1500	2500	—
Umumiy foyda (ming so'm)	60 000	150 000	210 000

Olingan natijalarga ko'ra, korxonada resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish uchun yer maydonining 60 foizini paxta, 40 foizini esa bug'doy yetishtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Chunki paxta yetishtirishdan olinadigan birlik foyda bug'doyga nisbatan yuqori bo'lib, bu umumiy foydaning oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, model natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud mehnat resurslari to'liq band etilgan bo'lib, bu resurs cheklovlarining faol (binding constraint) ekanligini bildiradi. Yer resurslari ham to'liq foydalanilgan, bu esa korxonada faoliyatida resurslardan foydalanish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Tahlil jarayonida modellashtirish usulidan foydalanishning bir

qator uslubiy muammolari ham aniqlandi. Jumladan, dastlabki ma'lumotlarning aniqligi model natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Masalan, birlik foyda ko'rsatkichlaridagi kichik o'zgarishlar optimal yechim tarkibining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu esa modelning sezgirlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida tabiiy-iqlim omillarining beqarorligi modellashtirish natijalarining ishonchliligini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Modelda ushbu omillar to'liq aks ettirilmaganligi sababli, amaliy qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Shuningdek, ayrim resurslarning sifat jihatlari (masalan, yer unumdorligi yoki mehnat malakasi) modelda miqdoriy ko'rsatkichlar orqali to'liq ifodalanmasligi ham uslubiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat modellashtirish natijalarining amaliyotga moslashuvchanligini pasaytirishi mumkin.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi. Biroq, undan foydalanishda ma'lumotlar sifatini, model parametrlarining aniqligi va tashqi omillar ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi korxonalarini faoliyatini tahlil qilishda iqtisodiy-matematik modellashtirish, xususan, chiziqli dasturlash usulining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Model yordamida ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish imkoniyati aniqlanib, korxonaning maksimal foyda olishiga xizmat qiluvchi ishlab chiqarish tarkibi shakllantirildi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlar bilan mos keladi. Xususan, Heady va Dillon (1961) tadqiqotlarida qishloq xo'jaligida resurslarni optimal taqsimlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Shuningdek, Hazell va Norton (1986) ishlarida modellashtirish usullarining agrar siyosat va xo'jalik qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan uslubiy muammolar modellashtirish usulining ayrim cheklovlarini ham ko'rsatib berdi. Jumladan, model natijalarining aniqligi ko'p jihatdan dastlabki ma'lumotlar sifatiga bog'liq ekanligi kuzatildi. Bu holat iqtisodiy modellashtirishning umumiy muammolaridan biri bo'lib, noto'g'ri yoki noaniq ma'lumotlar model natijalarining ishonchliligini pasaytirishi mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, tabiiy-iqlim omillariga yuqori darajada bog'liqligi model natijalarini amaliyotga tatbiq etishda muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Modelda ushbu omillar to'liq hisobga olinmaganligi sababli, real sharoitda natijalar ma'lum darajada farq qilishi mumkin. Bu esa kelgusida noaniqlik sharoitida modellashtirish usullarini (masalan, stoxastik modellarni) qo'llash zaruratini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki, modelda resurslar miqdoriy jihatdan ifodalangan bo'lsa-da, ularning sifat ko'rsatkichlari (yer unumdorligi, ishchi kuchi malakasi va boshqalar) yetarli darajada aks ettirilmagan. Bu esa model natijalarining amaliy ahamiyatini ma'lum darajada cheklaydi. Shu bilan birga, modellashtirish natijalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish, resurslarni

qayta taqsimlash hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi korxonalarida modellashtirish usullaridan foydalanish istiqbollari yuqori ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ularni amaliyotga joriy etishda ma'lumotlar bazasini takomillashtirish, model parametrlarini aniqlashtirish hamda tashqi omillarni chuqurroq hisobga olish zarur.

5. Xulosa.

Mazkur tadqiqotda qishloq xo'jaligi korxonalarida xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda modellashtirish usullaridan foydalanishning uslubiy jihatlari o'rganildi hamda ularning amaliy qo'llash imkoniyatlari baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy-matematik modellashtirish, xususan chiziqli dasturlash usuli, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tarkibini optimallashtirish va maksimal iqtisodiy natijaga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan model asosida olingan natijalar qishloq xo'jaligi korxonalarida mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini tasdiqladi. Shu bilan birga, model yordamida optimal ishlab chiqarish yo'nalishlarini aniqlash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati mavjudligi isbotlandi.

Tadqiqot davomida modellashtirish usullaridan foydalanishda yuzaga keladigan asosiy uslubiy muammolar ham aniqlandi. Jumladan, dastlabki ma'lumotlarning yetarli darajada aniqlikda shakllantirilmaganligi, model parametrlarini baholashdagi noaniqliklar, shuningdek, qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan tabiiy-iqlim omillarining yetarli darajada hisobga olinmasligi model natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- qishloq xo'jaligi korxonalarida ishonchli va tizimli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- modellashtirish jarayonida statistik va prognozlash usullaridan keng foydalanish;
- tabiiy-iqlim va tavakkalchilik omillarini hisobga oluvchi ilg'or modellashtirish yondashuvlarini (stoxastik modellar) joriy etish;
- model natijalarini amaliy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qilish.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi korxonalarida faoliyatini tahlil qilishda modellashtirish usullaridan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatdi. Kelgusida ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish, xususan, noaniqlik sharoitida modellashtirish va raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar:

Abdug'aniev, A., & Abdug'aniev, A. (2010). *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti*. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.

Bazaraa, M. S., Jarvis, J. J., & Sherali, H. D. (2010). *Linear Programming and Network Flows*. Wiley. <https://doi.org/10.1002/9780471703778>

Dantzig, G. B. (1963). *Linear Programming and Extensions*. Princeton University Press. <https://press.princeton.edu/books/hardcover/9780691059136>

- FAO (1997). *Farm Management for Asia: A Systems Approach*. Rome: Food and Agriculture Organization. <https://www.fao.org/3/w7365e/w7365e00.htm>
- FAO (2008). *An Introduction to Mathematical Programming for Agricultural Economics*. <https://www.fao.org>
- Hazell, P. B. R. (1971). A linear alternative to quadratic and semivariance programming for farm planning under uncertainty. *American Journal of Agricultural Economics*, 53(1), 53–62. <https://doi.org/10.2307/1239737>
- Hazell, P. B. R., & Norton, R. D. (1986). *Mathematical Programming for Economic Analysis in Agriculture*. New York: Macmillan. <https://www.worldcat.org/title/13759585>
- Heady, E. O., & Dillon, J. L. (1961). *Agricultural Production Functions*. Ames: Iowa State University Press. <https://doi.org/10.1002/9780470752401>
- Karimov, S. (2018). Qishloq xo'jaligida modellashtirish usullaridan foydalanish istiqbollari. *Agroiqtisodiyot jurnali*, №2.
- McCarl, B. A., & Spreen, T. H. (2003). *Applied Mathematical Programming Using Algebraic Systems*. <https://agecon2.tamu.edu>
- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2023). *Qishloq xo'jaligi statistik to'plami*. <https://stat.uz>
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2022). *Qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi*. <https://agro.uz>
- Rasulov, A. (2015). Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, №3.
- Taha, H. A. (2017). *Operations Research: An Introduction* (10th ed.). Pearson. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/operations-research/P200000003481>
- Winston, W. L. (2004). *Operations Research: Applications and Algorithms*. Thomson. <https://www.cengage.com>
- Канторович, Л. В. (1960). *Экономический расчет наилучшего использования ресурсов*. Москва: Издательство АН СССР.
- Кузнецов, Б. Т. (2002). *Экономико-математическое моделирование в сельском хозяйстве*. Москва.
- Немчинов, В. С. (1965). *Экономико-математические методы и модели*. Москва: Наука.
- Новожилов, В. В. (1965). *Проблемы измерения затрат и результатов при оптимальном планировании*. Москва.
- Федоренко, Н. П. (1975). *Математические методы в экономике*. Москва: Экономика.



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA PUL OQIMINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Nabiyev F.S.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Bank tizimida likvidlikni ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda bank operatsiyalarining samaradorligini oshirishda pul oqimini boshqarish muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida pul oqimini boshqarishning nazariy asoslari, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida pul oqimlarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tadqiqot natijasida tijorat banklarida pul oqimini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, pul oqimi, bank likvidligi, moliyaviy barqarorlik, raqamli bank xizmatlari, FinTech texnologiyalari, bank menejmenti, aqli pul oqimi monitoringi, sun'iy intellect va pul oqimini prognozlash.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности управления денежными потоками в коммерческих банках Узбекистана в контексте цифровой экономики. Управление денежными потоками является важным фактором обеспечения ликвидности в банковской системе, укрепления финансовой стабильности и повышения эффективности банковских операций. В ходе исследования проанализированы теоретические основы управления денежными потоками, современные механизмы управления и влияние цифровых технологий на банковскую деятельность. Также на основе статистических данных изучены тенденции формирования и развития денежных потоков в банковской системе Узбекистана. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию системы управления денежными потоками в коммерческих банках.

Ключевые слова: цифровая экономика, коммерческие банки, денежный поток, банковская ликвидность, финансовая стабильность, цифровые банковские услуги, финтех-технологии, управление банком, интеллектуальный мониторинг денежных потоков, искусственный интеллект и прогнозирование денежных потоков.

Abstract. This article examines the issues of improving the efficiency of cash flow management in commercial banks of Uzbekistan in the context of a digital economy. Cash flow management is an important factor in ensuring liquidity in the banking system, strengthening

financial stability, and increasing the efficiency of banking operations. In the course of the research, the theoretical foundations of cash flow management, modern management mechanisms, and the impact of digital technologies on banking activities were analyzed. Also, the formation and development trends of cash flows in the banking system of Uzbekistan were studied based on statistical data. As a result of the research, scientifically based proposals and recommendations were developed to improve the cash flow management system in commercial banks.

Keywords: *Digital economy, commercial banks, cash flow, bank liquidity, financial stability, digital banking services, FinTech technologies, bank management, smart cash flow monitoring, artificial intelligence, and cash flow forecasting.*

1. Kirish

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi moliyaviy sektor, xususan bank tizimida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, ayniqsa pul oqimlarini optimallashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pul oqimini samarali boshqarish banklarning likvidligini ta'minlash, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda bank faoliyati barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli bank tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida pul oqimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarish tizimini tahlil qilish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

2. Adabiyotlar sharhi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida pul oqimlarini boshqarish masalasi so'nggi yillarda ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar bank menejmenti, moliyaviy texnologiyalar, likvidlikni boshqarish hamda sun'iy intellektdan foydalanish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Avvalo, bank tizimida pul oqimlarini boshqarishning nazariy asoslari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng yoritilgan. Jumladan, Abdullayev Yo. (2022) va Karimov N (2021) asarlarida bank menejmenti va bank ishi asoslari, shu jumladan, pul oqimlarini rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlari batafsil bayon etilgan. Ushbu manbalar tijorat banklarida samarali boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy adabiyotlarda esa bank tizimining makroiqtisodiy jihatlari chuqur tahlil qilingan. Mishkin F (2019) hamda Rose P. va Hudgins S (2021) tomonidan pul-kredit tizimi, bank operatsiyalari va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish omillari keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar pul oqimlarini boshqarishning xalqaro tajribasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar ham muhim manba hisoblanadi. Bank for International Settlements (2024) hamda Basel Committee on Banking Supervision (2023) tomonidan ishlab chiqilgan Basel III me'yorlari banklarda likvidlikni boshqarish, risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim standartlarni belgilab beradi. World Bank (2023) hisobotida esa raqamli moliyaviy xizmatlar va moliyaviy inklyuziya masalalari yoritilib, bu jarayonlarning pul oqimlari boshqaruviga ta'siri ko'rsatib o'tilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy texnologiyalar (FinTech) ning roli alohida ahamiyatga ega. FinTech Global (2023) hisobotida global moliyaviy texnologiyalar bozori rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan bo'lib, unda banklarda raqamli xizmatlar orqali pul oqimlarini tezkor va samarali boshqarish imkoniyatlari kengaygani ta'kidlanadi. Karimov N. (2023) va Tursunov S. (2024) ilmiy maqolalarida esa sun'iy intellekt asosida pul oqimlarini boshqarish va likvidlikni optimallashtirish masalalari yoritilgan.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu mavzu dolzarb hisoblanadi. Normamatov I.B. (2023) va Pulatov D.H. (2021) ishlarida O'zbekiston bank tizimining rivojlanish tendensiyalari, raqamlashtirish jarayonlari va ularning moliyaviy samaradorlikka ta'siri tahlil qilingan. Zaynalov J.R. va hammualliflar (2021) darsligida esa bank tizimining umumiy faoliyati va pul oqimlari bilan bog'liq jarayonlar keng yoritilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e'lon qilingan statistik byulletenlar (2019–2024) hamda tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari real amaliy ma'lumotlar bazasini tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlar orqali banklarning likvidligi, aktiv va passivlari tarkibi hamda pul oqimlari harakati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bank tizimini isloh qilish strategiyasi (2020–2025) esa sohaga oid islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi.

Yuqoridagi Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida pul oqimlarini samarali boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga moslashish va innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda aynan O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiya asosida pul oqimlarini kompleks boshqarish masalalari yetarlicha chuqur o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

3. Tatqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining barqaror rivojlanish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashdagi rolini aniqlash uchun kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli va mantiqiy yondashuv asosida bank tizimidagi pul oqimlari va ularni boshqarish tizimi tahlil qilindi. Ilmiy bilishning tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish usullaridan keng foydalanildi. Bu yondashuv banklar faoliyatidagi tendensiyalarni aniqlash, pul oqimi samaradorligini baholash va mavjud muammolarni tizimli ko'rsatish imkonini berdi.

Empirik tahlil doirasida olingan ma'lumotlar quyidagi jadvallar va ko'rsatkichlar asosida vizualizatsiya qilindi:

O'zbekiston tijorat banklarida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar (2024 yil, banklar kesimida)

O'zbekiston tijorat banklarida depozitlar hajmining 2019–2024 yillardagi o'sish dinamikasi (trln so'm)

Shuningdek, Aktiv va Passivlarni boshqarish (ALM) modeli asosida banklarning aktiv va passivlarini muvozanatlash, pul oqimi samaradorligini oshirish va likvidlik risklarini kamaytirish tahlil qilindi. Natijada, ushbu metodologiya raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt joriy etilishining bank pul oqimini boshqarish samaradorligiga ta'sirini ilmiy asosda aniqlash, shuningdek, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish imkonini berdi. Pul oqimi–bu ma'lum vaqt oralig'ida bankka kirib keladigan va bankdan chiqib ketadigan pul mablag'lari harakatini ifodalaydi. Bank tizimida pul oqimini samarali boshqarish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Banklarda pul oqimilari operatsion pul oqimi, investitsion pul oqimi va moliyaviy pul oqimilarini o'z ichiga olib, boshqarishda likvidlikni ta'minlash, moliyaviy risklarni minimallashtirish, aktiv va passivlarni muvozanatlashtirish va bank daromadlilikini oshirish tamoyillarga asoslanadi. Xalqaro amaliyotda pul oqimini boshqarishda ALM (Aktiv va Passivlarni boshqarish) modeli keng qo'llanilib, u bank aktivlari va majburiyatlarini muvozanatlash orqali likvidlikni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

4. Tahlil va natijalar.

Mazkur bo'limda banklarda pul oqimini boshqarish samaradorligini o'rganish uchun empirik tahlil amalga oshirildi. Tahlilning asosiy manbai sifatida quyidagi jadval ma'lumotlari ishlatiladi: O'zbekiston tijorat banklarida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar (2024 yil, banklar kesimida) – bu jadval banklar faoliyati, raqamli xizmatlar ulushi, likvidlik darajasi va shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligini qamrab oladi.

O'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarish samaradorligi banklarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bilan bevosita bog'liq. 1-jadval tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Kapitalbank raqamli xizmatlardan eng faol foydalanadigan bank sifatida ajralib turadi. Depozitlar hajmi 22 trln so'm, kredit portfeli 21 trln so'm, likvidlik darajasi 39 % ni tashkil qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyasi joriy etilishi bilan shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi 94 % ga yetgan, bu bankning pul oqimini boshqarish va risklarni minimallashtirishdagi samaradorligini oshiradi.

Ipoteka bankning asosiy yo'nalishi ipoteka kreditlari bo'lib, depozitlar hajmi 18 trln so'm, kredit portfeli 34 trln so'm va likvidlik darajasi 35 % ni tashkil qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyasi joriy etilgandan so'ng shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi 88 % ga oshgan, bu bank faoliyatining xavfsizligini va pul oqimini boshqarish samaradorligini kuchaytiradi.

Asaka bank korxonasi va qishloq xo'jaligi kreditlariga yo'naltirilgan bo'lib, depozitlar hajmi 16 trln so'm, kredit portfeli 29 trln so'm va likvidlik darajasi 33% ni tashkil qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyasi joriy etilishi bilan shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi 85 % ga oshgan, bu bankning risklarni kamaytirish va pul oqimini optimallashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Banklar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar ulushi va sun'iy intellekt texnologiyasi joriy etilishi pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Likvidlik darajasi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan banklarda pul oqimini boshqarish va shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi ham yuqori. Sun'iy intellekt texnologiyasini joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, aktiv va passivlarni muvozanatlash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu tahlil O'zbekiston tijorat banklarida raqamli banklashuv va sun'iy intellekt texnologiyalari pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirishda, risklarni kamaytirishda va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston tijorat banklarida internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2019–2024 yillarda sezilarli o'sib borayotganini ko'rsatadi. 2020–2021 yillarda COVID-19 pandemiyasi va raqamli transformatsiya jarayonlari foydalanuvchi bazasining tez o'sishiga sabab bo'lgan. 2024 yilga kelib foydalanuvchilar soni 26 millionga yetib, banklar uchun real vaqt rejimida pul oqimini boshqarish va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish zaruriyati oshgan.

1-jadval.

O'zbekiston tijorat banklarida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar
(2024 yil, banklar kesimida)

Bank nomi	Depozitlar hajmi (trln so' m)	Kredit portfeli (trln so' m)	Raqamli xizmatlar ulushi(%)	Likvidlilik darajasi (%)	Shubhali tranzaksiyalar aniqligi (%)	Izoh
Kapital bank	22	21	82	39	94	Sun'iy intellekt joriy etilgan, raqamli xizmatlardan eng faol foydalanadi.
Ipoteka bank	18	34	74	35	88	AI texnologiyasi yordamida ipoteka kreditlaridagi shubhali tranzaksiyalar aniqligi oshgan
Asaka bank	16	29	69	33	85	AI texnologiyasi joriy etilishi bilan shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi oshgan.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Tijorat banklari yillik hisobotlari va moliyaviy statistik byulletenlari", 2024; shuningdek, tijorat banklari rasmiy saytlarida e'lon qilingan yillik moliyaviy hisobotlar.

O'zbekiston tijorat banklarida depozitlar hajmining yillik o'sishini va banklar pul oqimi hamda likvidligini boshqarish samaradorligini baholash imkonini beradi. 2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019–2024 yillar kesimida depozitlar hajmi barqaror o'sish ko'rsatdi va bu jarayonda bir qancha iqtisodiy va texnologik omillar muhim rol o'ynadi (2-jadval). 2019 yil: Depozitlar hajmi 91 trln so'mni tashkil qilgan, bu banklar tizimida barqaror boshlang'ich bosqichni ko'rsatadi. Bu davrda raqamli banklashuvning joriy etilishi va sun'iy intellekt texnologiyalari hali keng qo'llanilmagan. 2020 yil: Depozitlar hajmi 110 trln so'mga yetib, yillik o'sish sur'ati 20,9% ni tashkil qilgan. Bu davr COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq bo'lib, omonatlarni jalb qilishning oshishi va masofaviy bank xizmatlariga talabning ortishi kuzatilgan. 2021 yil: Depozitlar hajmi 142 trln so'mga yetgan, yillik o'sish sur'ati 29,1%. Tijorat banklarida raqamli xizmatlar va onlayn banklashuv joriy etilishi natijasida pul oqimi samaradorligi va mijozlarni jalb qilish imkoniyati oshgan.

2-jadval.

O'zbekiston tijorat banklarida depozitlar hajmining 2019–2024 yillardagi o'sish dinamikasi (trln so'm)

Yil	Depozitlar hajmi (trln so'm)	Yillik o'sish sur'ati (%)	Izoh
2019	91	-	Depozitlar hajmi barqaror boshlang'ich bosqichda
2020	110	20.9	COVID-19 davrida omonatlarni jalb qilish oshdi.
2021	142	29.1	Tijorat banklarida raqamli xizmatlar joriy etilishi bilan o'sish.
2022	180	26.8	Pul oqimini boshqarish va bank likvidligi strategiyasi samarasi.
2023	230	27.8	Depozitlar hajmi sezilarli o'sib, banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlandi.
2024	287	24.8	Raqamli banklashuv va kreditlashning ortishi bilan depozit hajmi oshdi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "O'zbekiston bank tizimi statistik byulleteni 2019–2024", 2024; shuningdek, tijorat banklari rasmiy yillik hisobotlari.

2022 yil: Depozitlar hajmi 180 trln so'mga yetib, yillik o'sish sur'ati 26,8% ni tashkil qilgan. Bu davrda pul oqimini boshqarish strategiyasi va bank likvidligini optimallashtirish samarasi sezildi. Sun'iy intellekt texnologiyalari shubhali tranzaksiyalarni aniqlashda qo'llana boshladi. 2023 yil: Depozitlar hajmi 230 trln so'mga oshib, yillik o'sish sur'ati 27,8% ni tashkil qilgan. Banklarning moliyaviy barqarorligi mustahkamlandi, pul oqimi samaradorligi va mijozlarga xizmat sifati yaxshilandi. 2024 yil: Depozitlar hajmi 287 trln so'mga yetdi, yillik o'sish sur'ati 24,8%. Raqamli banklashuv va kreditlashning ortishi natijasida depozit hajmi sezilarli darajada oshdi. Sun'iy intellekt texnologiyalari pul oqimini boshqarish va shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynadi.

2019–2024 yillar kesimida depozitlar hajmi 3 barobardan ortiq oshgan, bu tijorat banklarining pul oqimini boshqarish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdagi samaradorligini ko'rsatadi. Raqamli xizmatlar va sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi depozitlar hajmining tez o'sishiga va banklarning operatsion samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir qilgan.

COVID-19 davri va raqamli banklashuv bank tizimidagi pul oqimi dinamikasini tezlashtirib, banklar likvidligi va risklarni boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirdi.

O'zbekiston tijorat banklarida raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalari pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy omil hisoblanadi.

5. Xulosa.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida pul oqimini samarali boshqarish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Banklarda pul oqimining to'g'ri boshqarilishi likvidlikni saqlash, aktiv va passivlarni muvozanatlash hamda moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va banklar kesimida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar ulushi yuqori bo'lgan banklarda pul oqimini boshqarish samaradorligi ham yuqori darajada namoyon bo'lmoqda. Jumladan, Kapitalbankda raqamli xizmatlar ulushi 82 foizni tashkil etib, shubhali tranzaksiyalarni aniqlash samaradorligi 94 foizga yetgan. Bu esa sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bank tizimida risklarni kamaytirish va pul oqimini samarali boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2019–2024 yillar davomida O'zbekiston bank tizimida depozitlar hajmi sezilarli darajada oshganligi kuzatildi. Ushbu davrda depozitlar hajmi 91 trillion so'mdan 287 trillion so'mga yetib, uch barobardan ortiq o'sish kuzatilgan. Bu holat bank tizimida raqamli bank xizmatlari rivojlanishi, mijozlar sonining ortishi va moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchning oshishi bilan izohlanadi.

O'zbekiston tijorat banklarida pul oqimini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, bank tizimida pul oqimini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli boshqaruv platformalarini keng joriy etish zarur.

Ikkinchidan, pul oqimini prognozlash va risklarni baholash jarayonlarida sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, banklarda Aktiv va passivlarni boshqarish (ALM – Asset Liability Management) tizimini takomillashtirish orqali likvidlik risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash lozim.

To'rtinchidan, FinTech texnologiyalari va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali mijozlar uchun qulay moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va pul oqimi tezligini oshirish muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, banklarda shubhali tranzaksiyalarni aniqlash va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan nazorat mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida pul oqimini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

- Abdullayev Y. (2022) *Bank menejmenti*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 45–60-betlar.
Bank for International Settlements. (2024) *Annual Economic Report*. – BIS.
<https://asakabank.uz> – (Asaka bank).
<https://cbu.uz/en/statistics/> – (Rasmiy statistik ma'lumotlar sahifasi – statistik byulletenlar, pul kredit statistikasi).
<https://cbu.uz/uz-> – (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti).
<https://ipotekabank.uz> – (Ipoteka bank).
<https://kapitalbank.uz> – (Kapitalbank).
Karimov N. (2021) *Bank ishi*. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 112–130-betlar.
Karimov N. (2023) "Sun'iy intellekt va bank tizimida pul oqimlarini boshqarish." – *Moliyaviy innovatsiyalar jurnali*, 25–30-betlar.
Mishkin F. (2019) *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – Pearson Education, 210–235-betlar.
Normamatov I.B. (2023) *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*. – 5(5), Toshkent, 70–75-betlar.
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2019–2024) *O'zbekiston bank tizimi statistik byulleteni* (2024). – Toshkent.
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024) *Tijorat banklari yillik moliyaviy hisobotlari*.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2020) *2020–2025 Bank tizimini isloh qilish strategiyasi*. – Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2021) *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*. – Toshkent.

Rose P., Hudgins S. (2021) *Bank Management and Financial Services*. – McGraw-Hill Education, 320–345-betlar.

World Bank. (2023) *Digital Financial Services and Financial Inclusion Report*. – World Bank.

Zaynalov J.R. va boshq. (2021) *Bank ishi. Darslik*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 150–170-betlar.



XIZMAT KO'RSATISH VA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA TIJORAT BANKLARI KREDIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH

DSc., Normamatov I.B.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Аннотация. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklari kredit xizmatlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy bank xizmatlari, innovatsion kredit mexanizmlari hamda moliyalashtirishning samarali usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda kredit resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida iqtisodiy tahlil, taqqoslash va statistik usullardan foydalanilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish dinamikasi ham baholangan. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kredit xizmatlarini takomillashtirish orqali korxonalarining investitsion faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatlari aniqlangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion kredit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moslashuvchan kredit mexanizmlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Калит so'zlar. Tijorat banklari, kredit xizmatlari, iqtisodiy barqarorlik, xizmat ko'rsatish sohasi, ishlab chiqarish korxonalari, innovatsion kredit mexanizmlari, raqamli bank xizmatlari, investitsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik, kichik va o'rta biznes, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. Данной статье анализируется роль кредитных услуг коммерческих банков в обеспечении экономической стабильности предприятий сферы услуг и производства. В исследовании рассматриваются современные банковские услуги, инновационные кредитные механизмы и эффективные методы финансирования. Особое внимание уделяется вопросам рационального использования кредитных ресурсов для укрепления финансовой устойчивости предприятий. В качестве методологии исследования использованы методы экономического анализа, сравнительного и статистического анализа.

Также оценена динамика развития сферы услуг и производственных отраслей в экономике Узбекистана. Определены возможности стимулирования инвестиционной активности предприятий путем совершенствования кредитных услуг коммерческих банков. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных кредитных продуктов и цифровых банковских технологий способствует обеспечению экономической стабильности. Кроме того, обоснована необходимость внедрения гибких кредитных механизмов для субъектов малого и среднего бизнеса. Полученные

результаты могут быть использованы при развитии банковской системы и укреплении экономической стабильности предприятий.

Ключевые слова. *Коммерческие банки, кредитные услуги, экономическая стабильность, сфера услуг, производственные предприятия, инновационные кредитные механизмы, цифровые банковские услуги, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, малый и средний бизнес, экономическое развитие.*

Abstract. *This article analyzes the role of commercial bank credit services in ensuring economic stability of service and manufacturing enterprises. The study examines modern banking services, innovative credit mechanisms, and effective financing methods. Particular attention is given to the efficient use of credit resources to strengthen the financial stability of enterprises. The research methodology includes economic analysis, comparative analysis, and statistical methods. The dynamics of development of service and manufacturing sectors in the economy of Uzbekistan are also evaluated. Opportunities to stimulate the investment activity of enterprises through the improvement of commercial bank credit services are identified. The results show that the introduction of innovative credit products and digital banking technologies significantly contributes to economic stability. In addition, the necessity of implementing flexible credit mechanisms for small and medium-sized enterprises is substantiated. The findings of the study can be used to improve the banking system and support sustainable economic development.*

Keywords. *Commercial banks, credit services, economic stability, service sector, manufacturing enterprises, innovative credit mechanisms, digital banking services, investment activity, financial stability, small and medium-sized enterprises, economic development.*

1.Kirish.

Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalari milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ularning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tijorat banklari esa ushbu korxonalar faoliyatini moliyalashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Kredit xizmatlari orqali korxonalar investitsion loyihalarni amalga oshiradi, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi va xizmatlar sifatini oshiradi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda innovatsion kredit mexanizmlari va raqamli bank xizmatlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moslashuvchan kredit mexanizmlari joriy etilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining (2019) "Tijorat banklari faoliyati to'g'risida"gi qonuni kredit xizmatlarining tartibga solinishiga asos bo'ladi. Tadqiqot metodologiyasida iqtisodiy tahlil, taqqoslash va statistik usullar qo'llanilgan. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish dinamikasi ham baholangan. Ushbu maqola tijorat banklari kredit xizmatlarini takomillashtirish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion kredit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, maqola tijorat banklari va moliyaviy institutlar uchun amaliy tavsiyalar beradi. Tadqiqot iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xizmat ko'rsatish hamda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

2.Adabiyotlar sharhi.

Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda tijorat banklari kredit xizmatlarini rivojlantirish masalasi bo'yicha Adabiyotlar sharhi keng qamrovli ilmiy va normativ-huquqiy manbalarga asoslanadi. Jumladan, On Banks and Banking Activity qonunida bank tizimining barqaror ishlashi va kredit xizmatlarini kengaytirish iqtisodiyot rivojining muhim omili sifatida belgilangan.

Shuningdek, (2020) On Measures to Support Enterprise Development and Financial Sustainability qarorida korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda kredit mexanizmlarining roli alohida ta'kidlanadi.

Mahalliy olimlardan Islomov A. va Qodirov M (2020) tadqiqotlarida tijorat banklari kreditlari korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Toshpo'latov B (2020) esa kredit resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab bergan.

Xorijiy tadqiqotlarda, xususan John Smith va Laura Johnson (2017) ishlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda bank innovatsiyalari va raqamli kredit mexanizmlarining kichik biznes rivojiga ijobiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan.

Khan S., Lee H. va Patel R. (2020) lar tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa SME moliyalashtirish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili ekanligi ta'kidlanadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda, jumladan Baxtiyarovich N. I. va Khafizovich K. S. (2025) ishlarida tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalariga ajratilgan kreditlar hajmi va dinamikasi iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Shuningdek, Belorussian National Technical University hamkorligidagi ilmiy monografiyalarda kredit siyosatini takomillashtirish masalalari chuqur yoritilgan.

Bundan tashqari, Pulatov D.H. hamda Normamatov I.B. (2021) ilmiy maqolalarida O'zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kredit xizmatlarini modernizatsiya qilish zarurligi qayd etilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlar, xususan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi manbalari esa mazkur jarayonlarning amaliy natijalarini tahlil qilish imkonini beradi.

3.Tadqiqotlar metodologiyasi.

Tadqiqotda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida tijorat banklari kredit xizmatlarining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri o'rganilgan. Metod sifatida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, va statistik usullar qo'llanilgan. Shuningdek, korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari va bank kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi baholangan. Ma'lumotlar mahalliy va xorijiy manbalardan yig'ilgan.

Tadqiqot jarayonida korxonalar moliyaviy barqarorligini aniqlash uchun indikatorlar tizimi ishlatilgan. Innovatsion kredit mexanizmlari va raqamli bank xizmatlarining ta'siri eksperimental tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sifatida korxonalarining investitsion faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatlari aniqlangan. Ushbu metodologiya iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda kredit xizmatlarining samaradorligini baholashga imkon beradi.

4.Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari kredit xizmatlarining ahamiyati juda yuqori. Ma'lumotlar tahlili ko'rsatdiki, korxonalar kredit resurslaridan samarali foydalanganda ishlab chiqarish quvvatlari va xizmat sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Innovatsion kredit

mexanizmlari, xususan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli bank xizmatlari esa kredit olish jarayonini tezlashtiradi va ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi. Statistik tahlil ko'rsatdiki, kredit mablag'larining o'sishi bilan korxonalarining moliyaviy barqarorligi ortadi.

Shu bilan birga, korxonalar raqamli xizmatlar orqali yangi investitsion imkoniyatlarni jalb qilmoqda. Mahalliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston banklari tomonidan taqdim etilgan kredit mahsulotlari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shadi. Xorijiy tajribalar esa innovatsion kredit mexanizmlarining kichik va o'rta biznes rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni aniqladi: innovatsion va raqamli kredit xizmatlarini kengaytirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, kredit portfeli diversifikatsiyasi korxonalarining risk darajasini kamaytiradi. Kredit mablag'larining yetarli darajada taqsimlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Kichik va o'rta biznes uchun moslashuvchan kredit mexanizmlari joriy etilishi zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining samarali kredit siyosati korxonalarni innovatsion loyihalarni amalga oshirishga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, raqamli bank xizmatlarini joriy etish korxonalarining moliyaviy boshqaruvini soddalashtiradi.

Mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili kredit xizmatlarini takomillashtirishning zarurligini tasdiqlaydi. Natijalar iqtisodiy barqarorlikni oshirishda kredit xizmatlarining strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, korxonalarining investitsion faolligini rag'batlantirish uchun banklar tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi muhim. Umuman olganda, innovatsion va raqamli kredit mexanizmlari korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari bank tizimi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Ushbu natijalar rivojlanayotgan iqtisodiyot kontekstida empirik dalillar orqali barqaror moliya bo'yicha o'sib borayotgan adabiyotga hissa qo'shadi. Rivojlangan bozorlarga qaratilgan ko'plab tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu tadqiqot kredit innovatsiyasi barqarorlikni samarali tarzda rag'batlantirishi mumkin bo'lgan institutsional va tarkibiy shart-sharoitlarni ta'kidlaydi. Natijalar shuningdek bank strategiyasi va me'yoriy-huquqiy asoslarning rivojlanishga yo'naltirilgan moliyaviy vositachilikni qo'llab-quvvatlashdagi o'zaro to'ldiruvchi rolini ta'kidlaydi.

Tijorat banklari uchun natijalar kredit innovatsiyalarini sohaga xos ehtiyojlarga moslashtirish strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarini uchun farqlantirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqish kredit samaradorligini oshirish va defolt xavfini kamaytirishga yordam beradi. Korxonalar uchun innovatsion kredit xizmatlariga yaxshiroq kirish moliyaviy rejalashtirish va uzoq muddatli barqarorlikni yaxshilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari kredit xizmatlarining ahamiyati juda yuqori. Ma'lumotlar tahlili ko'rsatdiki, korxonalar kredit resurslaridan samarali foydalanganda ishlab chiqarish quvvatlari va xizmat sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Innovatsion kredit mexanizmlari, xususan, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli bank xizmatlari esa kredit olish jarayonini tezlashtiradi va ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi.

Statistik tahlil ko'rsatdiki, kredit mablag'larining o'sishi bilan korxonalarining moliyaviy barqarorligi ortadi. Mahalliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston banklari tomonidan taqdim etilgan kredit mahsulotlari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga sezilarli hissa

qo'shadi. Xorijiy tajribalar esa innovatsion kredit mexanizmlarining kichik va o'rta biznes rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni aniqladi: innovatsion va raqamli kredit xizmatlarini kengaytirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bundan tashqari, kredit portfeli diversifikatsiyasi korxonalarining risk darajasini kamaytiradi. Kredit mablag'larining yetarli darajada taqsimlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes uchun moslashuvchan kredit mexanizmlari joriy etilishi zarur.

1-jadval.

Ipoteka-Bankning kredit yo'nalishlari bo'yicha rivojlanishi

(2021–2025, mlrd. so'm)

Yil	Iste' mol kreditlari	Korporativ kreditlar	Kichik biznes kreditlari	Ipoteka kreditlari	Qishloq xo'jaligi kreditlari	Eksport-import kreditlari	Investitsion kreditlar	Innovatsion/IT loyihalar krediti
2021	850	1200	400	600	300	200	150	50
2022	900	1300	450	650	320	220	180	70
2023	980	1450	500	720	350	250	220	90
2024	1050	1600	550	800	380	280	260	120
2025	1120	1750	600	880	420	320	300	150

1-jadvalni tahlil qilganimizda Iste'mol kreditlari: 2021 yildan 2025 yilga qadar 850 mlrd so'mdan 1120 mlrd so'mgacha o'sib, aholining moliyaviy imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi (+32%).-Korporativ kreditlar: 1200 mlrd so'mdan 1750 mlrd so'mgacha o'sib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda asosiy manba ekanligi aniqlanadi (+46%).Kichik biznes kreditlari: 400 mlrd so'mdan 600 mlrd so'mgacha o'sib, kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (+50%).-Ipoteka kreditlari: 600 mlrd so'mdan 880 mlrd so'mgacha oshib, uy-joy qurilishi va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (+46%).

Qishloq xo'jaligi kreditlari: 300 mlrd so'mdan 420 mlrd so'mgacha o'sib, agrar sektor va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi (+40%).Eksport-import kreditlari: 200 mlrd so'mdan 320 mlrd so'mgacha oshib, tashqi savdoni rivojlantirishga xizmat qiladi (+60%).Investitsion kreditlar: 150 mlrd so'mdan 300 mlrd so'mgacha ikki barobar oshib, korxonalarining uzoq muddatli loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini ko'rsatadi (+100%).Innovatsion/IT loyihalar krediti: 50 mlrd so'mdan 150 mlrd so'mgacha o'sib, raqamli iqtisodiyot va innovatsion tashabbuslarni rag'batlantiradi (+200%).1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki,

Ipoteka-Bank kredit portfeli har bir yo'nalishda o'sish sur'atini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, investitsion va innovatsion yo'nalishlar barqaror o'sish bilan iqtisodiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

5.Xulosa.

Ushbu tadqiqot rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion tijorat bank kredit xizmatlari iqtisodiy barqarorlikni oshirishdagi rolini o'rgandi. Ushbu tadqiqot xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarida tijorat banklari kredit xizmatlarining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini o'rgandi. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, korxonalar kredit resurslaridan samarali foydalanganda ishlab chiqarish quvvatlari va xizmatlar sifati sezilarli darajada oshadi. Innovatsion kredit mexanizmlari va raqamli bank xizmatlari investitsion faoliyatni rag'batlantiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ipoteka-Bank misolida tahlil qilingan 2021–2025 yillar kredit portfeli ko'rsatkichlari barcha yo'nalishlarda barqaror o'sishni ko'rsatdi.

Ayniqsa, investitsion va innovatsion/IT yo'nalishlar yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lib, iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shadi. Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moslashuvchan kredit mexanizmlarini joriy etish iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhimdir. Kredit mablag'larining diversifikatsiyasi korxonalarining risk darajasini kamaytiradi va investitsion faollikni rag'batlantiradi. Raqamli bank xizmatlari esa kredit olish jarayonini tezlashtirib, ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion kredit mahsulotlari iqtisodiy barqarorlikni oshirishda strategik vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit xizmatlarini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy boshqaruvini soddalashtiradi. Bank tizimining rivojlanishi va kredit xizmatlarining samarali boshqarilishi milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy barqarorlikni oshirishda tijorat banklarining strategik rolini tasdiqlaydi.

Shu sababli, banklar tomonidan innovatsion va raqamli kredit mexanizmlari joriy etilishi lozim. Umuman olganda, kredit xizmatlarining samarali boshqarilishi, investitsion va ishlab chiqarish loyihalarini rag'batlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari moliyaviy institutlar va banklar uchun amaliy tavsiyalar beradi. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kredit xizmatlarini takomillashtirish orqali xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish korxonalarining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Inovatsion kredit xizmatlarini soha ehtiyojlari va me'yoriy standartlar bilan muvofiqlashtirish orqali tijorat banklari barqaror korxonalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda strategik ahamiyatga ega bo'lishi, iqtisodiy bardoshlikni yaxshilashi va rivojlanayotgan bozorlarda uzoq muddatli o'sishni ta'minlashi mumkin.

Adabiyotlar

Baxtiyarovich, N. I., & Khafizovich, K. S. (2025). The structure and dynamics of loans provided by commercial banks to industrial enterprises. *Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire*, 83(5), 442-450.

Islomov A. (2020) O'zbekiston tijorat banklari va korxonalarining moliyaviy barqarorligi. Toshkent: TDIU-.125-129 b.

Johnson L. (2017) *Digital Credit Mechanisms for SME Growth*. New York-: Palgrave Macmillan. pp.79-91

Khan S., Lee H., Patel R. (2020). *SME Financing and Economic Stability*. Singapore: Springer. . pp.41-52

Normamatov I.B (2023) *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*: <https://scienceproblems.uz>.doi:5/5-Toshkent,70-75 pg

O'zbekiston Respublikasi (2019) "On Banks and Banking Activity", No. ZRU-580, Tashkent:.

O'zbekiston Respublikasi (2020) "On Measures to Support Enterprise Development and Financial Sustainability", Resolution No. PQ-465, March 2020. Tashkent-2020.

Pulatov. D.H. (2021) *Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistan* Analiticheskiy jurnal 6 str 120-122.

Qodirov M. (2020) *Moliyaviy barqarorlik va kredit xizmatlari: O'zbekiston tajribasi*. Toshkent: Fan nashriyoti. 220-226 betlar

Smith J. (2016) *Banking Innovations in Emerging Markets*. London-: Routledge.pp.365-374

Toshpo'latov B. (2020) *Kredit resurslaridan samarali foydalanish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 220-226 b

Xusanov B.Sh., Alieva S.S., Rasulov Z.J. i (2015) dr. Monografiya/ Belorusskiy natsionalnyy texnicheskiy universitet, Belostokskiy texnicheskiy universitet. – Minsk: Pravo i ekonomika, . – 273 s. (§2.1-2.8, S.81-177)

Zaynalov J.R., S.S. Aliyeva, Z.O. Akhrorov, Z.J. Rasulov (2021) va boshq. - Darslik /T.: "Iqtisod-Moliya" - 364 b

<https://www.mf.uz>

<https://www.stat.uz>



O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTA KURSINING XALQARO SAVDOGA TA'SIRI

Narziyev A.B.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasi milliy valyuta kursining xalqaro savdo hajmlariga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot 2000-2024-yillar oralig'idagi yillik makroiqtisodiy ma'lumotlar asosida olib borildi. Ushbu tahlilda yalpi ichki mahsulot, eksport, import va milliy valyuta kursi asosiy o'zgaruvchilar sifatida tanlandi. Metodologik yondashuv sifatida logarifmik shakldagi OLS regressiya modellari qo'llanilib, geteroskedastiklik muammosi aniqlanganligi sababli baholash robust standart xatolar asosida amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari valyuta kursining o'sishi eksport va import hajmlariga statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Olingan empirik xulosalar O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdoning valyuta kursi va iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi hamda makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Valyuta kursi, xalqaro savdo, eksport, import, yalpi ichki mahsulot (YaIM), OLS, robust regressiya.

Аннотация. В данной научной статье эмпирически анализируется влияние национального валютного курса Республики Узбекистан на объемы международной торговли. Исследование проводилось на основе годовых макроэкономических данных за период 2000-2024 гг. В качестве основных переменных были выбраны валовой внутренний продукт, экспорт, импорт и национальный валютный курс. В качестве методологического подхода использовались логарифмические модели регрессии методом наименьших квадратов (МНК), а поскольку была выявлена проблема гетероскедастичности, оценка проводилась на основе робастных стандартных ошибок. Результаты исследования показали, что рост валютного курса оказывает статистически значимое влияние на объемы экспорта и импорта. Полученные эмпирические выводы подтверждают неразрывную связь между внешней торговлей в экономике Узбекистана, валютным курсом и экономическим ростом и имеют важное научно-практическое значение для формирования макроэкономической политики.

Ключевые слова: Обменный курс, международная торговля, экспорт, импорт, валовой внутренний продукт (ВВП), метод наименьших квадратов, робастная регрессия.

Abstract. This scientific article empirically analyzes the impact of the national exchange rate of the Republic of Uzbekistan on international trade volumes. The study was conducted on the basis of annual macroeconomic data for the period 2000-2024. In this analysis, gross domestic product, exports, imports and the national exchange rate were selected as the main variables. As a methodological approach, logarithmic OLS regression models were used, and since the

heteroscedasticity problem was identified, the assessment was carried out on the basis of robust standard errors. The results of the study showed that the growth of the exchange rate has a statistically significant impact on the volumes of exports and imports. The empirical conclusions obtained confirm the inextricable link between foreign trade in the economy of Uzbekistan and the exchange rate and economic growth and are of significant scientific and practical importance in the formation of macroeconomic policy.

Keywords: Exchange rate, international trade, exports, imports, gross domestic product (GDP), OLS, robust regression.

1. Kirish.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo mamlakatlar iqtisodiy o'rishining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Tashqi savdo orqali mamlakatlar resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi farovonligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu jarayonda valyuta kursi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida savdo oqimlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan milliy valyutaning qadrsizlanishi eksport mahsulotlarini tashqi bozorlarda nisbatan arzonlashtiradi va eksport hajmining oshishiga olib keladi, shu bilan birga import mahsulotlarini qimmatlashtirib, import hajmini qisqartirishi kutiladi. Lekin amaliyotda ushbu munosabat mamlakatning ishlab chiqarish tuzilmasi, importga bog'liqlik darajasi va tashqi iqtisodiy sharoitlarga qarab turlicha namoyon bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilgan valyuta liberallashuvi, tashqi savdo rejimining bosqichma-bosqich ochilishi va ishlab chiqarishning modernizatsiyasi sharoitida valyuta kursining xalqaro savdoga ta'sirini empirik jihatdan o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Valyuta kursi va xalqaro savdo o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyada keng yoritilgan. Marshall (1920 y.) va Lerner (1944 y.) shartlariga ko'ra, eksport va import talablarining elastikligi yetarlicha yuqori bo'lgan sharoitda milliy valyutaning qadrsizlanishi savdo balansini yaxshilaydi. Keynesian (1936 y.) yondashuvda esa valyuta kursi o'zgarishlari agregat talab orqali real sektor faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Empirik tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda valyuta kursining eksportga ijobiy, importga esa salbiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar misolida natijalar bir xil emas. Ko'plab tadqiqotlarda import tarkibida oraliq va investitsion tovarlar ulushi yuqori bo'lgani sababli, valyuta kursining o'sishi import hajmining ham ortishiga olib kelishi qayd etilgan. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham ushbu masala yetarlicha chuqur empirik tadqiqotlarni talab etadi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda 2000–2024-yillar oralig'idagi yillik vaqt qatori ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar AQSh dollarida ifodalangan bo'lib, quyidagi o'zgaruvchilar tanlandi:

- YaIM (GDP) – iqtisodiy faollik ko'rsatkichi
- Eksport (Exports) – tashqi bozorlarga yo'naltirilgan ishlab chiqarish
- Import (Imports) – tashqi manbalarga bog'liqlik darajasi
- Valyuta kursi (Exchange Rate) – makroiqtisodiy narx ko'rsatkichi

Modellar logarifmik shaklda baholanib, koeffitsientlar elastiklik sifatida talqin qilindi. Dastlabki diagnostika natijasida geteroskedastiklik mavjudligi aniqlanib, regressiya natijalari robust

standart xatolar yordamida qayta baholandi. Ushbu yondashuv empirik natijalarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Tahlil va natijalar.


4.1 Deskriptiv tahlil

1-jadval.

O‘zbekiston YaIM, eksport, import va valyuta kurslarining o‘rtacha, standart chetlanish, minimum hamda maksimum qiymatlari (2000-2024-yillar oralig‘ida)

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
GDP	25	5.301e+10	3.286e+10	9.688e+09	1.150e+11
Exports	25	1.196e+10	6.295e+09	2.996e+09	2.617e+10
Imports	25	1.616e+10	1.194e+10	2.668e+09	4.364e+10
ExchangeRate	25	4130.614	4191.719	236.608	12652.287


1-jadvaldagi deskriptiv tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilgan davrda O‘zbekiston YaIMining o‘rtacha hajmi 53 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Eksport va import hajmlari mos ravishda 11,9 mlrd va 16,1 mlrd AQSh dollari atrofida bo‘lgan. Valyuta kursida esa yuqori darajadagi o‘zgaruvchanlik kuzatiladi, bu iqtisodiyotda tashqi omillarning kuchli ta‘sirini anglatadi



1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida YaIM, eksport va import ko‘rsatkichlarining uzoq muddatli dinamikasi

1-rasmda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot, eksport va import hajmlarining vaqt bo‘yicha dinamikasi aks ettirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, o‘rganilgan davr mobaynida barcha ko‘rsatkichlar umumiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmi va tashqi savdoning bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqori darajada o‘sib borishi tashqi savdoda importga nisbatan

yuqori bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Ushbu dinamik munosabatlar keyingi regressiya tahlili uchun muhim empirik asos yaratadi.



2-rasm. Log-transformatsiya qilingan asosiy o‘zgaruvchilarning gistogrammalari (lnGDP, lnExports, lnImports va lnExchangeRate).

2-rasmda tadqiqotda foydalanilgan asosiy log-transformatsiya qilingan o‘zgaruvchilarning taqsimoti keltirilgan. Gistogrammalardan ko‘rinib turibdiki, lnGDP, lnExports, lnImports va lnExchangeRate o‘zgaruvchilari keskin og‘ishlardan xoli bo‘lib, ularning taqsimoti normal shaklga yaqin. Ushbu holat regressiya tahlilida qo‘llanilgan modellar uchun ma’lumotlarning statistik jihatdan mos ekanligini ko‘rsatadi.

5.2. Korrelatsiya tahlili

2-jadval.

Valyuta kursi, YaIM, eksport va import o‘rtasidagi Pirson korrelatsiya koeffitsientlari.

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) ExchangeRate	1.000			
(2) GDP	0.730	1.000		
(3) Exports	0.845	0.890	1.000	
(4) Imports	0.927	0.878	0.975	1.000

Korrelatsiya tahlili valyuta kursi, YaIM, eksport va import o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq, bu bog‘liqliklar sabab–natija munosabatini ifodalaganligi uchun ular regressiya tahlili orqali baholandi.

4.3. Regressiya natijalari va muhokama

Eksport modeli

3-jadval.

Valyuta kursi va yalpi ichki mahsulotning eksport hajmiga ta’siri
(bog‘liq o‘zgaruvchi: $\ln EX$, baholash usuli: OLS, robust standart xatolar)

$$\ln(EX_t) = \beta_0 + \beta_1 \ln(ER_t) + \beta_2 \ln(GDP_t) + \varepsilon_t$$

lnEX	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnER	.169	.052	3.24	.004	.061	.277	***
lnGDP	.523	.078	6.70	0	.361	.685	***
Constant	8.958	1.584	5.65	0	5.673	12.244	***
Mean dependent var	23.042		SD dependent var	0.627			
R-squared	0.901		Number of obs	25			
F-test	136.084		Prob > F	0.000			
Akaike crit. (AIC)	-5.164		Bayesian crit. (BIC)	-1.507			

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Jadvalda eksport modeli bo‘yicha regressiya natijalari keltirilgan. Natijalarga ko‘ra, valyuta kursining koeffitsienti musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, valyuta kursining 1 foizga oshishi eksport hajmining 0,17 foizga oshishiga olib keladi. Ushbu holat milliy valyutaning qadrsizlanishi eksport mahsulotlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishi bilan izohlanadi. Yalpi ichki mahsulotning eksportga ta’siri ham ijobiy va yuqori darajada ahamiyatli bo‘lib, uning 1 foizga oshishi eksport hajmining o‘rtacha 0,52 foizga ko‘payishiga olib keladi. Bu iqtisodiy o‘rish eksport salohiyatining kengayishida muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi. Modelning aniqlik darajasi yuqori bo‘lib, mustaqil o‘zgaruvchilar eksport hajmidagi o‘zgarishlarning katta qismini izohlab bera oladi ($R^2 = 0,901$).

Import modeli

4-jadval.

Valyuta kursi va yalpi ichki mahsulotning import hajmiga ta’siri
(bog‘liq o‘zgaruvchi: $\ln IM$, baholash usuli: OLS, robust standart xatolar)

$$\ln(IM_t) = \beta_0 + \beta_1 \ln(ER_t) + \beta_2 \ln(GDP_t) + \varepsilon_t$$

lnIM	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnER	.335	.046	7.35	0	.241	.43	***
lnGDP	.639	.068	9.40	0	.498	.78	***
Constant	4.98	1.346	3.70	.001	2.19	7.771	***
Mean dependent var	23.194		SD dependent var	0.870			
R-squared	0.963		Number of obs	25			
F-test	547.557		Prob > F	0.000			
Akaike crit. (AIC)	-13.718		Bayesian crit. (BIC)	-10.061			

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Import modeli bo'yicha regressiya natijalari O'zbekistonda import hajmining shakllanishida valyuta kursi va yalpi ichki mahsulot muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Valyuta kursi bo'yicha baholangan koeffitsiyent ijobiy va statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli bo'lib, valyuta kursining 1 foizga oshishi import hajmining o'rtacha 0,34 foizga oshishiga olib keladi. Ushbu natija import oqimlarining iste'mol tovarlaridan ko'ra, asosan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan oraliq va investitsion tovarlar hisobiga shakllanishi bilan izohlanadi. Ya'ni, valyuta kursining o'sishi importni qisqartirmasdan, ishlab chiqarish ehtiyojlari sababli tashqi xaridlarning davom etishiga olib kelmoqda.

Yalpi ichki mahsulot bo'yicha koeffitsiyent ham ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, GDP ning 1 foizga oshishi import hajmining o'rtacha 0,64 foizga ko'payishiga olib keladi. Bu holat iqtisodiy o'sish jarayonida ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi va texnologik yangilanishlar import talabini oshirayotganini ko'rsatadi. Mazkur natija import hajmi iqtisodiy faollikning bevosita funksiyasi ekanligini tasdiqlaydi.

Doimiy had (konstanta) ning ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi import hajmiga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham mavjudligini ko'rsatadi, biroq modelga kiritilgan asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilar import dinamikasining katta qismini izohlab bera olmoqda. Modelning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, tanlangan omillar import hajmidagi o'zgarishlarni yetarli darajada tushuntiradi ($R^2 = 0,963$).

5. Xulosa.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida valyuta kursi o'zgarishlarining xalqaro savdo hajmlariga ta'siri empirik jihatdan baholandi. 2000–2024 yillar oralig'idagi ma'lumotlar asosida qurilgan regressiya modellarining natijalari valyuta kursi va iqtisodiy faollik tashqi savdo oqimlarining muhim determinantlari ekanligini ko'rsatdi. Xususan, milliy valyuta kursining o'sishi eksport hajmining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlanib, bu eksport tovarlarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi oshishi bilan izohlandi.

Shu bilan birga, import modeli natijalari valyuta kursining import hajmini qisqartirmasdan, aksincha, iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan bog'liq holda import hajmining oshishiga olib kelayotganini ko'rsatdi. Yalpi ichki mahsulotning har ikkala modelda ham ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi iqtisodiy o'sish jarayonida eksport va import hajmlarining birgalikda kengayib borishini tasdiqlaydi. Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdoning importga nisbatan yuqori darajada bog'liqligini anglatadi.

Olingan empirik natijalar valyuta siyosatini ishlab chiqishda tashqi savdoning tarkibiy xususiyatlarini, importga qaramlik darajasini va iqtisodiy o'sish omillarini kompleks tarzda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda savdo balansining tarkibiy o'zgarishlari, sektorlar kesimidagi tahlillar hamda dinamik modellar orqali valyuta kursining uzoq muddatli ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

Bahmani-Oskooee, M., Ratha, A. (2004). The J-Curve: A literature review. *Journal of Economic Studies*. <https://doi.org/10.1108/01443580410555090>

Dornbusch, R. *Open Economy Macroeconomics*. McGraw-Hill. <https://www.mheducation.com/highered/product/open-economy-macroeconomics-dornbusch/M9780070178519.html>

Edwards, S. (1989). *Real Exchange Rates, Devaluation, and Adjustment*. MIT Press. <https://mitpress.mit.edu/9780262550429/>

- Enders, W. *Applied Econometric Time Series*. Wiley. <https://www.wiley.com/en-us/Applied+Econometric+Time+Series%2C+4th+Edition-p-9781118808564>
- Gujarati, D. N., Porter, D. C. *Basic Econometrics*. McGraw-Hill Education. <https://www.mheducation.com/highered/product/basic-econometrics-gujarati/M9780073375779.html>
- IMF. *International Financial Statistics (IFS)*. <https://data.imf.org/IFS>
- Krugman, P., Obstfeld, M. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/international-economics-theory-and-policy/P200000006270>
- Lerner, A. P. *The Economics of Control*. Macmillan. <https://archive.org/details/economicsofcontr0000lern>
- Marshall, A. *Principles of Economics*. Macmillan. <https://www.econlib.org/library/Marshall/marP.html>
- Mishkin, F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. Pearson Education. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/economics-of-money-banking-and-financial-markets/P200000006564>
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. <https://stat.uz/uz/>
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Rasmiy statistik ma’lumotlar*. <https://cbu.uz/oz/statistics/>
- Rose, A. K. (1991). The role of exchange rates in a popular model of international trade. *Journal of International Economics*. [https://doi.org/10.1016/0022-1996\(91\)90024-8](https://doi.org/10.1016/0022-1996(91)90024-8)
- Salvatore, D. *International Economics*. Wiley. <https://www.wiley.com/en-us/International+Economics-p-9781119321048>
- UNCTAD. *World Investment Report*. <https://unctad.org/publications/world-investment-report>
- Wooldridge, J. M. *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. Cengage Learning. <https://www.cengage.com/c/introductory-econometrics-a-modern-approach-7e-wooldridge/>
- World Bank. *World Development Indicators (WDI)*. <https://databank.worldbank.org/source/world-development-indicators>
- WTO. *World Trade Statistical Review*. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/wts_e.htm



ISLOM QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Norboyeva M.Sh

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM

Annotatsiya. Sukuk investitsiyaviy loyihani islom fiqhi tamoyillariga asoslangan holda moliyalashtiruvchi va o'zida aktivga egalikni ifodalovchi qimmatli qog'ozdir. Mazkur maqolada islom qimmatli qog'ozlari (sukuk)ning musulmon mamlakatlarda emissiyasi va ularning yillar kesimidagi tahlili, o'sish va kamayish tendensiyalarining sabablari kabi bir qator masalalarga bag'ishlangan holda tahlil qilingan. Ushbu tahlilda xalqaro islom moliya bozori (IIFM)ning sukuk to'g'risidagi yillik hisobotlaridan foydalanilgan. Tahlillar jamlanib, maqola so'nggida bir necha qo'shimcha fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: sukuk, alternativ moliyalashtirish, statistik tahlil, yashil sukuk, islom moliyasi.

Аннотация. Сукук – это ценная бумага, которая финансирует инвестиционный проект, основанный на принципах исламской юриспруденции и представляет собой право собственности на актив. В данной статье анализируются такие вопросы, как выпуск исламских ценных бумаг (сукук) в мусульманских странах и их анализ на протяжении многих лет, причины роста и тенденции снижения. В данном анализе использовались годовые отчеты Международного исламского финансового рынка (IIFM) по сукук. В конце статьи подводится итог анализа и приводятся некоторые дополнительные моменты.

Ключевые слова: сукук, альтернативное финансирование, статистический анализ, зеленый сукук, исламские финансы.

Annotation. Sukuk is a security that finances an investment project based on the principles of Islamic jurisprudence and represents the ownership of an asset. This article analyzes issues such as the issue of Islamic securities (sukuk) in Muslim countries and their analysis over the years, the reasons for growth and decline trends. The annual reports of the International Islamic Financial Market (IIFM) on sukuk were used in this analysis. The analysis is summarized and some additional points are given at the end of the article.

Keywords: sukuk, alternative financing, statistical analysis, green sukuk, Islamic finance.

1. Kirish.

Jahonda dastlabki sukuk emissiyasiga urinishlar Iordaniya va Pokiston tomonidan 1980-yillarda boshlangan. Lekin shaffoflikning yetarli darajada emasligi hamda infratuzilma bilan bog'liq muammolar sababli jarayon muvaffaqiyatli tugamagan. Bundan qaryib 10 yillar o'tib

ya'ni 1980-yilda qiymati 32,9 mln. AQSH dollari bo'lgan ilk muvaffaqiyatli sukuk emissiyasi Malayziyada amalga oshirilgan. Shundan keyin 2001-yilgacha deyarli sukuk emissiya qilinmagan. 2001-yilda sukuk bozori Bahrayn markaziy banki tomonidan 100 million AQSh dollari (5 yillik muddatga) va bir qator ichki suveren qisqa muddatli salam sukuki chiqarilishi bilan xalqaro miqyosga chiqdi. Xuddi shu yili Malayziya tomonidan birinchi 5 yillik xalqaro korporativ ijara sukuki 150 million AQSh dollari miqdorida chiqarilgan. Shu tarzda 2008-yil Jahon moliyaviy inqirozigacha sukuk emissiyasida o'sish kuzatilgan. Ushbu inqirozda qariyb 2,5 baravar (48,8 mlrd dan 18,5 mlrdga) kamayish kuzatilgan.

2. Adabiyotlar sharhi.

Islom moliyasining rivojlanishi aholisining ko'pchilik qismi musulmon bo'lgan hamda sukuk emissiyasida faol bo'lgan Indoneziya, Turkiya hamda Saudiya Arabistonidagi yillik sukuk reportlarini statistik tahlil qilgan tadqiqotchi olimlar tomonidan maqolalar ustida ishlashga sababchi bo'lmoqda. Ushbu maqolani yozish jarayonida shunday olimlarning ba'zi ishlarini ko'rib chiqib, ularning yangiligi, o'rganilganlik darajasi muhokama qilindi.

Risda Risdiananing "Indoneziyaning shariat kapitali bozori 2022-yil uchun ishlashi" nomli maqolasida Indonesiyadagi kapital bozori yillar kesimida taqqoslanib chiqilgan. Emissiya qilingan korporativ sukuk turlari, yashil sukuklar statistikasi keltirilgan. Shariat online savdo tizimi (SOTS) haqida ma'lumot berilgan. (Risda Risdiana, 2023)

Heri Ramadan, Samudra universiteti tadqiqotchisining " Indoneziya iqtisodiy o'sishida shariatning ta'siri"(Indonesian economic growth through sharia effects) nomli tadqiqotida Indonesiyaning iqtisodiy o'sishiga ta'sir qiladigan omillarga to'xtalib o'tilgan. Jumladan, islom qimmatli qog'ozlari, sukuk, islom investitsiya fondlari, ularning turlari haqida nazariy asoslar berilgan. O'nlab tadqiqotchilarning milliy iqtisodiyotning o'sishida islomiy qimmatli qog'ozlarning ro'li haqidagi fikrlari keltirilgan. Olim maqola so'nggida 2ta taklif bergan: sukuk mamlakat iqtisodiyoti uchun juda foydaliligi sababli emmissiya miqdorini oshirish kerakligi, iqtisodiyotning o'sishida nafaqat qimmatli qog'ozlar bozori, investitsiya fondlari balki sanoat sektori, eksport, importlarga ham alohida e'tibor berilishi kerakligiga urg'u berilgan. (Heri Ramadan, 2020)

Turki Rashed Alshammari hamda Jean-Noel Ory "Saudiya fond birjasida aksiyalar narxlari va investitsiya qarorlariga diniy e'lonlarning ta'siri" nomli maqolasida Saudiya fond birjasida individual investorlarning fikrlarini bilish va tahlil qilish uchun Whatsapp, Twitter kabi bir necha platformalarda so'rovnoma o'tkazishgan. Aholining ko'pchiligi arab tilini bilganligi sababli so'rovnoma ham shu tilda tuzilgan. Natijada, diniy bilimga ega investorlarning ulushi 64 foiz, diniy ilmi pastroq investorlar esa 36 foizni tashkil qilgan. Yana bir eng muhim jihati, ular investitsiya qilayotgan firmalarning shariatga rioya qilishidan xavotirda ekanliklari Saudiya Fond birjasi ishtirokchilarining qay darajada diniy e'lonlarga munosabat bildirishini ko'rsatib bergan. Yuqorida keltirilgan faktlardan yetarlicha diniy bilimga ega bo'lish boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kabi qimmatli qog'ozlarning bozor qiymatiga ham ta'sir qilishi mumkinligi aytib o'tilgan. Xulosa sifatida "yuqori dindorlik" individual investorlarni imomlarning fikrlarini kuzatishga olib kelishi qayd etilgan. Bundan tashqari, dindorlik omili emitentning shariatga mos kelishiga qarab, investorlar o'z portfelida moliyaviy aktivlarni sotib olish, sotish yoki saqlashga tayyorligiga ta'sir qilishi mumkin deyilgan. Shuningdek, bu aktivlarning bozor qiymatiga ham ta'sir qilishiga urg'u berib o'tilgan. Maqola so'nggida tadqiqotchi tomonidan ma'lumotlardagi cheklovlar tufayli yetishmovchilik borligi, ko'proq ma'lumot bilan, ba'zi natijalar yanada aniqroq bo'lishi mumkinligi aytib o'tilgan. (Turki Rashid Alshammari hamda Jean-Noel Ory, 2023)

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolamiz doirasida Indoneziya, Turkiya hamda Saudiya Arabistoni kabi alternativ moliyalashtirish instrumenti rivojlangan davlatlarning emissiya tahlili ko'rib chiqilgan. Bunda IIFM SUKUK REPORT 2024, jahon banki ma'lumotlari, IIFM SUKUK REPORT 2023 ning yillik hisobotlaridan hamda ushbu davlatlarning statistik ma'lumotlaridan foydalangan holda sukuk bozori o'rganib chiqilgan.

4.Tahlil va natijalar.

1997-yilgacha Indoneziyada tashqi qarzning katta miqdori deyarli 100 % i davlat tomonidan olingan edi. O'z navbatida, bu rupiyaning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini pasayishiga olib keldi. Indoneziya bank tizimida yaxshi olib borilmagan fiskal va pul-kredit siyosati natijasida inflyatsiya darajasi yuqorilashib ketdi. Natijada bank sektorining bankrot bo'lishi, YAIM ning pasayishi, ishsizlikning oshishiga sabab bo'ldi. Bunday vaziyatda iqtisodchilar tomonidan fond bozorini rivojlantirishga jumladan, bond va sukuklarni mahalliy investorlarga emissiya qilish taklifi bilan chiqildi. Shu tariqa 2002-yildan boshlab korporativ sukuklar emissiyasi boshlandi. Statistik tahlillar (Granger test, VAR, VD) ga ko'ra sukuk ayniqsa mahalliy suveren sukuk emissiyasi Indoneziya yalpi ichki mahsulotiga, hukumat tomonidan amalga oshiriladigan yirik loyihalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [World Bank, 2018].

Indoneziya dunyodagi eng ko'p musulmon aholisiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Tabiiyki, mamlakatda musulmonlar ulushi qancha ko'p bo'lsa, shariatga mos qimmatli qog'ozlarga talab ham shunchalik yuqori bo'ladi. Nega unda Malayziyadan sukuk emissiyasi bo'yicha ortda turadi degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga asosiy sabablardan biri dastlabki sukuk emissiyasi Malayziya markaziy banki tomonidan emissiya qilingan va yuqori portfelga ega bo'lgan investorlarning hajmi yuqori. Shu sababli ko'pchilik bozorga yangi kirib kelganlar Negara bank sukuklarida risk ko'rsatkichi 0 ga teng deb o'ylaydi. Indoneziya islomiy moliya uchun me'yoriy-huquqiy bazani yaratgan, ammo hali sukuk barqaror moliyalashtirish vositasiga aylanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib bergani yo'q. Indoneziya fuqarolik kodeksi faqat bir tomonning egalik huquqini tan oladi. Bundan tashqari, Indoneziya sukuki tuzilmasi suboptimal ko'rinadi; korporativ emitentlar asosan milliy shariat kengashi tomonidan tasdiqlangan ijara (lizing shartnomasi) va mudoraba (shariklik) dan foydalanadilar. Ijara shartnomasi afzal variant hisoblanadi chunki bu tuzilma asosiy aktivlardan asosiy moddiy vositalar yoki loyihalar shaklida foydalanadi. Bu yangi loyihalar uchun pul yig'ishni rejalashtirayotgan firmalar uchun qiyin bo'lishi mumkin, chunki ularning aktivlari darhol mavjud bo'lmasligi mumkin. Bundan farqli o'laroq, Malayziya korporatsiyalari uskunalar va mahsulotlarni sotib olish uchun ishlatiladigan murobaha sxemasidan foydalanadilar. Bu to'g'ridan-to'g'ri sotish-sotib olish shartnomasini o'z ichiga oladi, unda xarajat va foyda nazarda tutiladi va uni amalga oshirish qulay va emitentlar mavjud aktivlardan foydalanishni talab qilmaydi.

Amalda, sukuk bitimi SPV dan mablag' jalb qilmoqchi bo'lgan tashkilotga bir nechta aktivlarni o'tkazishni talab qiladi. Har bir o'tkazish qo'shimcha soliq majburiyatini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa sukukni an'anaviy obligatsiyalarga nisbatan og'ir ahvolga solib qo'yadi. Indoneziyada har safar o'tkazma sodir bo'lganda, qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Sukuk bo'yicha emitentlar uchun katta soliq yuki mavjud bo'lib, korporativ tashkilotlar uchun sukuk chiqarishni unchalik jozibador qilmaydi. Malayziyada bo'lsa aksincha, teng sharoit yaratish o'rniga, mamlakatning soliq kodeksi an'anaviy obligatsiyalarga nisbatan sukuk emitentlarini afzal ko'radi va bu Malayziyaning sukuk markaziga aylanishiga yana bir rag'bat sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda Indoneziyada sukuk landshaftini rivojlantirish va va risklarni diversifikatsiya qilishga urg'u berilmoqda. Jumladan, mahalliy pensiya jamg'armalari va hayotni sug'urtalash kompaniyalari kabi institutsional investorlarni sukuklarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish ko'zda tutilgan chunki ular investitsiyalarining katta qismi hali ham muddatli depozitlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, institutsional investorlar uchun o'zlarining aktiv-passivlarini boshqarish va ehtiyojlarini qondirish uchun sukuklarni sotib olishning afzalliklari ko'rsatilishi kerak.


Yana bir yo'l sifatida asosiy tarmoqlar aniq belgilab olinishi kerak. Ya'ni moliyalashtiriluvchi soha, sektor va amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar tizimli rejalashtirilishi kerak. Masalan, Malayziyada chiqarilgan korporativ sukukning asosiy qismi moliyaviy xizmat va infratuzilma sektoriga (elektr energiyasi ishlab chiqarish, kommunal xizmatlar, transport va telekommunikatsiyalarni birlashtirgan holda) to'g'ri keladi. Xuddi shunday, infratuzilma loyihalari Indoneziyada aktivlar bilan bog'liqligi sababli sukuk emissiyasining asosiy manbai bo'lishi mumkin. Ya'ni hukumatning ulkan infratuzilma rejasi Indoneziyaning sukuk o'sishi uchun ko'prik vazifasini bajarishi kerak (OECD, 2020).

Shu munosabat bilan, hukumat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan fondlarga (masalan, haj yoki ziyorat fondi) qaratilgan sukuk dasturlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berishi kerak.

Indoneziya hudud jihatdan suvliklar bilan o'ralgan davlat bo'lganligi sababli bu davlatda iqlim o'zgarishlari jumladan sunami, toshqinlar kabi bir qator tabiiy ofatlar ko'proq kuzatiladi.

Yashil moliyalashtirishni rag'batlantirish uchun Indoneziya sayoz moliyaviy bozor cheklovlarini yengib o'tishi va mustahkam makroiqtisodiy asoslarni saqlab qolishi kerak. Yashil obligatsiyalarning afzalliklariga ishonch hosil qilmagan potentsial emitentlarning nisbatan yuqori ulushi hali ham mavjud. Shuningdek, fond bozorining professional ishtirokchilari: maslahatchilar, anderrayterlar va potentsial emitentlarning salohiyatini oshirishga ehtiyoj bor.

Shaffoflik moliyalashtirish bozori faoliyati yaxshilanishining kalitidir. Ro'yxatga olingan kompaniyalarning oshkor qilish standartlari taqqoslanuvchanlik va izchillikni ta'minlash uchun xalqaro miqyosda moslashtirilishi kerak va investorlar yashil loyihalarning xavf profillarini baholay olishi kerak.



1-rasm. Indoneziyada sukuk orqali moliyalashtirilishi kutilayotgan loyihalar

Hozirgi kunda Indoneziyada SDG (Barqaror rivojlanish) maqsadida chiqariladigan yo'nalishlar yuqoridagi diagrammada berilgan. Eng ko'p urg'u berilgan moliyalashtirilishi kerak bo'lgan sohalar sifatida qayta tiklanuvchi energiya moslamalarini ko'paytirish, energiya samaradorligini oshirish kabilardir. Unga ko'ra quyidagi asosiy yo'nalish va maqsadlar belgilab olingan:

–yashil sukuklar uzoq muddatli pensiya fondlarining bo'sh turgan mablag'laridan unumli foydalanish;

–Indoneziyada yashil sukuklar 2030-yilgacha issiqxona chiqindilarini 41% ga kamaytirishi mumkin (Law of the Republic of Indonesia, 2021).

Birinchi marta 2018-yilda Indoneziya hukumati 1,25 milliard AQSh dollariga teng besh yillik amal qilish muddati bilan global suveren yashil sukukni chiqargan. Ushbu yashil sukukni emissiya qilishda quyidagilar bajarilishi kerak bo'lgan. Davlat tomonidan chiqarilganligi sababli, hukumatdan kuchli muvofiqlashtirish va siyosiy iroda talab qilingan. Ya'ni moliya vazirligi qayta tiklanadigan energiya loyihalari bo'yicha ekologiya vazirligi bilan hamkorlik qilishi kerak bo'lgan. Yashil sukuk chiqarishda yuqori xarajat hisobga olinishi kerak chunki loyihani baholash uchun ekologiya bo'yicha tashqi audit yollash zarurati bo'lgan. Bunday vaziyatda mamlakatda investorlar huquqi yaxshi himoyalanganligi sababli yashil sukuklarga qiziquvchi sarmoyadorlarning soni yanada kamayib ketishi holati kuzatilgan (Jivraj, H., 2023).

Ushbu sukuk emissiyasi bo'yicha regulyator tashkilotlar:

–moliya vazirligi, jumladan mamlakat qarzini boshqarish bo'limi;

–energiya va mineral resurslar vazirligi;

–mahalliy qo'mitalar.

Mustahkam me'yoriy-huquqiy baza va barqaror sud tizimi sukuk emitentlari va investorlari uchun huquqiy ishonchni ta'minlash uchun juda muhimdir. Lekin investor huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan, investorni himoya qiladigan qonuniy baza mavjud bo'lmagan.

Indoneziya qonunchiligiga ko'ra, egalik qilish faqat bir tomonda bo'lishi kerak. Shuning uchun foizlarning faqat bir qismini, ya'ni daromad keltiruvchi aktivlarga egalik huquqi bo'yicha foizlarni belgilash va o'tkazish qiyin. Shuningdek, kapital bozori an'anaviy va islomiy qimmatli qog'ozlar uchun bir xil ishlaydigan qonun hujjatlarini ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Yuqori tashkilotlar, vazirliklar o'rtasida ishlar tizimlashtirilgan holatda olib borilmagan. Jarayonni to'g'ri tashkillashtirish uchun har bitta tashkilot majburiyatni o'z zimmasiga olmaganligi sababli jarayon murakkablashgan. Biri imzolagan hujjatdan ikkinchisining xabari bo'lmagan. Natijada ushbu moliyalashtiriluvchi loyihani to'g'ri hisoblay olishda ko'plab muommolarga duch kelingan.

Yuqori emissiya xarajatlari ya'ni kichik hajmdagi sukuk emissiya qilish uchun ham mustaqil baholovchini yollashga to'g'ri kelgan.

Global emissiyada valyuta xavfi mavjud ya'ni sukuk global miqyosda AQSH dollarida chiqarilayotganligi sababli to'lov muddati tugashi bilan valyuta kursi xavfini oldini olish uchun xedjirlash kerak bo'lgan. Bunga sabab so'nggi bir necha yil ichida rupiya zaiflashishi kuzatilgan (Yuliani, D., 2016).

Texnologik tarafdin ushbu sukuk amaliyoti qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirishga qaratilgani bois, mavjud elektr tarmog'idagi kamchiliklarni bartaraf etishga to'g'ri kelgan. Shuningdek ushbu moliyalashtirishda yetakchi soha mutaxassislari yetishmaganligi sababli yashil loyihalarga aynan qaysi loyihalar kirishi kerak degan savolga javob topishda qiynalishgan (Karina, L.A., 2019).

Indoneziyada ham bazi davlatlar kabi elektr energiya tanqisligi mavjud. Ayrim joylariga tez-tez uzilishlar kuzatilib turadi. Shu sababli qayta tiklanuvchi resurlardan foydalanish, quyosh panellarini o'rnatish uchun to'g'ri moliyalashtirish manbasini tanlash va uni tizimli amalga oshirishni talab qiladi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda Turkiyada so'rovnomada qatnashgan aholining 60 foizi "sharikchilik banki" ma'nosini tushunmasligini ma'lum qilgan. 2021-yilda Turkiyaning katta yoshli aholisining qariyb 26 foizi bank hisob raqamiga ega bo'lmagani, bunda aholining 15 foizi diniy sabablarni to'siq sifatida ko'rsatganligi islom bank sektori uchun hali jalb qilinmagan mijozlar bazasi mavjudligini ko'rsatgan. Turkiyada lizing sertifikatlarini sifatida tanilgan muomaladagi sukuk 2023-yil sentabr holatiga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,7 foizga (25,9 milliard AQSh dollari) o'sdi va qarz kapitali bozorining 6,5 foizini tashkil etdi. Fitch Ratings ma'lumotlariga ko'ra, Turkiyada islomiy moliya sanoati 2023-yil sentabrda 90 milliard dollardan oshib, kelgusi bir necha yil ichida 100 milliard dollarga yetishi kutilmoqda (fitchratings.com). Bu hukumat tomonidan sektorning rivoji uchun strategik ahamiyatli qarorlar qabul qilinayotganligi bilan asoslanadi.

Turkiyada aksiyalar, sukuk va ko'chmas mulk sertifikatlarini to'g'risidagi nizomlar Kapital bozori kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda faqat bir nechta davlatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, Malayziya, Qatar va Turkiyada islomiy moliyaviy vositalar uchun qulay soliq tizimlari va asoslari yaratilgan. Jumladan, Turkiya bir nechta sukuk emissiyasiga doir qonunlarini qabul qilgan. Turkiya konstitutsiyasi to'g'ridan to'g'ri islomiy moliyaga ruxsat bermaydi lekin shunga qaramay islom moliyasiga doir ba'zi qonunlar qabul qilingan (Syed Magfur Ahmad).

Masalan, 2010-yil aprel oyida III seriyali 43-sonli "Ijara sertifikatlarini va lizing beruvchi kompaniyalar" to'g'risidagi qonun orqali sukuk ijarasini moliyaviy vosita va foizsiz moliyalashtirish modeli sifatida qonuniylashtirdi. Keyinchalik, 2011-yilda Quvayt Turk hamkorligidagi bank soliq imtiyozini olgandan keyin Turkiyada birinchi sukuk chiqardi. 2013-yilda ijara guvohnomalari to'g'risidagi 61-sonli III seriya bilan turli ijara guvohnomalarini, jumladan, ijara sukuk va boshqa turdagi sukuk modellarini: mushoraka, murobaha, mudoraba va istisno sukukini tartibga soluvchi boshqa qonunlar joriy etildi (Nita Viviani Nurhanifa, 2024).

Turkiyada sukuk emissiyasi to'g'risidagi hujjat 2012-yilda Kapital bozori to'g'risidagi qonunda qamrab olingan. Sukuk operatsiyalari bo'yicha asosiy regulyator tashkilotlarga Kapital bozori kengashi, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va Markaziy hisob-kitob palatasi ham kiradi. Yuqoridagi qonun moliyaviy mahsulotlar va taqdim etilayotgan xizmatlar xilma-xilligini oshirish orqali kapital bozorlarida ko'plab muhim islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo'ldi (IIFM, 2018).

Turkiyada islom moliyasiga e'tibor va qo'llab-quvvatlash hukumat tomonidan bildirilmoqda. 2012-yilda kapital bozori to'g'risidagi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali muqobil moliyalashtiruvchi-sukukka doir qonunning kiritilishi buning yaqqol namunasidir. Turkiyadagi eng kuchli va obro'li moliya guruhlaridan biri bo'lgan Ziroat sharikchilik bankining ochilishi islom banklarini bir pog'ona yuqoriga olib chiqdi [Gökmen DURMUŞ, 2023]. Eng e'tiborga sazovorlisi, 2022-yilda Prezident Erdo'gan tomonidan islom bankchiligi ulushini 2025-yilgacha 3 baravarga oshirish haqida farmoyish berilgani ham ushbu sektorning rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Turkiyada ijara (lizing) sukuk emissiyasi ommalashgan. Bunga asosiy sabablar hujjatlashtirishning oson bitishi, soliq imtiyozlari berilganligi bo'lgan. So'nggi yillarda sukuk bozorining rivojlanishiga huquqiy asoslarning yaratilishi va soliqqa tortishdagi kamchiliklar

bartaraf etilishi ham suveren sukuk takliflarining ortishiga ijobiy turtki berdi deyish mumkin (Ulusoy, A., & Ela, M. 2024).

So'nggi yillarda Turkiya sukuk emissiyasida Blockchain texnologiyalaridan foydalangan holda smart shartnomalarni tuzib kelmoqda. Ushbu bulutli texnologiyalarning afzallik tomonlari quyidagilar: ko'proq investorlarni jalb qilish va yangi bozorlarga kirish, tezkor ishlov berish qobiliyati, shaffoflik va o'zgarimaslik, past tranzaksiya xarajati, operatsion jarayonlarni minimallashtirish, 24/7 uzluksiz bitimlar va hkz. Tuzatilishi kerak bo'lgan tomonlari sifatida keng rivojlanmagan texnologiya, yuqori kapital qiymati, tartibga solishning yo'qligi, dasturiy ta'minotdagi ba'zi xatolarni kiritish mumkin. Smart sukukning an'anaviy sukukdan asosiy farqli tomonlari hisob-kitoblarning hamda huquq va majburiyatlarning avtomatlashgani, an'anaviy sukuk to'lovlarining standartlashtirilganidan iborat. Bu kabi qulayliklar mamlakatdagi emitentlar va investorlar tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi.

1-jadval.

Turkiyada islomiy moliyasi rivojlanishining muhim bosqichlari

Yillar	Yuz bergan o'zgarishlar
1983	Maxsus moliya uylariga asos solinishi
2005	Moliya uylarining sherikchilik banklariga aylanishi
2009	Birinchi takoful kompaniyasiga asos solinishi
2010	Birinchi sukuk emissiyasi
2011	Istanbul fond birjasida islom indexining paydo bo'lishi; Birinchi islom pensiya fondi ochilishi
2012	Kapital bozori qonunida sukukka doir qonun loyihasining kiritilishi
2015	Ziroat hamkorlik bankining ochilishi
2016	Vaqf fondining ochilishi
2017	Oltin indeksli ijara sukuki emissiyasi
2018	Markaziy shariat kengashi tuzilishi
2019	Emlak hamkorlik banki ochilishi; AAOIFI standartlariga asoslangan buxgalteriya va auditga oid standartlarning ishlab chiqilishi
2022	Turkiya iqtisodiy faoliyatini kengaytirish strategiyasiga Islom bank sektori ulushini 2025-yilgacha 5% dan 15% ga oshirish kiritildi

Manbaa: COMCEC. (2020). *Improving Shariah Governance Framework in Islamic Finance*.

Turkiyada hozirgi kunda sukuk bozorini rivojlantirishda qilinayotgan ishlarga to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, sukuk narxlarini baholashda sun'iy neyron tarmoqlari (Artificial Neural Network)dan foydalanishni yo'lga qo'ymoqda. ANN (Artificial Neural Network)– inson miyasini o'qish orqali matematik tarzda ishlab chiqilgan hisoblash modeli hisoblanadi. ANN moliyaviy ma'lumotlarni bashorat qilishda chiziqli modellar bilan eng yuqori aniqlik bilan natijalarni ishlab chiqarishga qodir. So'nggi yillarda moliya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ANN kreditlarni baholash, firma muvaffaqiyatsizligi va bankrotlikni bashorat qilish, kapital tuzilishini optimal baholash, moliyaviy aktivlar narxini prognozlash, firma bahosi, moliyaviy rejalashtirish kabi jarayonlarni maksimal aniqlik bilan hisoblab bermoqda [Özbayoglu, A. M., Gudelek, M. U., & Sezer, Ö. B., 2020]. Sukuk bozorlarida geosiyosiy risk, valyuta kursi va foiz stavkasi riski kabi omillardan kelib chiqqan yuqori noaniqlik ANN modeli orqali minimallashtirilishi mumkin. Loyihalashtirilgan model tufayli investorlar sukuk narxini

bashorat qilishlari to'g'ri investitsiya qilishni va shunga ko'ra o'zlarining savdo qarorlarini qabul qilishi mumkin bo'ladi (Dilsad Tulgen Chetin, 2021).

Turkiyada ham Indoneziyada kabi yashil sukuklar emissiyasi amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, Islom Taraqqiyot Banki bilan chiqarilgan \$ 32,6 mlnlik yashil sukuk Antaliyadagi "ekologik toza transport" loyihasini amalga oshirish uchun chiqarildi. Moliyalashtirish muvafaqqiyatli amalga oshirilgan bo'lib, 18 ta yengil temir yo'l transporti o'rnatilishi natijasida 40 % zaharli gazlarning kamayishi ko'zda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, yashil sukuklar orqali ulkan iqtisodiy salohiyatga ega shaharlarda toza ekologik muhitni yaratish investorlar, sayyohlar va o'sha yerlik aholi uchun ham har tomonlama foydali bo'ladi. Ushbu va shunga o'xshash loyihalar uchun sukuk emissiyasida quyidagi muommolarga duch kelingan:

–yashil loyihalarni moliyalashtirishga yaqin yillarda urg'u berilib kelinayotganligi sababli sukukni chiqarish va amaliyotida ma'lum standartlashtirishning yo'qligi;

–sukuk mablag'larini investitsiya qilishda yashil standartlarga javob beradigan loyihalarni topishda qiyinchilik;

–yashil sukuk yuqori xavf profiliga egaligi;

–yashil sukuk uchun ikkilamchi bozorlarning hali shakllanmaganligi;

–yashil loyihalar haqida investorlar orasida moliyaviy savodxonlikning kamligi.

Indoneziya va Turkiya mamlakatlari aholisining ko'pchiligi musulmon ekanligi bu davlatlarning o'xshashligini ko'rsatib bersa, bu davlatlar sukuk emissiyasidagi me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy sharoitlar kabi bir necha farqlar ko'rib chiqiladi. Turkiya va Indoneziya kapital bozorining joriy holati va ular o'rtasidagi farqli jihatlar haqida quyidagilarni keltirish mumkin:

Iqtisodiy jihatdan so'nggi yillarda Turkiya asosan xizmat ko'rsatish, turizm sohasida yetakchilikni egallab kelmoqda. Indoneziyada esa asosan qishloq xo'jaligi, agroturizm va energetika sohaslarida o'z faolligini namoyon etib kelmoqda.

Sukuk emissiyasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, Indoneziya sukuk emissiyasi bo'yicha kuchli 5 lik davlatlar ro'yxatiga kiradi. Mamlakatda iqlim o'zgarishi nuqtayi nazaridan so'nggi yillarda asosan yashil sukuk emissiyasi amalga oshirilmoqda. Turkiyada kichik va o'rta biznesning o'sishiga, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga ko'proq e'tibor berilmoqda.

Fors ko'rfazi davlatlaridan Saudiya Arabistonida islom moliyasi jumladan, muqobil moliyalashtiruvchi instrumentlar va ularning holati bilan tanishib chiqamiz. Butun islom moliyasi tashkilotlari uchun ko'mak hamda moliyaviy yordam beruvchi Islom taraqqiyot bankining ham Saudiyada joylashganligi ushbu davlatning islom moliyasi sektorida o'z o'rniga ega ekanligidan dalolatdir.

Saudiya Arabistonida eng birinchi sukuk emissiyasi 2004-yilga to'g'ri kelgan bo'lib, uning hajmi 2012-yilga kelib trendga chiqdi. Bunga asosiy sabab sifatida, 2012-yilga kelib davlat xarajatlarining oshishi, foyda ko'rsatkichining pastligi Saudiyada yangi turdagi moliyalashtiruvchi manbaga zarurat borligini ko'rsatdi. So'nggi 3 yil ichida investorlar kapital hajminig pasayishi va o'zgaruvchan muhit mamlakat uchun tashqi kapital jalb qilish salmog'ining kamayishiga sabab bo'ldi. Garchi uzoq muddatli(10 yildan 20 yilgacha) sukuklar chiqarilgan bo'lsa ham investorga 5 yildan keyin so'ndirish huquqi berilgan. Jumladan, 2012-yilning o'zida Fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi tomonidan chiqarilgan \$4 mlrdlik sukuk Qirol Abdulaziz nomidagi xalqaro aeroportni kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan [sabinvest.com]. Saudiyada sukuk emissiyasida muommoli tomonlaridan biri taqqoslanadigan benchmarkning yo'qligi hamda butun islom institutlarida duch kelingan AAOIFI standartlaridan foydalangan holda mahalliy standartlarni ishlab chiqish bo'lgan.

Saudiya Arabistonida sukuk va u bilan bog'liq operatsiyalar Kapital bozori (CMA) tomonidan amalga oshiriladi. Sukuk emissiyasining dastlabki bosqichlarida Saudiyada markaziy shariat kengashi mavjud bo'lmagan. Bunga sabab sifatida kengash tuzish qimmatli qog'ozlarga bo'lgan jamoatchilik ishonchining pasayishiga olib kelishi mumkin deya keltirilgan. Shunga qaramay ba'zi moliyaviy institutlar AAOIFI, Xalqaro islom moliya bozori (IIFM) kabi xalqaro tashkilotlar chiqargan yo'riqnoma va prinsplarga asoslanib faoliyat olib borishgan. Markaziy shariat kengashining mavjudmasligi esa ko'plab nizolar hamda investorlar o'rtasida ishonchsizlikning oshishiga sabab bo'lgan (Ali Alshamrani, 2023).

Saudiya kapital bozori boshqarmasining moliyalashtirish va investitsiyalar bo'yicha yordamchi o'rinbosari Fahad Muhammad bin Hamdanning bayon qilishi bo'yicha: Saudiya Arabistonida yakka tartibdagi investorlarning ulushi 2021-yil oxiridagi taxminan 1 foizdan 2023-yil oxiriga kelib taxminan 12,5 foizgacha o'sgan. Bunday o'sish 2022-yilning to'rtinchi choragida sukukni ommaviy joylashtirishning muvaffaqiyatli yakunlangani ya'ni 125 mingdan ortiq yakka tartibdagi investorlar jalb qilinganligi va shu orqali ichki sukuk va qarz kapitali bozorida investorlar bazasini diversifikatsiya qilishni qo'llab-quvvatlash natijasida yuzaga kelgan. Shuningdek, Fahad Muhammadning ta'kidlashicha davlatning ulushi ham 2021-yil oxiridagi 20 foizdan 2023-yilda 13 foizga kamaygan. Uning aytishicha, kelgusi yillar uchun mahalliy darajada sukuk va obligatsiyalar chiqarishni rag'batlantirish uchun qonunchilik muhitini, emitentlarga imtiyozlarni va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan 16 ta strategik maqsadlar belgilab olingan. Bu maqsadlarga erishish uchun quyidagi bir qator vazifalar belgilab olingan:

- listing va ro'yxatga olish bo'yicha me'yoriy huquqiy bazani yengillashtirish;
- sukuklar bo'yicha me'yoriy-huquqiy baza va imtiyozlarni joriy etish;
- mahalliy kompaniyalar sukuk chiqarishida soliq imtiyozlarini berish.

5.Xulosa.

Umuman olganda yuqoridagi uchta musulmon davlatlarda islom moliyasi, ayniqsa sukuk qimmatli qog'ozlarining emissiyasi va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ushbu sektorning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy jihatdan so'nggi yillarda Turkiya asosan xizmat ko'rsatish, turizm sohasida yetakchilikni egallab kelgan bo'lsa, Indoneziyada asosan qishloq xo'jaligi, agroturizm va energetika sohalarida o'z faolligini namoyon etib kelgan. Saudiya Arabistonida sukuk emissiyasini dastlabki yillarida shariat kengashining tashkil etilmasligi oqibatida ba'zi bir noroziliklarga sabab bo'lgan bo'lib bu investitsiyaviy sukukning jozibadorligini oshirmagan. Kelgusi yillar uchun mahalliy darajada sukuk va obligatsiyalar chiqarishni rag'batlantirishda qonunchilik muhitini, emitentlarga imtiyozlarni va infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan 16 ta strategik maqsadlar belgilab olingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham islom moliyasini rivojlantirish va mavjud fond bozorining holatini yaxshilash, unda alternativ moliyalashtirish manbalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish borasida izchil ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar:

COMCEC. (2020). *Improving Shariah Governance Framework in Islamic Finance*.

Gökmen DURMUŞ, (2023). *A Brief History of Islamic Banking and Its Development*.

International Islamic Financial Market (IIFM). (2022). *Annual Sukuk Report 2018*, 7th Edition.

- Jivraj, H. (2023). *Why So Few Green Sukuk? Sector Still Faces Longstanding Challenges, Say Practitioners*. [online] Salaam Gateway - Global Islamic Economy Gateway.
- Karina, L.A. (2019). Peluang dan Tantangan Perkembangan Green Sukuk di Indonesia. *Proceeding of Conference on Islamic Management, Accounting, and Economics*, 2(0), pp. 259–265. Available at: <https://journal.uui.ac.id/CIMAE/article/view/14165/9772> [Accessed 15 Mar. 2021].
- Law of the Republic of Indonesia No. 9 of 2020 Regarding the State Budget Fiscal Year.
- Nita Viviani Nurhanifa. (2024). *Understanding Sukuk Market Development: An Overview of Opportunities and Challenges*. *Journal of Waqf and Islamic Economic*.
- OECD. (2020). *Growing Momentum for Sovereign Green Bond*. [online] Nordea. Available at: [Accessed 21 Mar. 2022].
- Özbayoglu, A. M., Gudelek, M. U., & Sezer, Ö. B. (2020). Deep learning for financial applications: A survey. *ArXiv:2002.05786v1*. <http://arxiv.org/abs/2002.05786>
- Syed Magfur Ahmad. *Interest-Free Financing: An Overview of Interest-Free Finance in Turkey and Bangladesh*. *International Journal of Social, Political and Economic Research*, Volume 7. <https://doi.org/10.46291/IJOSPERvol7iss2pp272-291>
- Ulusoy, A., & Ela, M. (2024). Sukukunikinci el piyasasorunu. *HukukveİktisatAraştırmalarıDergisi*, 8(1), 55-7.
- World Bank. (2018). *PT SMI Supports Sustainable Development by Issuing the First Corporate Green Bond in Indonesia*. [Text/HTML] World Bank.
- Yuliani, D. (2016). Is feed-in-tariff policy effective for increasing deployment of renewable energy in Indonesia? *WIDER Working Paper Series*. [online] World Institute for Development Economic Research (UNU-WIDER).



RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING SANOAT KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH

Dotsent **Oramov J.J.**

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonlari sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash va prognozlashning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Muallif tomonidan raqamli investitsion faollik ko'rsatkichi kiritilgan moliyaviy barqarorlikning ko'p omilli integral indeksi ishlab chiqilgan. Panel ma'lumotlari asosida qurilgan ekonometrik model moliyaviy samaradorlik va raqamli transformatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini bergan.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlik, sanoat korxonasi, raqamli transformatsiya, ekonometrik modellashtirish, panel regressiyasi, moliyaviy xavfsizlik.

Аннотация. В статье анализируются методологические подходы к оценке и прогнозированию финансовой устойчивости промышленных предприятий в условиях процессов цифровой экономической трансформации. Автором разработан многофакторный интегральный индекс финансовой устойчивости, в который включен показатель цифровой инвестиционной активности. Эконометрическая модель, построенная на основе панельных данных, позволила определить связь между финансовой эффективностью и цифровой трансформацией.

Ключевые слова: финансовая стабильность промышленных предприятий, промышленное предприятие, цифровая трансформация, эконометрическое моделирование, панельная регрессия, финансовая безопасность.

Abstract. This paper develops methodological approaches to econometric modeling of financial stability of industrial enterprises under digital economic transformation. The author proposes a multidimensional integral index of financial stability incorporating digital investment intensity. A panel data regression model is constructed to identify the relationship between financial performance and digitalization factors.

Keywords: financial stability in industrial enterprises, industrial enterprise, digital transformation, econometric modeling, panel regression, financial resilience.

1. Kirish.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ekonometrik modellashtirish — bu korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar (likvidlik, moliyaviy mustaqillik, rentabellik, qarzdorlik, pul oqimlari) hamda raqamli transformatsiya indikatorlari (raqamli texnologiyalar joriy etilishi, avtomatlashtirish darajasi, raqamli xarajatlar ulushi, IT-investitsiyalar samaradorligi) o'rtasidagi miqdoriy, sabab-oqibatli bog'liqliklarni matematik-statistik usullar orqali aniqlash jarayonidir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholash va prognozlash uchun zamonaviy ekonometrik modellar asosida ilmiy-uslubiy yondashuvni ishlab chiqish, hamda raqamli transformatsiya omillarining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini empirik jihatdan asoslashdan iborat.

Bugungi kunda sanoat korxonalari raqamli texnologiyalar ta'sirida faoliyat yuritayotgan sharoitda ishlab chiqarish jarayonlari raqamlashtirilmoqda, xarajatlar tuzilmasi o'zgarib bormoqda, moliyaviy risklar murakkablashmoqda, investitsiya samaradorligiga qo'yiladigan talablar oshmoqda.

Shu sababli moliyaviy barqarorlikni an'anaviy moliyaviy tahlil usullari bilan baholash yetarli bo'lmay, ekonometrik modellashtirish asosida raqamli omillarni inobatga olgan kompleks baholash dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmoqda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun raqamli transformatsiyaning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash zarurati ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ekonometrik modellar yordamida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va samaradorligi oshiriladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Jahonda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi birinchi marta 1990-yillarda kiritilgan bo'lib, iqtisodiy jarayonlarning raqamli texnologiyalar asosida transformatsiyalashuvi korxonalarini boshqarish, moliyaviy oqimlar va biznes modellarida tub o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlab, bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan ta'riflangan va kamaytirish usullari ko'rsatilgan. Xorijiy olimlardan Min Su., Yu Duan (Su M., Duan Y., 2023) Xitoyning yangi energiya sanoatidagi korxonalar uchun raqamli iqtisodiyotning korporativ kredit riskiga ta'sirini panel ma'lumotlar yordamida tahlil qilgan. Ushbu yondashuv shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida moddiy aktivlardan tashqari raqamli aktivlar va ma'lumotlarning iqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda. Katarina Valaskova, Marek Nagy, Denis Juracka (2025) empirik tadqiqotda Yevropa korxonalarini misolida raqamli transformatsiya va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Korxonada ichki xususiyatlari va digitalizatsiya darajasi moliyaviy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qiladi, regression tahlil orqali aniqlagan.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyada moliyaviy barqarorlik risk va noaniqlik sharoitida boshqariladigan tizim sifatida ham talqin etiladi. Ushbu yondashuvda korxonaning moliyaviy barqarorligi ichki va tashqi risklarga (bozor kon'yunkturasi, texnologik o'zgarishlar, raqobat bosimi) moslashish qobiliyati bilan belgilanadi. Aynan shu nuqtai nazardan moliyaviy barqarorlik tushunchasi moliyaviy xavfsizlik, moliyaviy mustaqillik va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'lanadi. (McAfee A., & Brynjolfsson E., 2017). Raqamli texnologiyalar joriy etilishining sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi, rentabellik va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlaydi. Raqamlashtirishni yashirin (intangible) aktiv sifatida talqin qiladi (Altman E.I., (1968). Raqamli transformatsiyaning sanoat korxonalarida xarajatlar strukturasi optimallashtirish, moliyaviy risklarni kamaytirish va barqarorlikni oshirishdagi rolini o'rganadi (Bloom N., Sadun R., & Van Reenen J., 2012). Sanoat

korxonalarining moliyaviy barqarorligi va bankrotlik ehtimolini baholash. Z-score modeli raqamli iqtisodiyot sharoitida keng qo'llaniladi (Engle R.F., 1982). Raqamli menejment va IT-boshqaruv sifatining sanoat korxonalarida moliyaviy samaradorlik va barqarorlikka ta'sirini baholaydi (Bollerslev T., 1986). Tim Bollerslevning fikricha moliyaviy bozorlar va sanoat korxonalarida risk va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yuqori noaniqlik va bozor shoklarining korxonalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganadi. Sanoat korxonalarida dinamik moliyaviy barqarorlik, investitsiya va raqamli aktivlar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladi (Aghion P., Howitt P., & Mayer-Foulkes D. 2005).

Moliyaviy barqarorlik tushunchasining nazariy asoslarini tizimlashtirish, iqtisodiy nazariyada korxonalar faoliyatining uzluksizligi, moliyaviy xavfsizligi va rivojlanish qobiliyatini ifodalovchi asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik ko'pincha korxonaning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlarini uzluksiz moliyalashtirish hamda tashqi iqtisodiy tebranishlarga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha statik moliyaviy holat emas, balki vaqt davomida shakllanuvchi dinamik iqtisodiy jarayon sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligiga asoslanib, ularning innovatsion salohiyati, axborot texnologiyalarini joriy etish darajasi va ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlariga bog'liq.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash, ilmiy abstraksiya, analiz, sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.


4. Tahlil va natijalar.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi ta'sirini bartaraf etish yoki yumshatish uchun amaliyotda quyidagi modellardan foydalaniladi:

- Ko'p omilli regressiya modeli
- Panel ma'lumotlar modeli (Fixed effects, Random effects)
- Logit/Probit modellari (bankrotlik ehtimolini baholashda)
- VAR va VECM modellari (makroiqtisodiy omillar ta'sirini aniqlashda)

Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va bankrotlik ehtimolini baholash.

Z-score modeli raqamli iqtisodiyot sharoitida keng qo'llaniladi. Mazkur chizma kichik va o'rta biznes (KOB) faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi moliyaviy va texnologik omillar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi konseptual modelni aks ettiradi. Modelning markazida moliyaviy inklyuziya joylashgan bo'lib, u moliyaviy tizimning turli elementlarini yagona mexanizmga birlashtiruvchi asosiy bog'lovchi omil sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv moliyaviy xizmatlardan keng va teng foydalanish KOB rivojlanishining muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.



1-rasm. Moliyaviy inklyuziya, raqamli moliya va texnologiyani qabul qilish modelining kichik va o'rta biznes samaradorligiga ta'siri: konseptual tadqiqot modeli

Modelning chap qismida joylashgan moliyaviy foydalanish imkoniyati, moliyaviy resurslarning mavjudligi va moliyaviy xizmatlar sifati moliyaviy inklyuziyani shakllantiruvchi asosiy determinantlar sifatida keltirilgan. Ushbu omillar H1–H3 gipotezalari orqali moliyaviy inklyuziyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu esa kredit, jamg'arma, sug'urta va to'lov xizmatlarining qulayligi va sifati oshgani sari tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy tizimga integratsiyasi kuchayishini anglatadi.

Moliyaviy inklyuziyaning KOB faoliyati samaradorligiga bevosita ta'siri H4 gipotezasi orqali ifodalangan. Ushbu bog'lanish moliyaviy resurslardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish hajmi, daromadlilik, bandlik va bozor raqobatbardoshligining oshishini tushuntiradi. Demak, moliyaviy inklyuziya nafaqat vositachi omil, balki mustaqil ravishda iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi muhim faktor hisoblanadi.

Modelda raqamli moliya moliyaviy inklyuziya va KOB samaradorligi o'rtasidagi muhim vositachi mexanizm sifatida kiritilgan (H5). Raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash, mobil bank xizmatlari va fintech yechimlar moliyaviy xizmatlardan foydalanish tezligi va qulayligini oshirib, kichik biznesning operatsion xarajatlarini kamaytiradi. Natijada raqamli moliya moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy samarasini kuchaytiruvchi katalizator vazifasini bajaradi.

1-jadval.

Sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan ekonometrik modellar tahlili

Model turi	Qo'llash sohasi	Afzalliklari	Cheklovlari
Panel regressiya (Fixed / Random Effects)	Bir nechta sanoat korxonalari kesimida moliyaviy barqarorlik va raqamli indikatorlar o'rtasidagi bog'liqlikni baholash	<ul style="list-style-type: none"> - Vaqt va korxonalar kesimini birlashtiradi - Individual farqlarni hisobga oladi - Empirik natijalarning ishonchlilikligi yuqori 	<ul style="list-style-type: none"> - Ma'lumotlar bazasiga yuqori talab - Endogenlik muammosi yuzaga kelishi mumkin
ARDL modeli	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining qisqa va uzoq muddatli dinamikasini tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> - Turli integratsiya darajasidagi o'zgaruvchilar bilan ishlaydi - Qisqa va uzoq muddatli ta'sirlarni ajratadi 	<ul style="list-style-type: none"> - Asosan kichik tanlama uchun mos - Ko'p o'zgaruvchili tizimlarda murakkablashadi
VAR modeli	Moliyaviy barqarorlik va raqamli omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni aniqlash	<ul style="list-style-type: none"> - O'zgaruvchilarni endogen sifatida ko'radi - Impuls-reaksiya tahliliga imkon beradi 	<ul style="list-style-type: none"> - Natijalarni iqtisodiy talqin qilish murakkab - Ko'p parametrlil model
VECM modeli	Uzoq muddatli muvozanat va qisqa muddatli og'ishlarni tahlil qilish	<ul style="list-style-type: none"> - Kointegratsiyani hisobga oladi - Muvozanatga qaytish tezligini baholaydi 	<ul style="list-style-type: none"> - Faqat kointegratsiya mavjud bo'lganda qo'llaniladi - Murakkab metodologiya
Logit / Probit modellari	Moliyaviy barqarorlik yoki nobarqarorlik ehtimolini baholash	<ul style="list-style-type: none"> - Bankrotlik va risk tahlili uchun qulay - Natijalar ehtimollikda ifodalanadi 	<ul style="list-style-type: none"> - Doimiy emas, diskret natija - Dinamik ta'sirlarni to'liq aks ettirmaydi
Dinamik panel modellari (GMM)	Moliyaviy barqarorlikning kechikkan ta'sirlarini hisobga olish	<ul style="list-style-type: none"> - Endogenlik muammosini kamaytiradi - Dinamik bog'liqlikni aks ettiradi 	<ul style="list-style-type: none"> - Instrumentlar tanlovi murakkab - Natijalar sezgir
Prognoz modellari (ARIMA, SARIMA)	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini prognozlash	<ul style="list-style-type: none"> - Prognoz aniqligi yuqori - Texnik jihatdan sodda 	<ul style="list-style-type: none"> - Sabab-oqibat bog'liqligini ochib bermaydi - Strukturaviy omillar cheklangan

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini raqamli iqtisodiyot sharoitida baholashda yagona universal model mavjud emas. Tadqiqot maqsadi, ma'lumotlar tuzilmasi va tahlil ufqiga qarab, bir nechta ekonometrik modellarni kompleks qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

5. Xulosa

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalari moliyaviy barqarorligini ekonometrik modellashtirishiga oid tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni shakllantirish, ilmiy taklif va

amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi: Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki raqamli texnologiyalar, axborot oqimlari va boshqaruv qarorlarining samaradorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo'lishi, moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy mohiyati rentabellik, likvidlik, moliyaviy mustaqillik, pul oqimlari va risklar o'rtasidagi dinamik muvozanat orqali shakllanishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ushbu bog'liqliklar yanada tezkor va moslashuvchan tus olishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy barqarorlikni ekonometrik modellashtirish statik yondashuvlardan voz kechib, vaqt bo'yicha o'zgaruvchan, ko'p omilli va integrallashgan modellarni qo'llashni talab etishi, moliyaviy barqarorlikni ekonometrik modellashtirishning asosiy tamoyillari – tizimlilik, komplekslik, moslashuvchanlik, barqaror rivojlanish va prognozlilik tamoyillari raqamli iqtisodiyot sharoitida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi ko'rsatib berildi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli transformatsiya, texnologik yangilanish va axborot oqimlari samaradorligi orqali shakllanishi, likvidlik, rentabellik, moliyaviy mustaqillik va xatarlarni boshqarish kabi elementlarning dinamik o'zaro bog'liqligini aniqlash mumkinligi hisobga olindi.

Adabiyotlar:

Aghion, P., Howitt, P., & Mayer-Foulkes, D. (2005). The effect of financial development on convergence. *Quarterly Journal of Economics*, 120(1), 173–222.

Alimkhanovna A.N. *Applying Effective Methods to Stabilize Inflation: the Role and Importance of Monetary Policy in Curbing Inflation. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(4), 1–4.

Altman, E. I. (1968). Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy. *Journal of Finance*, 23(4), 589–609.

Bloom, N., Sadun, R., & Van Reenen, J. (2012). The organization of firms across countries. *Quarterly Journal of Economics*, 127(4), 1663–1705.

Bollerslev, T. (1986). Generalized autoregressive conditional heteroskedasticity. *Journal of Econometrics*, 31(3), 307–327.

Engle, R. F. (1982). Autoregressive conditional heteroskedasticity with estimates of the variance of United Kingdom inflation. *Econometrica*, 50(4), 987–1007.

McAfee, A., & Brynjolfsson, E. (2017). *Machine, platform, crowd: Harnessing our digital future*. New York, NY: W. W. Norton & Company.

Su, M., Duan, Y. (2023). The digital economy and corporate credit risk: An empirical study based on Chinese new energy enterprises. *Frontiers in Energy Research*, 11, Article 1141793.

Valaskova, K., Nagy, M., & Juracka, D. (2025). Digital transformation and financial performance: an empirical analysis of strategic alignment in the digital age. *Journal of Economic Change*, 19(5), 1178–1195.



JORIY BIOLOGIK AKTIVLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH MASALALARI

Ravshanov A.B.

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Joriy biologik aktivlar o'zining qisqa hayot sikli va hosil olishga yo'naltirilganligi bilan alohida hisobga olish tartibini talab qiladi. Ushbu maqolada joriy biologik aktivlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha tasniflanishi, ularni buxgalteriya hisobining milliy standarti va moliyaviy hisobotning xalqaro standarti bo'yicha aktiv sifatida tan olish va baholashning farqli jihatlari yoritib berilgan.*

Keywords: *qishloq xo'jaligi mahsulotlari, joriy biologik aktivlar, biotransformatsiya jarayoni, biologik aktivlarning haqiqiy tannarxi, adolatli qiymatni o'lchash, keyingi o'lchov.*

Аннотация: *Текущие биологические активы требуют особого учета из-за своего короткого жизненного цикла и направленности на получение урожая. В данной статье освещены классификация текущих биологических активов по экономической сущности, различия в их признании и оценке в качестве активов по национальным стандартам бухгалтерского учета и международным стандартам финансовой отчетности.*

Ключевые слова: *сельскохозяйственная продукция, текущие биологические активы, процесс биотрансформации, фактическая стоимость биологических активов, измерение справедливой стоимости, последующее измерение.*

Abstract: *Current biological assets require a separate accounting procedure due to their short life cycle and focus on harvesting. This article highlights the classification of current biological assets by economic nature, the differences in their recognition and valuation as an asset according to the National Accounting Standard and the International Financial Reporting Standard.*

Keywords: *agricultural products, current biological assets, biotransformation process, actual cost of biological assets, measurement of fair value, subsequent measurement.*

1. Kirish.

Bugungi kunda qishloq xo'jalik korxonalarining samaradorligini oshirish maqsadida fermer xo'jaliklariga qaysi mahsulotni etishtirish, uni qayta ishlash va sotish bo'yicha katta imkoniyatlar berilmoqda, qishloq xo'jaligida mahsulotlarni etishtirishdan tortib ularni qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish, sotish, jumladan eksportni amalga oshirish maqsadida klaster tizimi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 10 dekabrda qishloq xo'jalik xodimlari kuni munosabati bilan bo'lgan uchrashuvdagi ma'ruzasida 2025 yilda qishloq xo'jaligi sohasida

erishilgan natijalarni quyidagicha baholadi: “Joriy yilda xalqimizning 3,5 milliondan ziyod vakili mehnat qilayotgan qishloq xo‘jaligida katta marralarga erishildi.

Paxtachilikda mirishkor dehqon va fermerlarimiz tomonidan 875 ming gektar erda 4 million tonnaga yaqin xirmon yaratildi. Ilk bor paxtada o‘rtacha hosildorlik 46 sentnerga etdi. G‘allakorlarimiz bu yil 8 million 400 ming tonna xirmon yaratdi, o‘rtacha hosildorlik esa 85 sentner bo‘ldi.

Sholikorlarimiz joriy yil 268 ming gektarda sholi ekib, 1 million 340 ming tonna hosil oldi, o‘rtacha hosildorlik 50 sentnerga etdi. Uch yilda 155 ming gektar bog‘ va uzumzor barpo etildi, intensiv bog‘lar 150 ming gektarga etkazildi. Joriy yilda 3,4 million tonna meva, 2 million tonna uzum, 19,5 million tonna sabzavot, poliz va kartoshka, 1 million tonna dukkakli va moyli ekinlar etishtirildi.

Yil boshidan oziq-ovqat eksporti 37 foizga o‘shib, 3 milliard dollarga etdi, yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich ilk bor 3,2 milliard dollardan oshadi. Mevasabzavotlarimiz kirib borgan davlatlarning soni 18 taga ko‘payib, 83 taga etdi” (president.uz).

Bugungi kunda qishloq xo‘jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabida tashkil etish uchun qator muammolar mavjud:

Ko‘pchilik fermer xo‘jaliklarda buxgalteriya hisobi to‘liq tashkil etilmagan. Hisobotlar faqat soliq maqsadlarida tuziladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun biologik aktivlarni to‘g‘ri baholash, hisobga olish va hujjatlashtirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro investorlar oldida shaffoflikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, joriy biologik aktivlar (masalan, bug‘doy, paxta, sabzavot ekinlari) o‘zining qisqa hayot sikli va hosil olishga yo‘naltirilganligi bilan alohida hisob tartibini talab qiladi. Ushbu masalalarning dolzarbligi biologik aktivlar hisobini tadqiq qilishni taqozo etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olim A.S.Boltaev (2024) mamlakatimizda BAlar hisobiga oid yondashuvlarni uch guruhga ajratadi:

- *birinchi guruh* tadbirkorlik sub’ektlari amaldagi 21-son BHMSda biologik aktivlar tarkibiga kiruvchi aktivlar mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun belgilangan schyotlar tarkibida tegishli analitik schyotlarni ochgan holda yuritishmoqda;

- *ikkinchi guruh* tadbirkorlik sub’ektlari 21-son BHMSda belgilangan schyotla asosida MHXS talablaridan kelib chiqqan holda tegishli schyotlarni qo‘shish va o‘zgartirishlar kiritish orqali alohida MHXS bo‘yicha schyotlar rejasini ishlab chiqib yuritishmoqda;

- *uchinchi guruh* tadbirkorlik sub’ektlari vakolatli organ tomonidan tavsiya etilgan namunaviy schyotlar rejasida belgilangan schyotlardan foydalanib kelishmoqda” (A.C.Болтаев., 2024).

A.Eraliev tan olish qoidalarni quyidagicha “Tadbirkorlik sub’ekti biologik aktivni yoki qishloq xo‘jaligi hosilini tan olishi lozim, faqatgina qachonki:

(a) tadbirkorlik sub’ekti aktivni o‘tgan xodisalar natijasida nazorat qilsa;

(b) tadbirkorlik sub’ektiga aktiv bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy manfaatlar oqimi sodir bo‘lishining ehtimoli mavjud bo‘lsa; va

(v) aktivning haqqoniy qiymati yoki tannarxi ishonchli baholansa” (A.Эралиев, 2022).

O.G. Popova (2009) “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari biologik aktivlardan ajratib olishda (o‘simlikshunoslikda bu hosilni yig‘ishtirishda bug‘doy, meva, chorvachilikda – qirqim, sog‘ish va yig‘ish natijasida olingan jun, sut, tuxum, asal yoki biologik aktivlarning hayot faoliyatini

tugatish jarayonini tugatish) biologik aktiv elementi sifatida tugallanadi va alohida aktiv sifatida tan olinadi” (O.Г.Попова).

Kirg'izistonlik olimlar Isroilov T.M. va boshqalar (2023) “Bizning fikrimizcha, IFRS bo'yicha biologik aktivlarni hisobga olishning tavsiya etilgan metodologiyasi qabul qilinishi mumkin emas, chunki bizning tadqiqotlarimiz va ayrim jihatlarini amaliy qo'llashimiz biologik aktivlarni faqat uzoq muddatli aktivlar sifatida hisobga olish mumkin emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun savol tug'iladi, nima uchun bizning fikrimizcha dehqon (fermer) xo'jaliklarining hisobini tashkil etishda biologik aktivlarni ishlab chiqarish siklining davomiyligi bo'yicha tasniflash zarur? Ushbu tasnif aktivni uzoq muddatli va qisqa muddatli deb tan olish imkonini beradi. Shuning uchun biologik aktivlar qisqa muddatli aktivlar bo'limida va uzoq muddatli aktivlar bo'limida hisobga olish mumkin” deb xulosaga kelishgan (Исраилов Т.М., 2023).

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida joriy biologik aktivlar va ularni hisobga olinishining metodologiyasini o'rganish maqsadida ilmiy tadqiqot faoliyati olib borishning iqtisodiy-statistik, analiz va sintez, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar.

Qisqa muddatli (joriy) biologik aktivlar – bu bir vegetatsiya mavsumi davomida o'sib, hosil berib, hayot sikli yakunlanadigan qishloq xo'jaligi ekinlaridir. Bu turdagi o'simliklarga don ekinlari (bug'doy, arpa, sholi), texnik ekinlar (paxta, zig'ir, kungaboqar), sabzavot va poliz ekinlari (kartoshka, pomidor, qovun) va boshqalarni kiritish mumkin.

Joriy biologik aktivlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha tavsiflash mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Joriy biologik aktivlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha tavsiflanishi

№	Iqtisodiy guruhi	Qisqacha tavsif	Misollar
1	Oziq-ovqat ekinlari	Inson iste'moli uchun asosiy oziq-ovqat manbai	Bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa va b.
2	Texnik ekinlar	Sanoatda qayta ishlash uchun xom ashyo beradi	Paxta, qand lavlagi, kungaboqar, soya va b.
3	Ozuqabop ekinlar	Chorva mollari uchun em-xashak sifatida etishtiriladi	Sudan o'ti, beda, makkajo'xori va b.
4	Sabzavot ekinlari	Yangi yoki qayta ishlangan holda iste'mol qilinadi	Pomidor, bodring, karam va b.
5	Dorivor ekinlar	Tibbiyot va farmasevtikada qo'llaniladi	Romashka, yalpiz, issop va b.
6	Manzarali ekinlar	Bezak va ko'kalamzorlashtirish uchun etishtiriladi	Astra, kalendula, kosmeya va b.

Joriy biologik aktivlar biologik aktiv sifatida quyidagi shartlar bajarilganda tan olinadi:

- Korxonada aktiv ustidan nazoratga ega bo'lsa;
- Kelgusida iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo'lsa;
- Aktivning qiymati ishonchli baholansa.

Quyida joriy biologik aktivlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida hisobga olishdagi asosiy farqlar 2-jadval ko'rinishida keltirilgan.

2-jadval.

Joriy biologik aktivlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida hisobga olishdagi asosiy farqlar

No	Solishtirish mezozi	MHXS (IAS 41) bo'yicha	BHMS bo'yicha
1	Hisob ob'ekti	Biologik aktiv sifatida tan olinadi	Asosan ishlab chiqarish xarajatlari ob'ekti sifatida
2	Tan olish sharti	Nazorat, iqtisodiy naf va ishonchli baholash mavjud bo'lishi kerak	Ekish va parvarishlash xarajatlari amalga oshirilganligi asos qilinadi
3	Dastlabki baholash	Adolatli qiymat – sotish xarajatlari chiqarilgan holda	Haqiqiy tannarx (rejali yoki haqiqiy) bo'yicha
4	Keyingi baholash	Har hisobot sanasida adolatli qiymatda qayta baholanadi	Qayta baholash amalga oshirilmaydi
5	Qiymat o'zgarishlarini aks ettirish	Foyda yoki zarar tarkibida darhol tan olinadi	Moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir etmaydi
6	Hosil yig'im-terimi paytida	Mahsulot adolatli qiymatda baholanadi	Mahsulot haqiqiy tannarxda kirim qilinadi
7	Keyingi hisob	IAS 2 «Zaxiralar» standartiga o'tkaziladi	Tovar-moddiy zaxiralar hisobi qoidalariga muvofiq
8	Hisobotda ochib berish	Batafsil axborot va baholash usullari ochib beriladi	Axborot ochib berish cheklangan
9	Moliyaviy hisobotga ta'siri	Aktivlar va foyda o'zgaruvchan bo'lishi mumkin	Hisobot ko'satkichlari barqaror
10	Investorlar uchun shaffoflik	Yuqori	Nisbatan past

BHMSga asosan joriy biologik aktivlar unib chiqishi va chiqmasligidan qa'tiy nazar ishlab chiqarish xarajatlari ob'ekti sifatida tan olinadi. Joriy biologik aktivlar ekish va parvarishlashga qilingan xarajatlari 2010-“Asosiy ishlab chiqarish” xarajatlari schyotining debetida hisobga olinadi. Bu hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

1. Urug'lik erga ekilganda ekilgan urug'lik summasiga:

Dt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”,

Kt 1010-“Xom-ashyo va materiallar (urug'lik analitik schyoti)”.

2. Ekin maydoniga o'g'itlar berilganda sarflangan o'g'itlar summasiga:

Dt 2010-“Asosiy ishlab chiqarish”,

Kt 1010-“Xom-ashyo va materiallar (o'g'itlar analitik schyoti)”.

3. Urug'likni ekish xarajatlari summasiga:

Dt 2010-"Asosiy ishlab chiqarish",

Kt 2310-"Yordamchi ishlab chiqarish (mashina-traktor parki xarajatlari)" va boshqalar.

4. Mahsulotni yig'ish paytidagi kirim qilingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari summasiga (reja yoki haqiqiy tannarxga):

Dt 2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar",

Kt 2010-"Asosiy ishlab chiqarish".

MHXSga muvofiq joriy biologik aktivlar aktiv sifatida quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilganda tan olinadi:

- xo'jalik tomonidan nazorat qilinishi omillari mavjud bo'lsa, ya'ni masalan, urug' ekilib, o'simlik korxonada er maydonida o'sish jarayoniga kirgan bo'lsa.

- xo'jalikka kelgusida iqtisodiy naf keltirishi ehtimoli mavjud bo'lsa, ya'ni hosil olish, sotish yoki qayta ishlash imkoni mavjud bo'lsa.

- xo'jalik tomonidan ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar qiymatini ishonchli bahola mumkin bo'lsa, ya'ni adolatli qiymat yoki uni aniqlash imkoni bo'lmasa, boshlang'ich xarajatlar orqali.

Amaliyotda joriy biologik aktivlar urug' ekishning o'zida emas, balki nihol chiqqandan, biologik o'sish jarayoni boshlangandan boshlab xo'jalik ushbu o'simlik ustidan real nazorat o'rnatgan paytdan boshlab biologik aktiv sifatida tan olinadi.

Amaldagi 21-BHMSda biologik aktivlarni hisobga oladigan schyotlar belgilanmagan. Bizning fikrimizcha, amaldagi schyotlar rejasidagi 1200-"Joriy biologik aktivlar (o'simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar" deb nomlash va bu schyot tarkibida quyidagi schyotlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz:

1210-"Oziq-ovqat ekinlari";

1220-"Texnik ekinlar";

1230-"Ozuqabop ekinlar";

1240-"Sabzavot ekinlari";

1250-"Dorivor ekinlar";

1260-"Manzarali ekinlar";

1290-"Boshqa bir yillik o'simliklar".

Nihol unib chiqqandan, o'simlik vujudga kelgandan keyin ishlab chiqarish xarajatlari biologik aktivlar deb tan olinadi. Bu hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 1200-"Joriy biologik aktivlar (o'simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar",

Kt 2010-"Asosiy ishlab chiqarish".

Shu paytdan boshlab o'simliklar baholanadi (agar adolatli qiymatni aniqlash imkoni bo'lsa).

Adolatli qiymat – bu bozor ishtirokchilari o'rtasida odatiy shartlarda aktivni sotish mumkin bo'lgan narx.

Agar adolatli qiymatni ishonchli aniqlab bo'lmasa, biologik aktivlar tannarx bo'yicha, yig'ilgan amortizatsiya va qadrsizlanish chiqarilgan holda baholanadi.

Joriy biologik aktivlar (o'simliklar)ni o'sish davridagi qiymatining o'zgarishiga, agar adolatli qiymat oshsa:

Dt 1200-"Joriy biologik aktivlar (o'simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar",

Kt 9390-"Boshqa operatsion daromadlar (biologik aktivlarni qayta baholashdan daromad)".

Agar adolatli qiymat kamaysa:

Dt 9430-"Boshqa operatsion xarajatlar (biologik aktivlarni qayta baholashdan zarar)".

Kt 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar”.
Biologik aktivning hayotiy faoliyati tugab, mahsulot olinganda yoki hosil yig’ib olinganda:
Dt 2810-“Tayyor mahsulot (qishloq xo’jaligi)”,
Kt 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar”.
Hosil yig’ib olingan paytdan boshlab mahsulot zaxiralar hisoblanadi.

5. Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro hisob amaliyotida “biologik aktivlar” moliyaviy hisobotning muhim ob’ekti sifatida tan olinadi.

Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga moslashtirish, biologik aktivlar hisobiga doir rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanilishiga erishish bu barcha mamlakatlarning milliy moliyaviy hisoboti uchun muhim va dolzarb masalalaridan biri bo’lib qolmoqda.

Qishloq xo’jaligi sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun biologik aktivlarni to’g’ri baholash, hisobga olish va hujjatlashtirish moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro investorlar oldida shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

BHMSga asosan joriy biologik aktivlar unib chiqishi va chiqmasligidan qa’iy nazar ishlab chiqarish xarajatlari ob’ekti sifatida tan olinadi.

MHXSga muvofiq joriy biologik aktivlar urug’ ekishning o’zida emas, balki nihol chiqqandan, biologik o’sish jarayoni boshlangandan boshlab xo’jalik ushbu o’simlik ustidan real nazorat o’rnatgan paytdan boshlab biologik aktiv sifatida tan olinadi.

Bizning fikrimizcha, amaldagi schyotlar rejasidagi 1200-“Joriy biologik aktivlar (o’simliklar)ni hisobga oluvchi schyotlar” deb nomlash va bu schyot tarkibida quyidagi schyotlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz:

- 1210-“ Oziq-ovqat ekinlari”;
- 1220-“ Texnik ekinlar”;
- 1230-“ Ozuqabop ekinlar”;
- 1240-“ Sabzavot ekinlari”;
- 1250-“ Dorivor ekinlar”;
- 1260-“ Manzarali ekinlar”;
- 1290-“Boshqa bir yillik o’simliklar”.

Adabiyotlar:

Ravshanov A.B. *Biologik aktivlarni hisobga olishning nazariy masalalari va ularni amaliyotda qo’llash muammolar.* <https://dspace.kstu.uz/items/080c5f61-a1ec-4401-9e13-96ac8fc9dc87>

4-сон БҲХС “Қишлоқ хўжалиги” <https://nrm.uz/contentf?doc=708861> (ias) 41qishloq_ho%E2%80%98jaligi_buhgalteriya_hisobining_halqaro_standarti_(AV tomonidan_09_12_2022_y_3400-son_bilan_ro%E2%80%98yhatga olingan moliya vazirining_10_11_2022_y_61-son_buyrug%E2%80%98iga_26-ilova)&products=1 vse zakonodatelstvo uzbekistana

A.C.Болтаев. Биологик активлар ҳисобининг услубий жиҳатларини такомиллаштириш // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2024 yil 1-son (yanvar-fevral). <http://iqtisodiyot.tsue.uz/journal> 39-40-betlar

А.Эралиев. Биологик активлар ва улардан олинадиган маҳсулотлар ҳисобининг халқаро стандартлар бўйича таснифи ва тавсифи // *Ekonomika-socium*. №6 (97), 2022. <https://sciup.org/ekonomika-socium>

Исраилов, Т. М., Курманбекова, А. А., Н. Тимур кызы. Биологические активы: признание, классификация, оценка и учет согласно МСФО // *Социальное предпринимательство и корпоративная социальная ответственность*. – 2023. – Т. 4, № 3. – С. 171-188. – DOI 10.18334/social.4.3.120881

О.Г.Попова. Оценка биологических активов. // <https://finotchet.ru/articles/444/>

Президентимиз қишлоқ хўжалик хидимлари билан мулоқат қилди // <https://president.uz/uz/lists/view/8763>

Равшанов А. Биологик активларни тан олиш ва баҳолаш масалалари. <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/3431>.



AHOLI DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Ruziyev G'U.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Maqolada aholi daromadlari va ularni soliqqa tortishning ilmiy-nazariy va iqtisodiy asoslari o'rganilgan, daromadlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimini takomillashtirish mumkin bo'lgan mavjud soliq nazariyalari nazariy tahlil qilinib, ijobiy jihatlari ochib berilgani holda tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *daromad, aholi daromadlari, soliq, soliqqa tortish, soliqlar vositasida rag'batlantirish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются научные и теоретические основы доходов населения и их налогообложения, рассмотрены научно-теоретические и экономические основы доходов населения и их налогообложения, теоретически проанализированы существующие налоговые теории, способные совершенствовать современную систему налогообложения доходов, выявлены их положительные аспекты, сформулированы соответствующие выводы и рекомендации.*

Ключевые слова: *доход, доходы населения, налог, налогообложение, стимулирование с помощью налогов.*

Annotation. *The article examines the scientific-theoretical foundations of population income and its taxation, The scientific-theoretical and economic foundations of population income and its taxation have been studied; existing tax theories that could improve the modern income tax system have been theoretically analyzed, their positive aspects revealed, and relevant conclusions and recommendations have been developed.*

Keywords: *income, household income, tax, taxation, tax incentives.*

1. Kirish.

Keyingi yillarda aholining turmush darajasi va yashash sharoitlarini yanada yaxshilash borasida mamlakatimizda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan samarali islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada oldimizga 2030-yilgacha daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan. Aholi daromadlarini oshirish borasida belgilanadigan tadbirlar mazkur maqsadga erishish bilan bir qatorda xalqimizning farovonligini yuksaltiradi. Shuningdek, bu iqtisodiyotning kengayishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Tahlillarga ko'ra, aholi daromadi 10 foizga ko'paysa, iste'mol 8 foizga oshadi. Bu – yangi mahsulot va

xizmatlarga talab, degani, bu – qo‘shimcha quvvatlar, qo‘shimcha ish o‘rni, degani” (Muraajatnom, 2025). Aholi daromadlarining oshishi biznes subyektlarining tovar va xizmatlariga talabni oshirib, ularning faoliyati kengayishi va yangi ish o‘rinlarini tashkil etishga ijobiy ta‘sir qiladi. Shu bois, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Aholi daromadlarini ko‘paytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan samarali fiskal instrumentlardan biri soliqlar hisoblanib, ular aholi daromadlari oshishini rag‘batlantiradi. Shu sababli, aholi daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy va iqtisodiy asoslarini tadqiq qilish, daromadlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimini takomillashtirish mumkin bo‘lgan mavjud soliq nazariyalarini nazariy tahlil qilib, ijobiy jihatlari ochib berilgani holda tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda aholi daromad tushunchasi borasida turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular mazmunidan kelib chiqib turlicha talqin qilinadi. Jumladan, F.Egamberdiyev va boshqalarning qayd etishicha, «aholi daromadi deyilganda, ularning ma‘lum vaqt oralig‘ida, odatda bir yilda olgan pul mablag‘lari va moddiy ne‘matlari (uy xo‘jaligida ishlab chiqarilgani bilan birga) summasi tushuniladi» (Egamberdiyev F.T. va boshqalar, 2014). X.Abdurahmanov boshchilidagi mualliflar guruhining qarashicha, «aholining umumiy daromadiga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi, hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi”» (Abdurahmanov X.X va boshqalar., 2014). Professor T.Jo‘rayevning ta‘kidlashicha «aholi daromadlari deyilganda, ularning ma‘lum vaqt davomida (masalan, bir yilda) pul va natural shaklda olgan barcha daromadlari miqdori tushuniladi» (Jo‘rayev. T.T., 2017). Professor Sh.Shodmonov fikriga ko‘ra, «aholi daromadlari ma‘lum vaqt oralig‘ida (masalan bir yilda) ular tomonidan olingan pul va natural shakldagi tushumlar miqdorini anglatadi» (Shodmonov Sh., 2021). Rossiyalik iqtisodchi olim E.Takmakovaning ta‘kidlashicha, «aholi daromadi ma‘lum bir vaqt ichida shaxs yoki xonadon tomonidan olingan pul va natura ko‘rinishidagi tushumlar to‘plamini ifodalaydi; shu bilan birga, aholi daromadi jamiyatdagi taqsimot munosabatlarining natijasidir» (Такмакова Е.В., 2021).

Aholi daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy - nazariy asoslari borasida iqtisodiy tafakkur vakillari J.M.Keyns, D.Lokk, V.Petti izlanishlarida daromadlarga progressiv soliq solish eng baland darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar o‘rtasida farqning kamayishi haqida xulosalar keltirilgan. R.Masgreyv, I.Gorskiy, V.Panskov va boshqalar ta‘rifida adolat prinsiplarini qaror toptirish uchun soliqning progressiv stavkasini soliq chegirmalaridan keng tarzda foydalangan holda ishlatish eng afzal yo‘ldir (Горский И.В., 1992). M.Aleksenko daromad solig‘i -jamiyatning boy va kam daromadli qismini yarashtirishning bir shaklidir deya ta‘riflaydi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi, olim E.Gadoyev jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq - fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o‘tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to‘lovlaridir-deya ta‘riflaydi (Gadoyev E.F., 2015). A.Adizov ta‘kidlashicha, “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar-davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko‘rsatiladigan xizmatlar haqi bo‘lib, ularni mablag‘ bilan ta‘minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo‘yilgan hajm va o‘rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to‘lovdir” (A.Adizov., 2004). Professor O.Abduraxmonov fikricha daromad solig‘ining soliq siyosatidagi ahamiyati faqat byudjet daromadlaridagi salmog‘i bilangina emas, balki mamlakatdagi mehnatga qobiliyatli aholining manfaatdorligiga daxldorligi bilan ham belgilanadi (Abduraxmonov O., 2005).

3. Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy tafakkur, guruhlash, taqqoslash, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar.

Barcha davlatlarda ham aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish eng muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada aholi daromadlarini ko'paytirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan fiskal instrumentlardan biri soliqlar hisoblanib, ular aholi daromadlari oshishini rag'batlantiradi. Shu sababli, aholi daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini tadqiq qilish, daromadlarni soliqqa tortishning zamonaviy tizimini takomillashtirish mumkin bo'lgan mavjud soliq nazariyalarini nazariy tahlil qilib, ijobiy jihatlarini o'zlashtirish lozim bo'ladi.

Aholi daromadlarini soliqqa tortishning ilmiy - nazariy asoslarini o'rganish borasida asosiy vazifa fuqarolar daromadlarini soliqqa tortishning zamonaviy tizimini takomillashtirish mumkin bo'lgan mavjud soliq nazariyalarini nazariy tahlil qilish asosida ularning ijobiy jihatlarini yoritib berishdan iborat. Shunga ko'ra, iqtisodiy tafakkur vakillari (J.M.Keyns, D.Lokk, V.Petti va boshqalar)ning ilmiy ishlarida keltirilishicha jismoniy shaxslarga progressiv soliq solish eng baland darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar o'rtasida farqning kamayishi haqida xulosalar keltirilgan. Ammo shu bilan birga, boshqa olimlar, jumladan R.Masgreyv, I.Gorskiy, V.Panskov va boshqalar ta'rif berishicha faqat progressiv shkalani joriy etish muammoning yechimini topishda yagona mazmunga ega bo'lgan harakat bo'la olmaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda daromadga soliq solishning qayta taqsimlash salohiyatidan faol foydalanuvchi davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, adolat prinsiplarini qaror toptirish uchun soliqning progressiv stavkasini soliq chegirmalaridan keng tarzda foydalangan holda ishlatish eng afzal yo'ldir (Горский И.В., 1992).

M.Aleksenko daromad solig'ining barcha mamlakatlarda joriy etilishining sabablarini izohlab, "daromad solig'i -jamiyatning boy va kam daromadli qismini yarashtirishning bir shaklidir", degan edi.

Y.N.Yevstigneev ta'kidlashicha, daromad solig'i - bu davlat tomonidan qo'llaniladigan, bir tomondan, aholining real daromadlari darajasiga ta'sir ko'rsatadigan, ikkinchi tomondan, byudjetning daromad qismini tashkil etadigan iqtisodiy dastakdir (Евстигнеев Е.Н., 2001).

I.V. Gorskiy so'zlariga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i nafaqat aholidan olinadigan soliqlar ichida eng muhimi, balki har qanday zamonaviy soliq tizimining markazida ham turadi. Bu nafaqat barcha ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tarzda shaxs, xodim uchun yopiqligi, balki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining og'irligi ko'p jihatdan boshqa soliqlar darajasini belgilab berishi bilan bog'liq (Горский И.В., 1992).

M.P. Sokolning fikricha daromad solig'ining ahamiyati bir qator omillarga bog'liq. Ya'ni, birinchidan, bu individual (shaxsiy) soliq, ya'ni, obyekt ma'lum iqtisodiy sharoitlarda olinishi mumkin bo'lgan hisoblangan o'rtacha daromad emas, balki to'lovchi tomonidan haqiqatda olingan daromad bo'lgan soliq. Ikkinchidan, daromad solig'i jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari: soliq yukining umumiylik va bir xilligini maksimal darajada amalga oshirish imkonini beradi (Сокол М.П., 1992).

Yuqorida aholidan undiriladigan daromad solig'i to'g'risida ko'plab olim va izlanuvchilarning o'zlarining ilmiy qarashlarida fikrlarini bayon etganliklariga e'tibor qaratdik. Mamlakatimizda mahalliy olimlar tomonidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish hamda ularni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish borasida qator ilmiy tadqiqot olib borilgan Xususan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, olim E.Gadoyev jismoniy shaxslar

daromadlaridan soliq - fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentsiz majburiy to'lovlaridir-deya ta'riflaydi (Gadoyev E.F., 2015).

Iqtisodchi olim A.Adizov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan izlanish olib borib, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan. Uning ta'kidlashicha, "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar-davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdur" (Adizov A., 2004). Shuningdek, deklaratsiya tizimini takomillashtirish maqsadida yalpi daromadni, ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash bilan bog'liq qator xarajatlarni unda to'liq aks ettirishni taklif etgan..

Professor O.Abduraxmonov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalariga doir doktorlik dissertatsiyasini yozgan bo'lib, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda ahamiyatiga e'tibor qaratgan. Xususan, daromad solig'ining soliq siyosatidagi ahamiyati faqat byudjet daromadlaridagi salmog'i bilangina emas, balki mamlakatdagi mehnatga qobiliyatli aholining manfaatdorligiga daxldorligi bilan ham belgilanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqning mavjudligi fiskal ehtiyojlardan tashqari, fuqarolarning daromadlari darajasini tartibga solish zarurligi bilan izohlanadi. Daromad solig'i stavkalarining katta kichikligiga qarab faqat daromadning o'zinigina emas, shu bilan birga aholining iste'mol qobiliyatini ham qisqartirish mumkin bo'lib, bu hol inflatsiyani jilovlab turish uchun sharoit yaratadi.

Professor A. Islamqulov jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ahamiyati, jismoniy shaxslarning soliq to'lovchi maqomini aniqlash tamoyillarini, ushbu soliq turi soliq stavkalarining so'nggi o'n yillikdagi o'zgarish dinamikasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining byudjet daromadlari va bevosita soliq tushumlaridagi ulushini, rivojlangan davlatlarda jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish xususiyatlarini yoritgan holda uni O'zbekistonda qo'llash yuzasidan fikrlarini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlash maqsadida ushbu soliq tushumlarini to'lig'icha hududlarning o'ziga o'tkazib berish lozimligini, soliq solinmaydigan minimumni joriy etishni taklif qilgan (Islamkulov A.X., 2014).

Professor Sh.Qiyosov tomonidan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Uning ta'rifiga ko'ra, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i - qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat byudjetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lovdur (Qiyosov Sh.U., 2019). A.Bozorov esa deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha izlanish olib borgan. Uning xulosasiga ko'ra, jismoniy shaxslarning deklaratsiyalanadigan daromadlariga soliq solishni takomillashtirish jismoniy shaxslarga nisbatan soliq yukining kamayishi, aholi real daromadlarining ko'payishi hamda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi (Bozorov A.A.). Shu bilan birga, fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarini oliy ta'lim muassasalarida turmush o'rtog'ining ta'lim olishi uchun to'lovga yo'naltirilganda deklaratsiya asosida soliq imtiyozlarini qo'llash taklif etilgan.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat shu yo'l bilan milliy daromad


taqsimotini amalga oshiradi. Daromad solig'i jismoniy shaxslar faoliyatining turli sohalaridan olinadigan shaxsiy daromadning bir qismini qayta taqsimlash vositalaridan biri bo'lib maydonga chiqadi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (barcha soliqlar kabi) ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining manbai aholining iste'mol fondidir yoki taqsimlash jarayonlarini hisobga olganda esa milliy daromadning bir qismidir. Shunday qilib, jismoniy shaxslar daromadidan soliq undirilishining zarurligi ijtimoiy manfaatlar ustunligida namoyon bo'lmoqda. Buning ma'nosi shuki, daromad solig'idan foydalanish aholining nominal pul va real daromadlari darajasini muayyan tarzda tartibga solish zarurligi bilan bog'liqdir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i aholining pul daromadlari darajasiga ta'sir qiladi, shu bilan birga davlat soliqni olinadigan daromadlardan yanada maqsadga muvofiq foydalanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida ishga soladi. Daromad solig'i tufayli daromadlarning, avvalo yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari foydasiga umuman jamiyat manfaatlari yo'lida yuqorida takidlanganidek qayta taqsimlash sodir bo'ladi. Daromadlardagi tengsizlik darajasi ma'lum darajada qisqaradi.

Soliq aholi va davlat o'rtasidagi soliq munosabatlarining uyg'unlashuvini ta'minlashi lozim. Davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliqqa tortishning makroiqtisodiy vositasi orqali aholining daromadlarini qayta taqsimlashda tartibga soluvchilik va rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarar ekan, avvalambor aholining daromadlarini turli manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona tartibga solib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i yuqorida zikr qilib o'tganimizdek, shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga egaki, boshqa soliqlarda bu holatni sezish mushkulroq. Chunki ushbu soliq har bir soliq to'lovchining hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, aholi daromadlarini soliqqa tortishning nazariy asoslari soliqqa tortishning asosiy prinsiplari va soliq yukini adolatli taqsimlash zaruratiga asoslangan. Bunda soliq solishning prinsiplari (masalan, majburiylik, adolatlilik) va makroiqtisodiy vazifalar (daromadlarni tartibga solish, tengsizlikni kamaytirish, qayta taqsimlash, aholining hayot darajasi va iste'molini qo'llab quvvatlash, ijtimoiy himoya, bandlikni ta'minlash, norasmiy bandlikni qisqartirish, daromadlarni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va b.) hisobga olinadi va shular asosida aholi daromadlari soliqqa tortilishi lozim bo'ladi. Aholi daromadlarini soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyati ulardan undiriladigan soliqning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga bilan belgilanadi. Bugungi kunda aholi daromadlari byudjet tushumlari barqarorligini ta'minlashda muhim manbalaridan biri hisoblanib, uning roli yildan-yilga oshib bormoqda. Bu borada, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu miqdor keyingi yillarda doimiy ravishda ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi tahlili⁵

Mazkur rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda 2021-2024-yillar mobaynida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumi o'sib borish dinamikasiga ega bo'lgan. Jumladan, ushbu soliq tushumi miqdori 2021-yilda 18 917,7 mlrd.so'mni, 2022-yilda 24 284,5 mlrd.so'mni, 2023-yilda 29 917,4 mlrd.so'mni va 2024-yilda 35 384,0 mlrd.so'mni tashkil etgan. Mazkur davrda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdori 35 384,0 mlrd.so'm yoki 1,9 baravarga oshgan. Fikrimizcha, bu natijalarga erishishga aholi daromadlari miqdorining oshishi hamda uning manbalari kengayishi ijobiy ta'sir qilgan.



2-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'i dinamikasi⁶

⁵ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ Иқтисодиёт ва молия вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi rolini chuqurroq tushunish uchun uning byudjet daromadlaridagi hissasiga e'tibor qaratish lozim. Shu maqsadda tadqiqot davomida mazkur soliqning byudjet tushumlaridagi ulushi tahlil qilindi. Bu quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'ini tahlil qiladigan bo'lsak, respublikamizda oxirgi 4 yilda bu ko'rsatkich o'sish dinamikasiga ega bo'lgan. Jumladan, mazkur soliq turining byudjet daromadlari tarkibidagi salmog'i 2021-yilda 11,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilda 12,0 %ga, 2023-yilda 12,9 %ga oshgan va 2024-yilda ham ushbu miqdor saqlanib qolgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'i 2024-yilda 2021-yilga nisbatan taqqoslaganda 1,4 %ga o'sgan. Bu o'zgarishlar daromad solig'i tushumining ko'payishi bilan bog'liq.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantiradigan asosiy soliq turlaridan biri hisoblanadi. Uning byudjet tushumlaridagi hajmi ham hissasi ham doimiy ravishda oshib bormoqda. Mazkur soliq tushumlarining roli aholi turmush sifatini yaxshilashda beqiyosdir. Chunki, ushbu mablag'lar aholi uchun qulay hayot sharoitlarini yaratish uchun zarur bo'lgan xarajatlarga sarflanadi. Shuningdek, soliq hisobidan shakllantirilgan byudjet mablag'lari ijtimoiy muhtoj fuqarolarga moddiy ko'mak sifatida ajratiladi.

5. Xulosa.

Umuman olganda, amalga oshirilgan izlanish va tahlil natijalari asosida xulosa qilib aytish mumkinki, aholi daromadlariga soliq solish byudjet tushumlarini shakllantirish bilan birga daromadlarni qayta taqsimlash hamda tengsizlikni pasaytirish imkonini beradi. Shuningdek, soliq imtiyozlari aholi daromadini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi daromadidan undiriladigan asosiy soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisoblanib, uning iqtisodiy mohiyati byudjet tushumlaridagi hissasi bilan belgilanadi. Hozirda ushbu soliqning davlatimiz byudjeti daromadlaridagi salmog'i 12,9 %ni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mazkur soliq turi iqtisodiy ahamiyati mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun juda yuqoridir.

Mamlakatimizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda fuqarolar daromadini oshirishni rag'batlantirishning ayrim jihatlari borasida diqqatga sazovor tadqiqotlar bajarilgan. Biroq, aholi daromadini oshirishni soliqlar vositasida rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks tadqiq etilmagan. Soliqlar aholi daromadlarini oshirishni samarali instrumenti hisoblanadi. Bunda, ular yangi ish o'rinlarini tashkil etish, fuqarolarni biznesga jalb qilish, daromadli aholi sonini ko'paytirish va kambag'allik darajasini pasaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Shu bois, aholi daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan soliqlarning rag'batlantiruvchi mexanizmlarini tadqiq etgan holda ularni takomillashtirish zarur.

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi daromadlarini soliqqa tortish hamda fuqarolarning daromadini soliqlarning rag'batlantiruvchi mexanizmlar asosida ko'paytirishning huquqiy asoslari yaratilgan. Xalqning daromadini oshirishni rag'batlantirish borasida soliq imtiyozlari joriy etilgan bo'lib, fuqarolarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan hamda daromadli aholi sonini oshirish uchun ish beruvchilarga ijtimoiy soliqlardan imtiyozlar berilgan. Aholi daromadini soliqlar vositasida oshirish maqsadida jismoniy shaxslarning daromadini ko'paytirishga qaratilgan rag'batlantirish choralari belgilangan soliqqa doir normalarni kengaytirish lozim.

Adabiyotlar:

Abdurahmanov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. *Aholi daromadlari va turmush sifati*. – T.: Ilm Ziyo, 2014. 256 b.

Abduraxmonov O. *Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari*. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2005-y.

Adizov A. *Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish*. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2004-y.

Bozorov A.A. *Deklaratsiya asosida soliqsolinadigan daromadlar va ularni soliqqa tortishni takomillashtirish*. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.

Egamberdiyev F.T., Topildiyev F.T., Hamraqulov J.X. *Iqtisodiyot nazariyasi*. O'quv qo'llanma. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014. – 224 b.

Gadoyev E.F. Soliqqa tortish tartibtaomillarini takomillashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili // *Iqtisod va moliya. Ekonomika i finansy*. 2015, №1, 30–37-b.

Islamkulov A.X. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlarini shakllantirishdagi o'rni // *BOZOR, PUL VA KREDIT / РЫНОК, ДЕНГИ И КРЕДИТ*. Ilmiy-amaliy oylik jurnal. 2/2015. B. 45–52.

Jo'rayev T.T. *Iqtisodiyot nazariyasi*. (O'quv qo'llanma). – T.: «Fan va texnologiya», 2017. 640 bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "*Xalq so'zi*" gazetasi, 2025-yil 27-dekabr, № 274 (9169).

Qiyosov Sh.U. *Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish*. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2019.

Shodmonov Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik*. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.

Горский И.В. *Налоги в рыночной экономике*. М.: Анкил, 1992. С. 52.

Евстигнеев Е.Н. *Налоги и налогообложение: учеб. пособие*. М.: ИНФРА-М, 2001. С. 214.

Изотова О.И. *Перспективы реформирования налога на доходы физических лиц как инструмента социальной политики государства*. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. М., 2014.

Сокол М.П. О подоходном налоге с физических лиц. УРЛ: <http://www.lawmix.ru/bux/152473>

Такмакова Е.В. *Регулирование доходов населения на основе формирования системы социальной стандартизации (в предметной сфере «доходы населения»)*. Автореф. дисс. Орел, 2021.



TIJORAT BANKLARINING BIZNES EKOTIZIMI MUAMMO VA YECHIMLARI

Shoymardonov O.J.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarda biznes ekotizimlarning vujudga kelishi hamda mamlakatimiz tijorat banklarida biznes ekotizimini joriy etish jarayonlari keltirib o'tilgan. Ekotizim doirasida bank xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish yo'llari, bank biznes ekotizimining mohiyati, rivojlanish tarixi hamda tijorat banklarida biznes ekotizimining afzalliklari rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co'z boradi. Xususan, maqolada innovatsiyalarni joriy etish asosida tijorat banklarida biznes ekotizimining faoliyati samaradorligini oshirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif tavsiyaviy yondashuvlari va takliflari keltirilgan. Shuningdek, bank ekotezimlarida vujudga kelgan muammolar va ularning yechimlari to'g'risida tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, innovatsiya, raqamli biznes, ekotizim, innovatsion xizmatlar, yangi xizmat turlari, bank biznesi ekotizimlari.

Аннотация: В данной статье описывается возникновение бизнес-экосистем в банках и процессы внедрения бизнес-экосистем в коммерческих банках нашей страны. Рассматриваются пути повышения эффективности банковских услуг в рамках экосистемы, сущность банковской бизнес-экосистемы, история ее развития и перспективы повышения эффективности развития преимуществ бизнес-экосистемы в коммерческих банках. В частности, в статье представлены существующие проблемы повышения эффективности бизнес-экосистемы в коммерческих банках на основе внедрения инноваций, а также рекомендуемые автором подходы и предложения по их устранению. Также приводятся рекомендации по проблемам, возникшим в банковских экосистемах, и их решениям.

Ключевые слова: коммерческий банк, инновации, цифровой бизнес, экосистема, инновационные услуги, новые виды услуг, банковские бизнес-экосистемы.

Abstract: This article describes the emergence of business ecosystems in banks and the processes of introducing a business ecosystem in commercial banks of our country. It discusses ways to improve the efficiency of banking services within the ecosystem, the essence of the banking business ecosystem, its history of development, and the prospects for improving the development of the advantages of the business ecosystem in commercial banks. In particular, the article presents existing problems in increasing the efficiency of the business ecosystem in commercial banks based on the introduction of innovations, as well as the author's recommended approaches and proposals for their elimination. It also provides recommendations on the problems that have arisen in banking ecosystems and their solutions.

Keywords: *commercial banking, innovation, digital business, ecosystem, innovative services, new types of services, banking business ecosystems.*

1. Kirish.

Bugun an'anaviy bank tizmi orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish daromad olish nuqtai nazaridan ortda qolmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda banklar faoliyatini ma'lum bir raqamli ekotizimlarda jamlash yetarlicha samara berishi tahlillar natijasida ma'lum bo'ldi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tadqiqotlari ham shuni ko'rsatadiki, "fintech va raqamli to'lov ekotizimlarining kengayishi tufayli rivojlangan mamlakatlarda banklarning foizsiz daromadlari ulushi 2020-2024 yillarda 32 foizdan 46 foizga oshgan" (IMF, 2024).

O'zbekiston bank tizimida raqamli to'lov ekotizimi nafaqat kengayib borayotganini, balki mijoz ehtiyojlarini qondirish darajasi ham sezilarli darajada oshayotganini ko'rsatadi. Elektron kartalar sonining keskin ko'payishi, bankomatlar tarmog'ining kengayishi, terminal to'lovlari hajmining yildan-yilga o'sishi bularning barchasi raqamli moliyaviy xizmatlar aholining kundalik to'lov amaliyotida asosiy vositaga aylanganini, banklar esa mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda innovatsion platformalardan faol foydalanayotganini anglatadi.

O'zbekiston tijorat banklarida raqamli transformatsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi, ya'ni 2020-2024 yillar davomida joriy etilgan yangi bank xizmatlari soni 8 tadan 25 tagacha oshib, ularning tarkibida raqamli mahsulotlar ulushi 20 foizdan 65 foizga yetgan bo'lib, bu banklar tomonidan mijoz ehtiyojlariga mos, masofaviy va innovatsion xizmatlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilayotganini, xizmatlar portfelining esa an'anaviy modellaridan raqamli ekotizimga yo'naltirilayotganini anglatadi.

Bank biznesi ekotizimining mazmuni va mohiyatini tushunish moliya sanoatining murakkabliklarini boshqarish, asosli qarorlar qabul qilish va keng iqtisodiyot doirasida bank sektorining barqarorligi va o'sishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Aynan tijorat banklari bank biznesi yekotizimidagi asosiy sub'ektlardir. Ular jismoniy shaxslarga ham, korxonalariga ham turli xil xizmatlarni taklif qilib, moliya sanoatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xizmatlar depozitlar va kreditlar kabi an'anaviy funksiyalardan investitsiyalar va to'lovlarni qayta ishlash bo'yicha yanada murakkab takliflarga qadar. Ushbu ko'p qirrali rol tijorat banklarini iqtisodiy faoliyatni osonlashtirish va iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining biznes ekotizimini rivojlantirish istiqbollari bilan bog'liq tadqiqot ishlari ko'plab yetakchi mahalliy va xorijiy iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan.

Gollandiyalik iqtisodchi olim Marta Szymanowska (2014) bank ekotizimlarining turli jihatlarini, shu jumladan moliyaviy innovatsiyalarning ta'siri va banklarning iqtisodiyotdagi rolini o'rganib chiqqan.

Iqtisodchi olim A.Ivanov (2011) bank biznesidagi ekotizim konsepsiyasi mijoz uchun umumiy qiymat bilan bog'liq bo'lgan bir nechta xizmatlarning bitta foydalanuvchi interfeysga qo'shilishi qator qulayliklar yaratadi deya fikr bildirib o'tgan .

McKinsey konsalting tashkiloti hisobotiga ko'ra, «dunyodagi banklarda xususiy kapital rentabelligi (ROE, 2015) bir joyda muqim turib qolgan, ya'ni oxirgi 10 yilda bu ko'rsatkich o'rtacha 8-10 foiz atrofida bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilga borib 5,2-9,3 foiz oralig'ida bo'lishi taxmin qilinmoqda». Mazkur holat bank tizimining moliyaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, «ekotizim mexanizmini rivojlantirishga undamoqda. Bunda elektron tijorat onlayn platformalari banklarga o'z mijozlari bilan yaqin aloqada bo'lib turish bilan birga ularning

moliyaviy ahvoli, psixologik portreti, xohish-istaklarini aniqlash imkonini beradi».

MJ.Yakobides, K.Kennamo, A.Gaver(2021) o'z tadqiqotlarida ekotizim tushunchasini aniqlash bo'yicha ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatishadi: birinchi yondashuvda ekotizim ma'lum darajada ishlab chiqarish va ishlab chiqarish omillariga nisbatan o'zaro bog'liq bo'lgan tashkilotlar guruhi sifatida qaraladi, ikkinchisida esa, o'zaro bog'liq texnologiyalar tizimi sifatida e'tirof etishadi.

R.Adner (2017) o'z ilmiy qarashlarida, ekotizimlarni ikkita asosiy yo'nalish: ekotizimlar mansublik sifatida (ecosystems as affiliation) va ekotizimlar tuzilish sifatida (ecosystems as structure) talqin etadi. Bunday holda, ekotizim, mansublik sifatida, an'anaviy sanoat chegaralarini yo'q qilishga va bir xil sanoat ichida ham, tarmoqlararo darajada ham kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va simbiyotik munosabatlarning o'sishiga qaratiladi. Tuzilma sifatida ekotizim bo'lsa, qiymat taklifini yaratishni o'rganishga va ma'lum bir qiymat taklifiga erishish uchun o'zaro ta'sir qilishga e'tibor qaratiladi. R.Adnerning ta'kidlashicha, mansublik sifatida ekotizim tushunchasi mutlaqo yangi tushuncha emas, balki korxonani umumlashtirilgan yoki makro darajada o'rganadigan biroz takomillashtirilgan tushunchadir. Shuningdek, Ron Adner ekotizimni "ma'lum qiymat takliflarini amalga oshirish uchun o'zaro ta'sir qilishi kerak bo'lgan va innovatsion faoliyatning uyg'unligini ta'minlaydigan tuzilma bilan o'zaro bog'langan ko'p tomonlama sheriklar to'plami" deb ta'riflaydi.

R.Kapur, A. Gaver, M. Kusumano, G. Parker, M. Van-Alstinlar (2017) o'z ilmiy izlanishlarida platformalarga asoslangan biznes ekotizimlariga e'tibor qaratishadi va mahsulot ekotizimlari (product-based ecosystems) va platforma ekotizimlari (platform-based ecosystems) o'rtasidagi tushunchalarni ajratadilar.

Bank biznesining ekotizimi – bu bank faoliyati uchun biznes muhitini tashkil etuvchi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar, unsurlar, mahsulotlar va xizmatlar majmuidir. Bank biznesining ekotizimiga nafaqat bankning o'zi va uning mijozlari, balki turli sheriklar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar ham kiradi. Bular fintech kompaniyalari, to'lov tizimlari, sug'urta kompaniyalari, moliyaviy ma'lumotlarni yig'uvchilar va bozorning boshqa ishtirokchilari bo'lishi mumkin.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida tijorat banklarida biznes ekotizimidan foydalanish yo'llari nazariy tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsiyalarni joriy etish asosida tijorat banklarida biznes ekotizimi faoliyati samaradorligini oshirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizda-gi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.


4. Tahlil va natijalar.

Maqolada banklarning ekotizimlarini tushuntirishdan avval uning ta'rifini berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bank biznesi ekotizimlari – bu moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun birgalikda ishlaydigan o'zaro bog'liq tashkilotlar, xizmatlar va texnologiyalar tarmog'idir. Ular mijozlar uchun innovatsion va samarali yechimlarni yaratish uchun banklar, moliya institutlari, texnologiya provayderlari va bozorning boshqa ishtirokchilarini birlashtiradi. Bank biznesi ekotizimlarining yana bir muhim jihati texnologiya provayderlari va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirishdir. Buning yordamida banklar o'z mahsulotlari

va xizmatlarini yaxshilash uchun ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanishlari mumkin.

Bank biznesi ekotizimining asosiy maqsadi mijozlarga integratsiyalashgan formatda keng ko'lamli moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etishdir. Turli sheriklar bilan hamkorlik tufayli banklar o'z mijozlariga onlayn to'lovlar, investitsiya bo'yicha maslahatlar yoki sug'urta kabi qo'shimcha xizmatlarni taklif qilishlari mumkin.

Ekotizimlarni moliyaviy va bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning yangi vositasi sifatida tahlil qilishda, "ekotizim" atamasini ilmiy nuqtai nazardan, uning tuzilishi va turli xil xususiyatlarga ko'ra mohiyatini anglash lozim. Shunday qilib, hozirgi vaqtda ilmiy asarlarda ekotizim mohiyatining bir qancha ta'riflari mavjud bo'lib, ular birinchi navbatda kompaniyalarning yo'nalishi, maqsadlari va ularni o'rganish burchagi bilan farq qiladi. Bugungi kunda bank biznesiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, uni o'zgartirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish rurlarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Ko'pgina mualliflar banklar uchun biznes ekotizimlarni yaratishning ahamiyati, ularning afzalliklarini, shuningdek, moliya bozorining rivojlanishiga ta'siri haqida fikrlar bildirishmoqdalar.



1-rasm. Raqamli bank ekotizimlarining belgilari⁷

Xususan, bank biznesi atrofida ekotizimlarni tashkil etish zarurligi, ularning banklar uchun xususiyatlari va afzalliklari, bank biznesini tubdan ko'rib chiqish, ekotizimda ishlash sharoitida uning biznes modelini o'zgartirish masalalari alohida e'tibor qaratilishiga qaramay, banklar uchun biznes ekotizimida duch keladigan muammolar haligacha to'lig'icha o'rganilmagan.

A.Kobilko ekotizimni iqtisodiyotning turli sohalaridan mahsulot va xizmatlarni birinchi navbatda yagona brend ostida va yuridik shaxsga murojaat qilmasdan taklif qiluvchi korxonalar majmuasi deb ta'rif beradi.

Biroq, bu holda, dissertatsiya muallifining so'zlariga ko'ra, yekotizimlarning yuqori

⁷Muallif ishlanmasi

darajadagi o'zaro bog'liqlik va ekotizim ishtirokchilari o'rtasidagi bir-birini to'ldirish kabi fundamental va o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmaydi. Ekotizim tushunchasining iqtisodiy ta'rifini keng ma'noda uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1-jadval.

Ekotizim tushunchasining guruhlanishi⁸

№	Guruh nomi	Ekotizim guruhining mohiyati
1.	Tadbirkorlik ekotizimi	u kompaniya yoki kompaniyalar guruhini va uning ishbilarmonlik muhitini anglatadi, tadbirkorlik ekotizimi kengroq tushunchaning ajralmas qismi-ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimdir
2.	Innovatsion ekotizim	ma'lum bir yangilik yoki yangi innovatsion qiymat taklifini va uni qo'llab-quvvatlovchi ishtirokchilar guruhini ifodalaydi
3.	Biznes ekotizimi	qiymat taklifini yaratish uchun o'zaro ta'sir qiluvchi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar guruhini anglatadi

Ta'kidlash joizki, biznes ekotizimlarining tanlangan guruhlari gibril bo'lishi mumkin, ammo biznes ekotizimlarini qurishda modellardan biri odatda ustunlik qiladi. Yuqorida o'rganilgan ta'riflarga asoslanib, raqamli biznes ekotizimi konsepsiyasiga asoslanamiz va yekotizimni, shuningdek, bank ekotizimini kompaniyalar yoki xizmatlar va mahsulotlar to'plami sifatida ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan iqtisodiyotning turli tarmoqlaridan) o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi, bitta tashkilot atrofida birlashtirilgan, shu jumladan platforma soni yakuniy nafaqa oluvchining ehtiyojlarini yanada samarali qondirish va bozorda o'z raqobatbardoshligini oshirish (yagona uzluksiz integratsiyalashgan jarayon doirasida) [8]. Shuni ham yodda tutish kerakki, ushbu jarayonda ekotizim tushunchasini belgilashda raqamli muhitga ixtisoslashgan kompaniyalarni nazarda tutiladi.

Tijorat banklari ekotizimlari kelajakda mijozlar bilan muloqot qilishning muhim usuli bo'ladi. Ekotizimlar orqali moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan xizmatlarning kombinatsiyasi mijoz uchun raqobatning zaruriy shartiga aylanadi. Ushbu integratsiyalashgan xizmatlarni taklif qiluvchi banklar an'anaviy moliyaviy xizmatlarni taqdim etishdan tashqariga chiqadi va mijozlarning keng ehtiyojlarini qondiradi.

Bank ekotizimlari rivojlanishining hozirgi jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Raqamlashtirish: banklar bank xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalarni faol ravishda joriy qilmoqdalar. Bunga mobil ilovalar, Internet-banking, tranzaksiyalar uchun onlayn platformalar va blockchain kabi yangi texnologiyalardan foydalanish kiradi.

2. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish: banklar mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish, shaxsiy takliflar yaratish va big data asosida qarorlar qabul qilish uchun sun'iy intellekt va mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadilar. Bu banklarga xavflarni baholashning aniqligini oshirishga, firibgar operatsiyalarni aniqlashga va jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. Kross – platforma: bugungi kunda foydalanuvchilar o'zlarining bank xizmatlaridan turli xil qurilmalar – kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar va hattoki ovozi qurilmalar orqali

⁸ Muallif ishlanmasi

foydalanishni kutmoqdalar. Banklar qurilmadan qat'i nazar, xizmatlarga yagona va qulay kirishni ta'minlash uchun platformalararo dasturlar va interfeyslarni ishlab chiqmoqdalar.

4. Ekotizimni rivojlantirish: banklar turli xil moliyaviy xizmatlar va mahsulotlarni bitta platforma ostida birlashtirgan ekotizimlarni yaratishga intilishadi. Masalan, bu bank xizmatlarining sug'urta xizmatlari, investitsiyalar, to'lov tizimlari va hatto chakana savdo do'konlari bilan kombinatsiyasi bo'lishi mumkin. Bunday ekotizimlar mijozlarga barcha kerakli moliyaviy xizmatlarni bir joyda olish va bank bilan o'zaro munosabatlar jarayonini soddalashtirish imkonini beradi.

5. Ma'lumotlarni himoya qilish: raqamli operatsiyalar sonining ko'payishi va onlayn bank xizmatlaridan foydalanish bilan kiberhujumlar va mijozlar ma'lumotlarining tarqalishi xavfi ortadi. Banklar shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya va mijozlar ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash uchun shubhali faoliyatni nazorat qilish kabi ma'lumotlarni himoya qilish texnologiyalarini faol ravishda amalga oshirmoqdalar.

Bank ekotizimlarini rivojlantirishning ushbu jihatlari banklarga raqobatbardosh bo'lishga, zamonaviy xizmatlarni taklif qilishga va mijozlarning moliyaviy xizmatlardan tez va qulay foydalanish ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Tijorat banklari biznes ekotizimi hisobvaraqlarni ochish va yuritish, kreditlar berish, valyuta ayirboshlash, investitsiyalar, sug'urta va boshqa ko'p xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bank ekotizimi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish uchun qulay va xavfsiz muhit yaratadi hamda bitta platformada turli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni ta'minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda biznes ekotizimlarining rivojlanishi odatda yuqori texnologiyali kompaniyalar (BigTech) bilan bog'liq bo'lsa, unda mamlakatimizda ularni yaratish turli xil, ya'ni ko'pincha bir-biriga bog'liq bo'lmagan tarmoqlar va hududlarning bizneslarini birlashtirgan taniqli brendga ega bo'lgan tizim shakllantiruvchi banklar asosida boshlanadi. Mamlakatdagi eng yirik banklar ekotizimlarni yaratish uchun eng munosib poydevor hisoblanadi, chunki ular keng mijozlarga ega, maksimal foyda olish uchun zamonaviy biznes haqiqatlariga moslashishga tayyor va mijozlar haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.


Tijorat banklari biznes ekotizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar 2-rasmda keltirilgan.

Raqamli ekotizimning "eskrou" tizimi funksiyalarini bajarishi munosabati bilan bitta shaxsiy hisobvaraqdan hisob-kitoblar va to'lovlar hamda tomonlarning shartnoma majburiyatlari kafolati bajarilishini ta'minlash.

2024-yil 1-yanvarga qadar Raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlari uchun foyda solig'i stavkasi 50 foizga kamaytiriladi.

Tovarlar (xizmatlar) elektron savdosini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar uchun, ular Elektron tijorat ishtirokchilarining milliy reestriga kiritilgan yoki kiritilmaganligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 337 va 467-moddalariga ko'ra foyda solig'i va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha pasaytirilgan soliq stavkalari qo'llaniladi. 2022-yil 1-iyulga qadar Raqamli ekotizim orqali soliq organlariga real vaqt rejimida ma'lumotlarni uzatish imkonini beruvchi elektron ma'lumotlar bazalari o'zaro integratsiya qilinishi belgilangan.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirishning huquqiy asosi ham takomillashtirilib borilmoqda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida mijozlarni masofadan turib identifikatsiya (liveness check) qilishga ruxsat berildi, natijada, bankka kelmasdan, hech qanday shartnomaga imzo chekmasdan turib, bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.



2-rasm. Tijorat banklari biznes ekotizimining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar⁹

Ushbu Farmonga ko'ra: "2022-yil 1-yanvarga qadar masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o'z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi yakuniga yetkazilishi belgilab berilgan. Bitta savdo maydonchasida keng ko'lamli bank va bankdan tashqari moliyaviy xizmatlarni (qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, sug'urta va boshqalar) taqdim etishga yo'naltirilgan moliyaviy supermarketlarning biznes modelini yaratish, tijorat banklari tomonidan mijozlarga masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, bank-mijoz, sms-banking va boshqalar), shu jumladan, mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'lamini va sifatini oshirish; venchur ekotizimlarning rivojlanishini soddalashtirish uchun «regulyativ qumdon»ni yaratish maqsad qilingan"

O'zbekiston startaplari ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan yoki to'sqinlik qiladigan ekotizimda rivojlanadi. Ushbu ekotizim ko'plab milliy elementlarni o'z ichiga oladi, ammo mintaqaviy va xalqaro omillar ham muhimdir, ayniqsa iqtisodiyot tobora ochiq va globallashtirib bormoqda. Moliya va malakali kadrlarga, shu jumladan texnologik mutaxassislar va tadbirkorlarga kirish ekotizimning muhim qismidir. Yaxshi raqamli infratuzilma va qo'llab-quvvatlovchi hukumat siyosati ham juda muhimdir. Startaplar o'z tovarlari va xizmatlari bozorlari katta va faol bo'lganda yaxshi rivojlanadi.


Ekotizimga kirish foydalanuvchilarni shaxsiy hisobda ro'yxatdan o'tkazish bilan boshlanadi, bu ochiq portaldagi dasturlar va loyihalar natijalarini hisobga olish va iste'molchilarni aniqlash uchun raqamli xizmat bilan ifodalanadi. Tizimning barcha ishtirokchilari (foydalanuvchilar va tijorat banklari) ma'lumotlari bitta ma'lumotlar omborida saqlanadi.

Foydalanuvchi umumiy tizimdan kerakli xizmatlarni tanlash imkoniyatiga ega, bu esa qulaylik va ochiqlikni ta'minlaydi. Tizimga birlashtirilgan muassasalar tashkiliy va operatsion tizimlarni hisobga olgan holda ishlaydi, ularning faoliyati dasturiy ta'minot bilan jihozlangan,

⁹ Muallif ishlanmasi

bu esa xarajatlarni kamaytiradi va xizmatlar sifatini yaxshilaydi.

Banklar mijozlar uchun o'z xizmatlaridan foydalanish qulayligi va qulayligini yaxshilash maqsadida internet-banking, mobil ilovalar, onlayn to'lovlar va boshqalar kabi texnologik yechimlarni faol ravishda ishlab chiqmoqda. Tijorat banklari moliyaviy tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga rioya qilishlari va qoidalar va standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun ichki nazorat va auditlarni o'tkazishlari kerak. Tijorat banklarining biznes ekotizimi mijozlar va bozor ulushlari uchun turli banklar o'rtasidagi raqobat bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, banklar bir-biri bilan, masalan, to'lov tizimlari orqali yoki kredit klublari doirasida hamkorlik qilishlari mumkin.



3-rasm. Tijorat banklari raqamli biznes ekotizimning tashkiliy tuzilishi¹⁰

Ushbu elementlar tijorat banki biznesi ekotizimining asosini tashkil etadi, u moliyaviy tizimning ishlashini qo'llab-quvvatlaydi va mijozlar yehtiyojlarini qondiradi.

5. Xulosa .

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, global tendensiyalardan biri bo'lgan bank ekotizimi klassik ma'noda mijozlar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ehtiyojlarini qondirish uchun birlashtirgan turli xil xizmatlarga ega bo'lgan bir yoki bir nechta raqamli platformalarga asoslangan integratsiyalashgan biznesni olib borish usulidir.

1. Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyotida ekotizimlarning o'sib borayotgan ta'siri butun dunyo bo'ylab tijorat banklarining e'tiborini tortmoqda. Qoida tariqasida, tartibga solish zarurati shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, joylashtirilgan tarkibning mazmuni, monetizatsiya qilingan ma'lumotlarga teng kirish, monopoliyaga qarshi qonunchilikka rioya qilish, ikkala kompaniyaning va umuman iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini nazorat

¹⁰ Muallif ishlanmasi

qilish zarurati bilan bog'liqdir.

2. Mahalliy kredit tashkilotlarining yangi biznes modelini amalga oshirishdagi katta muvaffaqiyatlariga qaramay, innovatsion biznes modelini amalga oshirishga yanada kengroq yondashish uchun xorijiy moliya institutlarining tajribasini o'rganish kerak. Shu munosabat bilan, eng istiqbolli amaliyotlarni aniqlash uchun xorijiy banklarning o'z ekotizimlarini yaratish va rivojlantirish bo'yicha faoliyati natijalarini milliy iqtisodiyotimiz amaliyotiga joriy etish yo'llarini o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

3. Ko'plab taniqli korporatsiyalar Google, Apple, Amazon va boshqalar tomonidan o'z biznes yo'nalishlarini universallashtirishni rivojlantirmoqda va shu bilan ekotizim biznes modelini amalga oshirmoqda, kredit tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan xorijiy ekotizimlarning faoliyati yetarli darajada o'rganilmagan. Shu munosabat bilan bank mahsulotlari va xizmatlarini bank biznes ekotizimi orqali rivojlantirayotgan Royal Bank of Canada (Kanada), State Bank of India (Hindiston) va DBS Bank (Singapur) kabi banklarning faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

4. Tadqiqotimiz natijasida mamlakatimiz tijorat banklari o'z mijozlariga bugungi kunda eng so'nggi va yuqori texnologiyali axborotga asoslangan onlayn-banking xizmatlarini taqdim etayotganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan imkon qadar qulay foydalanish imkonini beradi va bank bilan ishlashda vaqt va moliyaviy xarajatlarni minimallashtiradi. Masofaviy bank xizmatining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli xil ma'lumotlarning masofaviy almashinuvidir. Shu bilan birga, bank ushbu operatsiyaning xavfsizligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

Adner R. (2017). Ecosystem as structure: An actionable construct for strategy. *Journal of Management*, vol. 43, no. 1, pp. 39–58. DOI: <https://doi.org/10.1177/014920631667845>

IMF – *Fintech and Financial Services Report*. <https://www.imf.org/en/Publications>

Ivanov, A. *Ekosistema naoborot* // <https://vc.ru/finance/97873-ekosistemanaoorot>

Jacobides M., Cennamo C., Gawer A. *Industries, Ecosystems, Platforms, and Architectures: Rethinking our Strategy Constructs at the Aggregate Level*. Working paper, London Business School, 2015.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Parker G., Van Alstyne M.W. (2014). *Platform strategy*. School of Management Research Paper No. 2439323, Boston U. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2439323>

Szymanowska M. et al. An anatomy of commodity futures risk premia // *The Journal of Finance*. 2014. T. 69. № 1. S. 453–482.

Алиев М.М., Мамедов М.А., Рзаева В.В., Сафарли А.Х. Экосистема как новая модель развития финансовых организаций // *Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки*. №8, 2021. DOI: 10.23672/m6478-2891-3501-e.

Кобылко А.А. (2019). Экосистемные компании: границы и этапы развития // *Экономическая наука современной России*. No 4 (87). S. 126–136. DOI: 10.33293/1609-1442-2019-4(87)-126-136.

сБ РФ «Экосистемы: подходы к регулированию». апрел 2021. – С. 6. www.cbr.ru
<https://www.vedomosti.ru/finance/blogs/2019/06/27/804788> - bankovskaya-ekosistema



FOYDA SOLIG'I BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH MASALALARI

PhD Xalikchayeva S.I.

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ITM

Annotatsiya. Ushbu tezisda "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida foyda solig'i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo'lib, korxonalarni ekologik modernizatsiyaga rag'batlantirish uchun "yashil amortizatsiya" tizimini joriy etish taklif qilingan. tadqiqotda amaldagi amortizatsiya normalaridagi muammolar tahlil qilinib, yashil aktivlar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsion chegirmalarni hisoblash modeli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: foyda solig'i, amortizatsiya, yashil amortizatsiya, ekologiya, soliq bazasi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, aktiv, qoldiq qiymat, investitsiya, koefitsent, investitsion chegirma.

Аннотация. В тезисе рассматриваются вопросы совершенствования методологии определения налоговой базы по налогу на прибыль в рамках стратегии «Новый Узбекистан – 2030». В целях стимулирования предприятий к экологической модернизации предлагается внедрение системы «зелёной амортизации». В исследовании анализируются проблемные аспекты действующих норм амортизации, а также обосновывается модель расчёта ускоренной амортизации и инвестиционных вычетов для «зелёных» активов.

Ключевые слова: налог на прибыль, амортизация, зелёная амортизация, экология, налоговая база, методология определения налоговой базы, актив, остаточная стоимость, инвестиции, коэффициент, инвестиционный вычет.

Abstract. This thesis addresses the issues of improving the methodology for determining the corporate income tax base within the framework of the "New Uzbekistan – 2030" Strategy. To incentivize enterprises to undertake environmental modernization, the introduction of a "green depreciation" system is proposed. The study analyzes the deficiencies of the current depreciation rates and substantiates a calculation model for accelerated depreciation and investment deductions applicable to green assets.

Keywords: corporate income tax, depreciation, green depreciation, environment, tax base, tax base determination methodology, asset, residual value, investment, coefficient, investment deduction.

1. Kirish.

Bugungi neogloballashuv sharoitida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida iqtisodiyotni liberallashtirish bilan bir qatorda, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini barcha sohalarga joriy etish, energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish va sanoatda ekologik toza texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ulkan maqsadlar belgilangan. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirish korxonalarining texnologik bazasini tubdan yangilashni taqozo etadi. Biroq, investitsiyaviy faollikni oshirishda foyda solig'i bazasini aniqlash mexanizmlari, xususan, amortizatsiya siyosati hali ham an'anaviy yondashuvlarga tayanmoqda.

Xususan, bugungi kunda korxonalar tomonidan sotib olinayotgan yuqori texnologiyali va ekologik xavfsiz uskunalar uzoq muddatli amortizatsiya davriga ega. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining aylanma mablag'lari uzoq muddatga "muzlatib" qo'yilishiga va "yashil" investitsiyalarning o'zini oqlash muddati cho'zilishiga olib kelmoqda. Nobel mukofoti sovrindorlari U.Nordhaus (2013) va J.Stiglitz (2017) ta'kidlaganidek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda fiskal vositalar, xususan, soliq solishda aktivlar qiymatini hisobdan chiqarishning maxsus tartiblari joriy etilishi shart. O'zbekiston sharoitida foyda solig'ini hisoblashda "yashil amortizatsiya" (green depreciation) metodologiyasining mavjud emasligi korxonalarining ekologik modernizatsiyaga bo'lgan qiziqishini pasaytirayotgan asosiy omillardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi — "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida foyda solig'i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish orqali mamlakatda "yashil amortizatsiya" tizimini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda xalqaro tajriba, jumladan, D.Fullerton (1997) va A.Vahobov (2021) kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan holda, ekologik texnologiyalar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya normalarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi asoslab beriladi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyotda soliq bazasini optimallashtirish nazariyasini yaratgan iqtisodchi olimlar Nordhaus, D.William (2013) iqlim o'zgarishini jilovlashda kapitalning amortizatsiya xarajatlarini ekologik samaradorlikka qarab differensiallash zarur ekanligini ilgari surishgan bo'lsa, J.Stiglitz va S.Nicholas (2017) investitsion qarorlarni "yashillashtirish" uchun soliq tizimida amortizatsiya muddatini qisqartirish (accelerated depreciation) eng samarali fiskal dastak ekanligini ta'kidlashgan. Yashil soliq islohoti" nafaqat ekologik jarimalarni, balki toza texnologiyalar uchun tezkor amortizatsiya ajratmalarini ham o'z ichiga olishi shartligi xususida Pearce, David W. (2000) o'z tadqiqotlari orqali ma'lumot bergan bo'lsalar, Parry, W.Ian (2012) foyda solig'i bazasini aniqlashda energiya tejavchi uskunalariga 100% birinchi yillik amortizatsiya (first-year allowance) qo'llash metodologiyasini taklif etgan. O'zbekiston soliq tizimida esa bu yondashuvlar borasida o'z qarashlari bilan ajralib turuvchi olimlar sifatida A.Vahobov, T.Malikov (2021) kabilarni birinchilardan deya olamiz. Jumladan, ular milliy iqtisodiyotda investitsiyaviy faollikni oshirish uchun amortizatsiya siyosatini liberallashtirish va "investitsiyaviy chegirma" mexanizmini kengaytirish lozim ekanligi borasida mulohazalar taqdim etgan bir paytda, E.Gadoev (2019) Foyda solig'i bazasini aniqlashda amortizatsiya guruhlarini tarkibini texnologik yangilanish darajasiga qarab qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlagan. A.Tursunov (2022) esa sanoat korxonalarida "ekologik audit" natijalariga ko'ra amortizatsiya stavkalarini oshirishni taklif etadi. "Yashil amortizatsiya" — barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi vosita ekanligi yuzasidan o'z qarashlarini o'rtoqlashgan tadqiqotchi N.Zakirova (2023) fikrlari zamirida T.Malikovning (2021) amortizatsiya ajratmalarini investitsion manba sifatidagi rolini oshirish zarurligiga doir qarashlari yotadi.

Yuqorida keltirilgan taqdiqotlar va qarashlar yetarlicha bo'lsada hali hamon respublikamiz soliq tizimiga yashil iqtisodiyot kirib kelgan bo'lishiga qaramay amortizatsiya hisoblashning eski usullaridan foydalanish soliq bazasini aniqlash metodologiyasi borasida mavjud kamchiliklar borligidan daloat beradi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan iqtisodiy islohotlar va "yashil" iqtisodiyotga o'tish tamoyillariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, tadqiqot dizayni huquqiy tahlil, institutsional yondashuv va ekonometrik modellashtirish elementlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida soliq bazasini aniqlash metodologiyasida amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda yashil amortizatsiya metodologiyasini qo'llash istiqbollari ochib berish uchun normativ-huquqiy tahlildan, tarixiy-komparativ yondashuvdan, institutsional tahlildan, ilmiy mushohada va sintezdan keng foydalaniladi.

4. Tahlil va natijalar.

"Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyotda "yashil" texnologiyalarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish masalasi hisoblanib, ushbu strategik maqsadlarga erishishda soliq siyosati, xususan, foyda solig'i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish muhim fiskal drayver hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida shu narsa oydinlashdiki, hozirgi kunda O'zbekiston Soliq kodeksining 306-moddasida amortizatsiya normalari barcha asosiy vositalar uchun umumiy qilib belgilangan. Albatta, bu holat "yashil" sarmoyalar uchun iqtisodiy jozibadorlikni yaratmaydi. Amaliyotda asosiy vositalar 5 ta guruhga bo'lingan holda, kamayuvchi qoldiq usuli bo'yicha hisoblanadi, ya'ni:

- 1-guruh (Binolar): 5%;
- 2-guruh (Inshootlar): 10%;
- 3-guruh (Mashina va uskunalar): 15%;
- 4-guruh (Kompyuter va aloqa): 20%;
- 5-guruh (Boshqa aktivlar): 15%.

Bugungi kunda mavjud tizimdagi muammolar sifatida amaldagi soliq tizimiga muvofiq "ifloslantiruvchi" texnologiya bilan "yashil" texnologiyani bir xil guruhga qo'yilayotganini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko'mirda ishlovchi qozonxona ham, quyosh kollektori ham 15 %lik norma bilan amortizatsiya qilinadi. Bilamizki, yuqori texnologiyali yashil uskunalar odatda qimmatroq turadi. Natijada, soliq amaliyotidagi 15 %lik norma investitsiyaning o'zini oqlash muddatini sun'iy ravishda uzaytirmoqda. Bu innovatsion rag'batning pastligidan dalolat beradi. Qolaversa, bu holat texnologiyalar tez almashayotgan bir davrda standart normalar qo'llanishi oqibatida aktivning real bozor qiymati pasayishidan orqada qolayotganidan hamda ma'naviy eskirish sodir bo'layotganidan dalola beradi.

Tadqiqotimiz natijasi sifatida ushbu muammoni bartaraf etish uchun soliq bazasini aniqlashning "Yashil amortizatsiya" metodologiyasini taklif qilmoqchimiz. Bu – soliq bazasini (foyda solig'ini) hisoblashda korxonalariga ekologik uskunalarning qiymatini odatdagidan tezroq xarajatga chiqarish huquqini berish taklifi hisoblanib, ushbu metodologiyaning konseptual asosi sifatida asosiy vositalarning yillik amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda tezlashtirilgan amortizatsiya, maxsus chegirmalar yoki ekologik rag'batlantirish koeffitsiyentini joriy etishni nazarda tutganmiz. To'g'ri, O'zbekiston amaliyotida hozircha faqat texnologik uskunalar uchun umumiy imtiyozlar bor, lekin aynan "ekologik samaradorlik" ko'rsatkichi asosida tabaqalashgan amortizatsiya metodologiyasi mavjud emas.

Metodologik yangilikning mohiyati shundaki, “yashil amortizatsiya” korxonalar uchun “Soliq qalqoni” effektini kuchaytirib, korxonaning ixtiyorida qoladigan sof pul oqimini ko‘paytiradi. Bu esa investitsiyalarning o‘zini oqlash muddatini o‘rtacha 25-30 %ga qisqartirish imkonini beradi. Davlat byudjeti nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bizning bu taklifimiz natijasi qisqa muddatli soliq tushumlari pasayishiga olib kelsada, biroq uzoq muddatda energiya subsidiyalarining tejalishi (O‘zbekistonda energiya resurslari davlat tomonidan subsidiyalanadi. Korxonalar o‘zini-o‘zi yashil energiya bilan ta‘minlasa, davlatning energiya subsidiyasi tejaladi.), atrof-muhitni tiklash xarajatlarining kamayishi va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda (masalan, Yevropa Ittifoqining CBAM mexanizmi doirasida) raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Bu degani, taklif etilayotgan yechimimiz soliq bazasini shunchaki kamaytirish emas, balki uni sifat jihatidan transformatsiya qilish instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Bu mexanizm korxonalar uchun investitsion jozibadorlikni oshirish bilan birga, davlatning ekologik barqarorlik maqsadlariga erishishda fiskal rag‘batlantirishning eng optimal usuli sanaladi. Shu bilan birga, bu taklif “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi-2030” maqsadlariga ham to‘liq mos keladi.

Ushbu metodologiyani joriy qilishning iqtisodiy samaradorligini quyidagicha jadval orqali modellashtirish mumkin:

1-jadval.

Soliq bazasini aniqlashda “yashil amortizatsiya” metodologiyasini qo‘llash iqtisodiy samaradorligi¹¹

Ko‘rsatkich	An’anaviy usulda	Yashil amortizatsiya bilan
Soliq solinadigan foyda	Yuqori	Pastroq (birinchi yillarda)
Pul oqimi	Barqaror	Dastlabki yillarda yuqori
Investitsiya jozibadorligi	O‘rtacha	Yuqori
Ekologik samara	Past	Yuqori (yangi texnologiyalar hisobiga)

Bizning fikrimizcha soliq bazasini aniqlashda “yashil amortizatsiya” metodologiyasini joriy qilish shunchaki imtiyoz emas, balki soliq bazasini optimallashtirish va investitsion rag‘batlantirish instrumenti hamdir. Chunki bu metodologiya jarima solishdan ko‘ra, rag‘batlantirish orqali korxonalarni modernizatsiyaga undaydi, xorij tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtiradi, qisqa muddatda soliq tushumlarini kamaytirsa-da, uzoq muddatda energiya samaradorligi oshishi va iqtisodiy o‘shish hisobiga bazani kengaytiradi.

Biz dissertatsiyamizda taklif etilayotgan “Yashil amortizatsiya” metodikasi orqali amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda quyidagi formulani taklif qilishimiz mumkin:

$$A_{green} = (V_q R_s) K + B_{inv}$$

Bunda:

A_{green} – yillik yashil amortizatsiya miqdori;

V_q - aktivning qoldiq qiymati;

R_s - standart amortizatsiya normasi (Soliq kodeksi bo‘yicha);

K - aktivning energiya samaradorligi va ekologik tozalik darajasiga qarab tabaqalashgan koeffitsiyent (1.5 dan 3.0 gacha);

B_{inv} — investitsion bonus (birinchi yilda aktiv qiymatining 25-50 foizigacha bo‘lgan qismini darhol xarajatga chiqarish huquqi).

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Bunda, biz tomonimizdan taklif qilayotgan metodologiyada ekologik rag'batlantirish koeffitsiyenti miqdori 2-jadval asosida tabaqalashtirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Jadvaldan tushinish mumkinki, agar amortizatsiyalanadigan aktivning enaerjiya tejamkorligi 10 %dan past bo'ladigan bo'lsa amortizatsiya koeffitsiyenti sifatida "1", 10 %dan 30 %gacha bo'lsa "1,5" hamda energiya tejamkorligi 30 %dan yuqori bo'lgan aktiv toifasiga "2,5" koeffitsiyent qo'llashni va qanaqadir bonusli chegirma berish metodologiyasi taklif qilingan. O'z navbatida, taklif qilingan bu metodologiyaning byudjet tizimiga ta'sir darajasi ham berib o'tilganini ko'risimiz mumkin.

2-jadval.

"Yashil amortizatsiya" hisoblashda qo'llanadigan koeffitsiyentning tabaqalanish xususiyatlari¹²

Aktiv toifasi	Energiya tejamkorligi	Amortizatsiya koeffitsiyenti (Ke)	Byudjetga ta'siri
Standart	< 10%	1.0 (O'zgarishsiz)	Neytral
Yashil-Light	10% - 30%	1.5	Qisqa muddatli pasayish
Yashil-Deep	> 30%	2.5 + Bonus	Strategik sarmoya

Bu jadval asosida esamisol sifatida quyidagi keys holatini ko'rib chiqsak:

Keys: "Yulduz Tekstil" MCHJ korxonasi misolida

Dastlabki ma'lumotlar:

- ✓ Investitsiya obyekti: Suvni qayta ishlash va energiya tejamkor bo'yash uskunasi;
- ✓ Loyiha qiymati: 2 000 000 000 (2 mlrd) so'm;
- ✓ Amaldagi amortizatsiya normasi: 15% (3-guruh);
- ✓ Taklif etilayotgan "Yashil amortizatsiya" (Ke): 2.5 barobar tezlashtirilgan (37.5%);
- ✓ Foyda solig'i stavkasi: 15%.

3-jadval.

"Yulduz Tekstil" MCHJ korxonasi misolida amortizatsiya hisobi va uning soliq bazasiga ta'siri tahlili (1-yil uchun)¹³

Ko'rsatkich	Amaldagi metodika (15%)	Taklif etilayotgan metodika (37.5%)	Farq
Yillik amortizatsiya (xarajat)	300 000 000 so'm	750 000 000 so'm	+450 mln
Soliqqa tortiladigan foyda	Yuqori	Pastroq	-450 mln
To'lanadigan foyda solig'i	45 000 000 so'm	112 500 000 so'm (tejam)	-67.5 mln

3-jadvalda keltirilgan raqamlardan tushunish mumkinki, bu korxonaga agar "yashil amortizatsiya" metodologiyasini qo'llash asosida soliq bazasini hisoblasa birinchi yilning

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

¹³ Muallif ishlanmasi

o'zidayoq 67.5 mln so'm mablag'ni o'z ixtiyorida saqlab qolgan holda uni kredit foizlarini yopishga yo'naltirishi mumkin.

Shu bilan birga, davlat uchun tabiiy resurslar tejalishi sodir bo'ladi. Ya'ni, yangi texnologiya suv sarfini 40% ga kamaytirsa, davlat suv resurslarini boshqarish va subsidiyalash xarajatlarini yiliga taxminan 20-30 mln so'mga kamaytiradi (bilvosita foyda). Agar korxonalar ushbu uskuna tufayli "Green Certificate" olsa, uning mahsuloti Yevropada CBAM solig'iga (tonnasiga ~80-100\$) tortilmaydi. Bu esa korxonaning valyuta tushumini va davlatning eksport salohiyatini saqlab qoladi hamda davlat chiqindi suvlarni tozalash inshootlariga sarflaydigan yuklamani kamaytiradi.

5. Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni xulosa tariqasida ko'rsatmoqdaki, bugungi neogloballashtirish davrida foyda solig'i bazasini aniqlash metodologiyasi nafaqat fiskal maqsadlarga, balki barqaror rivojlanishning (ESG) drayveri sifatidagi funksiyasiga ham ega bo'lishi shart va zarur. Amaldagi soliq ma'murchiligida "ifloslantiruvchi" va "yashil" texnologiyalar uchun bir xil amortizatsiya normalarining qo'llanilishi, innovatsion faollikni ortga tortuvchi hamda kapitalning ma'naviy eskirishiga olib keluvchi omil ekanligi oydinlashdi. O'tkazilgan tahlillarimiz va taklif etgan "Yashil amortizatsiya" modelimiz orqali quyidagi fundamental xulosalarni taqdim etmoqchimiz:

1) Taklif etilayotgan tabaqalashtirilgan koeffitsiyentlar ($K = 1.5$ dan 3.0 gacha) va investitsion bonuslar (B_{inv}) korxonaning soliqqa tortiladigan bazasini investitsiyaning dastlabki bosqichida optimallashtiradi. Bu esa sof pul oqimining ko'payishiga va loyihalarning o'zini oqlash muddatini 25-30% ga qisqartirishga xizmat qiladi;

2) "Yashil amortizatsiya" metodologiyasi soliq bazasini shunchaki kamaytirish emas, balki uni sifat jihatidan transformatsiya qilish instrumenti ham deb hisoblaymiz. Chunki, qisqa muddatli soliq tushumlari pasayishi uzoq muddatda energiya subsidiyalarining tejalishi, ekologik yuklamaning kamayishi va milliy mahsulotlarning (CBAM kabi mexanizmlar ostida) raqobatbardoshligi oshishi bilan kompensatsiyalanadi;

3) Mazkur metodologiya "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish maqsadlariga to'liq hamohang bo'lib, davlatning fiskal siyosatini an'anaviy yondashuvdan rag'batlantiruvchi yondashuvga o'tkazishni ta'minlaydi deb o'ylaymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulamizni muxtasar qiladigan bo'lsak, foyda solig'ini hisoblashda aktivlarning energiya samaradorligiga qarab A_{green} formulasini amaliyotga tatbiq etish, korxonalarni texnologik modernizatsiyaga undovchi eng samarali fiskal dastak bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

Gadoev E. F. (2019). *"O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga sharhlar"*. Toshkent.

Malikov, T. S. (2019). O'zbekistonda soliq islohotlarining ustuvor yo'nalishlari. *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* ilmiy elektron jurnali, № 4.

Nordhaus, W. D. (2013). *The Climate Casino: Risk, Uncertainty, and Economics for a Warming World*. Yale University Press.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

Parry, I. W. (2012). *Fiscal Policy to Mitigate Climate Change: A Guide for Policymakers*. International Monetary Fund.

Pearce, D. W., & Barbier, E. (2000). *Blueprint for a Sustainable Economy*. Earthscan Publications.

Stiglitz, J. E., & Stern, N. (2017). *Report of the High-Level Commission on Carbon Prices*. World Bank Group.

Tursunov A. S. (2022). "Sanoat korxonalarini 'yashil' iqtisodiyotga o'tkazishning fiskal mexanizmlari". *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, №4.

Vahobov A., Malikov T. (2021). *"Moliya" (darslik)*. Toshkent: "Iqtisod-moliya".

Zakirova N. M. (2023). *"Barqaror rivojlanishni moliyalashtirishda soliq rag'batlari"*. Monografiya. Toshkent.



MAJBURIYATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

i.f.f.d., dotsent. Xolmuradov O.N.
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
Normamatov B.O.
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga moslashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Majburiyatlarning tasnifi, tan olinishi va o'lchoviga doir asosiy standartlar (BHXS 1, BHXS 32, BHXS 37, MHXS 9) tahlil qilinib, mamlakatimiz amaliyotida uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: majburiyatlar, buxgalteriya hisobi, MHXS, zaxiralar, baholangan majburiyat, shartli majburiyatlar, adolatli qiymat.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты адаптации учета обязательств в хозяйствующих субъектах к требованиям Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Анализируются основные стандарты классификации, признания и оценки обязательств (МСФО 1, МСФО 32, МСФО 37, МСФО 9), выявляются проблемы, встречающиеся в практике нашей страны, и формулируются предложения и выводы по их устранению.

Ключевые слова: обязательства, бухгалтерский учет, МСФО, резервы, расчетные обязательства, условные обязательства, справедливая стоимость.

Annotation. This article highlights the theoretical and practical aspects of bringing the accounting of liabilities in business entities in line with the requirements of international Financial Reporting Standards (IFRS). The main standards for the classification, recognition and measurement of liabilities (IAS 1, IAS 37, IAS 32, IFRS 9) are analyzed, suggestions and conclusions are formulated about the problems that arise in the practice of our country and their overcoming.

Keywords: liabilities, accounting, IFRS, IAS, inventories, estimated liability, contingent liabilities, fair value.

1. Kirish.

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini baholashda majburiyatlarning hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)

majburiyatlarning aniq va shaffof e'tirof etilishini, ularning to'g'ri o'lchanishini va moliyaviy hisobotlarda to'liq ochib berilishini talab etadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qaroriga asosan, 2021 yil 1 yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan korxonalar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishi belgilab berildi.

Jahon moliya bozorlariga integratsiya jarayonida buxgalteriya hisobi va MHXSiga moslashtirish O'zbekiston uchun strategik vazifa hisoblanadi. Majburiyatlar hisobini to'g'ri yuritish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, kreditorlar va investorlar oldidagi ishonchliligini hamda to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishlarini ta'minlaydi.

Shu bois, mamlakatimizda majburiyatlar buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

2.Adabiyotlar sharhi.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Mahmudov S.Q, Tashnazarov S.N, Ibragimov A.K, Ergasheva Sh.T, Tuychiev A.J, Rizaev N.K, Ochilov F, Jabborova Ch.A va boshqalar tomonidan ilmiy ishlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirishning uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etganlar.

R.H.Hermanson (2018) majburiyatlarga quyidagicha ta'rifni keltiradi: Majburiyat – o'tgan operatsiyalar natijasida yuzaga keladi va kelgusi davrlarda pul to'lash, xizmatini ta'minlash yoki tovarlarni yetkazib berish bo'yicha javobgarlikdir.

Sophia M. Brink va Gretha Steenkamp (2023) larning fikriga ko'ra, majburiyatlarni hisobga olishda turli standartlar (IAS 37, IFRS 9, IFRS 15) o'rtasidagi tanlov korxonalar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular majburiyatlarni aniqlashda yagona metodologik yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Abe De Jong, Miguel Rosellón, Patrick Verwijmeren (2006)lar IAS 32 standartining joriy etilishi natijasida ayrim moliyaviy instrumentlar kapitaldan majburiyatga o'tkazilganini va bu korxonalarining qarz darajasini o'rtacha 35% ga oshirganini aniqlagan.

Christodoulou M (2012) fikricha, BHXS (IAS) 37-sonli standart majburiyatlarni baholashda ehtimollik va diskontlash usullaridan foydalanish orqali hisobot aniqligini oshirishini ta'kidlaydi.

Dhiman Chowdhury (2025) MHXS standartlari moliyaviy axborotning aniqligi, solishtiriluvchanligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini qayd etadi.

S.Q.Maxmudovning fikricha (2006) majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligini ko'rsatuvchi, ularning so'ndirilishi esa qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo'jalik muomalalarining natijasidir.

MHXS konseptual (2022) asosga muvofiq, majburiyat – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning oldingi voqealar natijasida vujudga kelgan hozirgi majburiyat bo'lib, uni bajarish kelgusida iqtisodiy manfaatlarning chiqib ketishi olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining (2016) "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunida ham majburiyatlar moliyaviy hisobning ajralmas elementi sifatida belgilangan. Biroq, milliy amaliyotda majburiyatlarni MHXS talablariga mos tasniflash va o'lchash jarayonida ayrim tafovutlar mavjud.

3.Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga moslashtirishning amaliy jihatlarini, tasnifi, tan olinishi va o'lchoviga doir asosiy

standartlar (BHXS 1, BHXS 32, BHXS 37, MHXS 9) tahlil qilinib, uning qiymatini aniqlash va hisobi MHXS lari asosida takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, tasniflash va empirik darajadagi kuzatish usullaridan foydalanilgan.

4. Tahlil va natijalar.

BHXS (IAS) 1-son “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” standarti majburiyatlarni joriy va uzoq muddatli qismlarga aniq ajratishni talab qiladi.

1-jadval.

MHXS talablariga ko‘ra majburiyatlarning tasnifi

Joriy majburiyatlar – bir yil ichida yoki korxonaning normal operatsion sikli davomida so‘ndirilishi ko‘tiladigan majburiyatlar. (Ta‘minotchilar qarzi, qisqa muddatli kreditlar, soliq majburiyatlari va h.k.)	Uzoq muddatli majburiyatlar – bir yildan ortiq muddatga mo‘ljallangan majburiyatlar. (Uzoq muddatli kreditlar, obligatsiyalar, lizing majburiyatlari va boshqalar.)
--	--

Tashkilot quyidagi hollarda majburiyatni joriy majburiyat sifatida tasniflashi lozim:

(a) o‘zining odatdagi operatsion sikli davomida majburiyat so‘ndirilishi kutilsa;

(b) majburiyat asosan savdo maqsadida saqlansa;

(v) majburiyat hisobot davridan so‘ng o‘n ikki oy ichida so‘ndirilishi lozim bo‘lsa; yoki

(g) u majburiyatning so‘ndirilishini hisobot davridan so‘ng kamida o‘n ikki oy muddatga uzaytirish bo‘yicha shartsiz huquqqa ega bo‘lmasa. Majburiyat kontragentning tanloviga ko‘ra uni ulushli instrumentlar chiqarish orqali so‘ndirilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan shartlari majburiyatning tasniflanishiga ta‘sir etmaydi.

Tashkilot boshqa barcha majburiyatlarni uzoq muddatli majburiyat sifatida tasniflashi lozim.

BHXS (IAS) 32-sonli standartga ko‘ra, moliyaviy instrumentlar iqtisodiy mazmuniga qarab majburiyat yoki kapital sifatida tasniflanadi. Asosiy mezon – bu shartnoma asosida pul to‘lash majburiyatining mavjudligi .

MHXS (IFRS) 9-sonli standart moliyaviy majburiyatlarni baholashda amortizatsiyalangan qiymat yoki haqiqiy qiymat usullarini qo‘llashni belgilaydi

BHXS (IAS) 37-sonli standartda majburiyat - bu tashkilotning bo‘lib o‘tgan hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarligi bo‘lib, uning so‘ndirilishi natijasida tashkilotdan o‘zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishi kutiladi” deb ta‘rif berilgan.

Baholangan majburiyatlarning har bir sinfi bo‘yicha tashkilot quyidagilarni yoritib berishi lozim:

(a) davr boshidagi va oxiridagi balans qiymati;

(b) davr mobaynida qo‘shimcha yaratilgan baholangan majburiyatlar, shu jumladan mavjud baholangan majburiyatlarning ko‘payishi;

(v) davr mobaynida foydalanilgan summalar (ya‘ni baholangan majburiyat hisobidan sarflangan va baholangan majburiyatni kamaytirgan summalar);

(g) davr mobaynida qayta tiklangan foydalanilmagan summalar; va

(d) davr mobaynida vaqt o'tishi bilan va diskontlash stavkasidagi har qanday o'zgarishning ta'siri natijasida diskontlangan qiymatning ko'payishi.

Majburiyatlarni hisobga olishda MHXS talablarining ahamiyati Ya'ni:

BHXS (IAS) 37-son "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" – majburiyatlarni tan olish uchun uchta asosiy shartni belgilaydi: majburiyatlarning mavjudligi, iqtisodiy resurslarni chiqib ketish ehtimoli va ishonchni baholash imkoniyati;

BHXS (IAS) 12-son "Foyda soliqlari" – kechiktirilgan soliq majburiyatlarini hisobga olish tartibini aniqlaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobida quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- majburiyatlarni joriy va uzoq muddatli qismlarga yetarlicha ajratmaslik;

- zahira va shartli majburiyatlarni hisobga olishda BHXS (IAS) 37-son talabiga rioya qilmaslik;

- moliyaviy qarzlarni adolatli qiymatda baholash va amortizatsiya qilingan qiymat usulini qo'llashdagi kamchiliklar;

- majburiyatlar to'g'risidagi izohlarning yetarli darajada ochib berilmasligi.

MHXS talablari asosida quyidagi takomillashtirish yo'nalishlari taklif etiladi:

baholashni aniqlashtirish - majburiyatlarni diskontlash va ehtimollik asosida baholashni keng joriy etish;

hisobotda oshkoralikni kuchaytirish - shartli majburiyatlar haqida to'liq izohlar berish;

milliy standartlarni MHXSga moslashtirish - mahalliy buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga integratsiya qilish;

axborot texnologiyalaridan foydalanish - majburiyatlarni avtomatlashtirilgan tizimlarda hisobga olish;

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobida muammolarni bartaraf etishda quyidagilarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish majburiyatlar tasnifi va o'lchovini MHXS talablari moslashtirish;

- MHXS talablari asosida qarz va moliyaviy majburiyatlarni adolatli qiymatda tan olish va keyinchalik samarali foiz stakasi usuli orqali amortizatsiya qilish;

- BHXS (IAS) 37-son bo'yicha zahiralarni shakllantirish uchun korxonalarda huquqiy va moliyaviy bo'limlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;

- shaffoflikni oshirish majburiyatlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarga batafsil izohlarni kiritish;

- mutaxassislar malakasini oshirish buxgalterlar va auditorlar uchun xalqaro standartlar bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish.

5.Xulosa.

Majburiyatlar buxgalteriya hisobini MHXS talablariga moslashtirish xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy shaffofligi, investorlar va kreditorlar ishonchini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat hisob-kitoblarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlaydi, balki O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini ham jadallashtiradi. Shu bois, majburiyatlarni hisobga olishda MHXS talablarini bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

Abe De Jong, Miguel Rosellón, Patrick Verwijmeren (2006). "The Economic Consequences of IFRS: The Impact of IAS 32 on Preference Shares in the Netherlands" // *Accounting in Europe*, vol. 3(1), pages 169-185, October.

BHXS (IAS) 1-sonda "Moliyaviy hisobotni taqdim etish".

BHXS (IAS) 12-son "Foyda soliqlari".

BHXS (IAS) 37-son "Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar".

BHXS (IAS) 32-son "Молиявий инструментлар: тақдим этиш"

Chowdhury D. (2025). *IFRS importance in accounting. The Business Standart.*

Christodoulou M. (2012). *IAS 37 rule on legal costs set to cause confusion*. Retrieved on April 24, 2012.

Hermanson, Roger H. (2018). *Accounting a business perspective*. Irwin USA. 196, 339-340-b. *Accounting Principles: A Business Perspective Paperback*, February 16.

Maxmudov S.Q. (2006). *Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish*. Iqt. fan. nom. dis. avtoref. – Toshkent. 22 b.

MHXS (IFRS) 9-son "Moliyaviy instrumentlar".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori. 24.02.

O'zbekiston Respublikasi Vazirligi Mahkamasi (2022). *Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi. O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida*. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan 09.12.2022 y. № 3400).

O'zbekiston Respublikasining (2016) "Buxgaltepiya hisobi to'g'ricida"gi (yangi tahpipi) O'PQ-404-son Qonuni, 13 aprel.

Sophia M. Brink and Gretha Steenkamp (2023). *An IFRS Decision Heuristic - A Model for Accounting for Credit Card Rewards Programme Transactions*. *Journal of Risk and Financial Management*. 2 March.



SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINING HUQUQIY TRANSFORMATSIYASIDA NORMATIV-HUQUQIY MEXANIZMLAR VA ULARNING AMALIY TADBIQI

*i.f.d., prof. Xudoyqulov S.K,
PhD Xalikchayeva S.I.*

*TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ITM*

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy transformatsiyasida normativ-huquqiy mexanizmlar amaliy jihatdan tahlil qilingan holda soliq bazasining belgilanishidagi huquqiy evolyutsiya ko'rib chiqiladi. Xususan, tadqiqotimiz davomida O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi va unga oid me'yoriy hujjatlarning metodologik rolini kuchaytiruvchi jihatlar, shuningdek, raqamli ma'murchilik instrumentlarining huquqiy asoslari yoritilib, huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta'minlash, soliq intizomini mustahkamlash hamda soliq bazasini aniqlashda subyektiv yondashuvlarni qisqartirishga xizmat qiluvchi yondashuvlar asoslab beriladi. Tahlil natijalariga ko'ra, huquqiy transformatsiya soliq bazasining qayd etilish darajasi va tekshiriluvchanligini oshirishi bilan birga, normativ bazani soddalashtirish, izchillikni kuchaytirish hamda raqamli nazorat institutlarini yanada takomillashtirish zarurligi xulosalanadi.

Kalit so'zlar: soliq bazasi, metodologiya, huquqiy transformatsiya, Soliq kodeksi, normativ-huquqiy mexanizmlar, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, elektron hisob-faktura, onlayn nazorat-kassa, shaffoflik.

Аннотация. В статье на прикладном уровне анализируются нормативно-правовые механизмы в рамках правовой трансформации методологии определения налоговой базы, а также рассматривается правовая эволюция установления налоговой базы. В частности, в ходе исследования освещаются аспекты, усиливающие методологическую роль Налогового кодекса Республики Узбекистан и связанных с ним нормативных документов, а также раскрываются правовые основы цифровых инструментов налогового администрирования. Обосновываются подходы, направленные на обеспечение правовой определённости и прозрачности, укрепление налоговой дисциплины и сокращение субъективных элементов при определении налоговой базы. По результатам анализа сделан вывод о том, что правовая трансформация повышает уровень фиксации налоговой базы и её проверяемость; вместе с тем актуализируется необходимость упрощения нормативной базы, усиления её согласованности и дальнейшего совершенствования институтов цифрового контроля.

Ключевые слова: налоговая база, методология, правовая трансформация, Налоговый кодекс, нормативно-правовые механизмы, налоговое администрирование,

цифровизация, электронный счет-фактура, онлайн-контрольно-кассовая техника, прозрачность.

Abstract. *This article provides an applied analysis of regulatory and legal mechanisms within the legal transformation of the methodology for determining the tax base and examines the legal evolution of tax base determination. In particular, the study highlights the factors that enhance the methodological role of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan and related regulatory instruments, and also outlines the legal foundations of digital tax administration tools. The paper substantiates approaches aimed at ensuring legal certainty and transparency, strengthening tax discipline, and reducing subjective elements in tax base determination. The findings indicate that legal transformation increases both the level of tax base recording and its verifiability; at the same time, it demonstrates the need to simplify the regulatory framework, reinforce consistency, and further improve digital control institutions.*

Keywords: *tax base, methodology, legal transformation, Tax Code, regulatory and legal mechanisms, tax administration, digitalization, e-invoice, online cash register, transparency.*

1. Kirish.

Hammamizga ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliya tizimining barqarorligi, avvalo, soliqqa tortish mexanizmlarining huquqiy jihatdan aniq ishlab chiqilganligi va amaliy ijro etilish darajasiga bog'liq. Bu jarayonda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi alohida o'rin tutib, bunda soliqqa tortish obyekti va bazasini belgilash, hisoblash, hujjatlashtirish hamda nazorat qilishning izchil tartibini yaratib beradigan jarayon hisoblanadi. Soliq bazasini aniqlash metodologiyaning huquqiy asoslari qanchalik aniq va barqaror bo'lsa, soliq majburiyatlarini to'g'ri aniqlash, fiskal intizomni ta'minlash hamda soliq tushumlarining prognoz qilinuvchanligini oshirish shunchalik osonlashadi deya olamiz. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi faqat texnik hisob-kitoblar yig'indisi emas, balki davlatning "fiskal boshqaruv" modelini belgilovchi normativ institut hamdir.

Soliq tizimida soliq solinadigan bazani aniqlash metodologiyasining huquqiy asoslari har bir mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatiga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, ba'zi umumiy huquqiy asoslarga, jumladan, daromad solig'iga, mulk solig'iga, qo'shilgan qiymat va resurs soliqariyu foyda solig'iga, shuningdek, aksiz solig'iga oid kabi qonunlarni kiritish mumkin. Bunda, daromad solig'iga tegishli qonunlar ish haqi, moddiy va mulkiy daromadlar, dividendlar, foizlar, sarmoyaviy daromadlarning turli toifalarini belgilab berish va soliq bazasida har bir daromad turi qanday aks ettirilishi bo'yicha ko'rsatmalar taqdim etadi. Shu bilan birga, mulk solig'iga oid qonunlar esa mulkdorlar uchun soliq solinadigan bazada mulkni qanday baholash kerakligi yuzasidan aniq tushunchalar beradi va qaysi mulklar qancha miqdorda soliqqa tortilishiga oid mezonlarni ishlab chiqasa, aksiz solig'i qonunlari tamaki, alkogol, yoqilg'i yoki hashamatli buyumlar kabi aksiz osti muayyan tovarlar yoki faoliyat uchun soliq bazasini belgilaydigan tartiblarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

O'zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy transformatsiyasi 2020-yildan boshlab yangi bosqichga ko'tarilganini e'tirof etishimiz mumkin. Xususan, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining yangi tahriri soliq bazalarini belgilash, ularni aniqlashda huquqiy mezonlarni aniqlashtirish hamda ma'murchilik instrumentlarini kuchaytirish yo'nalishida tizimli yangilanishlarni boshlab berganini urg'ulaydigan bo'lsak, ushbu davrdan e'tiboran soliq bazasini aniqlash amaliyoti ham

“deklorativ” yondashuvdan, asta-sekin “raqamli ma’lumotlar oqimi” ga asoslangan “verifikatsiya” metodiga huquqiy-tashkiliy mexanizmlar bilan yetarlicha kengaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sifatida O‘zbekiston soliq tizimida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy transformatsiyasini normativ-huquqiy mexanizmlar va amaliy tatbiq nuqtayi nazaridan yoritish, raqamli ma’urchilik instrumentlarining huquqiy rolini tahlil qilish hamda metodologik aniqlik va shaffoflikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

2. Adabiyotlar sharhi.

Soliq bazasini aniqlashda huquqiy omillarning muhimligi xususida juda ko‘p iqtisodchi olimlar o‘z tadqiqotlarida yetarlicha mulohazalar keltirib o‘tishgan. Chunonchi, soliq bazasining real hajmi va u bilan bog‘liq xatarlar hisoblangan daromadni yashirish, noto‘g‘ri deklaratsiya taqdim qilish va zanjirli kontragentlar bilan bog‘liq xatarlarni tushuntirishda klassik nazariya modeli sifatida “Allingham-Sandmo” yondashuvi bugungi kunda ham keng qo‘llaniladi. M.Allingham va A. Sandmo (M.Allingham., A.Sandmo., 1972) qarashlarida soliq to‘lovchining yashirishga bo‘lgan moyilligi kutilayotgan foyda va aniqlanish ehtimoli kabi omillar bilan izohlanib, fiskal mexanizmning samaradorligi faqat stavkalariga emas, balki nazorat va ijro institutlariga ham bog‘liqligini asoslab beriladi. Shuningdek, soliqdan qochish nazariyasi bo‘yicha umumlashtiruvchi yondashuvlarda “soliq compliance” masalasi “jazolash” instrumentlari bilan bir qatorda institutsional ishonch, ma’lumot sifati va ma’urchilik arxitekturasi bilan ham bevosita bog‘lanishi ta’kidlanadi.

Keyingi bosqichda soliq intizomi va nazoratning zamonaviy konseptual doirasini yoritishda J.Slemrodning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Yani, “soliq compliance”ni baholashda ma’lumot manbalari, ma’urchilik texnologiyalari hamda empirik metodlar rolining ortayotganini ko‘rsatadi. Bu yondashuv soliq bazasini aniqlash metodologiyasining “huquqiy norma – instrument – ma’lumot” uchligiga tayanishi lozimligini nazariy jihatdan mustahkamlaydi (J.Slemrod., 2019).

Soliq bazasini aniqlashda huquqiy transformatsiyaning mohiyatini ochishda institutsional nazariya ham alohida metodologik asos yaratib beradi. Xususan, D. North soliq institutlarini “o‘yin qoidalari” sifatida talqin qilib, iqtisodiy natijalarning barqarorligi va samaradorligi aynan soliq institutlarining sifati bilan belgilanishini ko‘rsatib berishga harakat qilgan (D.North., 1991). Bu konsepsiya fiskal tizimga tatbiq etilganda esa soliq bazasining “torayishi” yoki “kengayishi” ko‘p jihatdan huquqiy aniqlik, ijro intizomi va boshqaruv institutlarining kuchliligiga borib taqalishini anglatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida esa soliq ma’urchiligi va institutsional imkoniyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni R.Bird va Casanegra de Jantscher tahriri ostidagi IMF nashri alohida yoritib bergan (R.Bird va boshqalar., 1992). Aniqrog‘i, unda soliq ma’urchiligini samarali isloh qilishning muvaffaqiyati ko‘pincha normativ tartibning izchilligi, ma’lumotlar tizimi, kadrlar salohiyati va nazorat mexanizmlarining qay darajada ishlashi bilan bog‘lanib, ayni bu yondashuv huquqiy transformatsiyani faqat “qonun yangilanishi” emas, balki “institutsional ijro mexanizmi” sifatida ko‘rish zarurligini asoslab bergan.

Olib brogan izlanishlarimiz natijasida shu narsa aniqlashdiki, yuqoridagilar bilan bir qatorda, soliq bazasini aniqlashning huquqiy transformatsiyasi ko‘p mamlakatlarda elektron hisob-faktura (e-invoicing), fiskalizatsiya (online cash register) va integratsiyalashgan e-xizmatlar bilan bevosita bog‘liq ekan. Shu jihatdan, O‘zbekiston tajribasi ham normativ bazani “raqamli instrumentlar” bilan mustahkamlash yo‘lidan bormoqda deyishimiz mumkin. Bunda quyidagi jihatlar muhim:

birinchidan, soliq kodeksining 2019-yildagi yangi tahriri soliq munosabatlarini tartibga solishning asosiy manbai sifatida bazani belgilash, hisoblash va ijro mexanizmlarining huquqiy poydevorini yangilagan institut hisoblanadi (2019);

ikkinchidan, chakana savdo va xizmatlar segmentida soliq bazasini “birlamchi raqamli iz” orqali qayd etish ya’ni, fiskal cheklar masalasida 2019-yil 23-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining qarori (943-son) onlayn NKM va virtual kassa tizimining davlat reyestri hamda ularga qo’yiladigan talablarni belgilab, fiskallashtirishning huquqiy-institutsional mexanizmini shakllantirdi. Bu hujjat soliq bazasini aniqlashni “daromadni keyin tekshirish” modelidan “operatsiyani real vaqtda qayd etish” modeliga yaqinlashtiruvchi normativ asos sifatida qarashimizga asos yaratadi;

uchinchidan, elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) aylanishini tartibga soluvchi normativ hujjatlar, xususan, Vazirlar Mahkamasining 522-son qarori bilan bog’liq nizomga asosan QQS bazasini hujjatlashtirish va kontragent zanjirini tekshirishning huquqiy poydevorini belgilaydi (2019). Natijada, soliq bazasini aniqlashda hujjat aylanishi, ma’lumotlarni saqlash va integratsiya masalalari bir butun huquqiy tizimga birlashtirildi;

to’rtinchidan, elektron soliq xizmatlari portali soliq to’lovchining ro’yxatdan o’tishi, hisobot topshirishi va ma’lumot almashinuvi kabi jarayonlarni raqamli muhitda amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu holat soliq bazasini aniqlash metodologiyasida ma’lumotlarning standartlashuvi va izchilligini kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi.

Ko’rsatilgan adabiyotlar soliq bazasini aniqlashning iqtisodiy nazariyasi, institutsional shartlari va zamonaviy ma’urchilik instrumentlari bo’yicha yetarli konseptual asos beradi. Biroq amaliyotda huquqiy transformatsiyaning samarasi ko’pincha “norma – instrument – ijro” zanjirining qay darajada uyg’un ishlashiga bog’liq bo’lib, aynan shu bog’liqlikni mamlakat kesimida 2000-2024 yillar oralig’ida bosqichma-bosqich tahlil qilish ehtiyojini taqazo qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqola O’zbekiston misolida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining huquqiy transformatsiyasini normativ asoslar hamda raqamli instrumentlarning amaliy tatbiqi bilan bog’liq holda tizimli tahlil qilishga qaratiladi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada tadqiqot dizayni huquqiy tahlil va institutsional yondashuvga tayangan holda shakllantirilgan bo’lib, soliq bazasini aniqlash metodologiyasining normativ asoslari va amaliy instrumentlari o’rtasidagi bog’liqlikni ochib berish uchun normativ-huquqiy tahlildan, tarixiy-komparativ yondashuvdan, institutsional tahlildan, ilmiy mushohada va sintezdan keng foydalaniladi.


Tadqiqotda huquqiy normalar, ma’urchilik instrumentlari va soliq bazasining tekshiriluvchanligi o’rtasidagi bog’liqlik mantiqiy konstruktsiya asosida umumlashtirildi. Shuningdek, ma’lumotlar bazasi sifatida soliq kodeksi va unga doir huquqiy hujjatlar haqidagi sharhlar, Lex.uz’dagi normativ hujjatlar, elektron soliq xizmatlari portali materiallari va OECDning compliance risk management yondashuviga oid nashrlari hamda e-invoicing bo’yicha regulyator asoslarini yorituvchi tahliliy manbalardan keng foydalaniladi.

4. Tahlil va natijalar.

Mamlakatimizda soliq bazasini aniqlash metodologiyasida va uni yanada takomillashtirish omillari bilan bog’liq amaldagi soliq turlari bo’yicha soliq bazasini aniqlash bosqich va jarayonlarini, tartib-qoidalari va yo’nalishlarini ma’lum bir me’yorga solib turuvchi eng asosiy va yagona huquqiy manba – bu Soliq kodeksi hisoblanib, har bir soliq turi bo’yicha soliq solish bazasini aniqlash tartiblari, uning zamirida esa soliq to’lovlarni hisoblab chiqarish hamda

respublika davlat byudjetiga va maqsadli jamg'armalariga undirish bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, soliq majburiyatlarini to'la ado etish bilan bog'liq jarayonlar muvofiqligini tartibga soladi. Xususan, respublikamizda 2000-2025 yillar oralig'ida olib borilgan soliq siyosatining samarali amalga oshirilishi, eng avvalo, mustahkam me'yoriy-huquqiy bazaga tayangan holda yuzaga chiqdi deyish mumkin. Ushbu yillarda soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ta'sir ko'rsatgan asosiy huquqiy hujjatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat soliq qo'mitasi qarorlari hamda eng muhimi, 2019-yildan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini e'tirof etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Soliq bazasini aniqlash metodologiyasida qonunchilik bazasi quyidagi bir necha sabablarga ko'ra hal qiluvchi rol o'ynaydi (1-rasm):



1-rasm. Soliq bazasini aniqlash metodologiyasida qonunchilik bazasining ahamiyati¹⁴

1-rasmda keltirilgan chizmada soliq bazasini aniqlash metodologiyasida qonunchilik bazasining ahamiyati ochib berilgan bo'lib, unga ko'ra, huquqiy jihatdan belgilangan soliq bazasi sharoitida soliq to'lovchi o'zining qancha soliq to'lashi kerakligini aniq bilishi soliqqa tortish jarayonining shaffofligi va adolatligini ta'minlasa, qonunchilik orqali soliq bazasi elementlari (yalpi tushum, sof foyda, xarajatlar, aktivlar amortizatsiyasi va boshqalar) aniq va huquqiy jihatdan asoslangan tarzda belgilanishi barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagona va izchil yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Shuningdek, soliq bazasini hisoblashda yagona qonunchilik asoslari mavjudligidagina nazorat va ma'murchilik samaradorligi yuzaga chiqsa, soliq bazasining noto'g'ri shakllanishining oldini olish hamda imtiyozlarning maqbulligini ta'minlashda soliq rejimlari (umumiy, soddalashtirilgan, maxsus) va imtiyozlarni qo'llash mezonlari asosiy maydonda ko'zga tashlanadi.

Qolaversa, puxta ishlab chiqilgan va amalda ishlovchi soliq qonunchiligiga xorijiy investorlar uchun kutilmagan fiskal xavflarni kamaytirish zamirida investitsion muhitni barqarorlashtirishga xizmat qilsa, turli raqamli tizimlar (elektron hisob-fakturalar, QR-kodli NKM, "E-Soliq") avtomatik nazorat va hisob-kitob qilish imkoniyatini vujudga keltiradi.


Yuqoridaglar bilan bir qatorda, aniq belgilangan qonunchilik bazasi soliq qonunchiligini qo'llashda izchillikni ta'minlashi, mavhumlik va paydo mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qisqartirishi, soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida undirilishi, soliq to'lashdan bo'yin tovlash kabi holatlarga yakun yasashi, soliq tizimida adolatni ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilashi, turli daromadlar, chegirma, imtiyozlar bo'yicha taomillarni o'rnatish orqali soliq to'lovchilarga nisbatan teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Bu harakatlar majmuasi esa soliq tizimida nohaqlik va kamsitishlarning oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, soliq bazasini aniqlash tartiblarining xalqaro soliq me'yorlariga muvofiq belgilanishi va moslashtirilishi, ikki tomonlama soliqqa tortish holatlarining kelib chiqishini cheklashga va soliq organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik munosabatlari qo'llab-quvvatlanishiga, biznes investorlari uchun ishonchni ta'minlash orqali o'z faoliyati va investitsiyalarini aniq soliq qoidalari asosida rejalashtirishga, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xorijiy sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, turli mamlakatlarda soliq solinadigan bazani aniqlash metodologiyasida keng qo'llaniladigan bir necha turdagi huquqiy manbalar mavjud. Ushbu manbalar yurisdiksiyaga va ko'rib chiqilayotgan soliqqa qarab farq qilishi mumkin. Biroq, yuridik manbalarning ba'zi keng tarqalgan turlariga 2-rasm orqali javob berishimiz mumkin.



2-rasm. Soliq solinadigan bazani aniqlash metodologiyasidagi mavjud huquqiy manbalarning guruhlanishi¹⁵

2-rasmga qaraydigan bo'lsak, soliq solinadigan bazani aniqlash metodologiyasida huquqiy manbalar 5 ta asosiy guruhdan iborat ekan. Jumladan, birinchi manba – bu soliq qonunlari va kodekslar bo'lib, ular soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladi va soliq bazasini aniqlashda imtiyoz va chegirmalar darajasini belgilash bo'yicha tegishli qoidalarni o'rnatishga xizmat qilsa, ikkinchi manba hisoblangan soliq shartnomalari ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish va transchegaraviy operatsiyalarga doir soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama hujjatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu shartnomalar mamlakatlar o'rtasida soliqqa tortish huquqlarini taqsimlash qoidalari taqdim etadi va daromadlar yoki operatsiyalarning ayrim turlari qanday soliqqa tortilishi kerakligini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, uchinchi manba deb ataluvchi nizomlar va ma'muriy yo'riqnomalar soliqqa tortiladigan bazani aniqlash doirasida uning bosqichlarini belgilash, soliqqa tortiladigan daromadlarni aniqlash va muayyan qoidalar yoki imtiyozlarni qo'llash bo'yicha qo'shimcha tafsilotlar bersa, to'rtinchi manba sifatida esa sud amaliyoti qaraladi. Bunda soliq solinadigan

¹⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

bazani aniqlashda sud qarorlari va sudlar tomonidan o'rnatilgan pretsedentlar ham katta rol o'ynashi orqali namoyon bo'ladi. Masalan, bunga sudlar noaniq soliq qonunlarini sharhlashi yoki soliq bazasiga oid nizolarni hal qilishi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Qolaversa, xalqaro standartlar va ko'rsatmalar beshinchi manba sifatida qaralib, bunda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar soliq solinadigan bazani aniqlash bo'yicha turli ko'rsatma yoki tavsiyalar berishni nazarda tutadi. Ushbu standartlar mamlakatlarning soliq tizimini shakllantirishdagi yondashuviga ta'sir qila olishi bilan ahamiyatlidir.

2017-yildan e'tiboran mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi soliq tizimining tubdan qayta ko'rib chiqilishiga zarurat tug'dirdi. Shu bois, 2018-yil 26-dekabrda qabul qilingan va 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Kodeksda soliq bazasini aniqlashda yalpi tushum, sof foyda, xarajatlar va amortizatsiya kabi elementlarning aniqlanish tartibi ilgari amal qilgan tizimdan farqli ravishda, yanada soddalashtirilgan, shaffof va xalqaro standartlarga yaqinlashtirilgan holda tasniflandi deya olamiz.

Masalan, yangi tahrirda sof foyda asosida hisoblanadigan foyda solig'i uchun ajratmalarning (amortizatsiya, ta'minot xarajatlari, zaxiralar) normalari sektoral asosda aniqlanib, bu yondashuv ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasida soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq bazasining noto'g'ri aniqlanishi, noto'g'ri foyda hisob-kitoblari va soliqdan qochish holatlarini kamaytirishga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida soliq bazasini aniqlash tartibining metodologik asoslarini huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi 2017-yildan buyon izchil rivojlanib kelmoqdaki, ushbu yo'nalishdagi huquqiy asoslar evolyutsiyasi soliq islohotlarining chuqurlashuvi, iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash, budjet barqarorligini mustahkamlash hamda soliq ma'murchiligini optimallashtirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu bosqichlarni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga birlashtirdik:

birinchi bosqich (2017–2018 yillar) – davlat tomonidan soliq siyosatining kontseptual asoslari qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, 2017-yil 7-iyundagi PF-5177-son Prezident Farmoni bilan soliq siyosatini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bu hujjat soliq bazasining hisob-kitob metodologiyasini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga, iqtisodiy faoliyatni deklaratsiyalash asosidagi yondashuvdan real va hujjatlashtirilgan natijalarga asoslangan tizimga o'tishning dastlabki bosqichi bo'ldi;

ikkinchi bosqich (2019–2020 yillar) – yangi tahrirdagi Soliq kodeksining (2018-yil 26-dekabrda qabul qilinib, 2019-yil 1-yanvardan kuchga kirgan) qabul qilinishi soliq bazasini aniqlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslarning tizimlashtirilgan va kodifikatsiyalashgan ko'rinishini ta'minladi. Kodeksda yalpi tushum, sof foyda, xarajatlar, amortizatsiya ajratmalari, soliq imtiyozlari va chegirmalari kabi soliq bazasi elementlari aniq, huquqiy jihatdan asoslangan mezonlar asosida belgilandi. Bu esa, soliq bazasi metodologiyasida yagona yondashuvni shakllantirib, subyektiv talqinlarni cheklashga xizmat qildi;

uchinchi bosqich (2020-2025 yillar) – raqamlashtirish va soliq ma'lumotlarini avtomatlashtirish bilan bog'liq normativ hujjatlar muhim rol o'ynadi. 2020-yildagi VMQ-704-son qarori, DSQ tomonidan ishlab chiqilgan elektron hisob-fakturalar, QR-kodli nazorat-kassa mashinalari va "E-Soliq" tizimi bo'yicha yo'riqnomalar soliq bazasini aniq, tez va ishonchli tarzda aniqlash imkonini yaratdi. Bu texnologik va huquqiy yangiliklar orqali davlat soliq

organlari soliq bazasi elementlarini real vaqt rejimida, subyektiv aralashuvlarsiz aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldi;

to'rtinchi bosqich (2025-yildan to hozirgacha bo'lgan davr) – normativ-huquqiy asoslari strategik va prognozlashuvchan xarakter kasb eta boshladi. Xususan, “Soliq siyosatining 2030-yilgacha bo'lgan konsepsiyasi” loyihasi va unga mos ravishda ishlab chiqilgan DSQ metodik ko'rsatmalari orqali soliq bazasi monitoringi, baholash mezonlari, soliq rejimlarining moslashuvchanligi va differensial yondashuvlarga asoslangan tizim shakllandi. Bu esa soliq bazasini aniqlash metodologiyasining nafaqat huquqiy mustahkamlanishini, balki iqtisodiy jarayonlarga mos ravishda rivojlanishini ta'minladi.

Umuman olganda, yuqoridagi huquqiy rivojlanish tendensiyalari davlat tomonidan soliq bazasini aniqlash metodologiyasini tobora aniq, prognoz qilinadigan, axborot texnologiyalariga tayanuvchi va xalqaro tajribaga mos tizimga aylantirishga xizmat qilganini ko'rsatadi. Bu jarayon nafaqat soliqqa tortish mexanizmlarining shaffofligini oshirdi, balki byudjetga tushumlarning barqarorligi, tadbirkorlik faoliyatining rasmiylashuvi va soliq yuki adolatligining ta'minlanishiga ham zamin yaratdi.

1-jadval.

2017–2025 yillardagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning soliq bazasini aniqlash metodologiyasiga ta'siri¹⁶

Hujjat nomi va raqami	Sana	Asosiy mazmuni	Soliq bazasiga metodologik ta'siri	Amaliy natijalar
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir)	26.12.2018	Soliq tizimini soddalashtirish, soliq turlari va bazalarini aniq belgilash	Yalpi tushum, sof foyda, xarajatlar tushunchalari aniqlashtirildi.	Korxonalar uchun soliq yuki prognoz qilinadigan va shaffof bo'ldi. Hisobotlar sifat jihatdan yaxshilandi
PF-6038-son Farmon – Soliq va bojxona imtiyozlarini maqbullashtirish	20.07.2020	Imtiyozlar samaradorligini baholash tizimi joriy qilindi	Soliq bazasining sun'iy torayishiga chek qo'yildi, faqat iqtisodiy asosga ega imtiyozlar saqlab qolindi	Yashirin iqtisodiyot ulushi kamaydi, imtiyozlar oqilona taqsimlandi
VMQ 704-son qaror – Raqamli soliq nazoratini kengaytirish	2020	“E-Soliq”, QR-kodli NKM, elektron hisob-fakturalar joriy etildi	Soliq bazasini real tranzaksiyalar asosida avtomatik aniqlashga o'tildi	Soliq tushumlari o'sdi, noqonuniy operatsiyalar qisqardi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5177-son Farmoni	07.06.2017	Soliq siyosatini tubdan isloh qilish konsepsiyasi belgilandi	Soliq metodologiyasi xalqaro tamoyillarga moslashtirila boshlandi	Yangi Soliq kodeksiga zamin yaratdi,
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4699-son qarori	30.04.2020	Soliq organlari faoliyatini takomillashtirish va xizmatlar sifati oshirilishi	Soliq bazasini aniqlashda subyektiv yondashuvlarni bartaraf etish mexanizmlari kuchaydi	Soliq ma'lumotlar bazalari integratsiyalashdi, inspektorlar roli kamaydi
DSQning “Sof foyda asosida soliqqa tortish metodikasi”	2021	Foyda solig'i hisobida yagona metodika, amortizatsiya me'yorlari kiritildi	Foyda va xarajatlar hisobining bir xil standartda yuritilishi ta'minlandi	Bahsli holatlar soni kamaydi, soliqqa tortishda aniq mezonlar paydo bo'ldi
“Soliq islohotlari konsepsiyasi – 2030” (DSQ)	2022	Soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishlari belgilandi	Soliq bazasining prognozlanishi, monitoringi va baholash mexanizmlari kuchaydi	Soliq siyosati strategik boshqaruvga o'tdi

1-jadvaldan ko'rib xulosa qilishimiz mumkinki, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi – soliq bazasi elementlarini aniqlashda metodologik aniqlik kiritgan bo'lsa, imtiyozlarni tartibga

¹⁶ Lex.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

solvchi farmonlar – bazani sun’iy qisqarishidan himoya qildi. Raqamlashtirishga oid hujjatlar – deklaratsiya asosidagi tizimdan avtomatlashtirilgan tizimga o’tishga imkon bergan bo’lsa, DSQning metodik hujjatlari – barcha korxonalar uchun yagona yondashuv shakllantirdi. Shuningdek, soliq rejimlari soddalashtirishga oid huquqiy baza, ayniqsa, mikro va kichik biznes uchun soliq bazasining kengayishiga sabab kuzatildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mamlakatimiz hududidagi har bir soliq turining soliq solish bazasini aniqlash metodologiyasi tartib-qoidalarini belgilab beruvchi muhim manbalardan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 5468-sonli Farmonni aytishimiz mumkin. Bu Farmonda mazmun jihatdan o‘xshash soliq bazasiga ega soliqlar va yig‘imlarni bir xillashtirish natijasida ularning sonini yanada optimallashtirish, bir-birini zidlovchi qonun hujjatlaridagi tafovutlarni bartaraf etish, qolaversa, operatsion xarajatlarni minimallashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish kabi yo‘nalishlar, ayniqsa, qo‘shilgan qiymat solig‘ining soliq bazasini aniqlashtirish va berilayotgan imtiyozlar ko‘lamini mo‘tadillashtirishga oid masalalar belgilab berilgan.

Mavjud soliqlar soliqqa tortish bazasini kengaytirish va bu asnoda davlat byudjetiga tushumlar miqdorini oshirish orqali Davlat byudjeti loyihasini profitsit bilan bajarish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi mablag‘larni qayta baholash natijasida olgan foydasini soliqqa tortish bazasiga vaqtincha kiritilmaydigan tartibni joriy etish bo‘yicha va foyda solig‘i bazasini aniqlash tamoyillarida muhim ahamiyatli chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbadagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5177-sonli Farmoni hisoblanadi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 31-maydagi PF-5065-sonli Farmoni va “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son Farmonlari ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 30-dekabrida qabul qilingan “Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlarining, turar joy fondining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1043-sonli qaror mol-mulk solig‘i bazasini aniqlash tartibini yanda mukammallashtirishga asos bo‘lib xizmat qildi.

Xususan, 2018-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3514-sonli “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori sayyohlik kompaniyalari O‘zbekistonning turistik brendi reklamasi bo‘lgan mahsulotlarni chop etish uchun soliq solinadigan bazani kamaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni tartibga solishda muhim ahamiyatli huquqiy manba hisoblanadi.

“Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq solinadigan bazasini alohida xarajatlari bo‘yicha kamaytirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi davlat Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 13-avgustda 3053-sonli ro‘yxatdan o‘tkazilgan qarorda foyda va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha soliq solinadigan bazani ma‘lum miqdordagi summagacha kamaytirishni nazarda tutish orqali ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash maqsadi ko‘zlangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-iyuldagi “Soliq solish maqsadida

jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 561-sonli qarorida va 2022-yil 11-martdagi "Transfert narxini belgilashda soliq nazoratini va norezidentlarning soliq solish ma'muriyatchiligini tartibga soluvchi ayrim qonunchilik hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 111-sonli qarorlarida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar o'rtasida soliq bazasining iqtisodiy jihatdan asosli va adolatli taqqoslanishini ta'minlash maqsadi ko'zlangan.

Soliq solinadigan bazaga tuzatishlar kiritish uchun qonun hujjatlarini belgilangan tartibda ko'zdan kechirish hamda so'rov o'tkazishni amalga oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shuningdek, soliq solinadigan bazani aniqlashtirish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish masalalari borasida esa Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi qabul qilingan "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-sonli qaror dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan farmon va qarorlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 489-sonli qarori ham qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash, soliq summasi o'rnini qoplash, soliqni hisoblash va to'lash chog'ida tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatini aniqlash tartiblari, shuningdek, QQS bazasiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq holatlar batafsil yoritib berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 12-mart kuni qabul qilingan "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 6121-sonli Farmonida ishlab chiqarish jarayonida agregatlarni (turbinalarni) sovutish uchun suv resurslaridan foydalanuvchi, tegishli suv o'lchagich asboblarga ega bo'lgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliqqa tortish bazasini tabiiy suv obyektlaridan olingan va ushbu obyektlarga qaytarib tashlangan suv hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlash belgilab qo'yildi. Natijada, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlash tartibi ushbu qonun zamirida huquqiy jihatdan takomillashtirildi va to'ldirildi.

Bundan tashqari, foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada samaradorligini oshiruvchi soliq solish bazasini aniqlash bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluchi va yanada takomillashtiruvchi huquqiy bazalarga 2021-yil 6-noyabrdagi "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6319-sonli, 2022-yil 28-iyunda qabul qilingan "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 162-sonli Prezident Farmoni, O'zbekiston Respublikasida respublika budjeti barqarorligini ta'minlashda yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obyektlarini 1 kvadrat metri uchun belgilangan eng kam mutlaq miqdorni soliq bazasi sifatida belgilab qo'yilishi haqidagi 208-sonli "Byudjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 25-martdagi "Jahon banki ishtirokidagi "soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-sonli Prezident qarorlarida o'z aksini topgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 287-sonli Farmoni bevosita soliq bazasini aniqlash tartiblariga borib taqalib, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni uning salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tuman va shahar toifasidan kelib chiqib, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari, subsidiyalar va ularni qo'llab-quvvatlashning boshqa choralarni qo'llash tartibini joriy etish kabi imkoniyatni nazarda tutadi.

Qolaversa, "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrda "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 458-sonli qaroriga muvofiq mahallalar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'ini aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish lozimligi mazmunidagi jumlar, aynan, mol-mul va yer solig'i bazasining aniqlash tartiblarini yanada shaffoflashuviga olib boruvchi dastak vazifasini o'tashi tayin.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilib aytganda, soliq solinadigan bazani aniqlashni izchil tashkil etish va amaliy jihatdan tatbiq qilishda qonunchilik bazasining o'rni benihoya ustuvorlik kasb etadi, chunki u aniqlik, izchillik, muvofiqlik, adolatlilik, xalqaro muvofiqlik, bashoratlilik va qulay investitsiya muhitini ta'minlaydi. Shuningdek, soliq bazasini aniqlashning huquqiy asoslari mustahkamligi soliqlarni hisoblash va undirishning bardavomligini ta'minlash xizmat qilishi bilan birga soliq qonunchiligiga muntazam rioya etilishini rag'batlantirish, samarali soliq ma'muriyatchiligini ta'minlash orqali soliqqa tortish bazasini belgilashda asosiy rol o'ynaydi va soliq solinadigan bazaning yemirilishiga yo'l qo'ymaslik hamda davlat xizmatlarini va infratuzilmani rivojlantirishni moliyalashtirish uchun yetarli miqdorda daromad yig'ishni belgilab beradi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda yana aytishimiz mumkinki, 2020-yilda Vazirlar Mahkamasining 704-sonli qarori asosida soliq sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjat asosida "E-Soliq" milliy axborot platformasi, QR-kodli onlayn nazorat kassa mashinalari tizimi, avtomatik soliq hisoboti va elektron shartnomalar tizimi joriy qilindi. Bu huquqiy asoslar orqali soliq bazasining aniqlanishi subyektiv deklaratsiyalarga emas, balki real tranzaksiyalar va elektron ma'lumotlar bazasiga asoslangan holda shakllanadigan bo'ldi.

Soliq imtiyozlarini maqbullashtirishga oid huquqiy asoslar ham alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, 2020-yil 20-iyuldagi Prezident Farmoni (PF-6038-son) bilan soliq va bojxona imtiyozlarining baholanishi va samaradorligini tahlil qilish bo'yicha yagona tizim joriy etildi. Bu farmon asosida soliq imtiyozlarini berishda "foydali bo'lish", "byudjetga yo'qotish miqdori" va "iqtisodiy turtki" mezonlari kiritildi. Natijada, turli imtiyozlar ortidan yuzaga keladigan soliq bazasining torayishi aniq monitoring qilinadigan va baholanuvchi ko'rsatkichga aylandi.

Shu bilan birga, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan qabul qilingan qator yo'riqnomalar va me'yoriy-uslubiy tavsiyalar soliq bazasini aniqlashda korxonalar uchun standartlashtirilgan, tushunarli va bir xil yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qildi. Jumladan, 2021-yilda tasdiqlangan "Korxonalar tomonidan sof foyda asosida soliq bazasini aniqlash metodikasi" da, buxgalteriya va soliq hisobining integratsiyasi bo'yicha qoidalar ishlab chiqildi.

5. Xulosa.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot xulosalari sifatida aytmoqchimizki, O'zbekiston Respublikasida soliq bazasini aniqlash metodologiyasining so'nggi yillardagi rivoji, avvalo, uning huquqiy transformatsiyasi bilan xarakterlanishi asoslanib, bunda Soliq kodeksi va unga oid me'yoriy hujjatlar soliq bazasini aniqlashning huquqiy konturlarini belgilab beruvchi asosiy manba sifatida, elektron instrumentlar esa ushbu konturlarni amaliyotga "tushiruvchi" muhim mexanizm ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, metodologiyaning zamonaviy talqini soliq bazasini aniqlashni faqat hisob-kitob masalasi sifatida emas, balki huquqiy aniqlik, shaffoflik va tekshiriluvchanlik tamoyillariga tayanuvchi kompleks boshqaruv jarayoni sifatida ko'rishni talab qilishini xulosa qilishimiz mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy transformatsiyaning eng muhim amaliy natijasi bu soliq bazasining qayd etilish darajasi va verifikatsiya (tekshirish) imkoniyatining oshishi hisoblanib, elektron hisob-faktura, onlayn nazorat-kassa, elektron hisobot va ma'lumotlar integratsiyasi singari yechimlar orqali iqtisodiy operatsiyalar "raqamli iz" ko'rinishida mustahkamlanayotganidir. Bu esa soliq bazasini aniqlashda subyektiv omillarni cheklashga xizmat qilsada, biroq jarayon bir tekis kechmayotgan jihatlar ham mavjud. Jumladan, ayrim tarmoqlarda normativ talqinlarning turlicha qo'llanishi, infratuzilma farqlari, kichik biznesning texnik moslashuv darajasi hamda ma'lumotlar uyg'unligidagi uzilishlar soliq bazasini aniqlashda qo'shimcha xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Demak, huquqiy transformatsiyaning to'liq samarasi faqat norma qabul qilinishi bilan emas, balki "norma-instrument-ijro" zanjirining uyg'un ishlashi bilan belgilanishini e'tiborga olgan holda, tadqiqot mavzusi bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchidan, soliq bazasini aniqlashga doir me'yorlarni amaliyotda bir xil qo'llashni ta'minlash lozim. Xususan, murakkab soliq holatlari bo'yicha tipik vaziyatlar va rasmiy sharhlarni ishlab chiqish amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatlarni kamaytirib, huquqiy aniqlikni oshiradi;

ikkinchidan, soliq imtiyozlari soliq bazasiga bevosita ta'sir qiluvchi institutsional omil ekanini inobatga olgan holda, ularni qo'llashda fiskal ta'sir bahosini majburiy tartibda kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz. Ya'ni imtiyoz berish yoki uzaytirish qarorlari byudjet yo'qotishlari, ijtimoiy-iqtisodiy natija va samaradorlik mezonlari bilan asoslab borilsa, soliq bazasining asossiz torayishining kamayishiga olib keladi deb hisoblaymiz;

uchinchidan, huquqiy transformatsiya natijadorligini baholashda "qonun qabul qilindi" mezoni bilan cheklanmasdan, ijro sifati indikatorlarini muntazam monitoring qilish lozim deb o'ylaymiz. Aynan shu indikatorlar huquqiy transformatsiyaning real samarasi qayerda yuqori, qayerda zaif ekanini ko'rsatib, keyingi islohotlar uchun asos yaratadi.

Adabiyotlar:

Allingham, Michael G., and Agnar Sandmo. "Income Tax Evasion: A Theoretical Analysis." *Journal of Public Economics*, vol. 1, nos. 3-4, 1972, pp. 323-338. Elsevier, [https://doi.org/10.1016/0047-2727\(72\)90010-2](https://doi.org/10.1016/0047-2727(72)90010-2)

Slemrod, Joel. "Tax Compliance and Enforcement." *Journal of Economic Literature*, vol. 57, no. 4, 2019, pp. 904-954. American Economic Association, <https://doi.org/10.1257/jel.20181437>

North, Douglass C. "Institutions." *Journal of Economic Perspectives*, vol. 5, no. 1, 1991, pp. 97-112. American Economic Association, <https://doi.org/10.1257/jep.5.1.97>

Bird, Richard M., and Milka Casanegra de Jantscher, editors. Improving Tax Administration in Developing Countries. International Monetary Fund, 1992, <https://www.elibrary.imf.org/downloadpdf/display/book/9781557753175/9781557753175.pdf>

O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahrir). 30 Dec. 2019 (kuchga kirishi: 1 Jan. 2020). Lex.uz, <https://lex.uz/docs/-4674902>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (VM qarori, 522-son, 25 June 2019). Lex.uz, <https://lex.uz/docs/-4386769>

Davlat Soliq Qo'mitasi (interaktiv xizmatlar). my.soliq.uz (Elektron soliq xizmatlari portali). <https://my.soliq.uz/main/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-5468-son, 29.06.2018. "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-3802378>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-5177-son, 02.09.2017. "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-3326421>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-5065-son, 31.05.2017. "Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/ru/docs/-3223420>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-5116-son, 18.07.2017. "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-3271159>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 561-son, 20.07.2018. "Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqida tegishli bo'lgan noturar ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini hisoblash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-3837980>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 111-son, 10.03.2022. "Transfert narxini belgilashda soliq nazoratini va norezidentlarning soliq solish ma'muriyatchiligini tartibga soluvchi ayrim qonunchilik hujjatlarini tasdiqlash to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/uz/docs/-5900561>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-320-son, 17.04.2019. "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-4290724>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 489-son, 14.08.2020. "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-4948595>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, PF-6121-son, 03.12.2020. "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-5138323>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, PQ-208-son, 15.04.2022. "Budjetlararo munosabatlarni va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-5959958>



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA RAQAMLI BOSHQARUVNI JORIY ETISHNING BESH BLOKLI TASHKILY-IQTISODIY MODEL VA UNING EMPIRIK JIHATDAN ASOSLANISHI

Shonazarov F.Sh.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni joriy etishdagi tizimli muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot BRB bank va Turonbank ma'lumotlari asosida olib borilib, ko'p omilli regressiya tahlili ($R^2=0,94$) yordamida asosiy omillar aniqlangan. Natijada besh blokli tashkiliy-iqtisodiy model ishlab chiqilib, u institutsional, tashkiliy va inson kapitaliga oid to'siqlarni kamaytirishga yo'naltirilgan. Raqamli boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, tashkiliy-iqtisodiy model, KPI tizimi, regressiya tahlili, transformatsiya, bank sektori.

Аннотация. В статье проанализированы системные проблемы внедрения цифрового управления в акционерных обществах и пути их преодоления. Исследование проведено на основе данных BRB банка и Turonbank, с использованием многомерного регрессионного анализа ($R^2=0,94$), в результате чего определены ключевые факторы. Разработана пятиблочная организационно-экономическая модель, направленная на снижение институциональных, организационных и кадровых барьеров. По результатам исследования сформулированы научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: цифровое управление, акционерное общество, организационно-экономическая модель, система KPI, регрессионный анализ, трансформация, банковский сектор.

Abstract. This article analyzes systemic challenges in implementing digital governance in joint-stock companies and ways to overcome them. The study is based on data from BRB Bank and Turonbank, using multivariate regression analysis ($R^2=0.94$), which identified key factors. A five-block organizational and economic model has been developed to reduce institutional, organizational, and human capital barriers. Based on the findings, scientifically grounded recommendations have been developed.

Keywords: digital governance, joint-stock company, organizational and economic model, KPI system, regression analysis, transformation, banking sector.

1. Kirish.

Zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylangan. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, texnologik investitsiyalarning o'zi yetarli emas: barqaror natijaga faqat institutsional, tashkiliy va inson kapitali omillari bilan uyg'un holda erishiladi. O'zbekiston bank sektoridan olingan empirik ma'lumotlar bu fikrni tasdiqlaydi — BRB bank va Turonbank ko'rsatkichlari tarmoq o'rtachasidan sezilarli darajada yuqori, chunki ushbu tashkilotlar texnologiyalarni boshqaruv jarayonlariga organik tarzda integratsiya qilishga muvaffaq bo'lgan (BRB bank yillik hisobotlari, 2024).

Ko'p o'zgaruvchili regressiya tahlili ($R^2=0,94$) raqamli boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichida infratuzilma omili ($\beta=0,37$) yetakchi o'rinni egallashini, undan keyin inson kapitali ($\beta=0,31$), institutsional muhit ($\beta=0,29$) va texnologiyalar omili ($\beta=0,18$) joylashganini ko'rsatadi (O'zbekiston Markaziy banki). Sifatli tahlil natijasida uchta asosiy to'siq klasteri aniqlandi: (1) institutsional klaster - fragmentar me'yoriy-huquqiy baza va tizimlararo interoperabellikning yetishmasligi; (2) tashkiliy klaster - IT bo'limining yordamchi funktsiya sifatida pozitsiyalanishi; (3) inson kapitali klasteri - data savodxonligi va analitik ko'nikmalarning rivojlanmaganligi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024).

Mavjud metodologik yondashuvlar (texnologiya markazli, moliyaviy, moslik yo'naltirilgan) ushbu uchta klasteri bir vaqtda kompleks tarzda bartaraf eta olmaydi. Shu sababdan, ushbu maqolada har bir bloki empirik aniqlangan to'siq klasteriga bevosita moslashtirilgan besh blokli tashkiliy-iqtisodiy model taklif etiladi. Maqolaning maqsadi: modelning nazariy asoslarini shakllantirish, har bir blokning mazmunini aniqlash, β -koeffitsientlar asosida vaznlangan KPI tizimini ishlab chiqish va bosqichli joriy etish rejasini taqdim etish.

2. Adabiyotlar sharhi.

Modellashtirishning nazariy asosini to'rtta o'zaro bog'liq ilmiy an'ana tashkil etadi. North (1990) ning institutsional iqtisodiyoti tizimli o'zgarish uchun rasmiy qoidalar (qonunlar, qoidalar) va norasmiy cheklovlar (an'analar, xulq-atvor normalari) o'rtasida muvofiqlik zarurligini asoslaydi. Raqamli boshqaruv kontekstida bu tamoyil shuni anglatadiki, texnologiyani joriy etish institutsional islohotlar bilan parallel ravishda amalga oshirilmasa, natija barqaror bo'lmaydi.

Williamson (1985) ning tranzaksion xarajatlar nazariyasi raqamli boshqaruvning iqtisodiy qiymatini o'lchashda asosiy doiraviy asos bo'lib xizmat qiladi: koordinatsiya xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini yo'qotish va qaror qabul qilish tezligini oshirish raqamli investitsiyalarning asosiy samarasini ifodalaydi. BRB bank va Turonbank tajribasida tranzaksion xarajatlarning 18-22% dan 14-16% gacha kamayishi ushbu nazariyaning amaliy tasdiqidir.

Jensen va Meckling (1976) ning agentlik nazariyasi korporativ boshqaruvdagi markaziy muammoni - aksiyadorlar (principal) va menejment (agent) o'rtasidagi axborot assimetriyasini - raqamli monitoring va real vaqt hisobot tizimlari orqali kamaytirishning nazariy asosini yaratadi. Mazkur nazariya maqoladagi KPI tizimining asosiy motivatsiyasini - manfaatlar uyg'unligini ta'minlashni - belgilaydi.

Teece (2007) ning dinamik qobiliyatlar kontseptsiyasi raqamli boshqaruvda ustunlik manbai faqat texnologik investitsiyalar emas, balki tashkilotning raqamli aktivlarni integratsiya qilish, rekonfiguratsiya va ularga moslashish qobiliyatida ekanligini ta'kidlaydi. BRB bank va

Turonbankning tarmoq o'rtachasidan ustun natijalari aynan shu kontseptsianing amaliy ifodasi bo'lib, modelning arxitekturasini belgilab beradi.

Raqamli boshqaruvni o'lchash bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar (Wirtz va boshq., 2019; Mikalef va Gupta, 2021) ko'p o'lchovli boshqaruv arxitekturalarining muhimligini ta'kidlaydi. Biroq O'zbekiston kontekstida β -koeffitsientlar asosida vaznlangan va har bir bloki empirik aniqlangan muammolarga moslashtirilgan integrallashgan tashkiliy-iqtisodiy model hozirgacha taklif etilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldiradi.

3. Metodologiya.

Mazkur tadqiqotda kompleks konseptual-tahliliy metodologiya qo'llanildi. Asosiy yondashuv sifatida tizimli tahlil, institutsional yondashuv va iqtisodiy modellashtirish usullari tanlandi. Tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni joriy etish jarayonini ko'p darajali iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqishga asoslanadi hamda institutsional, tashkiliy va texnologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Empirik tahlil BRB bank va Turonbank ma'lumotlari asosida ko'p omilli regressiya usuli yordamida amalga oshirildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'tkazilgan nazariy va statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni joriy etish jarayoni ko'p omilli va tizimli xususiyatga ega bo'lib, uning samaradorligi institutsional muhit, tashkiliy arxitektura, infratuzilma hamda inson kapitali omillarining o'zaro uyg'unlashuviga bevosita bog'liqdir. Amalga oshirilgan empirik tahlillar ($R^2=0,94$) infratuzilma omilining ustuvorligini ($\beta=0,37$), shuningdek, inson kapitali ($\beta=0,31$) va institutsional muhit ($\beta=0,29$)ning muhim rolini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar raqamli transformatsiya jarayonida faqat texnologik yechimlarni joriy etish yetarli emasligini, balki boshqaruv tizimini institutsional va tashkiliy jihatdan kompleks qayta konfiguratsiya qilish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, taklif etilgan besh blokli tashkiliy-iqtisodiy model aniqlangan tizimli to'siqlarni bartaraf etish va raqamli boshqaruv samaradorligini oshirish uchun konseptual hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur model o'zaro bog'langan va o'z-o'zini kuchaytiruvchi sababiy tizim sifatida shakllantirilgan bo'lib, unda I blok \rightarrow II blok \rightarrow III blok \rightarrow IV blok \rightarrow V blok ketma-ketligi raqamli boshqaruvning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Har bir blokning funksional natijalari keyingi bosqich samaradorligini oshirish orqali sinergetik ta'sirni yuzaga keltiradi.

Xususan, I blok (institutsional asos) doirasida korporativ data governance siyosati, ma'lumotlarga egalik va mas'uliyat standartlari shakllantirilib, fragmentar me'yoriy-huquqiy bazadagi nomuvofiqliklar bartaraf etiladi. II blok (tashkiliy-boshqaruv arxitekturasini) esa CDO lavozimini joriy etish va Raqamli transformatsiya qo'mitasini tashkil etish orqali IT funksiyasini strategik boshqaruv darajasiga olib chiqadi.

III blok (raqamli texnologiyalar integratsiyasi) ERP va CRM tizimlari, BI dashboardlar hamda API-arxitektura elementlarini joriy etish orqali infratuzilma omilining ustuvorligini amaliy jihatdan mustahkamlaydi. IV blok (inson kapitalini rivojlantirish) esa data literacy dasturlari va raqamli kompetensiyalar modelini joriy etish orqali inson kapitaliga oid cheklovlarni bartaraf etadi.

V blok (iqtisodiy mexanizmlar va monitoring) KPI tizimi, Balanced Scorecard'ning raqamli moduli hamda shaffof raqamli hisobot standartlarini joriy etish orqali agentlik muammosini kamaytirish, boshqaruv shaffofligini oshirish va natijadorlikni tizimli monitoring qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, taklif etilgan model raqamli boshqaruvni joriy etish jarayonida institutsional, tashkiliy va inson kapitaliga oid to'rsiqlarni kompleks bartaraf etishga xizmat qiluvchi integrallashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Besh blokli tashkiliy-iqtisodiy modelning bloklar bo'yicha tavsifi

Blok	Mazmun va maqsad	Vositalar va mexanizmlar	Kutilayotgan natija
I blok: Institutsional asos	Me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash; data ownership va mas'uliyat standartlarini belgilash (institutsional klaster to'sig'i)	Korporativ data-governance siyosati; ichki nizomlar; raqamli huquqlar va mas'uliyat matritsasi	Fragmentar me'yoriy bazaning bartaraf etilishi; interoperabellik ta'minlanishi
II blok: Tashkiliy-boshqaruv arxitekturasi	IT funksiyasini strategik boshqaruv darajasiga ko'tarish; raqamli boshqaruv komitetini tashkil etish (tashkiliy klaster to'sig'i)	CDO lavozimi; Raqamli transformatsiya qo'mitasi; RACI mas'uliyat matritsasi	IT bo'limining strategik funktsiya sifatida qayta pozitsiyalanishi
III blok: Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Boshqaruv jarayonlariga data-driven yondashuvni joriy etish ($\beta_{INF} = 0,37$ omili)	ERP/CRM integratsiyasi; BI va analitik dashboard; API-arxitektura; bulut infratuzilmasi	Qaror qabul qilish tezligi va sifatining oshishi; tranzaksion xarajatlar kamayishi
IV blok: Inson kapitali rivojlantirish	Data savodxonligi va analitika ko'nikmalarini shakllantirish ($\beta_H = 0,31$; inson kapitali klasteri)	Korporativ o'quv dasturlari; data literacy sertifikatlash; raqamli kompetensiyalar modeli (DCF)	Xodimlar raqamli savodxonligi oshishi; analitik qarorlar ulushining o'sishi
V blok: Iqtisodiy mexanizmlar va monitoring	Raqamli boshqaruv samaradorligini o'lchash; moliyaviy rag'batlantirish va hisobdorlik ($\beta_{INST} = 0,29$; agentlik nazariyasi)	KPI tizimi (2-jadval); Balanced Scorecard raqamli moduli; aksiyadorlar uchun raqamli hisobot standarti	ROE, ROA va raqamli ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsiyaning monitoringi (BRB bank va Turonbank tajribasi)

Manba: muallif tomonidan North (1990), Williamson (1985), Jensen & Meckling (1976), Teece (2007) nazariyalari va dissertatsiya empirik xulosalari asosida ishlab chiqilgan

V blok doirasida monitoring mexanizmini samarali amalga oshirish maqsadida β -koeffitsientlar ierarxiyasiga muvofiq shakllantirilgan 13 ta KPI ko'rsatkichidan iborat tizim ishlab chiqildi. Mazkur tizim to'rtta asosiy o'lcham bo'yicha strukturaviy ravishda tashkil etilgan bo'lib, ular quyidagilarni qamrab oladi: moliyaviy samaradorlik (A-guruh) - $\beta_{INST}=0,29$ bilan bog'liq; raqamli infratuzilma (B-guruh) - $\beta_{INF}=0,37$ bilan bog'liq; jarayon samaradorligi (C-guruh) - β_{INST} va β_{TECH} omillari bilan uyg'unlashgan; inson kapitali (D-guruh) - $\beta_H=0,31$ bilan bog'liq. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi raqamli boshqaruv natijadorligini kompleks baholash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning analitik asosini mustahkamlashga xizmat qiladi (2-jadval).

Tashkiliy-iqtisodiy modelning samarali ishlashi besh qatlamli ierarxik axborot oqimlari tizimini talab etadi: (1) Ma'lumotlar manbai qatlami - operatsion tizimlar va bozor ma'lumotlari; (2) Analitik qayta ishlash qatlami - BI platformasi, sun'iy intellekt modullari, risk-modellar; (3) Qaror qabul qilish qatlami - CEO/CFO/CDO darajasida operatsion qarorlar; (4) Strategik boshqaruv qatlami - nazorat kengashi strategik qarorlari; (5) Aktsiyadorlik nazorat qatlami - umumiy yig'ilish asosiy qarorlari.

Williamson (1985) nuqtai nazaridan raqamli axborot oqimlari tizimi uchta tranzaksiya xarajat turini kamaytiradi: ma'lumot qidirish xarajatlari - real vaqt dashboard orqali; muzokara va shartnomalar xarajatlari - elektron hujjat aylanmasi va smart-kontrakt mexanizmlari orqali; monitoring xarajatlari - avtomatlashtirilgan KPI monitoring orqali. BRB bank va Turonbankda ushbu xarajatlarning 18-22% dan 14-16% gacha kamayishi nazariy xulosalarni empirik tasdiqlaydi (Turonbank AJ, 2024).

2-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruv samaradorligini baholash uchun KPI ko'rsatkichlar tizimi

#	KPI ko'rsatkichi	O'lchov formulasi	Maqsad qiymati	Mas'ul tomon
A.1	Kapital rentabelligi (ROE)	Sof foyda / O'z kapitali × 100%	≥15% yoki +3 p.p./yil	CFO
A.2	Aktivlar rentabelligi (ROA)	Sof foyda / Jami aktivlar × 100%	≥2,5% yoki +0,5 p.p./yil	CFO
A.3	Raqamli xizmatlar daromadi ulushi	Raqamli kanal daromadi / Umumiy daromad × 100%	≥40% (3 yillik)	Raqamli qo'mita
B.1	Onlayn operatsiyalar ulushi	Raqamli kanal operatsiyalar / Jami operatsiyalar × 100%	≥70% (2026 y.)	CDO
B.2	Tizimlar integratsiya darajasi (API)	Integratsiya qilingan / Jami tizimlar × 100%	≥80%	IT arxitektori
B.3	Raqamli xizmatlar uptime	Muvaffaqiyatli ishlash vaqti / Rejalashtirilgan vaqt × 100%	≥99,5%	IT operatsiyalar
B.4	Kiberxavfsizlik intsidentlari	Yil davomida qayd etilgan kritik intsidentlar soni	≤2 ta/yil	CISO
C.1	Qaror qabul qilish tezligi	O'rtacha qaror davri (kun): raqamli vs manual	Manual dan ≥50% qisqa	CEO
C.2	Data-driven qarorlar ulushi	Analitik ma'lumotlarga asoslangan / Jami qarorlar × 100%	≥60% (strategik)	CDO
C.3	Raqamli hujjat aylanmasi	Elektron hujjatlar / Jami hujjatlar × 100%	≥90%	Korporativ boshqaruv
D.1	Xodimlarning data savodxonligi	Sertifikatlashdan o'tgan xodimlar ulushi (data literacy test)	≥70% xodimlar (2 yil)	HR / CDO
D.2	Raqamli treningga jalb etilish	O'quv dasturlarida ishtirok / Jami xodimlar × 100%	≥80%/yil	HR bo'limi
D.3	Raqamli kompetensiyalar indeksi (DCI)	Komposit: ko'nikmalar testi + loyiha ishtiroki + sertifikatlar	Har yili +10%	CDO / Nazorat kengashi

Manba: muallif tomonidan BRB bank va Turonbank empirik ma'lumotlari, regressiya natijalari (β-koeffitsientlar) va Jensen & Meckling (1976) agentlik nazariyasi asosida ishlab chiqilgan.

Model doirasida to'rtta asosiy subyekt mas'uliyati belgilangan: Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi (raqamli transformatsiya strategiyasini tasdiqlash); Nazorat kengashi (strategiyaning bajarilishini monitoring qilish); Ijroiya organ (operatsional raqamli boshqaruv); Raqamli transformatsiya qo'mitasi CDO rahbarligida (loyihalarni boshqarish va integratsiyani ta'minlash). Mazkur mas'uliyat taqsimoti tashkiliy klaster to'sig'iga - IT bo'limining yordamchi funktsiya sifatida pozitsiyalanishi muammosiga - bevosita yechim bo'lib xizmat qiladi (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2024).

Model Teece (2007) ning «sense-seize-reconfigure» tsikliga mos uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich (0-12 oy) - Diagnostika va institutsional tayyorgarlik: aksiyadorlik jamiyatida joriy raqamli boshqaruv holatini diagnostika qilish; CDO lavozimi va Raqamli transformatsiya qo'mitasini tashkil etish; korporativ data-governance siyosati va RACI mas'uliyat matritsasini ishlab chiqish; bazaviy KPI benchmark belgilash. I va II bloklar uchun.

Ikkinchi bosqich (12-36 oy) -Texnologik integratsiya va kompetensiyalar rivojlantirish: ERP/CRM tizimlarini modernizatsiya qilish va API-arxitekturani joriy etish; BI analitik dashboard tizimini o'rnatish; data literacy o'quv dasturlarini boshlash; KPI monitoring tizimini ishga tushirish. III va IV bloklar uchun. Uchinchi bosqich (36-60 oy) - Optimallashtirish va institutsionalashtirish: yillik KPI sharhlash va maqsadlarni yangilash; sun'iy intellekt va prognozlash modullari integratsiyasi; Balanced Scorecard raqamli modulini aksiyadorlarga hisobot tizimiga integratsiya qilish. V blok to'liq amalga oshiriladi.

BRB bank va Turonbank tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu bosqichli yondashuv moliyaviy ko'rsatkichlarga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi: raqamli integratsiya ROE ni o'rtacha +5-6 p.p ga oshiradi . Bu maqsadli qiymatlar empirik jihatdan asoslangan va haqiqiy bank ko'rsatkichlari bilan mos keladi.

5. Xulosa.

Mazkur tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni joriy etish jarayonining murakkab, ko'p omilli va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli transformatsiya samaradorligi alohida texnologik yechimlarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki institutsional muhit, tashkiliy arxitektura, raqamli infratuzilma va inson kapitali omillarining o'zaro uyg'unlashuvi orqali shakllanadi va mustahkamlanadi.

O'tkazilgan nazariy va empirik tahlillar natijasida aniqlanishicha, raqamli boshqaruv tizimining samaradorligi, avvalo, infratuzilma omilining ustuvorligi ($\beta=0,37$), inson kapitalining rivojlanganlik darajasi ($\beta=0,31$) hamda institutsional muhitning barqarorligi ($\beta=0,29$) bilan belgilanadi. Ushbu natijalar raqamli transformatsiya jarayonini boshqarishda resurslar va e'tiborni aynan ustuvor omillarga yo'naltirish zarurligini asoslaydi hamda qaror qabul qilish jarayonida ilmiy asoslangan prioritetlar tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan besh blokli tashkiliy-iqtisodiy model raqamli boshqaruvni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan tizimli to'siqlarni kompleks bartaraf etishga qaratilgan integrallashgan mexanizm sifatida taklif etildi. Modelning konseptual ustunligi shundaki, unda aniqlangan to'siqlar klasterlari va tegishli boshqaruv yechimlari o'rtasida bevosita funksional bog'liqlik o'rnatilgan bo'lib, bu "diagnostika-yechim" tamoyilining amaliy jihatdan ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. Natijada, model nafaqat nazariy konstruktsiya, balki amaliy boshqaruv vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shuningdek, β -koeffitsientlar ierarxiyasiga asoslangan holda ishlab chiqilgan 13 ta KPI ko'rsatkichidan iborat tizim raqamli boshqaruv samaradorligini baholashning kompleks va ko'p o'lchamli instrumenti sifatida xizmat qiladi. Ushbu tizim moliyaviy natijadorlik, infratuzilmaviy rivojlanish, jarayonlar samaradorligi hamda inson kapitalining rivojlanish darajasini integrallashgan tarzda baholash imkonini beradi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning analitik asosini mustahkamlaydi.

Empirik tahlil natijalari, xususan BRB bank va Turonbank faoliyatidagi ijobiy dinamik ko'rsatkichlar, taklif etilgan modelning amaliy qo'llanilishi natijasida erishilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy samaradorlikni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi. Bu esa modelning real sektor sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi va uning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari raqamli boshqaruvni joriy etishda fragmentar yondashuvdan voz kechib, kompleks va tizimli boshqaruv modeliga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, institutsional islohotlar, tashkiliy transformatsiya va inson kapitalini rivojlantirish choralari texnologik modernizatsiya bilan uyg'un holda amalga oshirilgandagina barqaror natijalarga erishish mumkinligi asoslab berildi.

Natijada, ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan besh blokli tashkiliy-iqtisodiy model aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan, tizimli va integrallashgan mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish, agentlik muammolarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar doirasida mazkur modelni bankdan tashqari sohalarda faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarida empirik sinovdan o'tkazish, uni turli iqtisodiy tizimlar sharoitida moslashtirish hamda raqamli samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yaxti:

North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990. - 152 p.

Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. Free Press, 1985. -450 p.

Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. 1976. Vol. 3(4). P. 305-360.

Teece D.J. Explicating Dynamic Capabilities: The Nature and Microfoundations of (Sustainable) Enterprise Performance // Strategic Management Journal. 2007. Vol. 28(13). P. 1319—1350.

Wirtz B.W., Weyerer J.C., Geyer C. Artificial Intelligence and the Public Sector - Applications and Challenges // International Journal of Public Administration. 2019. Vol. 42(7). P. 596-615.

Turonbank AJ – 2019-2023 yillar yillik hisobotlari va raqamli xizmatlar statistikasi. Toshkent, 2024.

BRB bank AJ – 2019-2023 yillar yillik hisobotlari va moliyaviy ko'rsatkichlar to'plami. Toshkent, 2024.

O'zbekiston Markaziy banki - Banklar va moliya institutlarining raqamli ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. 2019-2023. www.cbu.uz .

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi - Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining tahliliy hisoboti. 2019—2023. Toshkent, 2024.



МИНТАҚАВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЧЕГАРА ОЛДИ САВДО-САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Исломов Ж.Д.

*ТДИУ ҳузуридаги Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари
ва муаммолари илмий тадқиқот маркази*

Аннотация. *Мазкур мақолада саноат зоналарининг минтақалар иқтисодий ривожланишидаги ўрни ва таъсир механизмлари таҳлил қилинган. Тадқиқот доирасида саноат зоналарининг инвестицияларни жалб қилиш, бандликни ошириш, экспорт салоҳиятини кенгайтириш ҳамда технологик ривожланишга таъсири назарий ва амалий жиҳатдан ўрганилди. Шунингдек, Ўзбекистон мисолида саноат зоналари фаолиятидаги мавжуд муаммолар аниқланиб, уларнинг самарадорлигини ошириш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқилди. Тадқиқот натижалари саноат зоналарини ҳудудий ривожланишнинг стратегик инструменти сифатида такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *саноат зоналари, минтақавий ривожланиш, инвестициялар, бандлик, экспорт, инфратузилма, иқтисодий ўсиш, индустриал сиёсат, инновациялар, ҳудудий иқтисодиёт.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и механизмы влияния промышленных зон на экономическое развитие регионов. В рамках исследования теоретически и практически изучено воздействие промышленных зон на привлечение инвестиций, увеличение занятости, расширение экспортного потенциала и технологическое развитие. Также на примере Узбекистана выявлены существующие проблемы в деятельности промышленных зон и разработаны научно обоснованные предложения по повышению их эффективности. Результаты исследования указывают на необходимость совершенствования промышленных зон как стратегического инструмента регионального развития.*

Ключевые слова: *промышленные зоны, региональное развитие, инвестиции, занятость, экспорт, инфраструктура, экономический рост, промышленная политика, инновации, региональная экономика.*

Abstract. *This article analyzes the role and mechanisms of influence of industrial zones in the economic development of regions. Within the framework of the study, the impact of industrial zones on attracting investments, increasing employment, expanding export potential, and technological development was studied theoretically and practically. Also, using the example of Uzbekistan, existing problems in the activities of industrial zones were identified and scientifically based proposals were developed to increase their efficiency. The results of the study indicate the need to improve industrial zones as a strategic instrument of regional development.*

Keywords: *industrial zones, regional development, investments, employment, export, infrastructure, economic growth, industrial policy, innovations, regional economy.*

1. Кириш.

Жаҳон иқтисодиётида ҳудудий ривожланиш муаммолари ва минтақалар ўртасидаги иқтисодий тафовутларни қисқартириш масаласи долзарб йўналишлардан бири ҳисобланади. Айниқса, ривожланаётган мамлакатларда иқтисодий фаолликнинг асосий қисми пойтахт ва йирик шаҳарларда жамланган бўлиб, бу эса ҳудудлар ўртасидаги номутаносибликни кучайтирмоқда. Шу нуқтаи назардан, минтақаларни иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожлантиришда саноат зоналари муҳим инструмент сифатида намоён бўлмоқда.

Саноат зоналари – бу махсус ташкил этилган ҳудудлар бўлиб, уларда ишлаб чиқариш фаолиятини рағбатлантириш мақсадида инфратузилма, солиқ имтиёзлари ва институционал қўллаб-қувватлаш чоралари жорий этилади. Ушбу зоналар орқали инвестицияларни жалб қилиш, янги иш ўринларини яратиш, экспортни ошириш ва инновацион технологияларни жорий этиш имкониятлари кенгайди.

Ўзбекистонда ҳам сўнгги йилларда эркин иқтисодий зоналар, кичик саноат зоналари ва махсус индустриал ҳудудларни ташкил этишга катта эътибор қаратилмоқда. Бу жараён “Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида ҳудудий ривожланишни таъминлашнинг муҳим йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Шу билан бирга, амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, барча саноат зоналари ҳам кутилган натижаларни бермаяпти. Айрим ҳолларда инфратузилманинг етарли эмаслиги, бошқарув самарадорлигининг пастлиги, инвестиция муҳитининг заифлиги каби муаммолар кузатилмоқда. Шу сабабли, саноат зоналарининг минтақалар ривожланишидаги ҳақиқий ролини баҳолаш ва уларнинг самарадорлигини ошириш механизмларини ишлаб чиқиш муҳим илмий вазифа ҳисобланади.

2. Адабиётлар шарҳи.

Сўнгги ўн йилликларда саноат зоналари (industrial zones, special economic zones)нинг минтақавий иқтисодий ривожланишдаги роли иқтисодий тадқиқотларда кенг ёритилмоқда. Айниқса, глобаллашув шароитида инвестицияларни жалб қилиш, экспортни рағбатлантириш ва ҳудудий номутаносибликларни камайтиришда мазкур инструментнинг аҳамияти ортмоқда.

Фарол ва Акинчи (Farole & Akinci, 2011) томонидан тайёрланган Жаҳон банки ҳисоботида махсус иқтисодий зоналарнинг (SEZ) ривожланаётган мамлакатлардаги самарадорлиги таҳлил қилинган. Муаллифлар зоналарнинг муваффақияти, аввало, институционал сифат, инфратузилма даражаси ва давлат сиёсатининг изчиллигига боғлиқ эканлигини таъкидлайдилар. Улар шуни кўрсатадики, самарали зоналар миллий иқтисодиёт билан интеграциялашган ҳолда ишлаганда юқори натижа беради.

Зенг (Zeng, 2015) ўз тадқиқотида Хитойдаги саноат зоналари тажрибасини таҳлил қилиб, уларни “иқтисодий ўсиш драйвери” сифатида баҳолайди. Муаллифга кўра, саноат зоналари орқали хорижий инвестициялар жалб қилинган, экспорт ҳажми ошган ва янги иш ўринлари яратилган. Шу билан бирга, у зоналарнинг муваффақиятини маҳаллий ҳукуматлар фаол иштироки ва стратегик режалаштириш билан боғлайди.

Бекаттини ва бошқалар (Becattini et al., 2012) саноат кластерлари ва зоналар ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилиб, ҳудудий ихтисослашув ва кооперация

механизмларининг аҳамиятини очиб берадилар. Уларнинг фикрига кўра, саноат зоналари кластерлар ривожланиши учун институционал база вазифасини ўтайди.

Нео-институционал ёндашув доирасида, Родрик (Rodrik, 2013) саноат сиёсати ва унинг иқтисодий ривожланишдаги ролини таҳлил қилиб, махсус зоналар давлат томонидан амалга ошириладиган мақсадли индустриал сиёсатнинг муҳим элементи эканлигини таъкидлайди. Унинг фикрича, зоналар орқали давлат бозор камчиликларини бартараф этиши ва инвестиция муҳитини яхшилаши мумкин.

Агарвал (Aggarwal, 2012) Ҳиндистондаги махсус иқтисодий зоналарни ўрганиб, уларнинг экспортни рағбатлантиришдаги ролини юқори баҳолайди. Бироқ у айрим ҳолларда зоналарнинг маҳаллий иқтисодиёт билан алоқалари заифлиги туфайли “энклав иқтисодиёт” муаммоси юзага келишини қайд этади.

UNIDO (2019) ҳисоботида кўра, саноат зоналари саноатлашув жараёнини тезлаштириш ва технологик трансферни таъминлашда муҳим восита ҳисобланади. Ҳисоботда таъкидланишича, замонавий зоналар фақат ишлаб чиқариш билан чекланиб қолмасдан, инновацион экотизимларни ҳам шакллантириши лозим.

Жаҳон банки (World Bank, 2020) тадқиқотларида эса саноат зоналарининг самарадорлиги “plug-and-play” инфратузилма, логистика қулайлиги ва рақобатбардош бошқарув моделларига боғлиқ эканлиги кўрсатилган. Айниқса, рақамлаштириш ва хизматлар интеграцияси зоналарнинг янги босқич ривожланишини белгиламоқда.

Марказий Осиё давлатлари мисолида, Помфрет (Pomfret, 2019) ҳудудий иқтисодий ислохотларни таҳлил қилиб, саноат зоналари трансформация жараёнида муҳим рол ўйнаётганини қайд этади. Бироқ институционал чекловлар ва бозор инфратузилмасининг етарли эмаслиги уларнинг самарадорлигини чеклаётганини таъкидлайди.

Юқоридаги адабиётлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, саноат зоналари минтақавий ривожланишнинг самарали инструменти ҳисобланади. Бироқ уларнинг натижадорлиги қуйидаги омилларга кучли боғлиқ:

- институционал муҳит сифатлари;
- инфратузилма ривожланиш даражаси;
- давлат сиёсатининг изчиллиги;
- маҳаллий иқтисодиёт билан интеграция;
- бошқарув самарадорлиги.

Шу билан бирга, мавжуд тадқиқотларда саноат зоналарининг Ўзбекистон шароитидаги комплекс самарадорлигини баҳолаш ва уларнинг минтақавий ривожланишга таъсирини чуқур таҳлил қилиш етарли даражада ўрганилмаган. Бу эса мазкур тадқиқотнинг долзарблигини белгилайди.

3. Таҳлил ва натижалар.

Минтақалар иқтисодий ривожланишида саноат зоналарининг ўрнини таҳлил қилишда тизимли ёндашувни қўллаш муҳим аҳамиятга эга. Чунки саноат зоналари фақатгина ишлаб чиқариш ҳудуди эмас, балки улар инвестицион муҳит, институционал тизим, инфратузилма ва меҳнат бозори билан узвий боғлиқ бўлган кўп қиррали иқтисодий механизм сифатида намоён бўлади.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, саноат зоналарининг минтақавий ривожланишга таъсири тўғридан-тўғри эмас, балки билвосита каналлар орқали амалга ошади. Биринчи навбатда, саноат зоналари инвестицияларни жалб қилиш орқали иқтисодий фаолликни оширади. Бу жараёнда “агломерация эффекти” муҳим роль ўйнайди, яъни

корхоналарнинг бир ҳудудда жойлашуви харажатларни камайтиради ва ишлаб чиқариш самарадорлигини оширади. Шу билан бирга, саноат зоналарида инфратузилманинг тайёр ҳолда тақдим этилиши инвестицион таваккалчиликни пасайтиради.

Иккинчи муҳим канал – меҳнат бозори орқали таъсир. Саноат зоналари янги иш ўринларини яратиш, аҳоли даромадларини оширади. Бу эса ички талабнинг ўсишига олиб келади ва мультипликатив эффектни юзага келтиради. Масалан, бир иш ўрни яратилиши хизмат кўрсатиш соҳасида қўшимча иш ўринларини шакллантириши мумкин.

Учинчи канал – технологик трансфер ва инновациялар. Хорижий инвестициялар иштирокида ташкил этилган корхоналар орқали замонавий технологиялар ва бошқарув тажрибалари кириб келади. Бу эса маҳаллий корхоналар учун “ўрганиш эффекти”ни таъминлайди.

Шу нуқтаи назардан, саноат зоналарининг минтақавий ривожланишга таъсир механизмини қуйидаги назарий модел орқали ифодалаш мумкин:

1-жадвал.

Саноат зоналарининг минтақавий ривожланишга таъсир механизми¹⁷

Таъсир канали	Асосий механизм	Иқтисодий натижа	Узоқ муддатли таъсир
Инвестиция	Хорижий ва маҳаллий капитални жалб қилиш	Ишлаб чиқариш ҳажми ошади	Иқтисодий ўсиш барқарорлиги
Бандлик	Янги иш ўринлари яратиш	Аҳоли даромадлари ошади	Камбағаллик қисқаради
Экспорт	Экспортга йўналтирилган ишлаб чиқариш	Валюта тушумлари кўпаяди	Ташқи савдо баланси яхшиланади
Технология	Илғор технологиялар трансфери	Самарадорлик ошади	Инновацион иқтисодиёт шаклланади
Инфратузилма	Тайёр коммуникациялар ва логистика	Харажатлар камаяди	Инвестицион жозибadorлик ошади

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, саноат зоналари иқтисодий ривожланишнинг бир вақтнинг ўзида бир нечта муҳим драйверларига таъсир кўрсатади. Бироқ ушбу таъсирнинг кучли ёки заиф бўлиши зоналар фаолиятининг ташкил этилиши ва бошқарув самарадорлигига боғлиқ.

Ўзбекистон мисолида таҳлил қилинганда, сўнгги йилларда ташкил этилган эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари муайян ижобий натижаларни бермоқда. Хусусан, инвестициялар ҳажмининг ошиши, янги иш ўринларининг яратилиши ва экспорт ҳажмининг кўпайиши кузатилмоқда. Бироқ зоналарнинг ҳудудлар бўйича самарадорлиги бир хил эмас.

Айрим ҳудудларда саноат зоналари юқори фаолликка эга бўлса, бошқаларида улар тўлиқ қувват билан ишламаяпти. Бу эса қуйидаги институционал ва иқтисодий омиллар билан изоҳланади:

¹⁷ Муаллифнинг ўрганишлари асосида шакллантирилган

- инфратузилманинг нотўлиқлиги;
- логистика тармоқларининг етарли ривожланмаганлиги;
- маҳаллий бозор билан интеграциянинг пастлиги;
- инвестицион муҳитдаги маъмурий тўсиқлар.

Шу нуқтаи назардан, саноат зоналарининг самарадорлигини комплекс баҳолаш муҳим ҳисобланади. Бунинг учун қуйидаги кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ:

- ҳар бир зонага тўғри келадиган инвестициялар ҳажми;
- яратилган иш ўринлари сони;
- экспорт улуши;
- солиқ тушумлари;
- ишлаб чиқариш қувватидан фойдаланиш даражаси.

Ушбу ёндашув асосида саноат зоналарининг самарадорлигини баҳолаш учун қуйидаги таҳлилий моделни таклиф этиш мумкин:

2-жадвал.

Саноат зоналарининг самарадорлигини баҳолаш индикаторлари¹⁸

Кўрсаткич гуруҳи	Индикатор	Ўлчов бирлиги	Баҳолаш мазмуни
Инвестицион	Жалб қилинган инвестициялар	млн доллар	Зонанинг жозибадорлиги
Ижтимоий	Яратилган иш ўринлари	киши	Бандликка таъсири
Савдо	Экспорт ҳажми	млн доллар	Ташқи бозорга чиқиш
Фискал	Солиқ тушумлари	млрд сўм	Давлат бюджетига ҳисса
Самарадорлик	Қувватдан фойдаланиш	%	Ишлаб чиқариш самарадорлиги
Инновацион	Янги технологиялар улуши	%	Технологик ривожланиш

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, агар саноат зоналари юқоридаги барча кўрсаткичлар бўйича мувозанатли ривожланса, улар минтақавий иқтисодиётда “ўсиш нуқталари”га айланади. Акс ҳолда, улар фақат ресурслар сарфланадиган, лекин кутилган натижани бермайдиган объектларга айланиб қолиши мумкин.

Шунингдек, замонавий шароитда саноат зоналарининг рақобатбардошлиги фақат солиқ имтиёзлари билан эмас, балки рақамли инфратузилма, логистика тизими ва бошқарув самарадорлиги билан белгиланмоқда. Масалан, “smart industrial zones” концепцияси асосида рақамлаштириш жараёнлари зоналар фаолиятини янги босқичга олиб чиқмоқда.

Якуний таҳлил шуни кўрсатадики, саноат зоналари минтақалар иқтисодий ривожланишида муҳим инструмент бўлса-да, уларнинг ҳақиқий самарадорлиги комплекс ёндашув, институционал ислохотлар ва стратегик режалаштиришга боғлиқ. Шу сабабли, келгусида саноат зоналарини ривожлантиришда “худудий ихтисослашув + инновация + интеграция” тамойили асосий йўналиш сифатида қаралиши лозим.

¹⁸ Муаллифнинг ўрганишлари асосида шакллантирилган

4. Хулоса.

Ўзбекистон шароитида олиб борилган таҳлиллар саноат зоналарининг ижобий натижаларини кўрсатиш билан бирга, улар фаолиятида мавжуд қатор тизимли муаммоларни ҳам очиб берди. Хусусан, айрим ҳудудларда инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаганлиги, логистика занжирларининг заифлиги, инвестиция муҳитидаги маъмурий тўсиқлар ва кадрлар салоҳиятининг чекланганлиги зоналар самарадорлигини пасайтирувчи асосий омиллар сифатида намоён бўлмоқда. Бу эса саноат зоналарини ривожлантиришда янги ёндашувларни талаб этади.

Шу нуқтаи назардан, тадқиқот доирасида саноат зоналарининг самарадорлигини оширишга қаратилган қуйидаги илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди.

Биринчидан, саноат зоналарини жойлаштиришда ҳудудий ихтисослашув тамойилини жорий этиш зарур. Яъни ҳар бир минтақа ўз ресурслари, иқтисодий салоҳияти ва меҳнат бозори хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда муайян саноат йўналишларига ихтисослаштирилиши лозим. Бу ёндашув зоналар фаолиятининг самарадорлигини ошириш билан бирга, кластерлашув жараёнларини ҳам рағбатлантиради.

Иккинчидан, саноат зоналари учун инфратузилмани “олдиндан тайёрланган” (plug-and-play) форматда ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Бу инвесторлар учун кириш харажатларини камайтиради ва инвестиция қарорларини тезлаштиради. Айниқса, транспорт-логистика тармоқлари, энергия таъминоти ва рақамли инфратузилмани ривожлантириш устувор аҳамиятга эга.

Учинчидан, саноат зоналарини бошқаришда замонавий корпоратив бошқарув механизмларини жорий этиш лозим. Хусусан, давлат-хусусий шериклик (PPP) асосида бошқарув моделларини кенгайтириш зоналар самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Бу орқали бошқарувда шаффофлик ва натижадорлик таъминланади.

Тўртинчидан, саноат зоналарини маҳаллий иқтисодиёт билан интеграциялашувини кучайтириш муҳим ҳисобланади. Яъни зоналарда фаолият юритаётган корхоналар билан маҳаллий кичик ва ўрта бизнес субъектлари ўртасида кооперация алоқаларини ривожлантириш зарур. Бу эса “энклав иқтисодиёт” ҳолатининг олдини олишга хизмат қилади.

Бешинчидан, инсон капитали ва кадрлар тайёрлаш тизимини ривожлантириш саноат зоналарининг барқарор фаолияти учун муҳим омил ҳисобланади. Шу мақсадда зоналар ҳудудида ихтисослашган ўқув марказлари ва дуал таълим тизимини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Олтинчидан, саноат зоналарининг самарадорлигини баҳолаш учун ягона мониторинг тизимини ишлаб чиқиш зарур. Бу тизим юқорида таклиф этилган индикаторлар асосида зоналар фаолиятини мунтазам баҳолаб бориш имконини беради ва қарор қабул қилиш жараёнини илмий асослашга хизмат қилади.

Умуман олганда, саноат зоналари минтақалар иқтисодий ривожланишининг стратегик инструменти сифатида қаралиши лозим. Уларни самарали ташкил этиш ва бошқариш орқали ҳудудлар ўртасидаги иқтисодий номутаносибликларни қисқартириш, инвестиция муҳитини яхшилаш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш мумкин.

Шу билан бирга, келгусида ушбу йўналишда қўшимча илмий тадқиқотлар олиб бориш зарур. Хусусан, саноат зоналарининг рақамлаштириш даражаси, “яшил иқтисодиёт” тамойиллари асосида ривожланиши ва уларнинг глобал қиймат занжирларига интеграциялашуви каби масалалар алоҳида тадқиқот объекти сифатида ўрганилиши мақсадга мувофиқ.

Адабиётлар:

Aggarwal, A. (2012). "Social and Economic Impact of SEZs in India". *Oxford Development Studies*, 40(3), pp. 357–377.

Becattini, G., Bellandi, M. & De Propris, L. (2012). *A Handbook of Industrial Districts*. Edward Elgar Publishing.

Farole, T. & Akinci, G. (2011). *Special Economic Zones: Progress, Emerging Challenges, and Future Directions*. Washington DC: World Bank.

Pomfret, R. (2019). *The Central Asian Economies in the Twenty-First Century*. Princeton University Press.

Rodrik, D. (2013). "Industrial Policy for the Twenty-First Century". *Harvard Kennedy School Working Paper*.

UNIDO (2019). *Industrial Parks and Special Economic Zones in Africa*. Vienna: UNIDO.

World Bank (2020). *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. Washington DC.

Zeng, D.Z. (2015). *Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa*. World Bank Policy Research Working Paper.



ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПУБЛИЧНЫХ ФИНАНСОВ

Кадирова Л.Ю.

Министерство экономики и финансов Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются глобальные тенденции внедрения технологий искусственного интеллекта в системе государственного финансового контроля и оценивается их влияние на экономическую эффективность публичных финансов. На основе анализа международной практики (страны ОЭСР, ЕС и Азии), нормативно-правовых реформ в сфере цифрового государственного управления, а также отчетов международных организаций (Всемирный банк, МВФ, ОЭСР) показано, что искусственный интеллект становится ключевым инструментом предиктивного аудита, риск-ориентированного контроля и автоматизированного мониторинга бюджетных потоков. Обосновано, что применение алгоритмов машинного обучения, анализа больших данных и интеллектуальных систем выявления аномалий способствует снижению транзакционных издержек, повышению прозрачности бюджетного процесса и усилению финансовой дисциплины. Одновременно анализируются институциональные риски цифровизации, включая вопросы информационной безопасности, регуляторного надзора и адаптации кадрового потенциала.

Ключевые слова: искусственный интеллект, государственный финансовый контроль, публичные финансы, цифровая трансформация, предиктивный аудит, анализ больших данных, финансовая прозрачность, риск-ориентированное регулирование, экономическая эффективность, цифровое государство.

Abstract. This article examines global trends in the implementation of artificial intelligence technologies in the system of public financial control and assesses their impact on the economic efficiency of public finances. Based on an analysis of international practices (OECD, EU, and Asian countries), digital governance reforms, and reports of international organizations (World Bank, IMF, OECD), the study demonstrates that artificial intelligence is becoming a key instrument for predictive auditing, risk-based control, and automated monitoring of budgetary flows. The findings show that the application of machine learning algorithms, big data analytics, and anomaly detection systems contributes to the reduction of transaction costs, increased transparency of the budget process, and strengthened financial discipline. At the same time, the paper addresses institutional challenges associated with rapid digitalization, including data security risks, regulatory oversight, and workforce adaptation. The study proposes priority directions for further development: the formation of an intelligent financial control architecture, the introduction of risk-based regulation, ensuring interoperability of public information systems,

and the development of methodologies for assessing the economic efficiency of AI in the public sector.

Keywords: *artificial intelligence, public financial control, public finance, digital transformation, predictive audit, big data analytics, financial transparency, risk-based regulation, economic efficiency, digital government.*

1. Введение.

В условиях глобальной цифровой трансформации системы государственного управления особое значение приобретает внедрение технологий искусственного интеллекта в сферу государственного финансового контроля. Рост объемов бюджетных операций, усложнение финансовых потоков и необходимость повышения прозрачности публичных финансов требуют перехода от традиционных методов контроля к интеллектуальным инструментам анализа данных и предиктивного мониторинга. Во многих странах искусственный интеллект уже используется для автоматизированного выявления финансовых рисков, оценки эффективности государственных расходов и предупреждения бюджетных нарушений. Современные мировые тенденции показывают, что цифровизация финансового надзора способствует укреплению финансовой дисциплины, снижению транзакционных издержек и повышению результативности управления публичными ресурсами. В этих условиях исследование влияния искусственного интеллекта на экономическую эффективность публичных финансов становится актуальным направлением научного анализа.

2. Методология исследования.

Методологической основой исследования является комплексный подход, сочетающий нормативно-правовой анализ международных стратегий цифрового государственного управления, сравнительное изучение практики внедрения искусственного интеллекта в системе публичного финансового контроля развитых стран, а также экономический анализ влияния интеллектуальных технологий на снижение бюджетных рисков и повышение эффективности использования государственных средств. В работе применяются системный и институциональный подходы, позволяющие рассматривать искусственный интеллект как фактор трансформации механизмов государственного финансового контроля и повышения экономической результативности публичного сектора.

Исследование глобальных тенденций внедрения искусственного интеллекта в системе государственного финансового контроля требует комплексного и системного подхода, объединяющего инструменты экономического анализа, теорию публичных финансов и современные концепции цифрового управления. В работе искусственный интеллект рассматривается не только как технологическое решение, но и как фактор институциональной трансформации механизмов контроля и повышения экономической эффективности публичных финансов. Методологической основой послужили современные научные концепции цифрового государственного управления, риск-ориентированного контроля и результативного бюджетирования, а также рекомендации международных организаций (ОЭСД, Всемирный банк, МВФ) в сфере цифровизации публичного сектора. Центральным методологическим принципом исследования выбран риск-ориентированный и предиктивный подход, поскольку внедрение ИИ направлено прежде всего на выявление и предотвращение финансовых

нарушений, а не только на их фиксацию. В работе использованы системный, сравнительный, аналитический и экономико-статистический методы. В рамках системного подхода государственный финансовый контроль рассмотрен как элемент единой архитектуры публичного управления, взаимосвязанный с бюджетной политикой, управлением государственными расходами и финансовой отчетностью. Сравнительный анализ позволил изучить практику внедрения ИИ в странах ОЭСР, ЕС и Азии и определить модели, применимые к национальным условиям. Экономический анализ направлен на оценку влияния интеллектуальных технологий на снижение транзакционных издержек, повышение прозрачности бюджетных процессов и рост эффективности использования государственных средств. Дополнительно применены элементы контент-анализа стратегических документов и нормативных актов, регулирующих цифровую трансформацию государственного управления. Представленная методологическая база позволяет рассматривать искусственный интеллект как стратегический инструмент модернизации государственного финансового контроля и формирования устойчивой системы управления публичными финансами в условиях глобальной цифровизации.

3. Обзор литературы.

Проблематика внедрения искусственного интеллекта в систему государственного финансового контроля активно развивается в современной научной литературе в контексте цифровизации публичного управления. Международные исследования подчеркивают, что технологии машинного обучения и анализа больших данных позволяют повысить качество аудита, обеспечить непрерывный мониторинг бюджетных операций и снизить риски финансовых нарушений (OECD, 2023). В работах Azwar и Usman (2024) искусственный интеллект рассматривается как инструмент укрепления публичной финансовой дисциплины и повышения эффективности государственного управления. Исследования в области аудита подтверждают, что применение ИИ способствует росту точности выявления аномалий, сокращению издержек контроля и повышению прозрачности финансовой отчетности (Fedyk et al., 2022). В то же время в научных публикациях отмечается необходимость обеспечения объяснимости алгоритмов, качества данных и риск-ориентированного регулирования при использовании интеллектуальных систем.

В Республике Узбекистан вопросы модернизации государственного финансового контроля закреплены в Законе «О государственном аудите» № ЗРУ-669 и стратегических документах цифрового развития. В отечественных исследованиях (Морунова, 2023; Выжитович, 2024) подчеркивается, что цифровые технологии, включая элементы искусственного интеллекта, способны повысить результативность контрольных процедур, сократить бюджетные потери и усилить подотчетность государственных органов. Анализ литературы показывает, что внедрение искусственного интеллекта рассматривается как стратегическое направление трансформации государственного финансового контроля. Вместе с тем остается недостаточно разработанной методика комплексной оценки его экономической эффективности в системе публичных финансов, что обуславливает актуальность настоящего исследования.

